



ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

SCIENTIFIC REPORTS

2016-yil 6-son (100)

GUMANITAR FANLAR SERIYASI

**Tarix. Falsafa. Sotsiologiya. Filologiya. Pedagogika.
Psixologiya. Iqtisodiyot.**

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro'yxatdan o'tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro'yxatiga kiritilgan. Tarix, falsafa, sotsiologiya, filologiya, pedagogika va psixologiya yo'nalishlarida chop qilingan maqolalar doktorlik dissertatsiyalari himoyasida hisobga olinadi.

**BOSH MUHARRIR
BOSH MUHARRIR
O'RINBOSARLARI:**

**R.I. XALMURADOV, t.f.d., professor
A.J. XOLIQOV, k.f.d., dotsent
A.M. NASIMOV, t.f.d., professor**

TAHRIRIYAT KENGASHI:

M. X. ASHUROV - O'zFA akademigi
M. M. KAMILOV - O'zFA akademigi
B. J. AXMEDOV - f.-m. f. d., professor
A. S. BEGMATOV - fals.f. d., professor
T. M. MO'MINOV - O'zFA akademigi
X. T. MAMATOV - yu.f.d., professor
U.S. SALIXBAYEV - f.-m.f.d., professor
E. G' G'OZIYEV - psixol.f.d., professor
B. O. TO'RAYEV - fals.f.d., professor
F.I. TOSHEV - «Zarafshon» gazetasi muharriri
T. SH. SHIRINOV - tar.f.d., professor
M. Q. QURONOV - ped.f.d. professor

**GUMANITAR FANLAR SERIYASI
TAHRIRIYAT HAY'ATI:**

M.D.DJURAKULOV - tar.f.d., professor
I. M. SAIDOV - tar.f.d., professor
O. M. G'AYBULLAYEV - fals.f.d., dotsent
N. Sh. SHODIYEV - ped.f.d., professor
M. Q. MUHIDDINOV - fil.f.d., professor
H. I. UMUROV - fil.f.d., professor
D. I. SALOHIY - fil.f.d., professor
S. A. KARIMOV - fil.f.d., professor
M. Q. PARDAYEV - i.f.d., professor
M. M. MUXAMMEDOV - i.f.d., professor
B. X. TO'RAYEV - i.f.d., professor
Sh. R. BARATOV - psixol.f.d., professor
B. Q. QODIROV - psixol.f.d., professor
Z. Yu. MUQIMOV - yu.f.d., professor
J. Ya. YAXSHILIKOV - fals.f.d., professor

Koordinator

A. Sh. YARMUXAMEDOV – f. - m.f.n.

Muharrirlar:

B. S. G'OYIBOV – t.f.n., dotsent
R. TOSHQUVATOVA – fals.f.n., dotsent
N. U. ARABOV – i.f.n., dotsent

Obuna indeksi – yakka tartibdagi obunachilar uchun - 5583
tashkilot, korxonalar uchun - 5584

MUNDARIJA/CONTENTS/СОДЕРЖАНИЕ

TARIX/HISTORY		
Irisqulov O.J.	Mustamlaka davrida Samarqand viloyati ma'muriy boshqaruvining xususiyatlari	4
Муллаев А.Ш.	Роль «Великого Шелкового Пути» в международных связях государств Центральной Азии	7
Sidikova M.X.	Istiqlol yillarida Samarqand shaharsozligi xususida	11
Аметов Т. А.	Развитие Каракалпакстана за годы независимости и суверенитета	16
Nazirov M.	“Siyosiy jarayon” kategoriyasiga oid konseptual qarashlar va talqinlar	21
Рашидова Ф.Ш.	Узбекистан-Южная Корея: перспективы развития двусторонних отношений в историческом контексте	24
Махмудова Н.Б.	Социально-экономическая картина Царского Туркестана в начале XX в. (по материалам ревизии сенатора К.К.Палена)	27
Умаров А.А.	Интересы Саудовской Аравии, Катар и Объединенных Арабских Эмиратов в Афганистане после 2001 года	31
Сайфуллаев Д.Б.	Геополитическое положение Центральной Азии и превентивная дипломатия Узбекистана	39
FALSAFA/PHILOSOPHY		
Normamatova M.N.	Virtuallikni yangicha tushunish: falsafiy asos	44
Tursunqulova Sh.	Badiiy-estetik ijodda o'z-o'zini tashkillashtiruvchi omillar xususida	49
Quldoshev A.T.	Xalqaro ekologik siyosat va unda O'zbekistonning tutgan o'rni	52
Bo'ronov M.M.	Milliy mafkura ozod va obod vatan, erkin va farovon hayotning mayog'idir	57
Yuldashev R.D.	Globalashuv sharoitida oliy ta'limning rivojlanish tendensiyalari	61
Axmedov X.A.	Taraqqiyotning “O'zbek modeli”, ma'naviyat va sinergetika	65
Shermanov I.Ch.	Global axborotlashgan makonda moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishni uyg'unlashtirish - taraqqiyot garovi	68
SOTSIOLOGIYA/SOCIOLOGY		
Ганиева М.Х. Латипова Н.М.	Модель социальной адаптации воспитанников интернатных учреждений к новым условиям жизнедеятельности	73
FILOLOGIYA/PHILOLOGY		
Малиновский Е.А., Нормухамедова М.	Из истории изучения взаимодействия русского и тюркских языков	79
Бабаходжаев А.Б. Тилляева М.Ю.	Специфика и национальные особенности перевода эквивалентных фразеологизмов в русском и узбекском языках	82
Ким С.Ф.	О дифференциации дополнения и несогласованного определения	85
Сиддикова И.И. Абдуллаева А.С.	Роман Ф.М.Достоевского «Игрок» в контексте пушкинской традиции	89
Sulaymonov I.I.	“Boburnoma”da Shayboniyxonning g'olibligi va ma'naviy tanazzuli tasviri	93
Alimov F.Sh.	Nofilologik fakultet talabalarining yozma nutq kompetensiyasini shakllantirish	98
Boltakulova G.F.	Ingliz va o'zbek tillarida temporal posterior sintaksemalarning xususiyatlari	102
Sulaymanova N. J.	Ingliz va o'zbek tillarida lokativ adessiv semaning variantlari	105
Салиева З.И.	Особенности критерия оценивания навыку говорения на английском языке	109
Normo'minov Sh.T.	Til tizimi va so'z turkumlari paradigmasida yadro-periferiya munosabatlari haqida	112
Эгамова М.Х.	Особенности нарративной структуры рассказа М.Доста «Цена одного жеребенка»	116

Акбаров А.	Анализ взаимосвязи когнитивного процесса и логики с языком	120
Raximova G.A.	Ertaklar tarjimasida milliylik va milliy kolorit muammosi	126
Shirnova R.X.	Kognitiv dissonans fenomeni va uning tarjimada tutgan oʻrni	131
PEDAGOGIKA/PEDAGOGICS		
Yoziyeva U.L.	Axborot tahdidini bartaraf etish tamoyillari va darajalari	135
Xalmatova N. B.	Ayol va oʻsmir qizlar sport mashgʻulotini tashkil etish uslubiyati	137
Toshpulatova M.I.	Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining matematik-metodik tayyorgarligini takomillashtirish	141
Mamatqulov X.A.	Pedagoglar amaliyotida chet tilini bilish uning kasbiy kompetentligini oshirish nuqtayi nazar	145
Axmedov F.Sh.	Yosh dzyudochilar musobaqaoldi tayyorgarligida mashgʻulot mikrosikllari	148
Murtazayev E.M.	Kasb-hunar kollejlari maxsus fanlarni oʻqitish mohiyati va xususiyatlari	151
Azizova G.	Oliy taʼlim oʻqituvchilarining innovatsion pedagogik faoliyatini ingliz tili oʻqituvchilari misolida tashkil qilishning mazmuni va mohiyati	156
Narziyeva N.N.	Oʻquvchilarda tadqiqotchilik koʻnikmalarini shakllantirish masalalari	160
Boltayev Z.B.	BOʻSM faoliyati sifatini oshirishda yosh sportchilarning motivlarini shakllantirishga yoʻnaltirilgan oʻquv-mashgʻulot ishlarining ahamiyati	164
Yunusov M.	Axborot globallasuvi davrida yosh avlod media taʼlimi muammolari	167
Jiyanqulova R.X.	Kasb-hunar kolejlari pedagog mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning psixologik jihatlari	169
Хашимов А.А. Хаджаев А.А.	Некоторые аспекты проектирования учебного процесса в информационно-образовательной среде в системе непрерывного повышения квалификации педагогов	174
PSIXOLOGIYA/PSYCHOLOGY		
Samarov R.S.	Inson kamolotini taʼminlashda madaniy omil: strukturaviy-funksional jihat	179
IQTISODIYOT/ECONOMICS		
Tashnazarov S.N.	Daromadlar va harajatlarga doir hisobotlarni xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish	184
Roʻzibayev O.	Alisher Navoiyning iqtisodiy-ijtimoiy faoliyati	188
HUQUQSHUNOSLIK/LAW		
Kuvandikov Z.O.	Oʻzbekiston Respublikasining saylov tizimi: milliy va xalqaro tajriba	190
OʻQITISH METODIKASI/TEACHING METHODOLOGY		
Omonova F.	Akademik litseyning 3-kursida Pirmqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” asarini oʻrganish	193
UNIVERSITET HAYOTIDAN/UNIVERSITY LIFE		196
MUALLIFLARGA/FOR AUTHORS		199

UDK: 9(575.1)

**MUSTAMLAKA DAVRIDA SAMARQAND VILOYATI MA'MURIY
BOSHQARUVINING AYRIM XUSUSIYATLARI****O.J.Irisqulov***Samarqand davlat universiteti, o'qituvchi*E-mail: iriskulov.olimjon@mail.ru

Ushbu maqolada mustamlaka davrida Samarqand viloyati uyezd va volostlarining boshqaruv tizimi yoritilgan. Shuningdek, Rossiya imperiyasi boshqaruv to'g'risidagi nizom va uning Samarqand viloyati boshqaruvidagi o'zgarishlari bayon qilingan, alohida ma'muriy birliklarning ahamiyati kabi masalalar ochib berilgan.

Kalit so'zlar: uyezd, okrug, Samarqand viloyati, volost, uchastka, politsiya, metropoliya, polesmeyster, urbanizatsiya, uchastka noziri.

***Особенности административного управления Самаркандской области
в колониальный период***

В статье освещена система управления уездов и волостей Самаркандской области в колониальный период. Особое внимание обращается на уставы об управлении Самаркандской областью администрацией Российской империи и их изменения, произошедшие впоследствии. Подчеркивается значимость административных единиц.

Ключевые слова: уезд, округ, Самаркандская область, волость, участок, полиция, метрополия, полицмейстер, урбанизация, пристав.

***The features of the administrative management of the Samarkand region during
the colonial period***

In this article control system of counties and townships of Samarkand region during the colonial era is highlighted. The statutes of the Management Administration of the Russian Empire, the changes in the management of the Samarkand region is investigated. Activities of the traditional importance of administrative units is described.

Keywords: uezd (county), okrug (district), Samarkand area, town, uchastka (area), the police, metropoly, polesmeyster, urbanization, bailiff areas.

Samarqand viloyatida boshqaruv tizimi imperiya ma'muriy boshqaruvi o'rnatilgandan so'ng jiddiy o'zgarishlarga duch keldi. Eski boshqaruv tizimining eng quyi institutlari saqlanib, o'rta va yuqori bosqichlardagi boshqaruv mexanizmlari imperiya andozasida vujudga keltirildi.

Samarqand viloyati uyezd va volostlari boshqaruvi haqida so'z yuritganda bu jarayonni ikki bosqich: Zarafshon okrugi va Samarqand viloyati mavjud bo'lgan davrlarga ajratib tasniflash to'g'ri bo'ladi. Chunki, 1868-1886-yillar davomida mavjud bo'lgan Zarafshon okrugi "Zarafshon okrugini vaqtinchalik boshqarish to'g'risidagi Nizom"ga binoan, 1886-1917-yillarda mavjud bo'lgan Samarqand viloyati esa "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi Nizom"ga asosan boshqarilgan. Bu ma'muriy birliklar tarkibidagi uyezd va volostlar boshqaruvida ham hududiy, ham boshqaruv instansiyalar vakolat va vazifalari nuqtayi-nazaridan bir-biridan farq qiluvchi jihatlari mavjud bo'lgan.

Turkiston general gubernatorining 1868-yil 29-iyundagi bo'yrug'iga asosan Zarafshon okrugi tashkil topdi, uning tarkibiga Samarqand va Kattaqo'rg'on bekliklari kiritildi. Okrug boshlig'i "Zarafshon okrugini vaqtinchalik boshqarish to'g'risidagi Nizom"ga binoan tayinlangan. 1870-1871-yillarda esa okrug tarkibiga Zarafshon daryosining yuqori qismidagi kichik bekliklar qo'shib olindi. Okrug Samarqand va Kattaqo'rg'on bo'limlariga bo'lingan [1].

Zarafshon okrugi tuzilgan paytda uning ma'muriy tuzilishi quyidagicha edi:

- Samarqand bo'limi jami 134 ta daha va 653 ta qishloqdan iborat bo'lgan. Shundan Samarqand shahrida 80 ta mavze joylashgan edi;

- Kattaqo'rg'on bo'limida jami 22 ta uchastka, 286 ta qishloq bo'lgan;

- Tog'li tumanlar esa, jami 12 ta uchastka va 223 ta qishloqdan iborat bo'lgan [2].

Boshqaruvda general gubernator Fon Kaufmanning "Zarafshon okrugini boshqarish to'g'risidagi muvaqqat Nizom"i kuchga kirdi. Nizomda podsho hukumati muassasalarini tuzish bilan

birga oqsoqol va aminlar boshqaruvini qisman saqlab qolish ko'zda tutilgan edi. Boshqaruv idoralari, mirshablar, soliq yig'ish, qozilik okrug boshlig'i ixtiyoriga berildi. 1868-yilda esa okrug harbiy gubernatori huzurida xo'jalik, hisob-kitob va farmoyish berish bo'limlaridan iborat devon tuzildi. Maxsus komissiya okrug chegaralarini belgiladi. 1868-yil 20-iyulda esa, Samarqand va Kattaqo'rg'on bo'limlarining chegarasi ham belgilab olindi [3]. Nizomda qayd qilinganidek, boshqaruv idoralarining barchasi ma'lum bir boshqaruv organiga bo'ysunardi.

Sobiq tumanlar va amloliklar tugatilib, ularning o'rnida 1868-yilning oxirlarida volostlar tashkil etildi [1].

Aminlik va qishloq oqsoqoli boshqaruvi saqlab qolindi, faqat avvallari aminlik yoki daha deb ataluvchi ma'muriy bo'linmalar "qishloq jamoalari" deb yuritiladigan bo'ldi. Volostlarni boshqaruvchilar, qishloq jamoalarini jamoa oqsoqollari, qishloqlarni esa qishloq oqsoqollari boshqarib, ular uch yilga saylanardi.

Har ellik xonadon hisobidan bir vakil saylanib, ular volost yig'ilishida volost boshqaruvchisini saylashardi. Saylovlar bo'lim yoki uyezd boshlig'i, mirshablar uchastka pristavlari nazoratidan o'tardi. "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi Nizom" ga asosan 1886-yil 12-iyunda Zarafshon okrugi Samarqand viloyatiga aylantirildi. 1887-yil yanvarda Samarqand shahri viloyat markazi deb belgilandi. Okrug boshlig'i lavozimi tugatildi. Viloyat Samarqand, Kattaqo'rg'on, Xo'jand va Jizzax uyezdlaridan tashkil topdi. Uyezdlar ham Turkiston general-gubernatorligi tomonidan boshqarilardi. Uyezd boshliqlari esa o'lka general-gubernatorligi tomonidan qat'iy nazorat qilinardi. Bu esa mustahkamlanayotgan imperiyadan darak berardi.

Uyezd boshliqlarini viloyat harbiy gubernatorlari tavsiyasi bilan o'lka general gubernatori tayinlar va vazifasidan ozod qilar edi. Uyezdlarda ma'muriy-politsiya nazorati uyezd boshlig'i boshchiligidagi amalga oshirilardi. Mazkur mansabdorga uyezd bo'yicha barcha huquq va majburiyatlar birlashtirilgan. O'z o'rnida uning yordamchisi va devonxonasi ham bo'lgan. Bir nechta volostlar uchastkalarga birlashtirilib, Uchastka noziri mazkur uchastkada boshqaruvni amalga oshirgan. Bunga o'xshash uchastkalardan Samarqand uyezdida to'rtta (Shahar atrofi, Panjikent, Urgut va Chelak) joriy etilgan. Kattaqo'rg'on uyezdida ikkita (Payshanba va Miton), Jizzax uyezdida to'rtta (Shahar atrofi, Yangiqo'rg'on, Zomin va Bag'don), Xo'jand uyezdida uchta (O'rtepa, Savat va Isfana) uchastkalari tuzilgan [4]. Mazkur mahkamalar to'rttaligicha politsiya boshqarmalari bo'lib, o'lkada imperiya tomonidan tashkil etilgan harbiy-xalq boshqaruv tizimini o'z faoliyatida to'la namoyon etardi. Harbiy xarakterga ega bo'lgan mazkur mahkamalar fuqarolik ishlarini tasarrufida harbiylashgan usullarni qo'llashi mustamlakachilik zulmi yanada yaqqolroq amaliyotga joriy etilishiga sabab bo'lgan. Bularning barchasi mahalliy aholining erkini, ozodligini bug'ib qo'yardi. Ularning erki esa ma'lum ma'noda totalitar tuzumni shakllanishiga xizmat qilar edi.

Shahar xo'jaligi va obodonlashtirish masalalari ijrosi uyezd boshliqlari zimmasiga yuklatilgan bo'lib, bir nechta volostlar birlashuvidan tashkil topgan uchastkalarda esa, bu vazifalar uchastka noziri zimmasiga yuklatilgan. Albatta, bu ishlarni amalga oshirishda Uyezd boshlig'i ham, uchastka noziri viloyat boshqarmasi va viloyat gubernatori nazoratida shahar jamoalari deputatlaridan vakillar ishtirokida faoliyat yuritganlar [4.]. Bundan ko'rinib turibdiki, fuqarolik va xo'jalik ishlarining katta qismi harbiylar qo'lga topshirilgan bo'lsa ham, shaharlar boshqaruvi alohida ahamiyatli ekanligi nuqtai nazaridan bir nechta boshqaruv instansiyalari ishtirokida amalga oshirilishi yo'lga qo'yilgan.

Viloyat bo'yicha birgina Samarqand shahrida Politsmeyster va 2 ta politsiya noziri lavozimi bo'lgan. Boshqa shaharlarda politsiya nazorati uyezd boshlig'i va uchastka nozirlariga birlashtirilgan edi. Kattaqo'rg'on shahrida esa alohida umumiy qoidalar asosida uyezd boshlig'iga buysondirilgan politsiya noziri lavozimi joriy etilgan edi. Bundan ma'lum bo'ladiki, ma'muriy hududning ahamiyati, yirikligi, urbanizatsion jarayonning yuqoriligi va shu kabi omillar e'tiborga olingan holda boshqaruvni murakkab yoki soddaga ko'rinishlari qo'llanilgan. Mahalliy organlarni boshqarish tizimini asta-sekinlik bilan mustahkamlashga harakat qilgan. Bu esa urbanizatsiya jarayonini tezlashtirdi.

Shaharlarning mahalliy aholi istiqomat qiluvchi qismlari aholi tomonidan uch yilga saylanadigan oqsoqollar tomonidan boshqariluvchi qismlarga ajratilgan. Shaharning mahalliy aholi qismidagi bosh militsiya nazorati mahalliy aholi orasida harbiy gubernator hokimiyati tomonidan tayinlanadigan katta oqsoqollar zimmasiga topshirilgan. Shaharning rus va mahalliy qismlari politsiya nazoratini ta'minlash uchun erkin yollangan kishilardan politsiya qorovuli xizmati ham joriy etilgan. Ular rus va mahalliy millat vakillaridan iborat katta va kichik politsiya xodimlardan tashkil topgan.

O'troq aholi yashovchi hududlar volostlar ajratilib, volostlar o'z o'rnida qishloq jamoa(oqsoqollik)lariga bo'lingan. Qishloq jamoalari umumiy foydalanish yeri va suv manbalariga ega bo'lgan bir yoki bir nechta, bir-biriga yaqin joylashgan qishloqlar, yangi qishloqlar, qishloqcha yoki qo'rg'onchalardan tarkib topgan. Volostlar esa bir nechta bir-biriga yaqin yoki qushilib ketgan qishloq jamoalaridan iborat bo'lgan. Bir volost hududida bittadan ikki mingtagacha hovli-joy bo'lishi mumkin bo'lgan. Qishloq jamoalari va volostlarni oqsoqol va volost boshqaruvchilari zarur bo'lgan hududlarda yordamchilari bilan birgalikda boshqarilgan. Bu quyi mansabdagilardan mustasno tarzda General-gubernator, Harbiy gubernator tomonidan tayinlangan. Volost boshqarmasi tashkil etilmagan. Soliq va yig'implarni oqsoqollar orqali to'planib volost boshqaruvchisi guvohligida to'g'ridan-to'g'ri g'aznaga topshirilgan.

Ko'chmanchi aholi boshqaruvi esa volostlar va ovul jamoalariga ajratilgan holatda bo'lib, volostlarda ikki mingtagacha, ovul jamoalarida ikki yuztagacha o'tovlar birlashtirilishi mumkin bo'lgan. Bunda boshqaruv tizimi o'troq aholinikiga o'xshash tarzda bo'lib, faqat soliq va yig'implarni volost boshqaruvchisi tomonidan yig'ib olingan.

Boshqaruv tizimida o'lka turmushiga yot bo'lgan uyezd, volost kabi ma'muriy hududiy birliklarni joriy etishdan maqsad mahalliy boshqaruv an'analari va tamoyillaridan milliy davlatchilik asoslarini yo'qotish bo'lsa, siyosiy kuchga ega bo'lmagan barcha ichki boshqaruvda saylov tizimini joriy etish guyo aholini o'z-o'zini boshqarish institutlarini joriy etish sifatida ko'rsatilgan edi.

Mazkur ma'muriy bo'linish mahalliy shart-sharoitlarni va mazkur tumanlarni ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olmagan holda amalga oshirilgan. Ma'muriy bo'linishda asosan hukmron guruh manfaatlarini nuqtai nazaridan chegaralanish amalga oshirilgan. Bunday, imperiya mansabdorlari ixtiyoriy ravishda chegaralanish amalga oshirilganligini 1909-yilda reviziyani amalga oshirgan K.K.Palen komissiyasi ham ta'kidlaydi [5]. Bu holat o'lkaning boshqa hududlarida ham kuzatilar va bu kabi tushunarsiz hamda noqulay ma'muriy bo'linish holati 1917-yilga qadar o'zgarishsiz qolganini ko'rish mumkin.

Bo'lim boshliqlari o'z tasarrufidagi hududlarda joylashgan barcha fuqarolik va harbiy ishlarga mas'ul bo'lishidan tashqari, u zarur vaqtda harbiy kuchlarni safarbar etish huquqiga ham ega edi. 1869-yildan boshlab Samarqand bo'limi boshlig'ining harbiy ishlardagi vakolatlari chegaralanib, endilikda u bu masalada okrug general-gubernatori orqali ish ko'rish mumkin edi [3].

1871-yil podsho hukumati o'lka boshqaruvi bo'yicha batafsilroq yangi Nizom qabul qildi [5]. Unda keltirilishicha uyezd boshliqlari qo'lida harbiy va fuqarolik ishlarini to'planishi ham harbiy intizomni ham fuqarolar farovonligini buzilishiga olib keladi- mazmunidagi xulosaga kelingan edi. Lekin bunga qaramasdan 80-yillarning boshlariga qadar uyezd boshliqlari o'z tasarrufidagi hududlarda joylashgan harbiy qo'shinlar qumondonligidan ozod etilmagan. Chunki, podsho hukumati mehnatkash aholining norozilik chiqishlaridan nihoyatda hadiksirar edi [6.]. Faqatgina 1884-yili ko'pgina tortishuv hamda Turkiston general-gubernatorini imperatorning markaziy devonxonasi bilan yozishmalaridan so'ng uyezd hududidagi harbiy qo'shinlarni boshqarish huquqi uyezd boshlig'idan olinardi. Biroq, "... politsiya boshqarmalari kerak bo'lganda qo'shin yordamiga murojaat etishi ..." [5] majburiy sharti bilan bunga ruxsat etildi.

Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi Nizomga asosan uyezd ma'muriyatiga g'azna va pul ishlarini nazorat qilish, soliqlarni hisoblash, ichki tartibni kuzatish, yer-suv tufayli kelib chiquvchi nizolarni bartaraf etish, uyezd, volost va qishloq ma'muriyatlari faoliyatini nazorat qilish borasidagi vazifalar yuklatilgan. Bu borada uyezd boshliqlariga volost boshqaruvchilari va qishloq oqsoqollari tomonidan o'z vazifalarini to'g'ri ijro etishlarini qat'iy nazoratini amalga oshirish zarur bo'lgan [7.]. Shunday bo'lsada mahalliy aholining turmush darajasi a'yanchli ahvolda qolgan edi. Buning sababi uyezd va volost boshqaruv organlari xalq bilan hisoblashmasdi.

Imperiyaning oliy harbiy-siyosiy doiralari qishloq boshqaruvin mahalliy mentalitet va urflarga asoslangan, o'ziga xos boshqaruv tizimi sifatida shakllantirilsa-da, aslida vaqt o'tishi bilan bu mahalliy aholini o'z vakillari yordamida boshqarish, zulmni kuchaytirishdan boshqa holat emasligi ma'lum bo'ldi. Volost boshqaruvchisi – mingboshi, qishloq oqsoqoli, ovul starshinasi aholi tomonidan uch yilga saylanar, ularning nomzodlari esa rus ma'muriyati tomonidan tasdiqdan o'tar edi [8.]. Boshqaruv tizimidagi beryoqlamalik xalqning norozi kayfiyatining shakllanishiga xizmat qildi.

Xullas, Samarqand viloyati va shahri boshqaruvida metropoliya aholi hayotini iqtisodiy va siyosiy jihatdan barcha tomonlarini qamrab olishga intilgan. Keyinchalik imperiya mahalliy aholini

“ruslashtirish” maqsadida hamda o‘lkaga kuchirib keltirilgan rusiyazabon aholi hayotini yaxshilash va yevropacha turmush tarzini targ‘ib etish, bir so‘z bilan aytganda, assimilyatsiyalashuv jarayonini vujudga keltirish maqsadida tub aholining ijtimoiy va madaniy hayotida ham ishtirok eta boshladi. Ya’ni, turli ijtimoiy tashkilotlar tashkil etildi, ma’lum tartib-qoidalar joriy etildi. Biroq, imperiyaning o‘lkadagi rahbariyati mahalliy aholining diniy hayotiga jiddiy aralashmadi. Buning sababi shuki, islom dini asrlar davomida tub aholini turmush tarzining ajralmas bir qismiga aylangan edi.

Adabiyotlar

1. Пардаев К. К. Ўрта Зарафшон (Миёнқол) воҳасининг XIX-XX аср бошларидаги ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ва маданий ҳаёти. Тарих фанлари номзоди даражасини олиш тақдим этилган диссертация. – Тошкент, 2003. – 60-61-62 б.
2. Материалы для статистики Туркестанского края. Выпи. IV. – Спб., 1876. – С. 11-55.
3. ЎзР МДА, 5-йиғма жилд, 1-руйхат, 2-иш.
4. Справочник Самаркандской области на 1901 год. Выпуск III. – Самарканд, типография «Товарищества», 1901. – С.74.
5. Пален К.К. Уездное управление. – СПб, 1910. – С.5-6-7-8.
6. Саидкулов Т.С. Самарканд во второй половине XIX – начале XIX веков. – Самарканд, 1970. – С.103.
7. Кауфман К.П. Проект всеподданнейшего отчета генерал-адъютанта К.П. фон Кауфмана по гражданскому управлению и устройству в областях Туркестанского генерал-губернаторства с 7.09.1867 по 25.03 1881 гг./ сост. П.И. Хамутов. – СПб, 1885. С.43.
8. Положение об управление Туркестанского края. Составитель И.Я.Абрамов. – Т., 1916. – статьи 7-20. – С. 53-57.

УДК: 9.58

РОЛЬ ВЕЛИКОГО ШЕЛКОВОГО ПУТИ В МЕЖДУНАРОДНЫХ СВЯЗЯХ ГОСУДАРСТВ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

А.Ш. Муллаев

Самаркандский государственный университет, преподаватель

E-mail: Aziz_cooluz@mail.ru

Статья посвящена историческому развитию Великого Шелкового пути. Подчеркивается роль торгового пути в культурно-экономических отношениях государств Центральной Азии, в частности, роль Узбекистана в возрождении Великого Шелкового пути.

Ключевые слова: «Великий шелковый путь», шелк, средние века, Согд, Самарканд, Тюркский каганат, Фергана, китайская хроника.

Buyuk Ipak Yo'lining Markaziy Osiyo davlatlari xalqaro munosabatlaridagi roli

Ushbu maqola Markaziy Osiyo xalqlari tarixida muhim iz qoldirgan Buyuk Ipak yo'lining tarixiy taraqqiyoti tahlil etiladi. Ushbu savdo yo'lining Markaziy Osiyodagi xalqaro madaniy-iqtisodiy aloqalardagi o'rni va ahamiyati manbalar asosida ochib berishga harakat qilingan. Shuningdek, savdo yo'lining tarixiy izlarini tiklash va bu yo'lda O'zbekistonning tashabbuslari ham ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: “Buyuk ipak yo'li”, ipak, o'rta asrlar, Sug'd, Samarqand, Turk xoqonligi, Farg'ona, xitoy yilnomalari.

The role of the Great Silk road in the central asian countries

This article looks into the historical development of « Great Silk Road» which left a significant trace in the history of the Central Asian countries. The relying on the information depicted in the available sources. Furthermore, he paid particular attention on revitalizing the historical traces of this Great Road and providing information about the notable initiatives taken by the people from Uzbekistan.

Keywords: Silk Rood, silk, the Early Medieval ages, Sogd, Samarkand, Turkic qaghanate, Fergana, Chinese chronicles.

Сформировавшаяся на территории Центральной Азии система торговых путей имела важное значение для жизни народов Востока и Запада.

Глава страны И.А. Каримов отмечает: «Когда говорят Великий шелковый путь, человека представляет проходящие тысячелетиями тому назад через пустыни и степи торговые караваны. Растянувшиеся на тысячу верст через ущелья гор, высокие снежные перевалы и безводные бескрайние степи и пустыни вереницы караванов по торговым путям, путешествующие дервиши, движения послов различных государств продолжались веками. Великий Шелковый путь является аргументом развития туризма в Узбекистане» [1].

Торговые и культурные связи имели очень важное значение в возникновении новых государств. Прежде всего, следует сказать, что жители, проживавшие на территории Центральной Азии, с древних времен развивали взаимоотношения между собой. Торговля и торговые отношения в нашей стране имеют древнюю историю. Можно предполагать, что система караванных путей, связавших различные страны Ближнего и Среднего Востока, а также корни культурных, идеологических, экономических связей начались в эпоху неолита. Именно в этот период возникла культура земледелия, и началось ускоренное освоение новых земель населением. Этот процесс еще более усилился в эпоху бронзы.

Из истории известно, что развитие человеческого общества основано на региональных связях. Между государствами строились дороги в связи с исторической необходимостью, а иногда в определенных целях.

В истории VI-IV веков до н.э. в период Ахеменидов Ирана был проложен «Путь шаха». Следует отметить, что до появления этого пути в Среднем и Ближнем Востоке в связи с потребностями в лазурите Бадахшана был проложен «Лазуриновый путь». Вывезенный из Бадахшана лазурит использовался во дворцах, храмах царей Месопотамии и Египта для изготовления различных женских украшений. Кроме того, среди вещей, найденных в могилах царей и аристократов Древнего Китая, были найдены драгоценные камни Центральной Азии, в том числе изделия, изготовленные из «бровного камня» (нефрита) Таримского оазиса, что является доказательством тысячелетних торговых связей на «Великом шелковом пути» [15, 166-167].

Великий шелковый путь – это дорога, которая в течение многих тысячелетий связывала Запад и Восток. Эту дорогу под названием «Шелковый путь» ввел в науку в 70-х годах XIX века немецкий ученый Рихтгофен Фердинанд Пауль Вильгельм (1833-1905 гг.) [13, 12-21].

В первой половине I-го тысячелетия до рождения Христа образовавшиеся на огромной территории от Греции, Египта до Средней Азии и Индии Ахеменидское государство имело важное значение для разносторонних связей многих государств, народов и племен.

Здесь надо отметить именуемую в исторической литературе дорогу «Путь шаха». Разветвление этой дороги в период ее создания соединяло города Малой Азии и Средиземноморья Эфес, Сарди с одним из центров Ирана Сузой, а другое разветвление из Ирана через Бактрию доходило до Согдианы, Ташкентского оазиса и тянулось через территорию Казахстана до Алтая [13, 12-21]. Позже эта дорога стала разветвлением дороги «Великий шелковый путь». При обращении к краткой истории «Великого шелкового пути» выясняется, что в период правления У-ди империей Хан (140-86 гг. до н.э.) повышается интерес государства к западным территориям. Китайцы на этих территориях в этот период сталкиваются с опасными военными силами Хуннов.

В целях нахождения союзников в борьбе с хуннами и создания с ними военного государства торговец Чжан Цзянь в течение нескольких лет был в плену у хуннов и в 128-126 гг. до рождения Христа прибыл в Фергану (Даван). Не достигнув успеха в создании военного государства с правителем Давана Чжан Цзянь, после многих трудностей он вернулся на Родину. Миссия Чжан Цзяня имела важное значение для выхода Китая в страны Запада. Позже между правителем Китая и правителем Давана произошли кровопролитные войны. Основной причиной этих войн были поразившие китайцев «Небесно-голубые лошади». Чжан Цзянь в сведениях о сельском хозяйстве Давана писал следующее: «Оседлое население пашет землю, сеет хлебные злаки и рис. У них имеются виноград сорта мусалляс, многочисленные хорошие лошади. Хорошие лошади хранятся в секрете в городе Эрши и не предоставляются послу государства Хан».

Наскальные изображения знаменитых «небесно-голубых лошадей» Давана сохранились до наших дней [10, 33; 16, 578-585]. В частности, в восьми километрах от Оша на скалистых холмах Айримчатова имеются тридцать изображений породистых лошадей.

Подобные изображения найдены также на холмах вблизи Мархамата, в оазисе Навкат и Обиширсая [4, 84-85]. Эти изображения, подтверждая известность Давана с древних времен своими небесными лошадьми, являются доказательством высокого изобразительного искусства ферганцев.

Следует подчеркнуть, что курсирующие в эпоху бронзы на дорогах караваны лошадей, ослов, верблюдов перевозили драгоценные камни, слоновые кости, металл и изготовленные из них изделия, предметы украшения, а в некоторых случаях мелкий скот и зерновые культуры. Археологические находки, найденные на различных территориях, свидетельствуют об этих процессах.

Известно, что по мере превращения экономических задач в важный фактор развития государства, борьба за гегемонию на «Шелковом пути» между государствами все более усиливалась. В античную эпоху (I-IV века) Великий Шелковый путь превратился в арену политической и экономической борьбы между Римом, Парфией, Кушанским и Ханским государствами.

В III-IV веках региональные Кангский и Кушанский государства распались [4, 13]. В этот период проживавшие на территории нынешнего Узбекистана согдийцы стали ведущими на Шелковом пути.

Здесь вносит ясность еще один пример: возглавившие германо-пакистанскую экспедицию Ахмад Хасан Доний и Карл Йетмар (1979) по результатам проведенных исследований нашли десятки тысяч наскальных изображений и более полутора тысяч рукописей на 17 языках, из которых 250 рукописей относятся согдийцам. Согдийцы вели торговую деятельность, продвигаясь через горы Шатиал и Чилос, долину Коракурум, и продолжали движение в Южном и восточном направлениях. Образцы этих согдийских рукописей изучены Х. Хумбахом. По мнению К. Йетмара, эти рукописи относятся к периоду хионидов, защищавших торговые взаимоотношения между Индией и Согдой [8]. В рукописях упоминаются имена торговцев, прибывших из Маймурга, Кеша и других территорий Согдианы [5, 161-162]. Отсюда видно, что горная дорога Чилос исполняла для согдийских торговцев, бывших посредниками в торговых связях Индии, роль моста для перевозки товаров в Гандахарию и Кашмир. В связи с этим следует отметить посредничество согдийских торговцев под руководством Маниаха в связях Китая с Ираном и Византией.

В начале средних веков (V-VIII века) между Китаем, Ираном, Византией и Тюркским каганатом возникла конкуренция за «Шелковый путь». Назначение этой дороги определялось не только коммерческой, но и политической, экономической и культурной жизнью. В частности, торговцы в странах своего пребывания путем «бесед и встреч» представляли правителям необходимые сведения [12, 7-8].

В период Саманидов в IX-X веках основное ответвление «Великого шелкового пути» проходило через Фергану. Торговые караваны из Индии, Ирана и государств Средиземного моря, пройдя Самарканд, в Ходженте разделялись на две дороги, по одной из которых через Поп (Боб), Ахсикент прибывали в Куву, а по второй дороге через Риштан, Маргилан караваны соединялись в Куве с караванами по первой дороге, а затем направлялись в сторону города Ош (Ибн Хурадбех, Истахрий, Ибн Хаукал и т. д.). После этого Великий торговый шелковый путь через Узген, Отбаши, Терекдаван приходил в Китай [11, 81-87].

В период государства Караханидов политическая столица из Ахсикента в XI веке была перенесена в Узген. По археологическим материалам Ахсикент в XI-XII веках, как и прежде, оставался экономическим центром всей Ферганской долины. Ахсикент и в этот период оставался одним из крупнейших городов на «Великом шелковом пути». Сюда из Китая, государств Средиземного моря бесперебойно прибывали торговые караваны [3, 83-85].

В Центральной Азии по мере ослабления влияния арабского халифата влияние феодалов-земледельцев, в частности Тахиридов, а также Саманидов, стало усиливаться.

В конце IX столетия Центральная Азия добилась независимости, и здесь после освобождения от господства арабов сформировалось первое государство-владычество

Саманидов. Позже на этой территории возникли государства Хорезмшахов, Газнавидов, Сельджуков и Караханидов. Города Бухара, Самарканд, Мерв, Старый Ургенч стали известны как центры культуры своего времени. В этих местностях купля-продажа, кустарный промысел, социально-политическая жизнь, а также культурные связи, очаги знаний получили развитие. Такие социально-культурные центры, соединив различные области громадного мусульманского Востока, государства Запада и Востока, Севера и Юга и прославились в качестве очагов связей и продолжателей традиций «Шелкового пути».

Народы Центральной Азии в XIII столетии подверглись нападению монголов под руководством Чингисхана. В течение некоторого времени активность «Великого шёлкового пути» снизилась. В частности, многие города, памятники культуры были разрушены. Ученые были убиты, изгнаны в другие страны, наука резко пришла в упадок.

В XIII веке ответвления «Великого шелкового пути» Чингисхан взял под контроль. В середине XIV века в Центральной Азии гнету монголов пришел конец. В этом огромная заслуга Амира Темура. С образованием независимого салтаната Амира Темура и Темуридов вновь началось развитие. Эти сведения приведены в дневниках посла Руи Гонсалеса де Клавихо, бывавшего во дворце Амира Темура в качестве гостя [14, 261].

В этот период в Мавераннахре и Хорасане процветала внутренняя и внешняя торговля. Самарканд превратился в один из основных центров торговли. Этот город был с древних времен центром торговли Востока, отсюда проходил «Шелковый путь», соединявший его с другими государствами. Торговые связи с Индией, Китаем, Россией, арабскими странами усилили экономическую мощь государства Амира Темура [9, 5-24].

В целях обеспечения развития государства Амир Темур способствовал упрочению «Великого шелкового пути». Еще большую ясность вносят следующие сведения: *«Созданы также станции хранения лошадей. В удаленных от мест проживания людей на караванных путях через степи караванные сараи обеспечиваются водой при помощи специальных ирригационных сооружений. В караванных сараях вода через подземные трубы поставляется с мест однодневной удаленности»* [7, 153].

Начиная со второй половины XX столетия усилилось внимание к строительству и благоустройству «Великого шелкового пути». Прокладываются новые современные дороги. В частности, проведенная в 1987 году ЮНЕСКО ООН в рамках культурной программы «Великий шелковый путь – путь встреч» Всемирная декада была важным шагом в этом направлении. В этой программе глубокому изучению истории цивилизации Средней Азии уделено очень большое внимание. Кроме того, основная цель программы состояла в дальнейшем углублении культурных и экономических связей между многочисленными народами, проживающими на огромной территории. До 2000 года организовано большое число экспедиций. Древние пути и направления были уточнены, продолжается изучение наших обычаев и традиций.

В 1997 году при участии Узбекистана построены железные дороги Мешхед-Сарахс, Сарахс-Мешхед. Благодаря этому народы Средней Азии получили возможность выхода на залив Форс, а народы Европы – по железным дорогам в Среднюю Азию.

В 1988 году в городе Баку проведена международная конференция относительно восстановления Великого шелкового пути, проходящего через Европу. Узбекистан принял участие в строительстве трассы (ТРАСЕКА) Европа-Азия-Кавказ [2; 6, 5-15] и продолжает являться ведущим государством в решении вопросов строительства дорог.

Приведенные в нашей статье сведения о «Великом шелковом пути», его возникновении, становлении и развитии по сегодняшний день позволяют заключить:

- начиная с эпохи бронзы один из торговых путей Средней Азии связал Бактрию с древним Хорезмом, Согдианой, Центральным Казахстаном и Уралом. Кроме этого, одно ответвление на юге Средней Азии соединило Бактрию и Маргилан с культурными центрами Хараппа и Мохенжадара в Индии;

- со временем этот путь стал важным фактором установления связей с горными территориями. В результате развития этого пути установлены связи Ферганы и Шаша с Древним Востоком. Согласно результатам археологических исследований, в этот период из городов Месопотамии торговые пути через Иран и Южный Белужистан, пройдя Бактрию и

Согдиану, доходят до Ферганы. Одна ветвь этой дороги из Ферганы направляется к степям на Западе в Казахстан. Еще одна ветвь тянется из Ферганы к востоку через Даван в Синзян, Северный Китай;

– «Великий шелковый путь» является фактором соединения народов Центральной Азии и Европы, в результате географических открытий его строительство, благоустройство еще более ускорилося.

Литература

1. Каримов И.А. Жаҳон сайёҳлик ташкилотининг “Ипак йўли” халқаро йиғилиши катнашчиларига мурожаат // Халқ сўзи. – 1994 йил 4 окт.
2. Президент Ислом Каримовнинг Европа-Кавказ-Осиё (ТРАСЕКА) транспорт тармоғини ривожлантиришга бағишланган халқаро анжуманда сўзлаган нутқи // Ватанпарвар. – 1998 йил 12 сентябр.
3. Анарбаев А. Фергана в Великом Шёлковом пути // Формирование и развитие трасс Великого Шёлкового пути в Центральной Азии в древности и средневековье. – Ташкент: 1990. – С. 83-85.
4. Анарбаев А. Небесные кони Давана // Фан ва турмуш. 2008. – №. 3-4-5. – С. 84-85.
5. Буряков Ю.Ф. К вопросу о связях Согда и Индии в древности и раннем средневековье // Индия и Центральная Азия (доисламский период). – Ташкент, 2000. – С. 161–162.
6. Буюк ипак йўли – Буюк мулокот йўли. Методик-библиографик қўлланма. Қайта ишланган 2 нашр. – Тошкент: 2004. – Б. 5-15
7. История народов Узбекистана / Под ред. проф. С.Л.Толстого и др; Предисл. А.Ю.Якубовского. – Ташкент: 1950. – Т. 1. – С.153.
8. Йетмар К. Чилас / перевод с англ. Ж.Войников. www.iranicaonline.org
9. Кобзева О.П. Великий шелковый путь: проблемы научной периодизации и истоки изучения европейскими учеными во второй половине XIX – начале XX в. Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 2001. – 28 с.
10. Матбобоев Б. Қадимги Фарғона давлати (Давань) / Ўзбекистон давлатчилиги тарихи очерки. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 33.
11. Негматов Н. Государство Саманидов. – Душанбе: Дониш, 1977. – С. 81-87.
12. Отахўжаев А. Илк ўрта асрларда Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари. – Тошкент: ART-FLEX, 2010. – Б. 7-8.
13. Ртвеладзе Э.В. Великий шелковый путь // Энциклопедический справочник. – Ташкент: ЎМЭ, 1999. – С. 12-21.
14. Руи Гонсалес де Клавихо. Самарқандга – Амир Темур саройига саёҳат кундалиги (1403-1406 йиллар) / Очил Тоғаев таржимаси. Сўз боши ва изоҳлар муаллифи Михли Сафаров. – Тошкент: O'zbekiston, 2010. – 261 б.
15. Хўжаев А. Буюк ипак йўли: муносабатлар ва тақдирлар. – Тошкент: ЎМЭ, 2007. – Б. 166-167.
16. Шефер Э. Золотые персики Самарканда. Книга о чужеземных диковинах в империи Тан. – М: ГВЛ, 1981. – С. 578-585.
17. Шониёзов К. Қанғ давлати ва қанғлилар. – Тошкент: Фан, 1990. – Б. 4-13.

UDK: 725 (575.1)

ISTIQLOL YILLARIDA SAMARQAND SHAHARSOZLIGI XUSUSIDA

M.X.Sidikova

Samarqand davlat universiteti, katta ilmiy xodim-izlanuvchi

E-mail: beatris83m@mail.ru

Maqolada istiqlol yillarida Samarqand viloyati shaharsozligida amalga oshirilayotgan qurilish va bunyodkorlik ishlari, iqtisodiy va injenering infrastrukturasini hamda transport va logistika xizmatlari kabi masalalar keng yoritilgan.

Kalit soʻzlar: demografiya, shaharsozlik, iqtisod, obodonlashtirish, aeroport, temiryoʻl.

Особенности градостроения Самарканда в годы независимости

В статье широко рассмотрено строительство и строительные работы города, экономики и инженерной инфраструктуры, а также транспортно-логистических услуг проводимые в Самаркандской области за годы независимости.

Ключевые слова: демография, градостроение, экономика, строительство, аэропорты, железная дорога.

The features of urban development of Samarkand during the years of independence

The city's building and construction works, economic and engineering infrastructure as well as transport and logistics service in Samarkand region during the years of independence is reflected in the broad topics.

Keywords: demography, urban building, economics, construction, airports, railway.

Ma'lumki, istiqlool mamlakatimiz shaharlari hayotida ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar bilan birgalikda shaharsozlik doirasida ham juda katta o'zgarishlarni olib keldi. Shaharlar hayotida ulkan me'morchilik qurilishlari, arxitektura yutuqlari va texnologiyalarning kirib kelishi natijasida modernizatsiya jarayonlari tezlashib bordi. Respublikamiz shaharlari mohiyatida tub burilishlar yasadi.

Samarqand shahri kattaligi bo'yicha Toshkent shahridan keyingi o'rinda turuvchi shahardir. Samarqand shahri mil.avv. VIII-VII asrlarda tashkil topgan. Shahrining dovrug'ini butun olamga yetishi esa AmirTemur davriga to'g'ri keladi. Amir Temur saltanatining poytaxti sifatida dunyoga mashhur Samarqand nafaqat o'sha davrlarda, balki keyingi asrlar va hozirgacha ham sayyohlar orzusidagi shahar bo'lib, mintaqadagi eng mashhur shaharlardan biri edi [12].

Samarqand viloyati 1938-yil tashkil etilgan bo'lib, ma'muriy markazi Samarqand shahri hisoblanadi. Viloyatda 2 ta shahar, 14 ta tuman, 9 ta tumanga bo'ysunuvchi shaharlar, 88 ta shahar tipidagi posyolkalar, 1100 ta mahalla fuqarolari yig'ini, 125 ta qishloq fuqarolari yig'ini, 1829 ta qishloq aholi punktlari mavjud [2]. Samarqand viloyatida 2 ta asosiy yirik shahar Samarqand va Kattaqo'rg'on shaharlari mavjud bo'lib, mustaqillik yillarida bu shaharlar infratuzilmasida ulkan ishlar amalga oshirildi.

Samarqand shahri Zarafshon vodiysining o'rta qismida (Darg'om va Siyob kanallari orasida) joylashgan. Shahar aholisi va xo'jaliklari Shovdor, Bog'ishamol ariqlaridan suv oladi [3]. Bundan tashqari, Samarqand shahar hududida Siyob, Obi Rahmat va Xishrav kanallari ham shahar mikroiklimiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shaharning umumiy maydoni 0.12 ming km.kv. ga teng bo'lib, Samarqand viloyatining Pastdarg'om, Jomboy, Tayloq, Oqdaryo tumanlari bilan chegaradosh [4]. Samarqand shahrining tarkibida 1 ta tumanga bo'ysunuvchi shahar, 228 ta mahalla fuqarolari yig'ini, shahar Kengashiga qarashli 3 ta shaharcha – Kimyogarlar, Farhod, So'lim [5] shaharchalari mavjud. Shaharchalar ma'muriy jihatdan Samarqand shahar hokimligiga bo'ysunadi va ularning ma'muriy-hududiy bo'linishi quyidagicha:

Kimyogarlar shaharchasi hududida 6 ta – Madaniyat, Chorbog', Nurafshon, Nurli Kelajak, Shukrona va Darg'om mahalla fuqarolar yig'ini, 120 ta ko'p qavatli hamda 318 ta yakka tartibdagi hovliuylar, jami 16 ta ijtimoiy soha ob'ektlari mavjud [6].

Farhod shaharchasi fuqarolar yig'ini hududida 3 ta – Shirin, Bunyod, Cho'ponota mahalla fuqarolar yig'ini, 33 ta ko'pqavatli uy, 6 ta yakka tartibdagi hovlilar 113 ta tomorqasi mavjud xo'jaliklar va 4 ta ijtimoiy soha ob'ektlari mavjud [7].

So'lim shaharchasi hududida 3 ta – Navro'z, Yoshlik, Chilquduq mahalla fuqarolari yig'ini, 1 ta ko'pqavatli uy, 1040 ta yakka tartibdagi hovlilar, 788 ta tomorqasi mavjud xo'jaliklar, 5 ta ijtimoiy soha ob'ektlari mavjud [8].

2003-yilga qadar Samarqand shahri Siyob, Bog'ishamol va Temiryo'l tumanlariga bo'lingan. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2003-yil, 12-dekabr 569-II-son qaroriga muvofiq viloyat markazlarining ma'muriy hududiy tizimida tumanlar bekor qilindi [9]. Bugungi kunda Samarqand shahri respublika shaharlaridagi doimiy aholi soni jihatidan Toshkentdan so'ng ikkinchi o'rinni egallaydi.

2015-yilgi ma'lumotlarga ko'ra shahardagi 513572 kishilik aholining 17010 nafari Kimyogarlar shaharchasida, 5598 nafari Farhod shaharchasida, 4906 ming kishi So'lim shaharchasida, qolgan 486058 tasi Samarqand shahriga to'g'ri keladi [10]. Aholining demografik holati, tabiiy harakatiga

ko'ra aholining tabiiy o'sishi 6,4 ming kishini tashkil qilgan holda, o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 2010- yilda 71,5 yoshdan 2015-yilga kelib o'rtacha 73,5 yoshga yetdi. Har ming kishiga tug'ilish 19,1 tani, tabiiy o'sish 13,8 tani tashkil etdi [11].

Samarqand shahri mustaqillik yillariga kelibgina o'z tarixiy mavqeini tiklab oldi. Bugungi kunda Samarqandda mingdan ortiq tarixiy obidalar mavjud. Jumladan, Samarqand shahrida 73 ta yirik tarixiy me'moriy yodgorlik: Registon ansambli, Shohi Zinda ansambli, Amir Temur maqbarasi, Ulug'bek rasadxonasi, Bibixonim jome masjidi, Ruhobod maqbarasi, Xo'ja Abdidarun majmuasi, Xo'ja Ahror masjidi, Hazrati Xizr masjidi va boshqalar saqlangan. Bu tarixiy obidalar Samarqand viloyati madaniy me'ros ob'ektlarini muhofaza qilish boshqarmasi tomonidan nazorat qilinadi. Istiqlol yillarida ushbu qadimiy masjid va madrasalar tarixiy obida sifatida qayta tiklana boshlandi [13]. Samarqandning me'moriy-tarixiy yodgorliklari 2001-yilda YUNESKOning Finlandiyada o'tkazilgan 25-sessiyasida "Samarqand – madaniyat chorrahasi" nominatsiyasi bilan jahon merosi ro'yxatiga kiritildi [14]. Bu esa, albatta, Samarqand shahrining qadimiy, tarixiy va madaniy qiyofasini jahon miqyosida namoyish etilishida yana bir bor zamin yaratdi.

Mustaqillik yillarida Samarqand shahri dunyoning nufuzli davlatlari hamda xalqaro tashkilotlar rahbarlari tashrif buyuradigan, benazir ziyoratgoh va xalqaro anjumanlar o'tkaziladigan markazga aylandi. Shaharda 1997-yildan buyon har ikki yilda «Sharq taronalari» Xalqaro musiqa festivali o'tkazib kelinmoqda. 2014-yil may oyida Samarqand Forumlar majmuasida "O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlari tarixiy merosining hozirgi zamon sivilizatsiyasidagi roli va ahamiyati" mavzusida o'tkazilgan xalqaro ilmiy konferensiyada 36 ta davlat va YUNESKO tashkilotidan jami 149 nafar olimlar ishtirok etdi. Bugungi kunda Samarqand shahri Lvov, Tovuz, Lion, Lej, Bremen, Rio-de-Janeyro, Plovdiv, Banda-Achex shaharlari bilan birodarlashgan tarixiy zamonaviy shahardir.

Samarqand shahridagi asosiy iqtisodiy ko'rsatgichlarga ko'ra, 2015-yilda sanoat mahsulotlari 2098,6 mlrd.so'mni tashkil etib, bu ko'rsatgich o'tgan yillarda nisbatan o'sish sur'ati 116,0 % shundan, viloyatdagi ulushi esa 48,2 % tashkil etadi[15]. Keyingi yillardagi statistik ma'lumotlarga ko'ra shahar bo'yicha jami 1040 sanoat korxonalari faoliyati mavjud bo'lib, shundan 221 tasi oziq-ovqat sanoatida, 127 tasi tekstil sohasida, 251 tasi mashinasozlik, 441 tasi boshqa nooziq-ovqat ishlab chiqarish yo'nalishda faoliyat ko'rsatmoqda. Bundan tashqari Samarqand shahrida 14 dan ortiq yirik korxonava 13 dan ortiq qo'shma korxonalar faoliyati mavjud [16]. Ta'kidlash joizki, ushbu sanoat korxonalari, yirik korxonalar hamda qo'shma korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmi yildan yilga o'sib bordi. Chunonchi, shahardagi oziq-ovqat, texstil, mashinasozlik, nooziq-ovqat va shu kabi boshqa ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyati viloyat iqtisodining o'sishiga o'zining salmoqli hissasini qo'shib kelmoqda.

Samarqand shahar iqtisodiy infrastrukturasi rivojlanishida bozorlar va savdo markazlari ham alohida o'ringa ega. Shaharda juda ko'plab faoliyat yuritayotgan chakana savdo shaxobchalari, savdo do'konlari, ulgurji savdo korxonalari mavjud. 2014-yilda Samarqand shahrida nooziq-ovqat do'konlari 1870 ta, supermarketlar 6 ta, aralash mahsulotlar do'koni 310 ta, faoliyat yuritayotgan ulgurji savdo korxonalari soni 206 tani tashkil qildi [17]. So'ngi yillarda ana shunday bozorlar va savdo markazlari faoliyatining o'sib borishi natijasida xususiy tadbirkorlik va xizmat korsatish hamda servis sohasida modernizasiya jarayonlari jadallik bilan kirib kelmoqda. Bu esa albatta shahar iqtisodiy salohiyatini o'sib borayotganligini ko'rsatadi.

Samarqand shaharsozlik strukturasida injenering infrastrukturasida ham alohida o'ringa ega. Mustaqillikning dastlabki yillarida shahri injenering infrastrukturasida ayrim kamchiliklar mavjud bo'lgan bo'lsa, so'nggi yillarda kelib bu sohada ham sezilarli darajada ijobiy ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Suv ta'minoti. Bugungi kunda Samarqand shahar aholisi va korxona tashkilotlariga Samarqand viloyat "Suvoqova" davlat unitar korxonasi Samarqand shahar filiali toza ichimlik suvi ishlab chiqarib, etkazib beradi. Korxonada «Cho'ponota», «Dagbit», «Charxin», «Xishrav», «Bog'ibaland», «Farhod» suv ishootlari mavjud. Bu inshootlar mustaqillik yillari davomida korxona ma'muriyati va muhandis – texnik xodimlari tomonidan qayta jihozlanib, yangi nasos qurilmalari va jihozlariga almashtirib, shaharning ichimlik suviga bo'lgan talabini qondirib kelmoqda. Samarqand shahri ichimlik suvi ta'minoti tizimining samarasini, xavfsizligini, sifatini oshirish, shu bilan birga suv ta'minoti korxonalarining moliyaviy ahvolini mustahkamlash va barqarorlashtirish maqsadida 2003-2010-yillarda Samarqand shahri bo'yicha umumiy qiymati 54,53 mln. AQSH dollariga teng Xalqaro

loyiha ishlari amalga oshirildi.[18] Aholining ichimlik suviga bo'lgan ehtiyojlarini to'laroq qondirish maqsadida o'tgan besh yil mobaynida 12,2 km ichimlik suvi inshootlari rekonstruksiya qilindi [19]. Samaqand shahrida 2014-yilda aholining toza ichimlik bilan ta'minlanishi 99,6 % ni tashkil etadi [20].

23. Afghanistan seeks Qatar investment in mining. Gulf Times, 20 January 2013. <http://www.gulf-times.com/story/339143/Afghanistan-seeks-Qatar-investment-in-mining>
24. Qatar offers aid package to Afghanistan. Kuwait News Agency (KUNA), 25 June 2003. <http://www.kuna.net.kw/ArticlePrintPage.aspx?id=1356664&language=en>
25. Qatar Red Crescent delivers aid to over 1,500 families in Afghanistan. 1TV Afghanistan, 10 January 2016. <http://1tvnews.af/en/news/elections/8-afghanistan/20326-qatar-red-crescent-delivers-aid-to-over-1500-families-in-afghanistan>
26. Qatar to reconstruct quake-damaged houses in Nangarhar. Khaama Press, 13 November 2015. <http://www.khaama.com/qatar-to-reconstruct-quake-damaged-homes-in-nangarhar-4108>
27. Qatari prince pledges \$140 million in aid, joint investment to Afghanistan. Khaama Press, 3 February 2016. <http://www.khaama.com/qatari-prince-pledges-140-million-in-aid-joint-investment-to-afghanistan-0072>
28. Rod Nordland and Alissa J. Rubin, "Taliban Flag Is Gone in Qatar, But Talks Remain in Doubt," New York Times, June 23, 2013.
29. David Roberts. Qatar's Foreign Policy Adventurism. Foreign Affairs, June 25, 2013. <https://www.foreignaffairs.com/articles/qatar/2013-06-25/qatars-foreign-policy-adventurism>
30. Kristian Ulrichsen. Qatar and the Arab Spring. Oxford University Press, 2014. pp.125-127.
31. Habib Toumi. Al Jazeera turning into private media organization. Gulf News, July 13, 2011. <http://gulfnews.com/news/gulf/qatar/al-jazeera-turning-into-private-media-organisation-1.837871>
32. Christopher M. Blanchard. Qatar: Background and U.S. Relations. A report of the Congressional Research Service, November 4, 2014. pp.2-5.
33. Kenneth Katzman. Afghanistan: Post-Taliban Governance, Security, and U.S. Policy. A report of the Congressional Research Service, September 26, 2016. p.52
34. Kenneth Katzman. The United Arab Emirates (UAE): Issues for U.S. Policy. A report of the Congressional Research Service, August 16, 2016. p.16
35. Kenneth Katzman. Afghanistan: Post-Taliban Governance, Security, and U.S. Policy. A report of the Congressional Research Service, September 26, 2016. p.52
36. Kristian Coates Ulrichsen. The Persian Gulf States and Afghanistan: Regional Geopolitics and Competing Interests. Asia Policy, Number 17, January 2014. p.48
37. UAE participates in Brussels Conference on Afghanistan. Ministry of Foreign Affairs and International Cooperation, October 7, 2016. <http://www.mofa.gov.ae/EN/MediaCenter/News/Pages/07-10-2016-Afghanistan.aspx>
38. Sadika Hameed, Hannah Brown, Elias Harpst. Regional Dynamics and Strategic Concerns in South Asia: Gulf States' Role. Center for Strategic and International Studies, January 2014. p.6

39. Agreement for Cooperation Between the Government of the United States of America and the Government of the United Arab Emirates Concerning Peaceful Uses of Nuclear Energy. The U.S. State Department, July 8, 2009. <http://www.state.gov/t/us/125782.htm>
40. Rajiv Chandrasekaran. In the UAE, the United States has a quiet, potent ally nicknamed 'Little Sparta'. The Washington Post, November 9, 2014. https://www.washingtonpost.com/world/national-security/in-the-uae-the-united-states-has-a-quiet-potent-ally-nicknamed-little-sparta/2014/11/08/3fc6a50c-643a-11e4-836c-83bc4f26eb67_story.html
41. Awad Mustafa. Saudi, UAE Influence Grows With Purchases. Defense News, March 22, 2015. <http://www.defensenews.com/story/defense/policy-budget/warfare/2015/03/21/russian-military-policy-pushes-eastern-europe-to-reinstate-conscription/25074779/>
42. Kenneth Katzman. The United Arab Emirates (UAE): Issues for U.S. Policy. A report of the Congressional Research Service, March 18, 2013. pp.11-12.

УДК: 327(575.1)

ГЕОПОЛИТИЧЕСКОЕ ПОЛОЖЕНИЕ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ И ПРЕВЕНТИВНАЯ ДИПЛОМАТИЯ УЗБЕКИСТАНА

Д.Б.Сайфуллаев

Старший научный сотрудник-соискатель Ташкентского государственного
института востоковедения

E-mail: s.durbek@mail.ru

В статье рассматривается геополитическое положение Центральной Азии в качестве важного региона в международных отношениях и мировой политики после развала коммунистического режима, анализируются угрозы и тенденции развития обеспечения безопасности, а также дипломатические инициативы и усилия Узбекистана для обеспечения стабильного развития государств Центральной Азии.

Ключевые слова: Узбекистан, дипломатия, внешняя политика, сотрудничество, международные отношения, концепция, интеграция, Центральная Азия.

Марказий осиёнинг геосиёсий ҳолати ва ўзбекистоннинг превентив дипломатияси

Мазкур мақолада коммунистик режим барбод бўлгандан сўнг Марказий Осиёнинг халқаро муносабатлар ва жаҳон сиёсатида муҳим минтақа сифатидаги геосиёсий ҳолати кўриб чиқилган, минтақа учун таҳдидлар ва хавфсизликни таъминлашнинг ривожланиш тенденциялари, шунингдек, Ўзбекистоннинг Марказий Осиё давлатлари барқарор ривожланишини таъминлаш йўлидаги дипломатик таъаббуслари ва фаолияти таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: Ўзбекистон, дипломатия, халқаро муносабатлар, ташиқи сиёсат, ҳамкорлик, концепция, интеграция, Марказий Осиё.

Geopolitical situation of Central Asia and Uzbekistan's preventive diplomacy

The article describes geopolitical location of Central Asia as an important region in international relations and global politics after collapse of communist regime, analyzes threats and tendencies of development of security and also diplomatic initiatives and efforts of Uzbekistan for providing stable development of Central Asian states.

Keywords: Uzbekistan, diplomacy, foreign policy, cooperation, international relations, concept, integration, Central Asia.

Центральная Азия, начиная с 90-х гг. подверглась достаточно жестким историческим испытаниям. Это, прежде всего, рождение новых независимых государств, которое происходило не безболезненно, особенно в социально-экономических сферах. Произошла дезинтеграция некогда единого социально-экономического, культурного пространства. Здесь особенно опасными были: угроза победного продвижения талибов в Афганистане; начало гражданской войны в Таджикистане; нарастающая угроза религиозного экстремизма и

международного терроризма; сохраняющаяся межнациональная напряженность; насаждение процедур и ценностей западной демократии, под ширмой которых шла борьба за сферы влияния; Аральская экологическая катастрофа и т.д.

А государства Центральной Азии с первых же дней были вынуждены играть самостоятельную роль в мировом разделении труда и перераспределении центров геостратегических сил. «Распад Советского Союза и процесс становления на постсоветском пространстве новых суверенных государств с собственными политическими, экономическими и военными приоритетами создали совершенно новую геополитическую ситуацию в Центральной Азии. Перед новыми независимыми государствами региона встала двуединая задача внутренней социально-политической консолидации, с одной стороны, и необходимостью расширения внешних экономических и политических связей – с другой. Все это с необходимостью ставит перед каждым из них вопросы национальной безопасности, которые не существовали для них прежде» [1] - отметил эксперт У. Хасанов.

После распада СССР, который раньше обеспечил безопасности региона, новая система безопасности стала актуальной как никогда. Поэтому первое, что сделали в тех условиях страны бывшего СССР – это подписали Договор о коллективной безопасности от 15 мая 1992 года в г. Ташкенте. Несомненно, договор был необходим, хотя он не помог предотвратить или остановить гражданскую войну в Таджикистане и не смог стать надежным гарантом защиты южных границ СНГ в 1996 г. от продвигающихся к северу талибов с их угрозами двинутся дальше в пределы Таджикистана и Узбекистана (более того, некоторые республики не видели в этом проблему и даже готовы были установить отношения с движением Талибан), однако, стремление к такой системе обеспечило уверенность государств участников, что хоть какие-то гарантии коллективных мер есть.

«В силу своего геополитического положения Узбекистан расположен в регионе, где не отлажена система коллективной безопасности, что также служит причиной вызова угроз. Узбекистан находится, практически, в стратегическом центре полукольца, по которому расположены богатейшие нефтегазоносные месторождения Персидского залива, бассейна Каспийского моря и Карибского бассейна, то есть энергоресурсов, в условиях всемирного энергетического дефицита призванных играть в ближайшие годы определяющую роль в будущем Евразии и в целом всего мира. Более того, мы являемся частью региона, где имеются несовпадающие интересы России, Китая и Индии, стран Востока и Запада. Фактически располагаясь на стыке этих формирующихся, но потенциально очень мощных евразийских центров сил, которые, несомненно, будут определять облик XXI века, наша территория, территория всего региона будет оставаться объектом интересов и таких мощных стран исламского мира, как Турция, Пакистан, Иран и Саудовская Аравия» [2].

Также США ставилась цель разобщить государства Центральной Азии таким образом, чтобы каждое из них не стремилось к внутри региональным интеграционным процессам. Большое значение имело воздействие на сознание экспертов. Западные державы и их специалисты в данном отношении по степени влияния на политическое сознание доминировали: они точно знали, что необходимо строить и создавать новым независимым государствам, чтобы обеспечить безопасность государства и региона. Наряду с военными мерами, в том числе на базе партнерских программ с НАТО, предлагались меры политические и экономические. В их основе лежали принципы либеральной демократии и открытой рыночной экономики.

В США и сегодня доминирует точка зрения, что основная проблема региона – недостаточная взаимосвязанность (connectivity). Страны Центральной Азии мало торгуют и сотрудничают между собой. Соответственно, нужно снижать барьеры для торговли и передвижения людей, в идеале – совсем снять внутренние границы, но с сохранением полных национальных суверенитетов. «Также нужны прозрачные экономические границы в сторону Китая, Афганистана и Ирана. Получается, что идеал – открытый регион с активной внутренней торговлей и вовлеченный в торговый обмен с Южной Азией, Китаем и Ближним Востоком. Такое транзитно-транспортное видение будущего Центральной Азии, впрочем, предполагает, что эта часть мира в основном экспортирует природные ресурсы и импортирует промышленные товары. Это оставляет открытым вопрос о создании достаточного количества

рабочих мест, чтобы обеспечить приемлемый уровень занятости для растущего местного населения» [3].

Присутствие и влияние третьих сил на геополитическое мышление экспертов Центральной Азии не приводило к главному: именно к формированию регионального мышления, к пониманию региональных интересов. Превалирование в мышлении приоритетов национальных интересов было естественным и неоспоримым фактом формирования новой национальной государственности и укрепления суверенитетов. Роль регионального сознания в создании системы региональной стабильности и безопасности очевидна. Как отмечает в данной связи исследователь Н. Касимова: категорию «регионального сознания» невозможно игнорировать. «Для многих исследователей она даже становится центральным пунктом анализа современного регионализма. Как и отдельные нации, регионы можно рассматривать как сообщества, которые имеют характерные черты. Региональное сознание предписывает принадлежность к особому сообществу, где особую роль играют внутренние факторы: общая культура, история, религиозные традиции» [4].

Вероятно, региональное сознание в Центральной Азии не получило пока еще должного развития, так как региональные интересы целиком не осознаны, иначе не было бы различных взглядов и подходов к таким вопросам как «совместное трансграничное водопользование», «свободная торговля», «развитие транснациональных транспортных коммуникаций» и т.д. Региональные интересы согласовываются сегодня лишь в рамках большого проекта ШОС, где, несмотря на равенство государств-членов, в силу масштабности проекта все-таки преобладают интересы Китая и России.

Если учесть, что страны Центральной Азии после выхода Узбекистана из ЕврАзЭС (2008 г.) и приостановления членства в ОДКБ (2012 г.) связаны лишь тремя международными объединениями: Содружество Независимых Государств (1991 г.); Международный фонд спасения Арала (1993 г.); Шанхайская организация сотрудничества (2001 г.).

Единственным государством, понимающим важность развития регионального сознания и внедрявшим во внешней политики как превентивной дипломатии, является Узбекистан. В Концепции национальной безопасности, принятой в 1997 году, было отмечено, что государства центральноазиатского региона имеют общее культурное наследие, близость языка и менталитета, а также общие социально-экономические, коммуникационные, энергетические, водные и экологические проблемы, которые обуславливают возможность региональной интеграции, которая в свою очередь является одной из основ обеспечения региональной безопасности. Во всей своей региональной политике Узбекистан всегда ссылаясь на данные факторы.

Из-за несогласованности интересов региональной интеграции в регионе были реализованы лишь немногие проекты по региональной безопасности, которые все-таки удавались благодаря инициативе Президента Республики Узбекистан Ислама Каримова (например, создание в центрально-азиатском регионе зоны, свободной от ядерного оружия). К сожалению, другие проекты, не смотря на все усилия своего развития - не получили (ДЕЭП, ЦАЭС, ОЦАС).

Главным условием формирования превентивной дипломатии выступает интеграция, а также общее, единообразное понимание угроз и вызовов. Среди объективных причин медленно развивающегося единообразного понимания региональных интересов – болезнь роста, болезнь становления внешнеполитического механизма, в основе которой лежит отсутствие необходимого внешнеполитического опыта и давления прежних стереотипов международных отношений, основанных на блоковом сознании и дипломатической негибкости.

Блоковое сознание проявилось в скорейшем подписании Договора о коллективной безопасности 1992 года, главным образом нацеленного на призрачного внешнего врага с ядерными боеголовками и регулярной армией и практически бесполезного в отношении новых вызовов и угроз, таких как международный терроризм, наркотрафик, организованная преступность, межнациональная рознь и религиозный экстремизм, приведшие к кровопролитной войне в Таджикистане. В результате, например, из-за неправильной оценки событий в Афганистане того периода, прекращения поставок оружия и другой помощи

светскому режиму, к власти пришли талибы. Эти проблемы продолжают существовать и по сей день.

Соответственно на разном уровне оказались экономические интересы государств, что впоследствии стало причиной конфликтных ситуаций. Государства Центральной Азии, имея сырьевую направленность своих экономик, выступают на внешнем рынке конкурентами. Данная конкуренция конфликтна и при этом не имеет перспективы стимулирующей развитие отраслей, как это, например, происходит в сфере производства товаров с высокой добавленной стоимостью и высоких технологий. Нет экономической интеграции – нет системы регионального разделения труда и соответствующего сознания, нет общего регионального рынка – нет причин, чтобы защищать региональные экономические интересы.

Региональная взаимозависимость государств явление объективное, подкрепленное не только географическими и историческими факторами, но и общими интересами государственного строительства, интересами экономики, мира и стабильности. Отсутствие интеграционных процессов влекут неблагоприятный таможенный и инвестиционный климат, высокие риски при столкновении частного бизнеса с таможенными преградами.

В результате этого в Центральной Азии складывается ситуация, с которой каждая страна должна справляться самостоятельно, максимально задействовав двусторонние дипломатические механизмы для решения возникающих проблем. В связи с этим также возникает необходимость классификации существующих проблем, с тем чтобы оценить влияние этих проблем, как на страну, так и на регион в целом.

В Республике Узбекистан законодательно закреплены вопросы, на которые внешнеполитические ведомства должны обращать особое внимание. В частности, в Концепции внешнеполитической деятельности Республики Узбекистан отмечено, что миру стабильности и устойчивому развитию препятствуют следующие условия и факторы.

Прежде всего, речь идет об особенностях геополитического положения Центральной Азии и наличия в ней огромных запасов минерально-сырьевых ресурсов. В силу этого Центральная Азия стала объектом самого пристального внимания и пересечения стратегических интересов крупнейших государств мира. Все более сложный и динамичный характер приобретает борьба мировых и региональных держав за доступ к природным ресурсам Центральной Азии и соседних регионов и контроль над маршрутами их транспортировки.

Второе. Источником серьезных угроз региональной и глобальной безопасности продолжает оставаться Афганистан. Планы по выводу из Афганистана контингента сил международной коалиции в условиях, когда в стране продолжает сохраняться противостояние противоборствующих сил и нестабильная ситуация могут привести к непредсказуемым последствиям для безопасности в обширном регионе.

Третье. Усиливается стремление крупных государств влиять на определение политического курса и развитие стран Центральной Азии, расширить здесь свое военно-политическое присутствие. В регионе обостряется соперничество внешних сил, преследующих свои собственные интересы.

Четвертое. Прослеживается тенденция активизации различных интеграционных проектов на постсоветском пространстве, направленных на формирование межгосударственных объединений и союзов, делегирование им части национального суверенитета государств. Не исключено, что их создание может выйти за рамки экономических интересов и приобрести политическую окраску и содержание и, как следствие, негативно повлиять на установившиеся торгово-экономические связи и сотрудничество участников этих процессов с третьими странами.

Пятое. Серьезные вызовы и угрозы возникают в связи с сохранением слабости государственных институтов власти в отдельных странах региона, усилением общественно-политической напряженности, углублением социально-экономических проблем, политических и межнациональных противоречий, способных привести к росту нестабильности и распространению экстремистских идеологий.

Шестое. Потенциальные возможности и перспективы экономического развития государств Центральной Азии серьезно ограничивает отсутствие надежной системы транспортно-коммуникационных коридоров, обеспечивающей надежный выход к важнейшим

морским портам. Это сдерживает их полноценную интеграцию в структуру мирохозяйственных отношений, повышает уязвимость перед давлением внешних сил, заинтересованных в сохранении региона в орбите их экономического и политического влияния.

Седьмое. Ситуация в Центральной Азии осложняется незавершенностью процессов делимитации и демаркации государственных границ между соседними странами, которая препятствует эффективному взаимодействию государств региона в решении целого ряда насущных политических, экономических и хозяйственных проблем.

Восьмое. Нерешенными остаются жизненно важные проблемы рационального использования водных ресурсов трансграничных рек из-за отсутствия единых позиций стран Центральной Азии по этому вопросу и игнорирования отдельными государствами норм международного права, регулирующих межгосударственные отношения в области совместного водопользования.

Девятое. Все более опасный характер для благополучия и устойчивого развития Центральной Азии приобретают усугубляющиеся экологические проблемы, такие как последствия Аральской катастрофы, трансграничное загрязнение территорий и водных ресурсов промышленными выбросами предприятий, наносящими урон состоянию окружающей среды, здоровью и генофонду населения стран региона.

Потому в Центральной Азии столько внимания уделяется таким организациям как ШОС.

Проблемы регионального развития охватывают все сферы стратегического развития региона. Их влияние одинаково опасно для всех стран, но прежде всего они влияют на Республику Узбекистан, затрудняя реализацию национальных интересов, угрожая перерасти в более острые фазы, способные привести к реальному ущербу.

В место заключение можно сказать, проблемы развития Центральноазиатского региона так или иначе связаны с вопросами стабильности и безопасности, какой бы природы они не были – экономической, социально-политической или экологической. Для Узбекистана важно эти проблемы рассматривать не только с позиций национальных интересов, но и на основе общих региональных интересов. Эта и одним из основных направлений превентивной дипломатии. Указанные проблемы в одинаковой степени негативно влияют на развитие стран, но в разной степени воспринимаются их внешнеполитическими и внешнеэкономическими институтами. Региональные проблемы отражают некоторые мировые тенденции, которые тем не менее преломляются исторически сложившимися обстоятельствами и факторами. В их числе конфликт интересов в водной сфере, в вопросах демаркации и делимитации границ, различными представлениями о путях государственного строительства и соответственно различными уровнями развитости национальной государственности, неразвитостью транспортных коммуникаций и т.д.

Превентивная дипломатия должна быть готова к адекватным и эффективным решениям и деятельности через тщательное и всестороннее изучение данных проблем. Объективное рассмотрение этих проблем всеми субъектами региона является залогом формирования единообразного представления об их содержании, сути, причин и возможных последствий. На этой основе возможно формирование системы региональных интересов, которые в свою очередь есть главной предпосылкой формирования эффективной системы региональной безопасности и взаимовыгодных интеграционных процессов.

Литература

1. Хасанов У.А. Региональная безопасность и национальные интересы (Центральноазиатский регион). – М., 2004. – С.78.
2. Каримов И.А. Узбекистан на пороге XXI века: угрозы безопасности, условия и гарантии прогресс // По пути безопасности и стабильного развития. Т. 6. – Ташкент: Ўзбекистон, 1998. – С. 35
3. Сафранчук И. Глобализация в головах. Центральная Азия и евразийская интеграция // Россия в глобальном мире. – №1. – 2015.
4. Касимова Н.А. Соединенные Штаты Америки в региональных интеграционных процессах. Политико-экономический аспект. Т.: УМЭД, 2002. – С.15-16.

VIRTUALLIKNI YANGICHA TUSHUNISH: FALSAFIY ASOS

M.N.Normamatova

Samarqand davlat universiteti, o'qituvchi

Ushbu maqolada virtuallik kategoriyasini falsafiy asoslari tahlil qilinib, uning noklassik va postnoklassik k o'rinishlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: virtuallik, imkoniyat, ontologiya, fan metodologiyasi, tafakkur tarzi, noklassik tafakkur tarzi.

Проблема виртуалистики: философские взгляды и пути решения

В статье рассмотрены основы понятия виртуальности и её органичная взаимосвязь с категорией возможности, а также степень применения виртуальности в философии познания.

Ключевые слова: виртуальность, возможность, онтология, методология науки, стиль научного мышления, неклассическая научная картина мира.

Visual problems: philosophical discussions and scientific approaches

Basis of the virtuosity concept and its organic interrelation with the possibility category, as well as the use virtuosity degree in the theory of knowledge are considered.

Keywords: virtuality, possibility, ontology, methodology of science, style of scientific thinking, nonclassic scientific world picture.

Fan jamiyatning ijtimoiy infrastrukturasini tashkil qiladi. Bunday strukturaning asosiy funksiyasi ilmiy va texnologik qadriyatlar yaratishdir.

Nazariya, ta'limot, g'oya ko'rinishiga ega bo'lgan ilmiy qadriyatlarni yaratadigan subyekt – tadqiqotchi va ilmiy jamoadir. Tadqiqotchilar jamoasi faoliyatini yo'naltiradigan, oldin ishlab chiqilgan va keyingi izlanish natijalarini solishtirish imkoniyatini beradigan tuzilma tadqiqot paradigmasi yoki ilmiy tadqiqot dasturidir. Har ikkala tuzilma ilmiy izlanishni amalga oshirishda asos rolini o'ynaydigan strukturalar bo'lib, ular mohiyatan fan ilmiy izlanish birligini tashkil qiladi.

Ilmiy tadqiqot dasturida fan paradigmasi hosil bo'lgan va ma'lum darajada shakllangan ilmiy yo'nalish muammolari belgilangan vaqtda ishlab chiqiladi. Fan paradigmasining vujudga kelishi va shakllanishida vaziyat boshqacha bo'ladi. Biror-bir sohada ilmiy tadqiqot dasturi shakllanmaganda ham empirik tadqiqot yoki nazariy tahlil faoliyati amalga oshiriladi, tushuntirilmagan faktlar, ilmiy muammolar paydo bo'lib turadi, gipotezalar olg'a suriladi. Mazkur epistemologik vaziyatni oldparadigmal holat, deb belgilash mumkin. Virtuallik fenomenini o'rganish mana shu holatdan boshlangan.

Yangi fan paradigmasini vujudga kelishida falsafiy, ilmiy va texnologik asoslarni mavjud bo'lishi shart, lekin yetarli emas. Fan paradigmasi o'zagini tashkil qilgan nazariyaning strukturaviy unsurlari oldparadigmal bosqichda shakllanadi, agarda ular (masalan, virtual tushunchasi) oldingi zamonlarda ilm-fan tarkibiga kiritilgan bo'lsa, yangi ma'no-mazmun bilan boyitiladi. Virtualistika paradigmasi ham shunday evolyutsion o'zgarish pallasidan o'tdi. Mana shunday oldparadigmal konseptual unsurlar qatoriga «virtuallik», «imkoniyat», «potensiya», «reallik», «imkon olamlar» tushunchalarini kiritish mumkin. Ayniqsa, virtualistika paradigmasini bosh konseptual unsuri bo'lgan «virtuallik» tushunchasi qizg'in ilmiy va falsafiy izlanishlar, bahslar predmetiga aylandi.

Aytish kerakki, tadqiqotning oldparadigmal bosqichida yechilmagan muammolar aniqlanadi, murakkab masalalar ustida davomli izlanishlar olib boriladi, ishchi ilmiy gipotezalar olg'a suriladi, lekin umum tan olingan konsepsiya yoki nazariya ishlab chiqilmagan bo'lishi mumkin. Shu fikrni tasdiqlaydigan misollarni fan tarixidan ko'plab keltirish mumkin. Xususan, XVII asrdan boshlab, ya'ni fizika fani hali oldparadigmal bosqichda bo'lganda, nurning fizik tabiati nimadan iborat – korpuskulalar oqimimi yoki to'lqinmi, degan savolga javob izlash ikki asrdan ziyod davom etdi. Fizik tadqiqotning oldparadigmal holati XX asrning boshlarida fransuz olimi Lui de Broyl elementar zarrachalar dualizmi ta'limotini yaratguncha davom etdi. Olim ishlab chiqqan ta'limot uzoq vaqt davom etgan bahsga nuqta qo'ydi. Aniqlanishicha, har bir elementar zarracha bir vaqtning o'zida ham to'lqinli, ham korpuskulyar xossalarni namoyon etadi. [1]

O'tgan asrning 50-80-yillarida virtuallik fenomeni to'g'risidagi bilimlar oldparadigmal bosqichiga xos bo'lgan darajadagi tushunchalar va tasavvurlar shaklida bo'lgan. Bu davrda bilish va amaliyotda doimo uchrab turadigan imkoniyat holati, imkoniyatning borliq va inson faoliyati strukturasidagi o'rni ko'proq o'rganilgan. Imkoniyat esa virtuallik mohiyatining bir ko'rinishini, tomonini tashkil qiladi. Lekin shuni ham hisobga olish kerakki, ishonchli ko'ringan shu tezis xususida turli fikrlar bildirilmoqda.

A.M.Orlovning ta'kidlashicha, virtuallik imkoniyat, ehtimollik holatini bildirib, predmetning evolyutsiyasi jarayonida voqelikka aylanadi. [2]

B.To'rayev shu g'oyaga yaqin quyidagi fikrni bildiradi: "...borliqning shunday qismi ham borki, uning bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin. Borliqning bunday qismi ehtimoliy mazmunga ega. U hali reallikdan uzoqda. Mana shunday mazmundagi borliq virtual borliq deyiladi... Virtual borliqning real borliqqa aylanishi uchun u imkoniyatdan voqelikka aylanishi lozim. ...borliqning hali ro'y bermagan, lekin, ro'y berishi ehtimoli bor, ro'y berishi kutilayotgan, ro'y berishi muqarrar bo'lgan qismi ham bor. Borliqning shunday qismini kelajakda ro'y berishi mumkin bo'lgan ehtimoliy borliq, virtual borliq yoki imkoniyatdagi borliq deyish mumkin" [3].

Berilgan talqindan kelib chiqadigan bo'lsak, ehtimollik, imkoniyat va virtuallik bir xil mazmunga ega bo'lgan reallik, degan fikrga kelish mumkin. Shu bilan birga, adabiyotda virtuallik va imkoniyat nisbati masalasi qo'yilgan. Bu masalaga e'tibor qaratgan H.Muhammadiyev quyidagicha yozadi: "Imkoniyat va virtuallik tushunchalari bir-biriga o'xshash bo'lishi bilan birgalikda, ular o'rtasida ma'lum farqli tomonlar ham mavjud.

Ammo bular o'rtasidagi farqni konkret chegara qo'yish bilan aniqlab bo'lmaydi, chunki bu ikki tushuncha bir-biriga juda yaqin va o'zaro bog'langandir. Virtuallik va imkoniyat o'rtasidagi farq quyidagilardan iborat: birinchidan, imkoniyat ehtimolli, ya'ni uning voqelikka aylanishi yoki aylanmasligi ehtimollik xarakteriga ega. Virtual ob'ekt real holda mavjud va u hamisha aktualdir; ikkinchidan, virtual reallik doimo qandaydir ilk (konstant) reallikdan yaratiladi hamda virtual reallik keyingi darajadagi boshqa virtual reallikni keltirib chiqarishi mumkin va bu jarayon cheksizdir. Imkoniyatning voqelikka aylanishi esa yangi narsa yoki hodisaning vujudga kelishini anglatadi; uchinchidan, imkoniyat voqelikka aylanishi bilan ma'lum shaklga ega bo'ladi. Virtuallik esa mavjud bo'lish holatini bildiradi" [4].

Shu muallif virtuallikni yangi falsafiy kategoriyaga aylanganligini ta'kidlaydi. Virtuallik va imkoniyatni aynanlashtirishga e'tiroz bildirgan boshqa tadqiqotchilar ham bor. Xususan, E.A.Bebnova virtuallikni imkoniyatga hech qanday aloqadorligi yo'qligi haqidagi fikrni keltiradi. Uning fikricha, imkoniyat – voqelik mantig'ida ko'p imkoniyatlar bitta voqelikka aylansa, virtuallikni aktuallashtirish mantig'i butunlay boshqacha yo'nalish va mazmunga ega: yakka, singulyar virtuallik ko'p chiziqlar tomon tarmoqlashib ketadi, ya'ni bunday virtuallik imkoniyat xislatiga ega emas. Shunday bo'lgan taqdirda savol tug'iladi: virtuallikning o'zi nima? E.A.Bebnova bergan ta'rifga ko'ra, virtuallik ideallikning (ma'naviylikning mavjudlik usulidir. Bu ta'rifda muallif virtuallikni ideallik (subyektivlik) bilan aynanlashtirib, uning ontologik mazmuni va mavqe'ini inkor qiladi. [5] N.Shermuxe'dova ham virtuallikni subyektiv reallik ma'nosida talqin qiladi. [6]

E.A.Bebnovaning virtuallik va imkoniyat nisbati masalasi xususida aytgan fikrlariga e'tiroz bildirish mumkin. Birinchidan, ko'p imkoniyatlar yig'ilib bitta voqelikka aylanish holati har doim bo'lavermaydi.

Imkoniyatni voqelikka aylanishida yana asos, sharoit, turtki kabi tomonlarning bo'lishi ham zarur. Bundan tashqari, ko'p imkoniyatlardan faqat bittasi voqelikka aylanishi mumkin. Shuni ko'zda tutib, M.A.Mojeyko voqelikning evolyutsion potentsiali haqida gapirar ekan, alternativ imkoniyatlarning faqat birortasi voqelikka aylanishini, ularning ba'zi birlari umuman amalga oshmasligini va hech qachon voqelikka aylanmaydigan imkonsizlik kategoriyasini bildirishi mumkinligini ta'kidlaydi. [7]

Ikkinchidan, voqelikka aylanmagan imkoniyat ko'pincha potentsial reallik, imkoniyatdagi reallik, deb atalgan. O'rta asr fani, yangi zamon falsafasi va fanida ham virtuallik potentsiallik [8], voqelikda mavjud bo'lgan imkoniy reallik sifatida talqin qilingan. Hozirgi zamon ingliz tilida virtual reality atamasi imkoniy reallik ma'nosini bildiradi. [9]

Ayni paytda, virtuallik tushunchasini imkoniyat kategoriyasidan ajratishga qaratilgan boshqa shakldagi yondashuv ham mavjud. Bunda virtuallik mohiyatini «axborot» tushunchasi orqali ochib

berishga harakat qilinadi. Mazkur yondashuv muallifi E.V.Gryaznovaning fikricha, hozirgi zamon falsafa va fanda mustaqil ma'noga ega bo'lmagan bir qator tushunchalar "virtuallik" tushunchasiga turdosh atamalar sifatida qo'llanilmoqda. Bular – "imkoniyat", "imkon olamlar", "potensiya", "energiya", "ideallik", "ideal reallik", "subyektivlik", "subyektiv reallik" bo'lib, ular virtuallik tushunchasi ma'no-mazmuniga noaniqlik kiritadilar, xolos. Virtuallik muammosida noaniq va nomuayyan ko'ringan kamchilikni bartaraf qilish maqsadida E.V.Gryaznova virtual reallik mohiyatini axborot tushunchasi orqali talqin qilishga harakat qiladi. Tadqiqotchi bergan ta'rifga ko'ra, virtuallik – bu kodlashtirilgan axborotning mavjud bo'lish usulidir. [10]

Har qanday axborotning mavjud bo'lishi, harakat qilishi uchun tashqi ta'sirni axborotga aylantiradigan, uni hosil qiladigan (kodlashtiradigan) manba, axborotni qabul qiluvchi va uzatuvchi tuzilma bo'lishi zarur. Uzatuvchi va iste'molchi o'rtasida aloqa kanali bo'lib, faqat axborot tizimlari bunday strukturaga ega. Axborot tuzilmalari asosan o'z-o'zini tashkillashtiradigan tizimlarda – jonzo, inson va jamiyatda mavjud bo'lib, ularda axborot turli funksiyalarni bajarishda ishtirok etadi. [11]

Axborot tizimini o'zida virtuallik holati turli shakllarda namoyon bo'ladi. Bunday tizimda hosil bo'lgan belgilar (masalan, "olma" so'zidan iborat bo'lgan xabarda) yoki signallar tartibida axborotning ma'nosi kodlashtirilgan bo'lib, shu ma'no virtuallik holatini bildiradi. Iste'molchi bu virtual holatni real in'ikosga, freymga yoki algoritmgaga aylantiradi. Signal va ma'nolarni kodlashtirish, virtualistika fani tili bilan aytganda, konstant reallikni virtuallikka, va aksincha, virtuallikni konstant reallikka aylantirish mexanizmini tashkil qiladi. [12]

Tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlarda virtuallik muammosi

Ko'pchilik tadqiqotchilar imkoniyatni virtual reallikning bir ko'rinishi, holati degan fikrni qo'llab-quvvatlaydilar. Noklassik falsafa va fanda virtuallik imkoniyat ma'nosida talqin qilingan.

Virtuallik muammosi ustida izlanish "virtus", "potensiya", "imkoniyat" tushunchalariga doir refleksiyaning amalga oshirish, an'ana bo'lib qolgan g'oyaviy vorislikni davom ettirish shaklida sodir bo'ldi. Virtualistika paradigmasining asosi bo'lgan virtuallik nazariyasini ishlab chiqqan A.N.Nosov fanga kiritgan "konstant reallik" tushunchasini analogi bo'lgan "voqelik" kategoriyasi aktuallashgan imkoniyat ma'nosida qo'llanilgan. To'g'ri, bu yerda «voqelik» kategoriyasi "konstant reallik" tushunchasiga nisbatan kengroq mazmunga ega ekanligini e'tiborga olishimiz lozim. Bu fikrni konkretlashtirish uchun o'z vaqtida Nikolay Kuzanskiy virtuallikka misol qilib olgan daraxt obraziga murojaat qilamiz.

Gullagan daraxt voqelik sifatida, birinchidan, o'zida virtual holatni (daraxtning irsiy DNKsi) saqlaydi, ikkinchidan, mavjudligi bois, konstant reallikni tashkil qiladi. Daraxtning DNKsida esa uning turi va xususiyatlariga oid genetik axborot kodlashtirilgan. Undagi genetik axborot bo'lajak meva yoki keyingi avlodga qarashli daraxtning virtual, potensial holatidir. Ayni paytda bu holat daraxt voqeligining real mavjudlik tomonini bildiradi.

Noklassik fanlarda virtuallik fenomenini o'rganishdan olingan natijalar noklassik falsafada «imkoniyat» kategoriyasi asosida tahlil qilingan va umumlashtirilgan.

Noklassik falsafa va fan paradigmalari, ularga oid qarashlar, g'oyalar va yondashuvlar hukm surgan paytda, «virtuallik» atamasining o'zi ko'pchilik lug'atlarda lot. virtualis atamasiga havola qilinib «imkoniyat» atamasi sifatida izohlangan.[13]

Shu bois imkoniyat tushunchasi (kategoriyasi) xususida bildirilgan fikrlarni virtualistika fanining oldparadigmal bosqichida virtuallik muammosiga doir rivojlantirilgan g'oyalar va tasavvurlar deb baholash mumkin. Bunda virtuallik imkoniyat ma'nosida narsa va hodisalarning potensial mavjudligi, har qanday harakat va taraqqiyotga bo'lgan moyillik (tendensiya), to'plangan kuch, qobiliyat ma'nolarida talqin qilinadi.

Tadqiqotchilar imkoniyatlar tasnifi, turlari va ularning o'zaro munosabati masalalari ustida ham izlanishlar olib borishgan. Xususan, real, mavhum, zaruriy, nomotetik (qonuniy), situatsion (vaziyatli) alternativ imkoniyatlar farqlangan.

Imkoniyatni voqelikka aylanishining miqdoriy tomoni, me'yori matematikadan olingan ehtimollik tushunchasi orqali belgilangan. [14]

Klassik fizikada ehtimollik biror-bir masalaning shartlari yetarli aniq bo'lmagan va noaniq parametrlar orqali, o'rtacha qiymat olish zarur bo'lgan paytda ishlatilgan. Noklassik fizikada shu narsa aniqlandiki, ehtimollik tushunchasi boshqacha vaziyatni in'ikos etib, yetarli shart-sharoitning

yo'qligini emas, balki, tashqi mavjud shart-sharoitlarda, ob'ektiv potensial imkoniyatlar (ya'ni, virtual holatlar – M.N.) mavjudligini ifodlaydi. Bu o'rinda aytish kerakki, noklassik fizikaning klassik fizikadan farqi shundaki, agar klassik fizikada ehtimollik tushunchasi ikkinchi darajali deb qaralgan bo'lsa, noklassik fizikada esa ehtimollik asosiy tushuncha sifatida qaraladi. [15]

Ayni paytda, noklassik fizikada "virtual", "virtuallik" atamalariga murojaat qilishga undagan epistemologik vaziyat vujudga keldi. Bu atamalardan foydalanish fizika fanining elementar zarrachalarni o'rganish yo'nalishida sodir bo'ldi. AQSH fiziklari M.Gell Mann va P.E. Rozenbaum 1957-yilda chop etilgan "Elementar zarrachalar" deb nomlangan maqolalarida "virtual jarayon", "virtual almashinuv", "virtual foton" atamalarini ishlatishdi. Ularning ta'kidlashlaricha, o'ta qisqa vaqt oralig'ida yashaydigan, kuzatib bo'lmaydigan oraliq holatda bo'lgan zarrachalarni virtual zarrachalar, deb belgilashga to'g'ri keldi. [16]

Keyinchalik, 1974-yilda virtual zarrachalar mohiyati, massa va energiyani o'zaro almashinuv jarayonlarda bevosita qatnashishlarini, buning sababi va oqibatlarini boshqa AQSH olimlari G.V. Kendall va V.K.Panovskiylar batafsil tahlil qilib berishdi. [17]

Fizika fanidan falsafaga «virtual zarrachalar» tushunchasi 1983-yilda o'tdi. Shu yili G.M.El'fimov chop etgan «Vozniknovenie novogo» monografiyasida virtual zarrachalar haqida ma'lumot keltiriladi [18]. Lekin bu bilim (fakt izohi) ham oldparadigmatal tasavvur darajasida qoldi. Umuman olganda, noklassik falsafa va fanda virtuallikning namoyon bo'lish shakli – imkoniyat, uning mohiyati, turlari, borliq va bilimdagidagi rolini o'rganish va hatto, virtual jarayonlar, holatlar va zarrachalar haqidagi bilimni ishlab chiqilishi virtualistik nazariyani yaratilishiga olib kelmadi, ya'ni olib borilgan tadqiqotlar oldparadigmatal izlanish sohasi bo'lib qolaveradi.

Psixologiya fani boshqa fanlarga nisbatan ko'proq virtual holat va tuzilmalar bilan ish ko'radi. Ong, bilish, ruhiyat va ruhiy jarayonlar – bularning hammasi virtual olamning bir ko'rinishidir. Bu olamning tarkibiy qismlari noklassik psixologiyada boshqa atamalar – obraz, tasavvur, insayt, ideallik, model atamalar bilan ifodalangan. Demak, psixologiyada virtualistik qarashlarni vujudga kelishi tabiiy holdir.

Virtuallik g'oyasini gipotetik konsepsiya shaklida vujudga kelishi XX asrning boshlarida Germaniyada sodir bo'ldi. Shu vaqtda ijod etgan Myunster universiteti (keyinchalik Myunxen universiteti) professori Erix Bexer (1882-1929) faylasuf va ruhshunos olim bo'lib, ontologiya, bilish nazariyasi va psixologiya masalalari bilan shug'ullangan.

Erix Bexerning falsafiy qarashlari "Aniq tabiiy fanlarning falsafiy asoslari" asarida bayon etilgan. Bu asarda olim Maxning subyektiv – idealistik ta'limotini tanqid qiladi, o'zining gnoseologik qarashlarini tanqidiy realizm deb atab, "materiya mohiyatini" bilish mumkinligini inkor qiladi, narsa va hodisalarning fenomenologik xossalarini bilish va o'rganish imkoniyati mavjudligini e'tirof etadi.

E.Bexer psixovitalizm yo'nalishi namoyandasi sifatida psixofiziologik muammolar bilan ham shug'ullangan. Bu borada olim o'z davri uchun original xususiyatga ega bo'lgan virtualistik gipotezani ishlab chiqadi [19]. Uning gipotezasiga ko'ra, inson organizmi o'ziga xos virtual shakl bo'lib, bu shakl o'zaro mutanosib bo'lgan birlamchi darajadagi virtual tuzilmalardan tashkil topgan. Virtual tuzilmalar entelexiya (vitalistik talqinda – ma'no bilan sug'orilgan kuch) boshqaruvida bir butunlikni hosil qilishadi, butunlikdagi barcha qismlar esa doimo o'zaro ta'sirda bo'ladi.

E. Bexer ishlab chiqqan ta'limotda yana bir g'oya olg'a suriladi. Unga ko'ra, bosh miya yangi virtual tuzilmalarni vujudga keltiradigan organdir. Agarda ta'sirlanish sodir bo'lsa, bu organizmdagi virtual tizim muvozanatini buzilishiga olib keladi. O'z navbatida, organizmda yuz beradigan muvozanatning buzilishi va tiklanishi ikkilamchi darajadagi virtual tuzilmani vujudga keltiradi. Shunday ekan, ruhiyatni tayanchi tana emas, balki virtual jarayonlar majmuasidir.

Bexer tana, undagi turli funktsiya va jarayonlar realligini inkor qilmaydi, faqat organizmdagi barcha psixofiziologik jarayonlar birligi va muvozanati xayoliy virtuslar faolligi bilan belgilanishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, jon (ruh) va tana garmoniyasi entelexiya faolligi hamda birlamchi va ikkilamchi darajadagi virtual tuzilmalar o'rtasidagi aloqadorliklar bilan ta'milanadi.

Shuni ta'kidlash joizki, virtuallik g'oyasi evolyutsiyasi bayon etilgan adabiyotlar oz emas, lekin ularda nima uchundir E.Bexerning virtualistik konsepsiyasiga o'rin ajratilmagan. N.A.Nosov indviddagi virtual realliklar majmuasini ifodalaydigan «virtual inson» tushunchasini ishlab chiqqan [20].

Vaholanki, endi ma'lum bo'lishicha, shunga yaqin gipotezani to'g'ri psixovitalizm ta'limoti formatida bo'lsa ham, E.Bexer yaratgan. XX asrning birinchi yarmida virtuallik fenomenini kompleks

tarzda o'rganish uchun zarur bo'lgan falsafiy, ilmiy-nazariy va texnologik asoslar vujudga keldi. Bu o'rinda kibernetika va umumiy tizim nazariyasining falsafiy masalalari bilan shug'ullanish, tabiiy va sun'iy aqllar mohiyati va o'zaro nisbati, axborotlarni modellashirish muammolarini tahlil qilish bir qator ijobiy natijalarni berdi.

Adabiyotlar

1. Луи де Бройль. Революция в физике. Пер.с франс. М.,1963: Гейзенберг В. Физика и философия. Пер. С немецкого.М., 1989.-С.18-19.
2. Орлов А.М. Правое и левое как тоисы виртуальности// Виртуальные реальности.- М.,1998.-С.186
3. Turaev B.O. Borliq:Mohiyati, shakillari,xususiyati. Risola. –T.;O‘ZRFA I. Mo‘minov nomidagi ilmiy tekshirish instituti. 2011. 21-23 b
4. Mumammadiev H.H “Virtuallik” tushunchasining falsafiy-tarixiy tahlili // Ilm-fan va ta’lim - istiqlool poydevori. Respublika ilmiy-nazariy seminar materiallari. 28 noyabr, 2013 y. Samarqand – Toshkent, 2013. 6
5. Бебнова Е.А. Онтологический статус виртуальной реальности? // Седьмая дальневосточная конференция молодых учёных. Сборник материалов. Владивосток, 2002.
6. Shermuxamedova N. Fan falsafasi va metodologiyasi. - T., 2006. -200-204 b.
7. Можейко М. А. Возможность и действительность // Новейший философский словарь. Минск, 1999. – С. 125.
8. ”Potensial” atamasi qomusiy lug‘atlarda manba, imkoniyat, inson, jamiyat va davlatning ma’lum jabhadagi imkoniyatlari ma’nolarida izohlanadi. Qarang; Большой энциклопедический словарь. М., 1998. –S. 948.
9. <http://dic.academic.ru/dic.nst/finens/21081>
10. Грязнова Е.В. Виртуальная реальность: измененное состояние сознания или информационный феномен? // Международная конференция «Измененное состояние сознания». Сборник трудов. –СПБ.:СПГУ, 2006. –С.55-66.
11. Кушонов Ш.С. К вопросу о специфике информации // Труды СамГУ (общественные науки). Новая серия. Вып. № 340. Самарканд : СамГУ, 1976.-С.55-76.
12. Normamatova M. Axborot va virtuallik tushunchalarining epistemologik talqini// Fan va falsafada innovatsion tafakkur muammolari (ilmiy maqolalar to‘plami). Samarqand: SamDU,2010. 48-49 b
13. Кушонов Ш.С. К вопросу о специфике информации // Труды СамГУ (общественные науки) . Новая серия. Вып. № 340. Самарканд : СамГУ, 1976.-С.55-76 Краткий словарь иностранных слов.М.,1966.-С.64; Словар иностранных слов. М., 1989.-С.106.
14. Можейко М.А. Возможность и действительность // Новейший философский словарь. Минск, 1999.-С.125-126.
15. Ehtimollik // Falsafa. Qomusiy lug‘at. Toshkent: “Sharq”. 2004. 469 b
16. Гелл-Манн М., Розенбаум Р.Е. Элементарные частицы // Пер.с англ. Вып. 2. М., 1963.
17. Кендалл Г.В., Пановский В.К. Структура протона и нейтрона // Элементарные частицы. Пер. с англ. Вып.9. М.,1973.-С19-36
18. Елфимов Г.М. Возникновение нового. М , 1983.-С.109
19. Философский энциклопедический словарь. М.: Инфра –М,2009.С .70
20. Носов Н. А. Словарь виртуальных терминов // Труды лаборатории виртуалистики. Вып. 7. М.: «Путь», 2000. –С.69.

UDK:1.101.8

BADIIY-ESTETIK IJODDA O'Z-O'ZINI TASHKILLASHTIRUVCHI OMILLAR XUSUSIDA**Sh.Tursunqulova***Samarqand davlat universiteti, o'qituvchi*

Ushbu maqolada san'atning ma'naviy ahamiyati va badiiy-estetik ijod o'z-o'zini tashkillashtiruvchi tizim sifatida falsafiy nuqtayi nazardan tahlil etiladi. Shuningdek, ijodning falsafiy bilimlar tizimidagi konsepsiyalari va badiiy estetik ijodda tasavvur va fantaziyaning nochiziqli jarayon ekanligi tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: san'at, ijod, badiiy-estetik ijod, tasavvur va fantaziya, nochizlilik.

O faktorax samoorganizatsii v khudozhestvenno-esteticheskom tvorchestve

V stat'ye analiziruyetsya s toчки зрения filosofii znachenie suщности iskusstva i khudozhestvenno-esteticheskogo tvorchestva kak samoorganizuyushей системы, a takzhe issleduyutsya konceptsii otnositel'no системы filosoficheskikh znaniy, nelineynosti predstavleniy i fantaziy v khudozhestvenno-esteticheskom tvorchestve.

Ключевые слова: искусство, творчество, искусство, представление, фантазия, нелинейность.

About factors of self-organization in the artistic and aesthetic creativity

The article analyzes the essence of art and artificial in the aspect of philosophy. Additionally there are mentioned the conceptions of creative works in the systems of philosophical knowledge and the work of art which are the pattern of literary and aesthetic creative work.

Keywords: art, creative activity, artistic aesthetic creative activity, self-organisation, presentation, fantasy.

Hozirgi kunda jamiyatimiz ma'naviyatini yuksaltiruvchi omillardan biri san'at hisoblanadi. San'at ham boshqa sohalar kabi o'zida milliylik va umuminsoniylikni saqlagan holda, yurtimizda yangi hayot, yangi jamiyatning ma'naviy asoslarini mustahkamlash, komil insonni tarbiyalash yo'lida murakkab vazifalarni bajarib kelmoqda.

Mamlakatimizda bugungi kunda san'at va badiiy-ijod bilan shug'ullanish uchun iste'dod va qobiliyat egalariga erkin ijod uchun, milliy qadriyatlarimiz va boy ma'naviyatimizni, xalqimiz tarixini, uning bugungi sermazmun hayotini to'laqonli va haqqoniy aks ettirish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. San'at turidan qat'iy nazar ijodkorlarning faoliyatida Vatan va xalq manfaati, ezgulik va insoniylik tamoyillari asosiy omil hisoblanadi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, "Agarki, har qaysi ijodkor o'z asarlarida ana shu o'lmas g'oyalarni bosh maqsad qilib qo'ysa, ularni badiiy mahorat bilan ifoda eta olsa, hech shubhasiz, adabiyot ham madaniyat va san'at ham tom ma'noda ma'naviy yuksalishga xizmat qilib, o'zining ijtimoiy vazifasini to'liq ado etishga erishgan bo'ladi.[1.159]

San'atning ijtimoiy vazifasini to'liq amalga oshishi uchun u erkin ijodiyot qonuniyatlariga asoslanishi lozim. San'at ahli oldida millat va mamlakat taqdirini hal qiluvchi, yangi zamon tarixini yaratuvchi xalq badiiy-estetik tafakkurini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi badiiy ijodiyot namunalarini yaratish zaruriyati turibdi. Ma'lumki, san'at inson ongi va tafakkuriga ta'sir o'tkazib, badiiy-estetik oziq beradigan tarbiya vositalaridan biri sifatida insonni barkamollikka, bunyodkorlikka, ijodkorlikka da'vat etadi. Inson qalbida ezgulik, go'zallikka intilish g'oyalarni shakllantirishdek ahamiyatga molik xususiyatining mavjudligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun san'atni yuzaga keltiradigan inson va uning ongi bilan bevosita bog'liq bo'lgan omillarni o'z-o'zini tashkillashtiruvchi tamoyillar nuqtayi nazaridan tahlil etish san'at va badiiy-estetik ijodga doir yangi g'oya va falsafiy tushunchalarni beradi.

Bugungi kunda murakkab o'z-o'zini tashkillashtirish "uchinchi ming yillik fani" [2.249] sifatida qaralayotgan sinergetika nuqtayi nazaridan o'rganilmoqda. San'atga sinergetik yondashuv uning murakkab o'z-o'zini tashkillashtiruvchi tizim ekanligini, bu tizimda badiiy-estetik ijod alohida o'rin egallashini ta'kidlash mumkin, chunki san'at asarlarining mazmun-mohiyatini badiiylik va go'zallik ifoda etadi.

Badiiy-estetik ijodning sinergetik xususiyatlarini tushunish uchun dastlab ijodning falsafiy bilimlar negizida paydo bo'lgan konsepsiyalarini ko'rsatib o'tish muhimdir. Bular qo'yidagilardan iborat:

- gnoseologik konsepsiya, unga ko'ra, ijod ongning funksiyasidir, chunki, ijod subyektning faoliyati bo'lib, uning ob'yektga, uni o'zlashtirishga bo'lgan faol munosabati bilan belgilanadi.

- ontologik konsepsiyasi ya'ni ijodning muhim xususiyati – bu yangilik, yangi narsaning yaratilishidirki, bu muayyan tizimning o'zida yangi holat, element yoki tuzulishini paydo qilishlikda namoyon bo'ladi. Ya'ni ijod – bu yaratuvchanlik qobiliyati bor sistemalarning universal xossasidir [3.43]

- aksiologik konsepsiyaga ko'ra, ijodning tom ma'nodagi mohiyati, ijod subyektining ochiq tizim tarzidagi xususiyati – obyektga his-tuyg'u va mushohada-shuuriylik birligi bilan shartlangan qadriyatlik munosabatida bo'ladigan faoliyatdir. [4.9] Unga ko'ra, badiiy tafakkur konkret shaxs borlig'i, mohiyatining muhim atributi sifatida emas, balki, asosan sof gnoseologik fenomen, ya'ni bilish jarayonining yakuniy bosqichi tarzida olib qaraladi va bunda his-tuyg'u uning uchun yo'ldosh jihat deb hisoblanadi. Shu asosda fan, falsafada "aql", "fikir", "mushohada", "shuur" kabi his-tuyg'uga muqobil tushunchalar shakllanadi.

Falsafiy lug'atda ijod jarayoni kashfiyotchilik va ixtirochilikdir deb tushuntiriladi, ya'ni kashf etish jarayoni fanga no'malum bo'lgan obyektiv hodisalarni, xususiyatlarni, qonuniyatlarni ochib, bilimlar tizimiga tub o'zgarishlar kiritadi - [5.147] deya, umumiy ta'rif berilgan.

Hozirgi kunda ijodning sinergetik konsepsiyalari ham talqin etilmoqda, xususan, professor Sh.Qo'shoqov "ijodni o'z-o'zini tashkillashtiruvchi tizimlarda yangi, takomillashgan, harakat va tartibotni vujudga kelishidan iborat tuzulma" [6.80] deya ta'kidlaydi. Unga ko'ra, muhit bilan modda, energiya va struktura almashinuvini amalga oshirayotgan tizimlarda ijodkor attraktorlar va fraktallar paydo bo'ladiki, ularning yo'naltirilgan va tartiblashtirilgan ta'sirlari natijasida yangi holat, tuzilma va tartibotlar yuzaga kelishi jarayoni sodir bo'ladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni ta'kidlash mumkinki, ijod falsafiy bilimlarda alohida o'rganilayotgan sohalardan sanaladi, shu bois ijodga berilayotgan ta'riflar bu bilan chegaralanmaydi. Biz quyida ijod turlaridan biri badiiy-estetik ijod va uning murakkab o'z-o'zini tashkillashtiruvchi omillari to'g'risida fikr yuritamiz.

Badiiy-estetik ijodda subyektning obyektga bo'lgan munosabati spontan, fluktuasion, nochiziqli bo'lishi o'z-o'zidan sinergetik nuqtayi nazarni keltirib chiqaradi. Ijodiyot turidan qat'iy nazar faraz, gipoteza va albatta, fantaziya bilan bog'lanadi. Aynan shu holatlar nochiziqli dunyoqarashni yuzaga keltiradi. Nochiziqlilik dinamik xususiyat bo'lib, tizimning turli-tumanligini belgilaydi. Nochiziqlilikning muhim xususiyatini "kichik narsaning o'sishi" prinsipi (fluktuasiya kuchayishi), tizim evolyutsiyasi yo'llarining ma'lum spektri mavjudligi bilan ham izohlanadi.

San'atda badiiylik, estetik qiymat va go'zallik bir-biri bilan o'zaro aloqadorlikda, ajralmas jihatlarni tashkil etib, badiiy asarni san'at darajasiga ko'taradigan asosiy omillar sanaladi. San'atda badiiylikning go'zallik va estetik uyg'unlik bilan qorishib ketishini ko'ramiz. Badiiy-estetik ijod natijasida san'at asarlari vujudga keladi, ya'ni kreativlik yuzaga keladi, ushbu jarayon ham sinergetik qonuniyatlarga amal qiladi. Inson san'at asarlarini yaratishda o'z qobiliyatidan kelib chiqib, badiiy-estetik ijodga to'la bo'ysunadi, ammo har qanday yaratilgan badiiy-ijod namunasi ham san'at asari darajasiga ko'tarilmaydi. Shuningdek insonlarning ham hammasi san'at, badiiy-estetik ijod bilan shug'ullanish qobiliyatiga ega emas.

Demak, badiiy-estetik ijod san'atni vujudga keltiruvchi jarayon sifatida subyektning ijtimoiy voqelikka yoki tabiatga nisbatan badiiy-estetik munosabatini yoritib beradigan murakkab, inson ongi, tafakkuri bilan bog'liq bo'lgan, bevosita subyektga xos ijodiy ichki kechinma, fantaziya va taassurotlarni turli vositalar orqali shakllantiradigan kreativlik xususiyatiga ega bo'lgan jarayondir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni ta'kidlash mumkinki, san'atda ijod va badiiy-estetik ijod bir-biri bilan uzviy aloqadorlikda bo'ladi, chunki san'at asarlarida badiiylik mavjud bo'lmasa yoki badiiy asar estetik jihatdan go'zallikka yo'naltirilmagan bo'lsa, unday badiiy asarlar san'at darajasiga ko'tarilmaydi.

Badiiy-estetik ijodda tasavvur asosiy o'rinda turadi. Badiiy tasavvur ijodkorning faoliyatida qanday murakkab vazifani bajaradi, masalan rassom badiiy yoki boshqa turdagi adabiyotlar bilan tanishib, rasmlardan ko'rib ham qiyofalarni, manzarani, tabiatni chizishi mumkin. Bu ijodiy jarayonda

insonning olamni anglashdagi badiiy tasavvuri asosiy vazifani bajaradi. Tasavvurlarda jonli mushohada bilan birga mavhum, mantiqiy tafakkur ham chirmashib ketadi. Tasavvurlar jonli mushohada tarzida narsalar va hodisalar aksi, mavhum tafakkur tarzida esa umumlashtirish usuli orqali namoyon bo'ladi. Tasavvurlar hissiyotli va mavhum hodisalar oralig'idan o'rin oladi, ularda nafaqat voqelik, balki unga bo'lgan munosabat ham aks etadi. Inson nimani tanlaydi, nimani ilgari suradi - bularning barchasi tasavvurlarda namoyon bo'ladi. Shunday qilib, badiiy tasavvur san'at asarlarida badiiy qiyofa yaratishga yordam beradi. Shuni aytish joizki, ijodkorning badiiy qiyofalar yaratish qobiliyati uning tasavvurlar hosil qilish qobiliyatidan kelib chiqadi.

Badiiy tasavvurda rejalangan qiyofalar ijodkorning estetik orzusiga, uning go'zallik va mukammallik haqidagi o'y-fikrlariga mutanosib bo'ladi. Badiiy ijod jarayonida tasavvur kelajakni orzu-umidlar orqali oldindan ko'rishi kuzatiladi. Badiiy tasavvur tarkibida insonning orzu-umidlari, intilishlari va ehtiyojlari mavjud bo'ladi. Shu bois tasavvur ijod uchun rag'batlantiruvchi, birlashtiruvchi, tashkillashtiruvchi omil sifatida xizmat qiladi.

San'atda voqelik badiiy to'qimasiz, to'qima esa voqeyiy hodisalarsiz aks etmaydi. Voqelik xayol-tasavvur hosil qilib, bu xayol - tasavvurlarga hayotiylik baxsh etadi. Puxta o'ylangan, oylab, yillab ongda shakllangan tasavvurlar mahsulining mazmundorligini kuchaytiradi. Badiiy ijodkor tasavvur yordamida ongidagi hayot tafsilotlarini, qahramon xulq-atvorini, uning tashqi ko'rinishini va boshqa xususiyatlarini qayta tiklab olishi mumkin.

Ijodkor obraz hayoti bilan bog'liq muhim bir jihatni qayta yaratish uchun ham hayotining barcha tafsilotlarini to'la tasavvur qilishi darkor. Masalan, yozuvchi o'z qahramonini mehnat jarayonida ifodalash uchun uning kundalik turmushdagi, oilaviy va shaxsiy hayotdagi xulq-atvorini tasavvur qila olishi yoki aksincha, qahramonning shaxsiy hayotini ishonarli tasvirlash uchun ijodkor uning mehnat jarayonidagi xulq-atvorini to'la tasavvur etishi lozim bo'ladi.

Fantaziya va tasavurning o'ziga xos xususiyatlari shundaki, birinchidan, tasavvur bor narsani, bor bo'lishi mumkin bo'lgan narsani, bilgan ma'lumotlarimizni yaratadi, ikkinchidan, fantasiya yo'q narsani, voqelikda uchramaydigan narsalarni, hech qachon bo'lmagan va bo'lmaydigan narsalarni yaratadi. Ammo, shunday fantaziya ham mavjudki, ular real voqelikka aylangan. Masalan, xalq fantaziyaalaridan biri uchar gilamlarning yaratilganligi, odamlar keyingi davrlarda uchish moslamalarida ko'kka parvoz qilish, fazoga ko'tarilish mumkinligini bilishmagan.

Tasavvur va fantasiya badiiy-estetik ijodning samaradorligini oshiruvchi murakkab o'z-o'zini tashkillashtiruvchi sinergetik omillar sifatida nochiziqlilikni yuzaga keltiradi. Tasavvurda yaratmoqchi bo'layotgan manzara yoki obraz to'g'risida axborotni yig'ish, mohiyatini anglash dastlabki holatda kuchli tartibsizliklarga uchraydi. I.Prigojin fikriga ko'ra, tartibsizlik va kaosdan o'z-o'zini tashkil etish jarayoni natijasida spontan ko'rinishdagi birlashmalar hosil bo'ladi [7.432]. Inson ongida sodir bo'ladigan nochiziqli, fluktuatsion, tasodifiy bu jarayonlar nafaqat destruktiv, balki konstruktiv, yaratuvchi vazifasini ham bajarishi mumkin. Bu jarayonda insonning hayotiy tajribasi, dunyoqarashi, ijtimoiy muhit, ijodiy erkinligi eng muhim rolni o'ynaydi. Tabiat va jamiyatda ma'lum bo'lgan, ijodkor uni ko'rib, anglash va reja orqali yaratayotgan badiiy asarning yaratilishi tartibli holatda bo'ladi. No'malum voqelik, ko'rmagan, avval anglanmagan, his etmagan obraz yoki manzarani yaratilishi to'satdan, kutilmagan tarzda paydo bo'lishi tartibsizlik holatini keltirib chiqaradi.

Badiiy-estetik ijodda bunday nochiziqli holatlarning mavjudligi badiiy asarlarning turli tumanligi, takrorlanmasligini namoyon etadi. Shaxs badiiy-estetik ijodi turli omillar ya'ni inson ongi, tafakkuri va tashqi muhit ta'siri ostida shakllanib, unda tasavvur, fantasiya, his-tuyg'u kabi inson ongi bilan bog'liq boshqa xususiyatlarning o'rni kattadir. Ijod, badiiy ijod, badiiy-estetik ijod o'z navbatida san'atning murakkab o'z-o'zini tashkillashtiruvchi omillaridan hisoblanadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni ta'kidlash mumkinki, bugungi kunda san'at insonni insoniylashtiruvchi, har bir odamning o'z iste'dod va salohiyatlarini ro'yobga chiqarish va ularda tashabbuskorlik, g'ayrat, ijodkorlik tuyg'ularini zavqiy haqiqat bilan bog'lashda bemisl tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, ma'naviyatni buzadigan, inson ongida buzg'unchilik, jaholat va axloqsizlik tushunchalarini shakllantiradigan san'at asarlari ham mavjudki, ularga qarama-qarshi turadigan sog'lom va go'zallik qonuniyatlariga asoslanadigan estetik immunitetni shakllantirish zarur. Bu jihat alohida o'rganilishi lozim bo'lgan o'z-o'zini tashkillashtirish jarayonidir.

Xulosa qilib aytganda, **birinchidan**, san'at inson qalbini davolovchi, uning axloqiy qiyofasini shakllantiruvchi, ma'naviy jihatdan komil inson bo'lib voyaga yetishida asosiy omillardan biri sifatida

xizmat qiladi. Shuning uchun san'at, ijod bilan shug'ullanish uchun mamlakatimizda keng imkoniyatlar yaratilgan, **ikkinchidan**, san'atning asosiy mazmunini badiiy-estetik ijod belgilaydi. San'at asarlari o'zida badiiylilik, go'zallik, estetik tarbiyaviylilik ma'nolarini mujassam etishi lozim, **uchinchidan**, falsafiy bilimlar negizida ijod jarayonining gnoseologik, ontologik, aksiologik va sinergetik ta'riflari bilan tanishish orqali ijodning ko'pqirrali jarayon ekanligini ko'rishimiz mumkin, **to'rtinchidan**, badiiy-estetik ijod o'z-o'zini tashkillashtiruvchilik xossalariga ega bo'lib, o'zida sinergetik jabhalarni namoyon qiladi. Badiiy-estetik ijodda nochiziqlilik, kaos va tartibli holatlar ajralmas, bir-birini taqozo etadi, **beshinchidan**, badiiy-estetik ijod bevosita inson ongi bilan bog'liq bo'lgan jarayon sifatida unda tasavvur va fantaziya nochiziqlilikni keltirib chiqaradi.

Adabiyotlar

1. Каримов И.А. Юсак маънавият – энгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008. – 159-бет.
2. Хакен Г. Информация и самоорганизация: микрокопический подход к сложным системам. - М: Ком Книга, 2005. –С.249.
3. Қўшоқов Ш.С. Ижод муаммоси: тавсифлар, назарий, ғоялар ва универсал тасаввурлар. Ижодиёт ва инсон омили. –Самарқанд, 1994. 43-бет.
4. Оллоёров М. Оллоёрова М. Санъат маънавиятининг таркибий қисми. Рисола.-Самарқанд, 2000. 9-бет.
5. Фалсафа қисқача изоҳли луғат. -Т.:”Шарқ” НМАК, 2004. 284-бет.
6. Қўшоқов Ш.С. Синергетика, виртуаллик ва ижод. Синергетика: ривожланиши ва истиқболлари. Республика илмий анжуман материаллари. Наманган, 2010. – 80-бет.
7. Пригожин И., Стенгерс И. Порядок из хаоса. –М.: Прогресс, 1986. – С.432.

UDK: 327.39:323 (579.1)

XALQARO EKOLOGIK SIYOSAT VA UNDA O'ZBEKISTONNING TUTGAN O'RNI

A.T.Quldotshev

Samarqand davlat universiteti, mustaqil izlanuvchi

E-mail: asli-0708@mail.ru

Mazkur maqolada globalashuv sharoitida O'zbekiston davlat ekologik siyosatining asosiy jihatlari va tushunchalari, shuningdek, mustahkam rivojlanish yagona siyosatining o'zgarish tendensiyasi hamda tartibga solishning chora-tadbirlari tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: atrof muhitni muhofazalash, davlatning ekologik siyosati, jamiyat, ekologik konunchilik, davlatning ekologik chora-tadbirlari.

Международная экологическая политика и роль Узбекистана

В статье анализируются особенности формирования государственной экологической политики Узбекистана в условиях глобализации, а также стратегия регулирования и тенденции изменения единой политики устойчивого развития, подходы к ее пониманию.

Ключевые слова: охрана окружающей среды, государственная экологическая политика, общество, экологическое законодательство, экологическая стратегия государства.

The international environmental policy and the role of Uzbekistan

The article analyzes the peculiarities of formation of state ecological policy of Uzbekistan in the context of globalization, as well as the strategy of management and trends in unified policies for sustainable development, approaches to its understanding.

Keywords: environmental protection, state environmental politics, society, environmental legislation, environmental strategy of the state.

Hozirgi davrda dunyo miqyosida globalashuv jarayoni tez sur'atlar bilan jadallashib borayotgan sharoitda insoniyat uchun ekologik xavfsiz makonda yashash masalasi tobora dolzarb muammoga aylanmoqda. Ona sayyora muhitini keskinlashtirayotgan ekologik xavf, hatto yadro talafotidan ham dahshatliroq tarzda namoyon bo'lib bormoqda va yer yuzidagi barcha xalqlarni bu haqda chuqurroq o'ylashga majbur etmoqda. Shunday ekan, xalqaro ekologik siyosat nuqtayi

nazaridan asrimizning boshlanishini ikki muhim tendensiya bilan baholash o‘rinli bo‘ladi. Bulardan birinchisi, hozirgi sivilizatsiyaning global ekologik muammolar iqlim o‘zgarishi, ozon qatlamining buzilishi, toza ichimlik suvi tanqisligi, bioxilma-xillikning qisqarishi, ortiqcha chiqindilarning hosil bo‘lishi, ularni utilitatsiyalash muammosi va boshqalarga duch kelishi bo‘lsa, ikkinchisi, dunyodagi qator mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarining jadal sur‘atlarda rivojlanib borishi bilan xarakterlanmoqda.

Ekologik siyosatning vaziyatga qarab “tahrir” qilinishi, ya’ni obyektiv shart-sharoitlar va subyektiv omillar ta’sirida o‘zgarayotgan tashkiliy strukturalari, harakat dasturlari, mafkuraviy postulatlar, metodologik yondashuvlarini vaziyatga operativ moslashtirib, modernizatsiyalashtirishni kun tartibiga qo‘ymoqda.

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, xalqaro ekologik siyosiy munosabatlar integratsiyasi ko‘pqirrali bo‘lib, bu jarayonni boshqarishga kompleks-sistemali yondashishni talab qiladi, ya’ni: birinchidan, xalqaro ekologik siyosiy munosabatlarni tartibga solish milliy, mintaqaviy va global ekologik makondagi tabiiy atrof muhitni muhofaza qilishdagi ijtimoiy-huquqiy tadbirlari samaradorligini oshirish maqsadida shakllanishi; ikkinchidan, ekologik munosabatlarning siyosiy institutlari integratsiyasi har bir davlatning dunyo ekologik munosabatlari sistemasiga organik uyg‘unlashish mexanizmlari funksiyasini ijtimoiy-siyosiy jihatdan tartibga solishi; uchinchidan, ekologik siyosatning lokal, regional va global miqyoslardagi transformatsiyasi, ularning kundalik ehtiyojlaridan kelib chiqishi va istiqboldagi manfaatlariga mos kelishi; to‘rtinchidan, milliy ekologik siyosatning tashqi omillar ta’siridagi strukturalarini doimiy modernizatsiyalashtirish va global siyosatga integratsiyalashish imkoniyatlarini e’tiborga olish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Mutaxassislarining ma’lumotlariga ko‘ra, bugungi kunda sayyoramizda turli xil yoqilg‘ilarni yoqish sababli yiliga 10,1 milliard tonna kislorod sarf bo‘lmoqda, qishloq xo‘jaligiga yaroqli yerlarning 70 foizi, chuchuk suvlarning 20 foizi o‘zlashtirilmoqda, o‘rmonlar yildan-yilga kamaymoqda, cho‘l zonalarining maydoni oshayotgani sababli havo harorati yildan-yilga ko‘tarilmoqda. Shuningdek, oxirgi 50 yilda yer yuzi aholisi deyarli uch marotaba o‘sgani, texnikaning, sanoat korxonalarining rivojlanishi natijasida transport vositalarining soni 900 milliondan ortgani, hosil qilingan elektr energiyasining 80 foizi an’anaviy uglevodorod xomashyosi asosida ishlab chiqarilayotgani atrof-muhitga jiddiy zarar yetkazmoqda. Shuningdek, bugungi o‘zgarib borayotgan ekologik muvozanat tufayli hayvonot va o‘simlik turlarining yo‘qolib borayotgani, havo haroratining ko‘tarilib, suv yetishmasligi bilan bog‘liq muammolarni hal etish yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, Afrika qit’asining Chad, Mali, Nigeriya kabi mamlakatlarida har 10 yilda yog‘ingarchilik 10% ga kamayib ketmoqda. 1990-2050-yillarda Yer yuzidagi o‘rtacha harorat selsiy shkalasi bo‘yicha 1,5 gradusga ko‘tarilishi prognoz qilinmoqda. Ushbu muammoning qanchalik katta ekanini bilish uchun uning so‘nggi muz davridan to bugungi kungacha (4000 yil davomida) bor-yo‘g‘i 0,5 gradusga ko‘tarilganini bilish kifoya[1].

1973-yilda yuz bergan energetika inqirozining oqibatlari hozirgacha sezilmoqda. Jahon va milliy tabiiy zaxiralarning kamayib borishi, atrof -muhitning ifloslanishi, neft -gaz qazib chiqarishning globallasuvi, sanoati rivojlangan davlatlar uglevodorod xomashyo bilan ta’minlanganligining pasayishi, neft va gaz narxlarining o‘sib borishi oqibatida to‘lash qobiliyatiga ega yirik iste’molchilarning paydo bo‘lishi energetik muammolarning kelib chiqishiga olib kelmoqda [2]. Shuning bilan bir qatorda, “Dunyoning rivojlangan Yettiligi hamda G‘arbiy Yevropaning rivojlangan 24 mamlakatida dunyo aholisining 23 foizi yashaydi. Ammo shu aholi jahonda ishlab chiqarilayotgan energiya 75 foizini, yoqilg‘ining 79 foizini, o‘rmon mahsulotlarining 95 foizini iste’mol qiladi. Eng qizig‘i, bu ashyolarning asosiy qismi uchinchi dunyo davlatlaridan olinadi” [3]. Bularning oqibati o‘laroq, dunyoda ekologik muhitning yomonlashuvi bilan bog‘liq turli xil kasalliklar ham kelib chiqmoqda. Ayni paytda, ekologik inqiroz – jamiyat, tabiat va insoniyat inqirozidir. Shunday ekan, inson jamiyat va tabiat bilan hamnafas bo‘lishi, tabiatdan oqilona foydalana olishi maqsadga muvofiq. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich ta’kidlaganidek, “...bu ko‘hna dunyo, biz yashayotgan hayot yagona, yaxlit bir voqeyelikdir. Shunday ekan, moddiy ehtiyojlarni insonning ruhiy olamiga qarama-qarshi qo‘yish, ularning birini ustun deb bilgan holda, tiriklikning asosiy maqsadi sifatida qabul qilish qandaydir biryoqlama qarash ifodasi, deb aytak xato bo‘lmaydi” [4].

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi xalqaro huquqning to‘laonli subyekti sifatida atrof-muhitni muhofaza qilish, aholi salomatligini himoyalash, tabiiy

resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan izchil ekologik siyosat yuritmoqda. Buning natijasida keyingi yillarda atmosferaga ifloslantiruvchi moddalarning chiqarilishi 1,9 barobarga, ifloslangan oqava suvlarning tashlanishi qariyb 2 barobarga kamaydi. O'simliklarni biologik himoya qilish usuliga o'tish hisobiga pestitsidlardan foydalanish keyingi 10 yilda 5 barobarga qisqardi. Milliy ekologik muammolarni hal etishga xalqaro tashkilotlarni jalb etish yo'lga qo'yildi. Shuningdek, mamlakatimizda so'nggi 20 yilda atrof-muhitni muhofaza qilishga oid qariyb 30 ga yaqin qonun va 350 dan ortiq me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlaydigan hamda fuqarolarning maqbul atrof-muhitga bo'lgan huquqlarini kafolatlaydigan ko'plab xalqaro konvensiyalar ratifikatsiya qilindi, shartnoma va bitimlar imzolandi.

Bugungi kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan davlat ekologik siyosatining ustivorlashuvi sharoitida "Barchamiz bir oddiy haqiqatni qat'iy va aniq anglab olishimiz kerak – bundan buyon O'zbekiston Ekologik harakati yangi sifat bosqichiga ko'tariladi, yuksak deputatlik minbaridan turib atrof-muhitni muhofaza qilish masalalarini o'rta qo'yish va nazorat qilish, insonni va mamlakat aholisini ekologiya bilan xavfli hamda tajovuzkor o'zgarishlaridan himoya qilish uchun ulkan imkoniyatlarni qo'lga kiritadi" [5]. O'zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyati bilan teng huquqli hamkorlikka asoslangan inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, ijtimoiy va ekologik yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish, demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lidan bormoqda. "Asrlar tutash kelgan pallada butun insoniyat, mamlakatimiz aholisi, - deb yozadi O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov – juda katta ekologik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik, qo'l qovushtirib o'tirish o'z-o'zini o'linga mahkum etish bilan barobardir" [6]. Shu sababli jahon hamjamiyati 1972-yildan boshlab 5-iyunni Jahon atrof-muhitni muhofaza qilish kuni deb e'lon qilib, mana 44 yildan buyon mavjud ekologik muammolarni hal etish borasida amalga oshirilgan ishlar yakunini baholab, kelgusi qadamlarni belgilab kelmoqda. Uchinchi ming yillikning boshlanishi muhim ikkita tamoyil (tendensiya) bilan xarakterlanadi. Birinchidan, hozirgi sivilizatsiya global ekologik muammolar (iqlim o'zgarishi, ozon qatlamining yemirilishi, ichimlik suvining ifloslanishi va yetishmasligi, o'rmon va tuproqning inqirozi, bioxilma-xillikning qisqarishi, ortiqcha hajmdagi chiqindilarning hosil bo'lishi hamda ularni zararsizlantirish muammolari va boshqalar) bilan to'qnash keldi. Ikkinchidan, dunyo jadal sur'atlarda o'zgarib bormoqda. Shuning uchun kechagi mezonlar bilan ertangi istiqbolni belgilash u yoqda tursin, hatto bugungi hodisalarni ham baholab bo'lmaydi. Bu kabi muammolar O'zbekiston uchun ham xosdir. Yurtimiz mustaqillikka erishgach, sobiq totalitar tuzumdan tabiiy resurslarni beqaror boshqarish, shuningdek kommunal, sanoat manbalari va yerlarni sug'orishda foydalanilgan suvlar hisobiga zararlanish kabi murakkab ekologik muammolarni meros qilib oldi. Bu mamlakat tabiiy resurslari va atrof-muhitni boshqarish sohasida sezilarli darajada ko'pgina muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'layotgan qishloq xo'jaligi, energetika va sanoat tizimlaridagi jiddiy tarkibiy muammolar hisobiga ro'y berdi.

O'zbekistonda "Ekologik nazorat to'g'risida"gi Qonun qabul qilinib, hozirda jadal ishlar olib borilmoqda. Mazkur qonunning qabul qilinishi, birinchi navbatda, jamoatchilikning ekologik nazorat sohasidagi huquqiy imkoniyatlarini kengaytirdi, atrof-muhit muhofazasi va ekologik holatni sog'lomlashtirish ishida jamoatchilik ishtiroki faolligini har tomonlama kuchaytirdi, shuningdek, jamiyatning demokratlashtirish tamoyillariga mos keluvchi va uning turli qatlamlari o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtirish borasidagi mantiqiy qadam hisoblandi.

Bizga ma'lumki, tabiatni muhofaza etish turli xil vosita va usullar yordamida amalga oshiriladi. Shulardan eng muhimi - tabiatni huquqiy muhofaza etishdir. Demak, tabiatni muhofaza qilishda qonun ustuvorligi alohida ahamiyatga ega bo'lib, u yuridik va jismoniy shaxslarga tabiatdan oqilona foydalanish hamda uni muhofaza etish tartib-qoidalarini belgilab beradi. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, rivojlanayotgan mamlakatlarning aksariyatida ba'zi xo'jalik sohalari rivojlanishining ekstensiv xarakterda bo'lishi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanmaslik tabiiy muvozanatning izdan chiqishiga, ijtimoiy muammolarning yanada chuqurlashuviga olib kelmoqda. Shunday hududlar qatoriga O'rta Osiyo mamlakatlarini ham kiritish mumkin. Ayniqsa, mintaqaning Orolbo'yi qismida hamda tog'-kon, metallurgiya, kimyo sanoati taraqqiy etgan hududlarida ekologik sharoit murakkabligicha qolmoqda. Shuningdek, ekstraarid cho'l sharoiti aholi turmushiga ma'lum darajada qiyinchilik tug'dirishi bilan birga, bu yerdagi tabiiy muhit komponentlari

inson ta'sirida kuchli tanazzulga uchramoqda. Orol dengizi atrofidagi radiusi 500 kilometr masofaga cho'zilgan hududlar jahon hamjamiyati tomonidan "ekologik fojia hududi" deb e'tirof etilgan. Bizga ma'lumki, bir paytlar Orol dengizi kattaligi jihatidan dunyoda to'rtinchi o'rinda turar edi. Bugun esa uning hajmi qariyb 13 barobarga, maydoni 4,2 barobardan ziyodroqqa qisqardi. Suv sathi esa 29 metrga pasayib, qirg'oqlari yuzlab kilometrga chekindi va hozirda ikkita kichik ko'ldan iborat bo'lib qoldi. Endilikda dengiz qirg'oqdan tobora chekinib, ekologik vaziyat yanada keskinlashmoqda. Bu yerdan ko'tarilayotgan bo'ronlar oqimi yuzlab kilometrlarga million-million tonna qum va tuzni o'zi bilan olib ketib, atrof-muhitga jiddiy zarar yetkazmoqda. Shu ma'noda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich: "Orol inqirozi - insoniyat tarixidagi eng yirik ekologik va gumanitar falokatlardan biri", - deb xavfli vaziyatning haqqoniy bahosini bergan edi [7].

Shuningdek, Tojikiston hukumatining Vaxsh daryosini baland to'g'on bilan to'sib, Rog'un GESi loyihasini amalga oshirishni boshlagani, Qirg'izistonning Norin daryosi o'zaniga Qambar ota GESini qurishni amalga oshirayotgani qo'shni davlatlar, jumladan, O'zbekiston xalqi va jahon jamoatchiligini xavotirga solmoqda. Qolaversa, "Tojikiston alyuminiy kompaniyasi" davlat unitar korxonasi (sobiq Tojikiston alyuminiy zavodi) tomonidan atmosferaga chiqarilayotgan ifloslantiruvchi moddalar, ayniqsa, ftorli vodorod Surxondaryo viloyatining qariyb 570 ming aholi yashaydigan Sariosiyo, Uzun, Denov va Oltinsoy tumanlariga salbiy ta'sir ko'rsatishda davom etmoqda. Zero, "hozirgi kunda suv resurslaridan, birinchi galda, transchegaraviy xususiyatga ega daryo oqimlaridan mazkur mintaqadagi barcha mamlakat va xalqlar manfaatlarini yo'lida foydalanishda har tomonlama puxta o'ylangan yondashuv va qarorlarni amalga oshirishni taqozo etuvchi mintaqaning 6 davlatida yashayotgan 50 milliondan ortiq kishining hayotiy muhim manfaatlarini hisoblanadi. Aks holda bu Amudaryo va Sirdaryoning quyi qismlarida suv ta'minotini yanada qiyinlashtirishi, qurib borayotgan Orolning ekologik halokatini jadallashtirib yuborishi hamda Qozog'iston, Turkmaniston va O'zbekistonning o'n millionlab aholisining barqaror rivojlanishi va amalda umuman bu yerda yashashi istiqbollarini shubha ostida qoldirishi mumkin" [8]. Bugungi kunda dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlari natijasida paydo bo'layotgan global, mintaqaviy va milliy ekologik xavflardan davlatni, jamiyatni va shaxsni himoya qilishga yo'naltirilgan milliy strategiyani shakllantirish hamda bu xavflarning yechimini topish uchun atrof-muhit va aholi salomatligi muhofazasi bo'yicha qonunchilikni yanada takomillashtirishga qaratilgan tizimli ishlar davom ettirilishi zarur.

Global ekologik muammolar bilan xalqaro siyosiy partiyalar, ijtimoiy tashkilotlar, guruhlar, harakatlar («yashillar» yoki ekolorgistlar) ham shug'ullanadilar. Ulardan eng mashhuri «Grinpis» - «Yashil Dunyo» ekologik tashkiloti bulib, ular faoliyatining asosiy yo'nalishi – biosferaning radiaktiv ifloslanish jarayonini o'rganishdan iboratdir. Shunday tashkilotlardan yana biri bo'lgan «Ekosan» O'zbekistonda faoliyat ko'rsatmoqda. Xalqaro tabiatni va tabiiy resurslarni muhofaza qilish uyushmasi (XTMU), YUNESKO tashabbusi bilan tashkil etilgan (Fonteblo, 1948) bo'lib, u asosiy nohukumat tashkiloti, Jahon tabiatni muhofaza qilish harakatining asoschisidir. Uning tashabbusi bilan noyob va yuqolib borayotgan sut emizuvchilar, qushlar, sudralib yuruvchilar (reptiliya), amfibiya turlari populyasiyalarining holati to'g'risida qizil kitob yaratildi, hozir Yer sharining unikal va noyob landshaftlari to'g'risidagi ma'lumotlar to'plangan Yashil kitob tuzilmoqda. Umuman dunyoda tabiat muhofazasi bilan shug'ullanuvchi 300 dan ko'proq tashkilotlar bor.

O'zbekiston Respublikasi xalqaro huquqning to'laqonli subyekti sifatida atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, aholi salomatligini himoyalash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga yo'naltirilgan izchil va samarali siyosat olib bormoqda. Jumladan, bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi natijasida tabiatdan oqilona foydalanish mexanizmlari ishlab chiqildi. Shuningdek, O'zbekiston Markaziy Osiyo submintaqasida biosfera funksiyalarining saqlab turilishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ayniqsa, tabiiy resurslar, intellektual va iqtisodiy salohiyatimiz mintaqaviy ekologik muammolarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti bilan atrof-muhit va barqaror rivojlanish bo'yicha o'nlab muhim konvensiyalarni ratifikatsiya qildi. Barqaror rivojlanish Konsepsiyasi va Milliy strategiyasi, "XXI asr kun tartibi", biologik xilma-xillikni saqlash, cho'llanishga qarshi kurash, ozon qatlamini yemiruvchi moddalardan foydalanishni to'xtatish, aholi salomatligini saqlash, chiqindilarni boshqarish Milliy harakat rejalari, issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirish Milliy strategiyasi shular jumlasidandir.

Davlat ekologik siyosatining muvaffaqiyatli olib borilishi qonunchilik hujjatlarining holati va takomillashtirilishiga bevosita bog'liq. Shunday ekan, ekologik qonunchilikni bosqichma-bosqich va tizimli takomillashtirib borish davlatning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov ta'kidlaganidek, bugungi kunda ekologik yo'nalishdagi 100 dan ortiq nodavlat notijorat tashkilotni birlashtirgan O'zbekiston Ekologik harakatidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga saylangan deputatlar oldida mas'uliyatli vazifalar turibdi. Mazkur vazifalarni amalga oshirish maqsadida harakat dasturi ishlab chiqildi. Dasturning strategik maqsadi mamlakatimizning tabiiy ekotizimlarini asrash, aholi salomatligini yaxshilash, farovonligini oshirish hamda ekologik xavfsizligini ta'minlashdan iborat. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, ekologik qonunchilik bir vaqtning o'zida davlat ekologik siyosatini mustahkamlash vositasi va asosiy shakli hisoblanadi. Shu bois ham, davlat boshqaruvining barcha bo'g'inlarida uning ijro etilishi monitoringini olib borish muhim ahamiyatga ega.

Tabiiy muhitni muhofaza qilish, aholi salomatligini himoyalash bo'yicha maxsus qonunchilik hujjatlari tizimini rivojlantirish hamda boshqa sohalaridagi qonunchilikning ekologiya talablariga mutanosibligini, uning jamiyat ehtiyojlariga muvofiqligini ta'minlash hamda ekologik qonunchilik me'yorlari va talablarini amalga oshirish mexanizmlarini shakllantirish ekologik qonunchilikni takomillashtirishning asosiy mezonlari sanaladi. Shuningdek, hal qiluvchi xalqaro huquqiy hujjatlarga qo'shilish, ratifikatsiya va implementatsiya qilish, ularning ijrosi bo'yicha nazorat-tahliliy faoliyatni kuchaytirish lozim. Har qanday davlatning barqaror rivojlanishi atrof-muhitni munosib himoya qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga bog'liq. Buning uchun esa ekologiya sohasidagi yagona davlat siyosatini bosqichma-bosqich amalga oshirish talab etiladi. Tabiiy tizimlarning saqlanishi hamda qayta tiklanishi esa davlat va jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lishi shart. Maxsus qonunchilik hujjatlari tizimini rivojlantirish ekologik huquqbuzarliklar uchun tegishli javobgarlik muqarrarligini ta'minlash, uni qo'llash amaliyotining huquqiy tartiblarini belgilash, ekologik ta'lim-tarbiyani takomillashtirish hamda bu boradagi muammolarni hal etishga keng jamoatchilik e'tiborini jalb qilishni talab etadi.

Umuman olganda, mamlakatimizda istiqlool sharofati bilan rivojlantirilgan ekologik siyosat tufayli atrof-muhit sifati va musaffoligi yanada yaxshilandi. Shu davrda atmosferaga ifloslantiruvchi moddalarning tashlanishi 2,1 martaga, ifloslangan oqova suvlar hajmi 2 barobarga kamaydi. O'simliklarni himoya qilishning biologik usullariga o'tish imkoniyati to'la-to'kis yaratildi. Ekin maydonlari tizimida don, sabzavot va kartoshka ekinlarini ko'paytirish tendensiyasi o'rnatildi va bugungi kunda paxta yetishtiriladigan maydonlar qisqarib bormoqda. Birgina so'nggi besh yilda 1 mln. 200 ming gektardan ziyod sug'oriladigan yer maydonining meliorativ holati yaxshilandi. Biosfera rezervati, milliy qo'riqxonalar, bog', buyurtmaxona va ekomarkazlar rivojlanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, ekologik toza muhit Vatan va kelajak avlod taqdirini belgilovchi eng asosiy omillardan biri sanaladi. Atrof-muhitning sof holda saqlanishi kelajak avlodning har tomonlama sog'lom o'sishi garovidir. Yuksak ma'naviyatli, jismoniy baquvvat, zamon bilan hamnafas ulg'aygan yigit-qizlarga Vatan taraqqiyoti, yurt istiqboliga o'zlarining munosib ulushini qo'sha oladilar. Shunday ekan, ko'p qirrali ekologik muammolarni bartaraf etish uchun har birimiz mas'ullik hissini tuyib, hamjihatlikda harakat qilishimiz zarur.

Adabiyotlar

1. Timoti U. XXI asrda ISLOM. – T., 2005. – 24 b.
2. Сергеев П.А. Проблемы мировой экономической безопасности // М.: “Мировая экономика и международные экономические отношения”, 2007. № 12. – s. 24.
3. Isadjanov.A.A. Jahon iqtisodiyotining globallasuvi. O'quv qo'llanma. – T.: “JDIU”, 2008. – 9 b.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma'naviyat”, 2008. – 68-69 b.
5. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. T.: “O'zbekiston”, 2010. – 29 b.
6. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajagimiz sari. T.: “O'zbekiston”. 1999. – 505 b.
7. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: “O'zbekiston”, 1997. – 107 b.
8. Karimov I.A. Mamlakatni modernizasiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. T.16. - T.: “O'zbekiston” NMIU, 2008. – 285 b.

UDK: 321 (575.1)

**MILLIY MAFKURA OZOD VA OBOD VATAN, ERKIN VA FAROVON
HAYOTNING MAYOG'IDIR****M.M.Bo'ronov***Respublika milliy g'oya va mafkura ilmiy amaliy markazi, mustaqil tadqiqotchi*

Ushbu maqolada milliy g'oyamizning tarixiy ildizlari, uning bebaho merosimiz hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayanishi, jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni, aholining turli qatlamlari, avvalo, yosh avlodni Vatan obodligi, yurt farovonligini ta'minlashga safarbar etishi, bu yo'lda jamiyat a'zolari faolligi va mas'uliyatini oshirish borasidagi o'rni haqida mulohaza yuritiladi.

Kalit so'zlar: milliy mafkura, milliy ma'naviyat, vatanparvarlik, ta'lim-tarbiya, g'oyaviy tahdid.

Milliy mafkura ozod va obod vatan, erkin va farovon hayotning mayog'idir

В данной статье речь идет об исторических корнях нашей национальной идеи, которая берет истоки от бесценного наследия нашего народа, общечеловеческих и национальных ценностей, подчеркивается ее роль в развитии общества, мобилизации различных слоев населения, прежде всего, молодого поколения на пути обеспечения процветания Родины, благополучия страны, повышении активности и ответственности членов общества в этом направлении.

Ключевые слова: milliy mafkura, milliy ma'naviyat, vatanparvarlik, ta'lim-tarbiya, g'oyaviy tahdid.

**Ideology of national independence, independent and prosperous Motherland – way to
freedom and progree of life**

This article discusses the historical roots of our national ideology, its reliance on our priceless heritage as well as universal and national values, its role in the development of the society, mobilization of diverse groups of populations, primarily, the young generation in ensuring the development and prosperity of the Motherland, its role in increasing the activity and responsibility of members of the society in this regard.

Keywords: idea of national independence, national enlightment, Motherland care, breeding, ideology.

Milliy tariximizga nazar tashlaydigan bo'lsak, xalqimiz mudom ezgulikni sharaflab, yovuzlikni qoralab, insoniylik, adolat, saxovat, bag'rikenglik, xushfe'llik, o'zidan avval boshqalarga yaxshilikni ravo ko'rish singari o'nlab ezgu xislatlarni ulug'lovchi g'oyalarni e'zozlab, ularni rivojlantirib kelgan. Ajdodlarimizning buyuk ma'naviy merosi bo'lgan "Avesto"dan [8] boshlab odil jamiyat qurish, ezgulikni ulug'lash va qabohatni qoralovchi falsafiy, mafkuraviy mushohadalar, poklik va yaxshilikdan saboq beruvchi g'oyalar jamiyat va inson hayotining mazmunini belgilab kelgan. Bu esa, "Avesto"ning milliy g'oya va mafkuramizning asoslaridan biri - milliy tafakkurimizning boyishiga hissa qo'shuvchi dastlabki manba ekanligini isbotlaydi.

Sharq mutafakkirlari al-Forobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Yugnakiy, Yusuf Xos Hojiblarining qarashlarida odil jamiyat qurish haqidagi g'oyalarning shakllanishiga inson hayoti va kamolotidagi dastlabki ilmiy-falsafiy ko'rinishi turlicha talqin etiladi. Jumladan, Forobiy milliy g'oya va mafkuraning asosiy manbalaridan bo'lgan qadriyatlar tizimiga kiruvchi - fozil davlat, adolatparvarlik, teng huquqlilik kabi fazilat va xususiyatlari haqidagi o'zining qimmatli fikrlarini bildiradi [6]. Bu me'yorlar mamlakatimizda mavjud ma'naviy-ma'rifiy siyosatning negizini tashkil qiladi. Abu Ali ibn Sino "Insonlar o'rtasida o'zaro kelishuv zarur bo'lib, bu kelishuv tufayli adolat qoidalari va qonunlari o'rnatiladi. Qonunshunos esa bu qoidalarga bajarilishi shart bo'lgan majburiyat tusini beradi" [12], deb hisoblaydi. Abu Rayhon Beruniy ham har qanday jamiyat, davlat ma'lum adolatni himoya etuvchi huquqiy qonunlar asosida idora etilishi, adolatsizlikka yo'l qo'ymasligi kerak va shundagina millat buyuklikka erishadi [7], degan fikrlarni ilgari suradi. Shuningdek, Ahmad Yugnakiy [10], Yusuf Xos Hojib [15] kabilar ham o'z davridagi odil jamiyatning siyosiy-iqtisodiy

tizimini birma-bir ta'riflab, unda millat birligini jamiyat va davlat taraqqiyotini ta'minlovchi kuch deb e'tirof etadi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarimizning muvaffaqiyati, jamiyatimiz siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan tezkor rivojlanib borayotgani milliy g'oyamizning ana shu buyuk g'oyalarga ildiz qo'ygani va ulardan quvvat olib kamol topayotganidadir.

Milliy ma'naviyatning ba'zan ko'tarilish, ba'zan pasayish to'lqinlarini inobatga olgan holda baholaydigan bo'lsak, barcha davrlarda faqat yuksak insoniy g'oyalar sari intilishning guvohi bo'lamiz. Milliy g'oya va mafkuraning asosiy negizlari bo'lgan komil insonni tarbiyalash, adolatparvarlik, insonparvarlik haqidagi g'oyalar "Avesto" davridan tortib, Sharq uyg'onish davri, buyuk bobokalonimiz Amir Temur va temuriylar davrida ham o'ziga xos taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi. Undan keyingi XVII-XIX asrlarda ham milliy o'zlikni anglashda deysinishlar kuzatilsa-da, milliy ma'naviyatning asoslari butun saqlab kelindi.

Milliy g'oyamiz tarixida faol rol o'ynagan ma'rifatparvarlik harakati namoyondalarining faoliyati, mamlakatni feodal qoloqlikdan chiqarish uchun kurashuvchi ilg'or kuchlarning manfaatlarini ifodalovchi g'oyaviy harakat edi. Jumladan, M.Behbudiy milliy mustaqillik manfaatlarini himoya qila oladigan, iqtisodiy-siyosiy qaramlik va qoloqlikdan chiqish muammolarini biladigan zamonaviy bilimga ega, yuksak salohiyatli shaxslar bo'lishi zarurligini ta'kidlab, "Islohni maktab va madrasalardan boshlash zarur, chunki millat hayoti ta'lim-tarbiya bilan belgilanadi" [11], deydi. Ma'rifatparvarlik harakatining yuqori maqomiga ko'tarilgan jadidchilik namoyondalari A.Fitrat^[13], A.Avloniy [9], M.Abdurashidxonovlarning [5] asarlarida milliy mustaqillik, ilmiy-falsafiy tafakkurning o'sishi, ma'naviy qadriyatlarni yuksaltirish kabi g'oyalarini o'ziga xos talqinlarini ko'rish mumkin.

Jamiyatni bir maqsad atrofida birlashtirishda ta'lim-tarbiya tizimining ahamiyati beqiyosdir. Ta'lim-tarbiya, avvalo yoshlarda hayoti davomida muhim ahamiyatga ega bo'lgan, mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini tarbiyalaydi

G'oyaviy targ'ibot orqali jamiyat a'zolari ongida Mustaqillik g'oyalarini mustahkamlash, ular qalbida ona-Vatanga muhabbat, sadoqat tuyg'ularini yanada kuchaytirish jamiyat barqarorligi, rivojlanishining muhim shartidir. Bu borada ma'naviy-ma'rifiy ishlar ko'lamini kengaytirish orqali milliy g'oya va mafkura tushunchalari ta'sirchanligini oshirish beqiyos ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda dunyoda sodir etilayotgan g'oyaviy tahdiddan ko'zlangan maqsad – inson qalbini egallash, uni o'z dunyoqarashiga bo'ysindirish, ma'naviy jihatdan zaif va tobe qilishdan iboratdir. Shu bois, milliy g'oya tushunchasini oila, mahalla, mehnat jamoalari, san'at va adabiyot, fan - ta'lim muassasalari hamda ommaviy axborot vositalari orqali keng jamoaga tadbqiq etish, millatlararo totuvlik, insonparvarlik, hamjihatlikni o'rnatish taraqqiyot kafolatlaridan biridir.

Birinchi Prezident I.A.Karimovning "Mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur. Mafkura bo'lmasa odam, jamiyat, davlat o'z yo'lini yo'qotishi muqarrar" [2] degan fikri bugungi globallashuv sharoitida ma'naviy-ma'rifiy siyosat bu – hayot va mamot masalasi ekanligini ifodalaydi. Bugungi kunda bunyodkor g'oyalarga zid bo'lgan, ma'naviy buzuvchi hamda jaholatga xizmat qiladigan, inson va jamiyatni tubanlikka boshlaydigan, odamlarni g'arazli niyat, qabih maqsadlarga undaydigan, xalqlarni, davlatlarni tanazzulga mahkum etadigan buzg'unchi g'oyalar ham globallashmoqda. Bu g'oyalarning mazmun mohiyati va oqibatlarini tushunishda quyidagi fikrlar muhim ahamiyat kasb etadi: "...odamning qalbida ikkita kuch – bunyodkorlik va vayronkorlik hamisha o'zaro kurashadi, afsus bilan ta'kidlashimiz lozim, tarix tajribasi shundan dalolat beradiki, inson tabiatdagi insoniylikdan ko'ra vahshiylik, ur-yiqit instinktlari ya'ni xatti - harakatlarini qo'zg'atib yuborish osonroq" [3]. Inson tabiatida mavjud bo'lgan noqis hislatlarning ushbu talqini jamiyatni katta xavf-xatardan ogoh etadi. Shu boisdan ham jamiyatda ma'naviy-ma'rifiy ishlar turli shiorlar, yuzaki uchrashuv va suhbatlar, madaniy-ma'rifiy tadbirlardan iborat bo'lib qolmasligi lozim. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarga chuqur ilmiy-falsafiy xulosalar orqali kirib borishgina kutilgan samarani beradi. Ana shu maqsadda targ'ibot texnologiyasining eng samarali shakllari 2006-yil 25-avgust kuni respublikada Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi tashkil qilindi. Mamlakatdagi ko'plab nodavlat-notijorat tashkilotlar, fuqarolik institutlari faoliyati milliy mafkuramizning ijtimoiy hamkorlik g'oyasi asosida ana shu maqsadga yo'naltirildi. Zero, mamlakat taraqqiyoti, mustaqilligi, baxt-saodati kuch-quvvatni jamiyatning milliy g'oyasiga ishonchidan oladi. Chunki insoniyat tarixi ma'naviyatning xalq boyligi, kuch-qudrat manbai ekanini, bu hayotda ma'naviyatsiz hech qachon odamiylik, mehr-oqibat hamda baxt -saodat bo'lmasligini qayta-qayta tasdiqlagan.

Milliy g'oya va mafkurani jamiyat a'zolari qalbi va ongiga singdirish muhim masala bo'lib, u odamlarni, avvalo yoshlarni ezgu g'oyalarga ishonitirish, ularni bir maqsad atrofida uyushtirish, faollashtirish, mas'uliyatini oshirish, oliyanob maqsadlar sari safarbar etishda ma'naviy-ruhiy jihatdan ulkan ahamiyat kasb etadi. Chunki xalqning ruhiy kayfiyati, hissiy kechinmalari va faoliyat ko'rsatishiga shayligi, uning harakat dasturi bo'lgan umummilliy g'oyaga ishonchi bilan belgilanadi. Ana shunday ishonch jamiyat a'zolarida mustahkam e'tiqodni shakllantirib, ularni yanada jipslashtiradi, faollashtiradi, mas'uliyatini oshiradi, mamlakat fuqarolarining o'zaro totuv, do'st va inoq bo'lib yashashiga, o'z mafaatlari Vatan manfaatlari bilan uyg'unlashtirishga chorlaydi. Bunday mustahkam e'tiqodga ega bo'lgan, komil ishonch asosida o'z hayotiy yo'lini aniq belgilab olgan inson, ayniqsa, yoshlar yot va zararli g'oyalar ta'siriga berilmaydi, buyuk kelajakka erishish yo'lidagi o'tkinchi qiyinchiliklarga bardosh beradi, unda g'oyaviy iroda mustahkam bo'ladi. Shu ma'noda milliy g'oya xalqimizning yangi jamiyat qurish borasidagi harakat dasturidir.

Milliy g'oyaning kishilar, avvalo, yosh avlod qalbiga ishonch ruhini baxsh etishi, uning faolligi va mas'uliyatini oshirishi, ajdodlarimizning bebaho merosi hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayanishi, yoshlarni komil insonlar etib tarbiyalashga undashi, mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga uyg'unlashib borishini nazarda tutishi kabi muhim vazifalari orqali ta'minlanadi. Bu g'oya vatanparvarlik, mehnatsevarlik, irodalilik, vijdonlilik, faollik, mas'uliyatlilik, sabr-toqat, mehr-oqibat, kattaga hurmat, kichikka izzat, yaxshilarga ergashish, yomonga qarshi turish kabi xalqimizning ajoyib fazilatlarini faollashtirishga xizmat qiladi.

Vatanparvarlik – bu yuksak ma'naviyat namunasidir. Vatan tuyg'usi insonda vatan manfaatlariga zid, yot g'oyalarga, oqimlarga qarshi kuchli, ishonchli immunitetni paydo qiladi. Ma'naviyati zaif insonda vatanparvarlik tuyg'usi ham bo'lmaydi. Vatanparvarlikning g'oyaviy asoslari to'g'risida faylasuf olim E.Yusupov shunday degan edi: "Vatanparvarlik muayyan milliy madaniyat, mafkura, e'tiqodlar asosida shakllanadi va rivojlanadi. Shu ma'noda hozirgi milliy istiqloq mafkurasi mustaqil O'zbekiston vatanparvarligining nazariy asosini tashkil etadi. Shu mafkura asosida shakllangan vatanparvarlik umummilliy fazilat sifatida shakllanadi va saqlanadi" [14].

O'tgan yillar ba'zi yetarli bilim, malaka, hayotiy tajribaga ega bo'lmagan, o'z tarixi, ajdodlarining kimligidan bexabar, soddadil, ishonuvchan yoshlarning bugungi kunda diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi va boshqa buzg'unchi g'oyalar tuzog'iga tushib qolganini ko'rsatdi. Bugungi kunda dunyoning ko'plab hududlarida ana shunday harakatlar natijasida katta ma'naviy yo'qotishlar, milliy ong, diniy qadriyatlar, hayot tarzi izdan chiqib ketayapti. Eng yomoni bunday g'oyalar targ'iboti natijasida odam vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ularidan yiroqlashib, individualizm, loqaydlik botqog'iga botib manqurtga aylanib bormoqda. Ana shunday "ma'naviy tahdid" xususida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asarida to'xtalib o'tgan: "Ma'naviy tahdid deganda, avvalo, turli dini, e'tiqodidan qat'iy nazar har qaysi odamning tom ma'noda erkin inson bo'lib yashashga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zda tutadigan mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion xurujlarni nazarda tutish lozim" [4].

Mustaqillik yillarida mamlakatimiz ma'naviy-ma'rifiy siyosatida erishilgan ulkan yutuqlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-iyunda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma besh yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qarorining 3-bandida 13 ta yo'nalish bo'yicha muxtasar qilib bayon etildi. Jumladan,

1. Mustaqillik hayotimizning ma'no-mazmunini tubdan o'zgartirib, xalqimizni qaramlik kishanlaridan ozod qildi, toptalgan qadriyatlarimiz, dinu diyonatimiz, oru nomusimizni tiklash, o'zligimizni anglash, farovon hayot va yorug' kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurish yo'lida beqiyos imkoniyatlarni ochib berdi.

2. Jamiyatimiz hayotini butunlay o'zgartirgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Maktab ta'limini rivojlantirish va boshqa umummilliy dasturlarimizni amalga oshirish natijasida mamlakatimizda o'n ikki yillik majburiy va bepul, umumiy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga, ikki bosqichli oliy ta'lim tizimiga asos solinib, zamonaviy yangi avlod kadrlarini tarbiyalash uchun mustahkam poydevor yaratilgani O'zbekistonimizning jahon maydonida raqobatdoshligini ta'minlashning ishonchli zamini bo'lib xizmat qilayotgani.

3. Biz uchun o'ta muhim bo'lgan sog'liqni saqlash, ilm-fan, madaniyat va san'at, sport sohalarini rivojlantirish, keksa avlod vakillari, xotin-qizlar va yoshlarga doimiy e'tibor va g'amxo'rlik

ko'rsatish, ularning huquq va manfaatlarini ta'minlash, oila, onalik va bolalikni himoya qilish uchun amalga oshirilayotgan ulkan ishlar. Jumladan, davlat budjetimizning ijtimoiy sohalarga yo'naltirilgan yillik xarajatlari izchil oshib borayotgani, birgina 2015-yilda ushbu raqam 60 foizdan ortgani bu boradagi keng ko'lamlı islohotlarning mantiqiy natijasidir.

4. Yosh avlodimizni sog'lom va barkamol insonlar etib tarbiyalash maqsadida amalga oshirilayotgan davlat siyosatining mohiyatini, xususan, Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan barcha viloyat, shahar va tumanlarimizda 300 ga yaqin musiqa va san'at maktablari, 1 ming 900 dan ziyod sport inshootlari bunyod etilgani, so'nggi o'n yilda bolalar va o'smirlar o'rtasida sport bilan muntazam shug'ullanish darajasi 30 foizdan 57 foizga, qizlar o'rtasida 24 foizdan 47 foizga yetgani.

5. Yurtimiz mustaqilligi, uning xavfsizligi va hududiy yaxlitligining ishonchli kafolati bo'lgan Qurolli Kuchlarni isloh qilish va milliy armiyamizning salohiyatini yuksaltirish borasida amalga oshirilayotgan, ko'lami va miqyosiga ko'ra ulkan o'zgarishlar amalga oshirilgani [1] e'tirof etildi.

Bu yutuqlar o'z-o'zidan qo'lga kiritilmadi, albatta. Ular mustaqilligimizning dastlabki yillaridan boshlab ko'tarilgan "O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat" degan strategik g'oya butun xalqning ana shu g'oyaga ishonib, ergashgani evaziga qo'lga kiritildi. Ana shu buyuk g'oya tufayli bir paytlar xalqaro maydonda "O'zbekistonlikman" degan so'zni aytganda yelka qisib, uyalgan, g'ururi toptalgan millat vakillarining bugun mag'rur "O'zbekistonlikman!" degan ma'naviy samarani ta'minladi.

Yuqoridagilar bilan birga qarorda jamiyatimiz oldida turgan eng muhim, jumladan, ma'naviy-ma'rifiy siyosat sohasidagi vazifalar belgilab berildi. Ular quyidagilar:

1. Bugun biz boshimizdan kechirayotgan o'ta tahlikali zamonda, yon-atrofimizda turli tahdid va xatarlar kuchayib borayotgan bir sharoitda eng katta va bebaho boyligimiz bo'lgan: a) tinchlik va osoyishtalikni ko'z qorachig'idek asrash;

b) millatlar va fuqarolararo do'stlik va hamjihatlik, o'zaro hurmat va mehr-oqibat muhitini yanada mustahkamlash;

v) doimo hushyor va ogoh bo'lib, tinchlik uchun kurashib yashash hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini chuqur ochib berish;

2. O'zbekistonning xalqaro maydonda olib borayotgan, yaqin va uzoq qo'shni mamlakatlar bilan do'stona aloqalar, o'zaro hamkorlik munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan tashqi siyosatini, - dunyoning turli mintaqalarida yuz berayotgan qarama-qarshilik va to'qnashuvlarni faqatgina siyosiy muzokaralar, tinchlik yo'li bilan hal etish haqidagi yondashuv va qarashlarining mazmun-mohiyatini atroflicha yoritish.

3. Mamlakatimizning hech qanday harbiy-siyosiy bloklarga qo'shilmasligi,

- yurtimiz hududida chet davlatlarning harbiy bazalari joylashtirilishiga,

- harbiylarimizning xorijiy mamlakatlardagi jangovar operatsiyalarda qatnashishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha qonuniy asosda belgilab olingan qat'iy pozitsiyasini keng jamoatchilikka yetkazish.

E'tibor qilinsa, Prezident qarorida mustaqillik yillarida ma'naviyat va ma'rifat davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida o'zining mustahkam o'rnini topgani ko'rinib turadi. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatda yaratilgan tizim orqali ma'naviy-ma'rifiy vazifalarning uddalanib kelinayotgani, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga asosiy omil bo'lib xizmat qilganini ko'rsatadi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma besh yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi Qarori, 2016-yil 2- iyun, Toshkent shahri.
2. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild. -T.: O'zbekiston, 1999. – B. 843.
3. Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8-jild. –T.: O'zbekiston, 2000. – B. 493.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: "Ma'naviyat" 2008. – B 71.
5. Abdurashidxonov M. Xotiralarim.-T.: Sharq, 2001. – B. 268.
6. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri.-T.:G'.G'ulom nashriyoti, 1993.-B. 160

7. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar, 1-t. -T.: Fan, 1968. -486 b.
8. Avesto. A.Mahkamov tarjimasini - T.: Sharq, 2001. -B. 248.
9. Avloniy A.Tanlangan asarlar T-1.-T.: Ma'naviyat, 1998.– B.328
- 10.Ahmad Yugnakiy. Hibbatul-haqoyiq. -T.: .G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1971. – 316 b.
- 11.Behbudiy M. Tanlangan asarlar.-T.:Ma'naviyat, 1999. – B. 228.
12. Ибн Сино. Изб. Произведения. -М.: Наука, 1980.- 478 с.
- 13.Fitrat A. Rahbarinajot.-T.:Sharq, 2000. –B.176.
- 14.Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. – T.: «Universitet», 1998, -156-b.
- 15.Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilik. –T.: Fan, 1972. -327 b.

UDK: 1:378 (575.1)

**GLOBALLASHUV SHAROITIDA OLIY TA'LIMNING
RIVOJLANISH TENDENSIYALARI**
R.D.Yuldashev

Samarqand davlat universiteti, mustaqil izlanuvchi

Ushbu maqolada globallashayotgan dunyoda oliy ta'limning rivojlanish tendensiyalari: tabiat va jamiyat taraqqiyotidagi o'zaro muvozanatni saqlash; ijtimoiy taraqqiyotning milliy modellari ilmiy jihatdan asoslash va hayotga tadbiriq etish; fanlarning differensiallashish va integrallashib borish jarayonida paydo bo'layotgan yangi fanlarning ijtimoiy hayotdagi obyekt va subyektlarini topish; raqobatbardosh yosh mutaxassislarining yangi avlodlarini tarbiyalab yetishtirish kabilarning mohiyati falsafiy jihatdan ochib berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, oliy ta'lim, tendensiya, fan, fanlarning differensiallashuvi, fanlarning integrallashuvi, ijtimoiy taraqqiyot, taraqqiyotning milliy modeli, globallashuv, progress.

Тенденции развития высшего образования в процессе глобализации

В статье освещается сущность тенденции развития высшего образования в процессе глобализации, такие как: роль и место высшего образования в гармонизации природы и общества в процессе социально-экономического развития; научное обоснование модели национального развития и её практическое внедрение в жизнь общества; возникновение новых научных дисциплин как результат дифференциации и интеграции науки в современном этапе; подготовка нового поколения конкурентоспособных специалистов и т.д.

Ключевые слова: образование, высшее образование, тенденция, наука, дифференциация наук, интеграция наук, социальное развитие, национальная модель развития общества, глобализация, прогресс.

Developing tendencies of high education in global process

This scientific article reviews tendencies of philosophic essence of high education in process of globalization, such as: role and place high education in harmonization of nature and society in the process of social-economic developing; foundation of scientific model of national development and his practical endenizen in social life; incipience the new scientific disciplines as reason for differentiation and integrating science in modern stage; preparing the new generation of competitionary specialists.

Keywords: education, high education, tendency, science, scientifically differentiation, science integration, social development, national model of social development, globalization, progress.

XXI asrga kelib insoniyat hayotiy faoliyatining barcha sohalarida yuz berayotgan globallashuv jarayonlarining borish sur'atlari yanada tezlashib ketdi. Bu esa jahondagi progressiv gumanistik kuchlarning bir yoqadan bosh chiqarib bir tomondan, insoniyatni halokatga olib kelishiga o'zi sababchi bo'layotgan har xil tabiiy va sun'iy ofatlarning oldini olish, ikkinchi tomondan, har xil siyosiy nayranglar arsenalini ishga solish, ma'rifiy-madaniy niqoblar ostida bo'lmag'ur tadbirlar o'tkazish ishlarini kuchaytirish, kommunikatsiya vositalari orqali axborotlar oqimini tezlashtirish asosida sodda kishilarning ongini zaharlab, ularni yo'ldan ozdirishga qaratilgan yolg'on-yashiqdan

iborat bo'lgan ma'naviy-mafkuraviy xurujlarni amalga oshirish kabi salbiy fenomenlarning payini qirqish zarurligi masalasini kun tartibiga qo'yimoqda.

Xuddi shu o'rinda globallashuv jarayoni jahon ta'limi tizimi, xususan oliy ta'limi oldiga yuqorida qayd qilingan masalalarni hal qilish bo'yicha quyidagi bir qator vazifalarni zaruriyat sifatida amalga oshirishni talab qilmoqda.

Birinchidan, bugungi kunda jahon aholisi 7 milliard kishidan oshib ketdi. Ularning barchasi tabiat olamidagi narsalardan bahramand bo'lib yashaydilar. Insonning tabiat olamiga nisbatan qiladigan har qanday aqlsiz, zo'rovonlikka asoslangan xatti-harakati, oxir-oqibatda uning boshiga tabiat tomonidan katta kulfat, ofatlarni keltirib chiqarishi muqarrar. Shuning uchun ham bu masalaga ilmiy jihatdan yondashish zarur. Bu vazifani hech shubhasiz oliy ta'lim muassasalarida xizmat qilayotgan olimlar amalga oshiradilar. Ular tomonidan amalga oshirilgan olamshumul kashfiyotlar tufayli tabiat va jamiyat o'rtasida muvozanat saqlanib kelinmoqda. Demak, ana shu muvozanatning abadiyligini ta'minlashning ilmiy asoslarini ishlab chiqish va amalda qo'llash oliy ta'lim tizimining muqaddas vazifalaridan biridir. Shunga ko'ra, buni oliy ta'limning rivojlanishidagi birinchi tendensiya deb ham atash mumkin.

Bu tendensiyaning mazmun-mohiyati oliy ta'lim tomonidan tabiat qonunlarini kashf qilish, ulardan insoniyatning kelgusidagi istiqbollarini ko'zlab foydalanishning yo'l-yo'riqlarini ishlab chiqish hamda o'zining shu sohadagi rivojlanib borishini ham ta'minlashdan iborat. Bu tendensiyadagi dialektikaning mazmuni quyidagichadir.

1. Tabiat – insoniyat yashaydigan makon. (TT – Tabiat)

2. Bu makonning sir-asrorlarini ilmiy jihatdan o'rganadigan joy – Oliy ta'lim muassasalaridir. (OT- Oliy ta'lim)

3. Oliy ta'lim muassasalarida yetakchi professor-o'qituvchilar tomonidan tabiat hodisalarini o'rganish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib boriladi va kashfiyotlar amalga oshiriladi. (IK – Ilmiy kashfiyot)

4. Ta'lim berish va ilmiy izlanishlar olib borish jarayonida – malakali kadrlar tayyorlanadi. (MK - Malakali kadr)

5. Malakali kadrlar oliy ta'lim muassasalarida olgan bilimlarini va qilgan ilmiy kashfiyotlarini ishlab chiqarish jarayoniga qo'llaydilar. (ICh-Ishlab chiqarish). Buni formula shaklida quyidagicha ifodalash mumkin:

TT – OT – IK – MK – ICh

(Tabiat – Oliy ta'lim – Ilmiy kashfiyot – Malakali kadr – Ishlab chiqarish)

Ikkinchidan, Jahonda 200 dan ortiqroq davlatlar mavjud bo'lib, ular ijtimoiy taraqqiyotning turli bosqichlarida, ya'ni rivojlangan, o'rta rivojlangan, kam rivojlangan mamlakatlar sifatida faoliyat olib bormoqdalar. Davlatlarning ijtimoiy taraqqiyot darajalari jahon ta'lim tizimining rivojlanishiga o'zining ta'sirini o'tkazishi, tabiiydir. Shu bilan bir qatorda, jahon ta'lim tizimi ham ijtimoiy taraqqiyotni belgilab beruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Bu inkor qilib bo'lmaydigan holdir. Davlatlarning ijtimoiy taraqqiyot va ta'lim tizimi o'rtasidagi nisbatni o'rganish, ularning har ikkalasini dialektik uyg'unlikda rivojlantirish masalasining ilg'or yechimlarini topish ham oliy ta'lim tizimiga yuklatilgan vazifalardan biridir.

Bu vazifani bajarishning ikki tomoni mavjud. Birinchi tomoni, mamlakatning ijtimoiy taraqqiyot modelini ishlab chiqish va rivojlantirish, uni amalga oshirish borasida katta ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish va uning natijalarini hayotga tadbiq etishdan iborat. Har qanday ijtimoiy taraqqiyotning modellari ilmiy jihatdan asoslanmagan ekan, u modelligicha qolib ketaveradi. Model qachonki, ilmiy jihatdan asoslangan bo'lsa, u jamiyatni progress sari boshlab boruvchi ham nazariy, ham amaliy kuchga ega bo'la boradi. Demak, bu degan so'z ijtimoiy taraqqiyot haqida ilgari surilayotgan modellarning qanchalik ilmiy asosga ega ekanligini, uning amaldagi hayotiyligi masalasini isbotlab berishdan iborat. Vazifani bajarishning ikkinchi tomoni, ijtimoiy taraqqiyotga mos keluvchi, qolaversa uni progress sari boshlab boruvchi oliy ta'limning modernizatsiya qilingan yoki yangi konsepsiyasini ishlab chiqish va uni amalga oshirishdan iborat. Shunga ko'ra, buni oliy ta'limning rivojlanishidagi ikkinchi tendensiyasi ham deyish mumkin.

Bu tendensiyaning mazmun-mohiyati oliy ta'lim tomonidan jamiyatning ijtimoiy taraqqiyot qonunlarini kashf qilish asosida har bir mamlakatga xos bo'lgan milliy taraqqiy etish modellari ishlab chiqish, uni ilmiy jihatdan asoslash, amalda qo'llash mexanizmlarini yoritib berish, shu bilan bir

qatorda, milliy modelning hayotiylikini ta'minlaydigan, uni progress sari boshlab boradigan ta'lim tizimining yangi konsepsiyasini yaratish va amalga oshirishni ta'minlashdan iborat.

Bu tendensiyadagi dialektikaning mazmuni quyidagichadir:

1. Ijtimoiy taraqqiyot darajasini o'rganish asosida mamlakatni progress sari boshlab boradigan milliy modelni ishlab chiqish.

(I T M M – Ijtimoiy taraqqiyotning milliy modeli).

2. Milliy modelni ilmiy jihatdan asoslaydigan ilmiy makon - Oliy ta'lim muassasalaridir. (OT- Oliy ta'lim).

3. Oliy ta'lim muassasalarida yetakchi professor-o'qituvchilar tomonidan mamlakatning ijtimoiy taraqqiyot darajasini o'rganish va uning kelgusidagi istiqbollarini belgilab berish borasida ilmiy izlanishlar olib boriladi va uni progress sari yo'naltirish bo'yicha nazariy va amaliy ishlanmalar ishlab chiqiladi. (NAI – Nazariy-amaliy ishlanmalar).

4. Ijtimoiy taraqqiyotning milliy modelini amalga oshirish yuzasidan ijtimoiy hayotning barcha sohalar bo'yicha kompleks chora tadbirlarni o'z ichiga olgan konsepsiyalar ishlab chiqiladi. Masalan, kadrlar tayyorlash milliy dasturi va boshqalar (KChTK – Kompleks chora-tadbirlar konsepsiyasi).

5. Barcha sohalar bo'yicha ijtimoiy taraqqiyot rivojini ta'minlashdagi asosiy harakatlantiruvchi kuch bo'lgan – malakali kadrlarning yangi-yangi avlodlari yetishtirib beriladi. (MKYAA – malakali kadrlarning yangi yangi avlodi).

Buni formula shaklida quyidagicha ifodalash mumkin:

ITMM – OT – NAI– KChTK – MKYAA

(Ijtimoiy taraqqiyotning milliy modeli – Oliy ta'lim – Nazariy-amaliy ishlanmalar – KChTK – Kompleks chora-tadbirlar konsepsiyasi – Malakali kadrlarning yangi avlodi.)

Uchinchidan, globallshuv sharoitida tabiat va jamiyat qonunlarini o'rganish borasida hosil qilingan barcha bilimlar ko'proq differensial va integral tarzda harakatlanmoqda. Fanlarning differensiallashuvi va integrallashuvi, o'z navbatida, jahon ta'lim tizimining, birinchi navbatda, oliy ta'lim tizimining ajralmas xususiyatiga aylanib bormoqda va u qonuniy xarakter kasb etmoqda. Buning misolini, tibbiyot sohasida olib borilayotgan ta'lim jarayonlari misolida ko'rishimiz mumkin.

Masalan, tibbiyot fanining differensiallashuvi natijasida: endokrinologiya, terapiya, oftalmologiya, otorinololingologiya, xirurgiya, urologiya, travmatologiya va ortopediya kabi o'ttizdan ortiq fanlar paydo bo'ldi. Ushbu fanlarning boshqa tabiiy va ijtimoiy fanlar bilan integrallashuvi jarayonida esa, neyroxirurgiya, oilaviy tibbiyot, sud-tibbiyot ekspertizasi, sog'liqni saqlashni boshqarish, ijtimoiy gigiyena, immunobiologiya va mikrobiologiya, harbiy tibbiyot kabi o'ndan ortiq yangi fanlar paydo bo'ldi.

Globalashuv sharoitida fanlarning differensiallashuvi va integrallashuvining kuchayib borishi ikkita katta muammoni hal etishni taqozo qila boshladi. Birinchi muammo – fanlarning differensiallashuvi va integrallashuvi natijasida paydo bo'lgan yangi fanlarni o'zida aks ettiradigan ta'lim muassasasi va ishlab chiqarish obyektlarini tashkil etishni ko'paytirishdir. Masalan, bu muammoning differensiallashuv tomonining tibbiyot sohasidagi yechimiga nazar tashlaydigan bo'lsak, farmasevtika, stamotologiya, pediatriya kabi institutlarning ochilishi va shunga mos ravishda ishlab chiqarish obyektlari, farmatsiya sanoati, stamotologiya klinikalari, pediatriya shifoxonalari va boshqalar borligini ko'ramiz. Biroq, uning integrallashuv tomonini kuzatsak, nevroxirurgiya va nevrologiya, sud-tibbiyot kabi ilmiy tekshirish institut va markazlarining borligini ko'ramiz. Biroq bu sohaga ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasalari juda kamdir. Masalan, Toshkent kimyo-texnologiya instituti, Toshkent axborot texnologiyalari instituti va boshqalar shular jumlasidandir. Demak, ikkinchi muammo – fanlarning differensiallashuvi va integrallashuvi jarayonida paydo bo'lgan bilimlarni puxta egallagan mutaxassis kadrlarni tayyorlashdan va ularni ish bilan ta'minlashni hal etishdan iborat.

Xulosa qilib aytgach, buni fanlarning differensiallashib va integrallashib borish darajalariga qarab oliy ta'limning ixtisoslashib borish tendensiyasi, deb atash mumkin. Bu tendensiyaning dialektik xarakterini quyidagicha ifodalash mumkin:

1. Fanlarning differensiallashib va integrallashib borishi cheksiz jarayondir.

2. Fanlarning differensiallashib va integrallashib borishi natijasida yangi fan va ishlab chiqarish sohalar paydo bo'ladi.

3. Yangi fan va ishlab chiqarish sohalarining paydo bo'lish zaruratiga qarab yangi mutaxassislar tayyorlashga bo'lgan ehtiyoj paydo bo'ladi.

4. Yangi mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojni esa, oliy ta'lim muassasalarida tayyorlangan kadrlar qondiradi.

To'rtinchidan, globallashuv jarayonida mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy hayotining barcha sohalarida ko'proq daromad topish va foyda ko'rish maqsadida o'zaro raqobat kurashini avj oldirib yubordilar. Bu kurashning shafqatsiz tarzda shiddatli kechish jarayonlari mehnat bozorida o'z kasbini puxta egallagan, har tomonlama bilimli, mustaqil fikrlaydigan mutaxassislarga bo'lgan talabni kuchaytirib yubordi. Bu talabga nisbatan taklif sifatida qayerda ana shunday raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash kerak, degan savol tug'iladi. Bu, albatta, oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanadi. Demak, bu yerda oliy ta'lim rivojining mehnat bozorini yosh raqobatbardosh mutaxassislar bilan to'ldirishdan iborat yana bir *tendensiyasining* harakatlanishi ko'zga tashlanadi.

Bu tendensiyaning tub mohiyati oliy ta'limning:

a) mehnat bozorida mutaxassislarga bo'lgan talabni hisobga olgan holda faoliyat olib borishi;
b) mutaxassislarning sonini ko'paytirishni emas, balki ularni tayyorlashning sifatini yaxshilashni;

v) bitirayotgan mutaxassislarni raqobatbardoshlikka chidamli qilib tayyorlashi;

g) mehnat bozorida yosh raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha o'z o'rniga ega bo'lishi, ya'ni nufuzli oliy o'quv yurti degan maqomga ega bo'lishi kabi vazifalarni amalga oshirishi kabilar bilan ifodalanadi.

Beshinchidan, globallashuv oliy ta'lim tizimining o'zini ham modernizatsiya qilish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bu bir tomondan, mehnat bozorini raqobatbardosh mutaxassislarga bo'lgan talab va taklif dialektikasidan kelib chiqsa, ikkinchi tomondan esa, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya olayotgan yoshlarni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish, buning uchun esa, o'qitish jarayonida ta'lim-tarbiya berishning eng ilg'or usullarini ishlab chiqish va amalda qo'llashni taqozo etishi bilan ifodalanadi. Buni oliy ta'lim rivojining navbatdagi beshinchi tendensiyasi sifatida idrok etish mumkin.

Bu tendensiyaning falsafiy mohiyati:

1) fanlarning differensiallashuvi va integratsiyalashuvi jarayonida vujudga kelgan yangi ilmlarning jamiyat ijtimoiy taraqqiyotidagi o'rnini belgilab olish konsepsiyasini ishlab chiqish;

2) fanlarning jamiyat ijtimoiy taraqqiyotidagi o'rnini ko'rsatilgan konsepsiyada belgilangan vazifalarni bajarish asosida yangi bilimlar bilan talabalarni qurollantirish;

3) talabalarni yangi bilimlar bilan qurollantirish uchun o'qitishning yangi usullarini, ya'ni pedagogik texnologiyalarning yangi avlodini yaratish va uni amaliyotga joriy qilish bilan ifodalanadi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarni yakunlab quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Har qanday jamiyatning ijtimoiy taraqqiyoti odamlarning dunyoviy va diniy bilimlarni egallaganlik darajasiga, mustaqil tafakkur qilish borasida erishgan yutuqlariga bog'liqdir.

2. Jamiyatning ijtimoiy taraqqiyotida fanning roli beqiyosdir.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak salohiyatli avlodni tarbiyalash – eng muqaddas maqsad // Uning o'zi. Bizning yo'limiz – demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir. T.20. – T.:O'zbekiston, 2012. – B. 192.(320b.)
2. Karimov I.A. Zamonaviy kadrlar – taraqqiyotimizning muhim omili // Uning o'zi. Xavsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6. – T.:O'zbekiston, 1998.– B. 266. (429 b.)
3. Mirziyoyev Sh.M. Tinchlik, ma'rifat va bunyodkorlik yo'lida hamkorlik. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Shavkat Mirziyoyevning Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi // "Xalq so'zi" gazetasi, 2016-yil 19-oktabr.

UDK: 321.008

TARAQQIYOTNING “O‘ZBEK MODEL”I, MA’NAVIYAT VA SINERGETIKA

X.A.Axmedov

Navoiy davlat konchilik instituti, siyosiy fanlar nomzodi

Mazkur maqolada Birinchi Prezident Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” kitobidagi moddiy va ma’naviy hayot uyg‘unligi haqidagi konseptual qarashlar ham sinergetika talablari, ham sotsiologik tahlil usullari asosida bayon etiladi. Ushbu asardagi moddiy va ma’naviy hayot inson, xalq va jamiyat taraqqiyotining bamisoli qo‘sh qanoti ekani, shu omil birgalikda harakat qilgan taqdiridagina rivojlanish, o‘shish-o‘zgarish bo‘lishi haqidagi fikrlar maqolada atroflicha tahlil etiladi. Bu xulosalar sinergetik fikrlashning yaqqol namunasi ekani ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: taraqqiyot, “O‘zbek modeli”, ma’naviyat, inson, davlat, jamiyat, hamkorlik, hamjihatlik, uyg‘unlik, ma’naviy hayot, ma’naviy olam, sinergetika.

“Узбекская модель” развития духовности и синергетика

В статье анализируются концептуальные взгляды на гармоничность материальной и духовной жизни на основе синергетических требований и социологических методов, изложенных в книге Первого Президента Ислама Каримова “Высокая духовность – непобедимая сила”.

Ключевые слова: развитие, прогресс, “узбекская модель”, духовность, человек, государство, содружество, солидарность, гармоничность, духовная жизнь, духовный мир, синергетика.

"Uzbek model" of development, spiritual and synergy

The article represents conceptual views of life harmony from the president book “Great spirituality – invincible power”. These views were studied according to both methods that are based on synergetic requirements and social analyses. It also analyses the views and opinions on convergence of financial and spiritual life of human, people and society development. It is emphasized that only these factors functioning together enable to change and reform the development. The results define this way of thinking as a sample of synergetic method.

Keywords: development, “Uzbek model”, spirituality, humanity, state, society, cooperation, solidarity, harmony, spiritual life, spiritual world, synergetic.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” kitobida ma’naviy va moddiy hayot o‘rtasidagi munosabatlar bilan bog‘liq, asrlar davomida Sharq va G‘arb mutafakkirlarini o‘ylantirib kelgan azaliy, fundamental masalaga alohida urg‘u beriladi. Shunisi e’tiborga molikki, muallif bu borada hayot, inson tabiati, orzu intilishlarining tub mohiyatidan kelib chiqqan holda fikr yuritadi. Shu tariqa hozirgi kunda ijtimoiy falsafa va boshqa gumanitar fanlar sohasida metodik asos darajasiga ko‘tarilgan yevropalik olim N.Prigojinning sinergetika haqidagi ta’limoti uyg‘un va hamohang bo‘lgan muhim bir yangi xulosani ilgari suradi. Ya’ni, muallif insonga xos orzu-intilishlarni ro‘yobga chiqarish, uning ongli hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan moddiy va ma’naviy olamni bamisoli parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga qiyoslab, bunday deydi: “Qachonki ana shu ikki muhim omil o‘zaro uyg‘unlashsa, tom ma’nodagi qo‘sh qanotga aylansa, shundagina inson, davlat va jamiyat hayotida o‘shish-o‘zgarish, yuksalish jarayonlari sodir bo‘ladi”.

N.Prigojin tomonidan ilgari surilgan ta’limot bo‘yicha esa, ijtimoiy-siyosiy hayotda keskin qarama-qarshiliklarni chetlab o‘tgan holda, maqsad va manfaatlar umumiyligi asosida uyg‘un va hamohang rivojlanishga erishish mumkin.

Ta'kidlash kerakki, I.A.Karimov tomonidan asoslab berilgan uyg'unlik g'oyasi faqat moddiy va ma'naviy hayot masalasiga taalluqli emas. Bu g'oya butun jamiyatni demokratik asosda isloh etish, mustaqil taraqqiyot yo'lini ta'minlashni ko'zda tutadigan rivojlanishning "o'zbek modeli"ning butun ma'no-mazmuniga daxldordir. Ma'lumki, ushbu model islohotlar jarayonida keskin ijtimoiy burilishlarni, sotsial larzalarni rad etadi. Aksincha, jamiyat o'zaro hamjihatlik va hamkorlik asosida izchil, tadrijiy tarzda rivojlanib borishi zarurligini targ'ib etadi.

Sinchiklab qaraydigan bo'lsak, "o'zbek modeli"ning har bir tamoyiliga ana shu g'oya chuqur singdirilganini ko'ramiz. Misol uchun, birinchi tamoyil – iqtisodiyotni mafkuradan xoli qilish masalasini olib ko'raylik. Ma'lumki, sobiq sovet tuzumi davrida barcha sohalar kabi iqtisodiyotda ham mafkura o'z hukmronligini o'tkazgani uchun uning turli tarmoqlarida nomuvofiqlik, qarama-qarshilik kuchayib ketgan edi. Masalan, harbiy sanoat, neft-gaz tarmog'i rivojiga katta e'tibor berilgan holda, qishloq xo'jaligi, qayta ishlash sanoati o'z holiga tashlab qo'yilgan edi. Iqtisodiyotni mafkuradan xoli qilish orqali esa uning tarkibidagi turli soha va tarmoqlarning uyg'un rivojlanishiga erishish ko'zda tutiladi.

Yoki yana bir tamoyil – qonun ustuvorligi tamoyili haqida ham shu mavzuga oid ko'plab fikrlarni aytish mumkin. Ya'ni, qonun ustuvor bo'lgan, jamiyatning barcha a'zolari huquqiy ong va madaniyat asosida, nafaqat o'zining, balki boshqalarning huquq va manfaatlarini ham hurmat qilib yashaydigan sharoitdagina uyg'unlik, hamjamiyatlik, hamkorlik bo'lishi mumkin. Yo'qsa, hamma bir-biriga yov va dushmanga aylanib ketishi hech gap emas. Buni bugungi kunda hokimiyat va ma'muriy boshqaruv idoralari faoliyatini qonuniy asosda shakllantirish va amalga oshirish tartibi, konstitutsiyaviy talablari mutlaqo izdan chiqib ketgan Liviya, Suriya, Yaman kabi arab mamlakatlaridagi ahvol ham yaqqol ko'rsatib turibdi. Ya'ni, ularda uyg'unlik va barqarorlik emas, balki boshboshdoqlik, anarxiya va ommaviy taloto'plar, qarama-qarshilik va qonli to'qnashuvlar avjiga chiqmoqda.

"O'zbek modeli"ning navbatdagi asosiy tamoyili – davlatning bosh islohotchi vazifasini o'z zimmasiga olishdan ko'zlangan maqsad ham jamiyatda beqarorlik va notinchlikka yo'l qo'ymaslik, islohotlarning ortga qaytmasligi, aksincha, qat'iy ilgarilab borishini, yordamga muhtoj qatlamlarning manfaatlarini ishonchli himoya qilish, qabul qilinayotgan qonunlarning bajarilishini ta'minlashdan iborat.

Yoki yana bir muhim tamoyil – kuchli ijtimoiy siyosat yuritish masalasini oladigan bo'lsak, u ham jamiyat hayotida adolatsizlik yuz berishiga yo'l qo'ymaslik, yordamga muhtoj qatlamlarning manfaatlarini hisobga olishni ko'zda tutadi.

Shu bilan birga, islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish, "Yangi uy qurmasdan turib eskisini buzmag" kabi tamoyillarni oladigan bo'lsak, ular jamiyatda keskin tebranishlariga, aholining o'ta boylar va o'ta kambag'allarga bo'linib, ular o'rtasidagi farq keskin kuchayib ketishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Bu o'z navbatida, tinchlik va barqarorlikni saqlash, umumiy uyg'unlikni asrash degani.

Shu ma'noda, taraqqiyotning "o'zbek modeli" jamiyatni mustabid tuzumdan mutlaqo yangi, erkin va ozod, demokratik ijtimoiy-siyosiy tuzumga chuqur o'ylangan islohotlar yo'li bilan olib o'tishning amalda o'zini oqlagan, sinergetika ta'limotining asosiy prinsip va qoidalari bo'yicha rivojlanishning afzalliklarini ko'rsatadigan o'ta noyob hodisadir.

"Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" kitobidagi ana shunday nafaqat milliy, ayni paytda umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan fikr va g'oyalar haqida so'z yuritganda, ushbu keng qamrovli asarda alohida bo'lim sifatida yoritilgan ma'naviyat va jamiyatni yangilash masalasiga alohida to'xtalish o'rinlidir. Muallif bu haqida mulohaza yuritar ekan 1990-yil 24-martda, O'zbekiston Oliy Kengashining birinchi sessiyasida aytilgan so'zlarni esga oladi. Ana shu nutqida jamiyatni yangilanishning muhim yo'nalishlari bayon qilinganini ta'kidlaydi. Ya'ni, ma'rifat va madaniyatning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, insonning to'laqonli hayoti uchun nihoyatda zarur bo'lgan maktablar, kutubxonalar, teatr va boshqa

madaniyat o'choqlarini ko'paytirish, ularning sharoitini yaxshilash, bu borada ustuvor vazifa qilib qo'yiladi. Eng muhimi, "Biz odamlarning ma'naviy tarbiyasini o'ylab, tinchlik va xayrli ishlarni ko'zlab harakat qilayotgan har bir kishini qo'llab-quvvatlaymiz, ular bilan hamkorlik qilamiz", deya ta'kidlaydi muallif I.Karimov. Ko'rinib turibdiki, bu o'rinda ham hamjihatlik, hamkorlik, uyg'unlikka alohida ahamiyat berilmoqda.

E'tibor berilsa, Birinchi Prezidentimizning nutq va ma'ruzalari, aholining turli toifasiga mansub insonlar bilan suhbatlarida "bir musht bo'lib harakat qilsak", "bir yoqadan bosh chiqarib ish olib boradigan bo'lsak", "o'zaro hamjihatlik" degan iboralar ko'p qo'llanadi. Bu ham uyg'unlik, hamjihatlik muallif faoliyatining eng muhim qirralaridan biri ekanidan dalolat beradi.

"Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" kitobida alohida jiddiy e'tibor qaratilgan mavzulardan biri – globallashuv jarayonlari va xavfsizlikka qarshi qaratilgan tahdidlar, ularning oldini olishdir. Muallif globallashuvga ta'rif berar ekan, uning ijobiy jihatlari, insonlar, xalqlar, davlatlar uchun o'zaro munosabat va muloqotlarni yaxshilash uchun yaratadigan qulayliklari haqida alohida to'xtaladi. Shu bilan birga, "Globallashuv – bu avvalo hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir" degan ta'rif berilib, bunday jadallik dunyoni, uning xavfsizlik tizimini har qachongidan ham xavotirli qilib qo'yadi. Chunki, muallifning e'tirof etishicha, hozirgi sharoitda globallashuv mafkuraviy ta'sir o'tkazishning nihoyatda o'tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotganini sog'lom fikrlaydigan har qanday odam, albatta, kuzatishi muqarrar.

Dunyo zamonaviy kommunikatsiya va transport vositalari bilan shu qadar tig'iz bog'lanib ketganki, ana shu global tizimidagi bitta halqaga zarar yetkazish orqali butun sayyoramizdagi hayotni halokat yoqasiga olib borib qo'yish mumkin. Masalan, keyingi paytda Iroq va Suriya kabi Yaqin Sharq mamlakatlarida terrorchilik va ekstremizmning kuchayishi dunyo miqyosida qochoqlar, och va yalang'och odamlarning keskin ko'payishga olib keldi. Ana shu odamlar rivojlangan Yevropa mamlakatlariga qarab oqib borishi bilan ushbu davlatlarda ilgari kuzatilmagan, yangi muammolar paydo bo'ldi. Qochoqlar masalasini hal etish uchun Yevropa Ittifoqi davlatlari amaldagi ko'pgina qonuniy tartib-qoidalarga o'zgartishlar kiritishga, ayrim mamlakatlar esa tashqi chegaralarini tikonli simlar bilan to'sib, qochoqlar keladigani yo'llarni butunlay yopib qo'yishga majbur bo'lmoqda.

Ta'kidlash kerakki, I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" kitobining "Ma'naviyatga tahdid – o'zligimiz va kelajagimizga tahdid" deb nomlangan uchinchi bobining "Globallashuv jarayonlari va ma'naviy tahdidlar" bo'limida odamzotni ana shunday tahdidlardan ogoh etib, bunday degan edi: "Bugungi kunda zamonaviy axborot maydonidagi xarakatlar shu qadar tig'iz, shu qadar tezkorki, endi ilgaridek, ha, bu voqea bizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga aloqasi yo'q, deb beparvo qarab bo'lmaydi. Ana shunday kayfiyatga berilgan xalq yoki millat taraqqiyotdan yuz yillar orqada qolib ketishi hech gap emas... Bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko'proq kuchga ega. Bu masalaning kishini doimo ogoh bo'lishiga undovchi tomoni shundaki, agar harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiq bo'lsa, buni sezish, ko'rish, oldini olish mumkin, ammo mafkuraviy tazyiqni, uning ta'siri va oqibatlarini tezda ilg'ab yetish nihoyatda qiyin".

Haqiqatan ham, G'arbdagi ayrim mamlakatlar "ha, bizdan uzoqda" degan kayfiyatga berilib, Iroq, Suriya, Liviya kabi mamlakatlarda, ularning ta'biri bilan aytganda, "boshqariladigan boshboshdoqlikni" keltirib chiqarishdi. Afsuski, bu tartibsizlik, urush va janjallar oxir-oqibatda boshqarib bo'lmaydigan darajaga yetdi. Natijada "Iroq-Shom islom davlati" deb nom olgan ISHID, "Jabhad-an-nusra" kabi terrorchilik guruhlarini maydonga chiqdi. Million-million odamlar o'zlarining uy-joyi, mol-mulki, tinchligi va xotirjamligi, sog'lig'idan judo bo'lib, osoyishta o'lkalarni izlab, Yevropaga qarab yopirildi. Ya'ni, bunday oqibati chuqur o'ylanmagan "o'yin"lardan G'arb davlatlarining o'zlari zarar ko'ra boshladi.

Birinchi Prezidentimiz kitoblarida aytilgan ogohlantirish va xavotirlar to'g'ri bo'lib chiqdi. Bu ogohlantirishlarda kitob muallifining dono siyosatchi, shu bilan ijtimoiy hodisalar rivojini oldindan ko'ra oladigan tajribali sotsiolog sifatidagi teran fikrlash salohiyati, ayniqsa, diqqatga sazovordir.

Xulosa qilib aytganda, mazkur kitob misolida sotsiologiya va ma'naviy-ma'rifiy hayot mezonlari bir-biriga naqadar yaqin va mushtarak ekanini ko'ramiz. Ma'naviyat – ijtimoiy hayotning eng muhim mezonlaridan biri ekanini his etamiz. Ayni paytda ijtimoiy hayot ma'naviyat rivoji uchun eng qulay muhit ekani, shuning uchun ham uni tushunishda sotsiologiya fanining usul va yondashuvlari beqiyos ahamiyatga egadir.

Adabiyotlar

1. Ислон Каримов. Юксак маънавият – энгилмас куч. –Т.; “Маънавият”, 2008. –Б.67
2. Ислон Каримов. Юксак маънавият – энгилмас куч. –Т.; “Маънавият”, 2008. –Б.79.
3. Ислон Каримов. Юксак маънавият – энгилмас куч. –Т.; “Маънавият”, 2008. –Б.111
4. Ислон Каримов. Юксак маънавият – энгилмас куч. –Т.; “Маънавият”, 2008. –Б.113
5. Ислон Каримов. Юксак маънавият – энгилмас куч. –Т.; “Маънавият”, 2008. –Б.112-113

UDK 1:100.69

GLOBAL AXBOROTLASHGAN MAKONDA MODDIY VA MA'NAVİY ISHLAB CHIQRISHNI UYG'UNLASHTIRISH – TARAQQIYOT GAROVI

I.Ch.Shermanov

Samarqand davlat universiteti katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

E-mail: shermanov1983@mail.ru

Ushbu ilmiy maqolada global axborotlashgan makonda moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishning uyg'unlashuvi jarayonlarini rivojlantirish va uning o'ziga xos bo'lgan asosiy xususiyatlari taraqqiyot garovi ekanligi yoritib beriladi, shu bilan birga, har qanday sharoitda ham mamlakatimizning barqaror ijtimoiy rivojlanishi moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish bilan bog'liq ekanligi ilmiy-falsafiy tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: global axborotlashgan makon, moddiy ishlab chiqarish, ma'naviy ishlab chiqarish, taraqqiyot, modernizatsiya, diversifikatsiya, sosium va insoniyat, barqaror rivojlanish, inson va jamiyat, jamiyat va tabiat.

Соответствие материального и культурного производства в глобальном информационном пространстве – залог развития

В этой статье освещена процессы развития и своеобразные главные особенности соответствия материального и культурного производства в глобальном информационном пространстве как залог развития, а также научно-философски анализирована, что устойчивое социальное развитие нашей страны в любых условиях взаимосвязана с материальным и культурным производством.

Ключевые слова: Глобальное информационное пространство, материальное производство, развитие, модернизация, диверсификация, социум и человечество, устойчивое развитие, человек и общество, общество и природа.

Conformity of unity of material and spiritual production in the global informational area – the guaranty of development

This scientific article is about development of financial and cultural production in the global informational area which is the guaranty of development, at the same time, the unity of material and spiritual production with constant social development of our republic is scientifically-philosophically analysed.

Keywords: global informational place, material production, spiritual production, development, modernizm, diversification, socium and humankind, constant development, person and society, society and nature.

Har qanday jamiyatning hayotiy asoslarini moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish jarayonlari tashkil etadi. Bunda **moddiy ishlab chiqarish** deganda odatda moddiy shakldagi mahsulotlar – oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar joy va boshqalarni yaratish hamda ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan xizmatlarni ko'rsatish tushuniladi [3.30]. Globallashuv sharoitida O'zbekistonda moddiy ishlab chiqarish jarayonlari rivojining o'ziga xos bo'lgan asosiy xususiyatlari: 1) tabiiy boyliklardan har tomonlama unumli foydalanishni yangi zamonaviy texnika va texnologiyalar asosida yo'lga qo'yilganligi; 2) bozor iqtisodiyotining barcha afzalliklaridan unumli foydalanish, tashabbuskorlik va tadbirkorlik, ishbilarmonlik asosida ishlab chiqarishni tashkil etilayotganligi; 3) ko'p mulkchilik asosida iqtisodiy faoliyat olib borish va odamlarning o'z mulkiga bo'lgan egalik hissini kuchaytirish asosida mulkiy tejamkorlik ishlarining kuchayib borayotganligi; 4) har bir moddiy ne'mat yaratuvchi subyektga iqtisodiy mustaqillik maqomi berilayotganligi; 5) uzluksiz tarzda ishlab chiqarish soha va tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilinib borilayotganligi; 6) ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlariga innovatsiyalarning jalb qilinayotgani kabilar bilan ifodalanadi.

Ma'naviy ishlab chiqarish esa, shaxs va jamiyatning aqliy va jismoniy mehnat qilish faoliyati jarayonida yaratiladigan, elat, millat va xalqlarning ongida, vujudida ona tuproqqa, oila, ota-ona, qarindosh, qo'shni, mustaqil davlat – ozod va obod Vatanga sadoqat, insonlarga hurmat, ishonch, xotira, vijdon, erkinlik kabi axloqiy-ma'naviy fizilatlarini shakllantirib, ularga kuch-quvvat bag'ishlaydigan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, madaniy-ma'rifiy ahamiyatga molik bo'lgan ne'matlarga aytiladi. Bunday ne'matlar jumlasiga, birinchi navbatda, o'zbek xalqiga sadoqatlilik ruhida tarbiyalangan yoshlarni, ularning g'ayrati va shijoati bilan mamlakatimizning ilm-fan cho'qqilarini egallash, sport maydonlarida g'oliblikni qo'lga kiritib, davlatimiz bayrog'ini yuqoriga ko'tarish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ummoniga kirib, undan oziqlangan holda milliy g'urur va iftixor bilan hech kimdan kam emasligini anglagan holda boshini baland ko'tarib yurishlarini kiritish mumkin. Demak, ma'naviy ishlab chiqarishning harakatlantiruvchi kuchi ham, uning hosilasi ham yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan, o'zining aql-zakovati, fidokorona mehnati bilan har qanday ne'matni yarata oladigan, uni ezgulik sari yo'naltira oladigan hazrati inson hisoblanadi.

Shu bois global axborotlashgan makonda moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishni uyg'unlashtirishning tutgan o'rni quyidagilar bilan belgilanadi:

1. Global axborotlashgan makon o'ziga xos infosfera bo'lib, u axborot va kommunikatsiyalar sohasida yuz berayotgan texnikaviy-texnologik ishlanmalar orqali jamiyatda sodir bo'ladigan global o'zgarishlar natijasida shakllanadi va ijtimoiy fenomenlarni rivojlantiradi.

2. Global axborotlashgan makonda moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish davlat va jamiyat, shaxs va tadbirkorlik kabi tizimlar o'rtasidagi aloqalar muvozanatini saqlash va ularning manfaatlarini bir konsensusga keltirish, ya'ni uyg'unlashtirishga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, axborotlashgan davlatlar va regionlar, davlat va ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi nisbatsizliklar oqimini qisqarishini ta'minlaydi.

3. Global axborotlashgan makonda moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishni uyg'unlashtirish jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash omili sifatida: *birinchidan*, normativ - huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish; *ikkinchidan*, axborot va kommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish, xizmat ko'rsatish sohalarini tasniflash, axborot qurilmalarni standartlashtirish; *uchinchidan*, axborotlashgan jamiyatning har xil ijtimoiy va madaniy jihatlarini o'rganish; *to'rtinchidan*, aholi o'rtasida axborotlashgan makonning ahamiyatini targ'ib va tashviq qilishda muhim vazifani bajaradi.

Demak global axborotlashgan makonda moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishni uyg'unlashtirish orqali *tabiat*, *jamiyat*, *inson tafakkurida dunyoning har qanday burchagida sodir bo'layotgan ish*, *voqyea-hodisalar to'g'risida barcha ma'lumotlarni mujassamlashtirish*, *ulardan tez fursatlarda foydalanishni ta'minlash*, *ixcham va sifatli texnika va texnologiyalardan tashkil topgan infrastrukturalar orqali tezkor tushuncha beruvchi xabar va ma'lumotlarni olish mumkin bo'ladi*. Shu bois ijtimoiy-falsafiy jihatdan moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishni uyg'unlashtirish **obyektiga** ko'ra:

birinchidan, tabiat (koinot, yer-suv, tuproq, o'simlik, hayvonot va boshqalar);

ikkinchidan, jamiyat (odamlar, jamoat birlashmalari, davlatlar, ularning tuzilishlari, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy faoliyatlari);

uchinchidan, inson faoliyati (jismoiniy va aqliy salohiyati, salomatligi, ongi va tafakkuri, mentaliteti, moyilligi va boshqalar) haqida batafsil ma'lumotlarni yetkazib beruvchi guruhlariga

ajratish mumkin. Ammo bu bilan ularni tasniflash muammosi tugamaydi. Darvoqe, mavjud olamda yuz berayotgan hodisa, voqea, jarayonlar qanchalik tez va izchil kechsa, ular haqidagi informatsiyalar oqimi ham shunchalik ko'p va xilma-xil bo'ladi.

Bundan tashqari, tadqiqotimiz ko'rsatishicha bugungi kundagi axborotlarni **subyektiga** ko'ra uchta katta guruhga ajratish mumkin: *birinchisi*, axborotlarni o'zida miqdoriy va sifatiy jihatdan aks ettirgan holda saqlovchi, qayta ishllovchi va uzatuvchi texnologiyalarga asoslangan vositalar – oddiy aloqa tarmoqlaridan tortib bugungi kundagi murakkab texnologiya asosiga qurilgan ixcham va qulay har xil turdagi katta va kichik qurilmalargacha bo'lgan vositalar; *ikkinchisi*, ularning ijodkori bo'lgan intellektual aql sohiblari; *uchinchisi*, ulardan foydalanuvchi shaxs, jamoa va boshqa turli xildagi birlashmalardir.

Bugungi kunda O'zbekistonning mustaqilligini mustahkamllovchi va rivojlanishini ta'minlovchi axborotlar ham mavjud bo'lib, ularni mustaqillikning shakllari bo'yicha quyidagicha tasniflash mumkin:

1) *iqtisodiy mustaqilligini* mustahkamlashga xizmat qiluvchi, ya'ni mehnat jamoalarining sanoat, qishloq xo'jaligi, ilm-fan sohasida erishgan yutuqlari borasidagi;

2) *siyosiy mustaqilligini* mustahkamlashga xizmat qiluvchi, ya'ni davlat hokimiyatining tuzilishi, ularda xizmat qiluvchilar soni, kasb-kori, funksional vazifalari, rejalashtirilayotgan ishlari, ayniqsa, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, qurolli kuchlarning tarkibi, qurol-yoroqlari va boshqalar haqidagi;

3) *ma'naviy mustaqilligini* mustahkamlashga xizmat qiluvchi, ya'ni fuqarolarga ta'lim-tarbiya berish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, g'oyaviy-mafkuraviy kurash yo'llari va vositalari, o'tkazilishi ko'zda tutilayotgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, ularning ishtirokchilari to'g'risidagi ma'lumotlardir.

Biz bilamizki, tadqiqotimizda falsafa ilmining umumiylik, xususiylik, alohidalik kategoriyalari metodologik ahamiyati muhim hisoblanib, mazkur axborotlarni ishlatilish o'rniga qarab umumiy, xususiy va alohida axborotlar tizimiga ajratish kerak bo'ladi. Bunga:

a) *umumiy axborotlar* O'zbekistonning geografik joylashuvi, tabiati, davlat tuzilishi, pul birligi, tarixiy rivojlanish bosqichlari, qadriyatlar, ta'lim-tarbiya tizimi, aholining salomatlik darajalari haqida butun jahon ahli;

b) *xususiy axborotlar* sanoat, qishloq xo'jaligi va boshqa ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar, ularni iste'mol qilish, taqsimlash, ayirboshlash, xorijiy davlatlar bilan tuzilgan ikki va ko'p tomonlama shartnomalar haqida alohida mehnat jamoalari, tuman, viloyat aholisi, ba'zi bir davlatlar;

v) *alohida axborotlar* davlat va mehnat jamoalarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ularning ishlab chiqarish faoliyati, mehnat qilish tartibi, xizmat vazifalarini bajarish borasidagi sir-asrorlarini tashkil etuvchi, oshkor qilinganligi uchun qonunda belgilangan tartibda jazolanishi muqarrar bo'lgan, shu tufayli alohida kishilar bilishiga mo'ljallangan axborotlarni kiritish mumkin.

Global axborotlashgan makonning jamiyat taraqqiyotidagi o'zni haqida O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov: «Ma'lumki, fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklarini ta'minlash masalasi insonning axborot olish, axborotni va o'z shaxsiy fikrini tarqatish huquqi va erkinligini o'zida mujassam etgan bo'lib, bu O'zbekistonda demokratik jamiyat asoslarini barpo etishning muhim sharti, ta'bir joiz bo'lsa, tamal toshi hisoblanadi» [2.28], – degan edi. Demak, global axborotlashgan makon – ijtimoiy fenomen sifatida mavjud ekan, uning jamiyatimiz ma'naviy-mafkuraviy, moddiy va ma'naviy faoliyatiga ta'sirini quyidagicha izohlash mumkin:

1. Global axborotlashgan makon – birinchi navbatda, o'zining bank, moliya, sug'urta, reklama kabi axborot infrastrukturallari orqali harakat qilishi tufayli iqtisodiy masala va muammolarni tezlikda hal qilishga yordam beradi. Xuddi shu joyda iqtisodiyot mafkuralashtirilgan bo'lsa, mafkuraviy faoliyat yuritish siyosiyashgan darajaga ko'tarilgan bo'lib, unda totalitarizmning belgilari ko'rinib turadi. Shuning uchun ham bizda iqtisodiyot siyosatdan xolilik ta'moyili asosida yo'lga qo'yilgan bo'lib, ma'naviy- mafkuraviy faoliyat yuritish faqat insonning erkinlik, tashabbuskorlik, tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishga qaratilgan va axborotlashgan tadbirkorlikka «chegara bilmas» darajada keng yo'l ochib berilayotganligi bilan ifodalanadi.

2. Global axborotlashgan makon – ikkinchi navbatda, o'zining ommaviy axborot vositalaridan iborat bo'lgan infrastrukturallari ishga tushurish orqali demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish, aholining siyosiy faolligini oshirishga xizmat qiladi. Xullas, u orqali odamlar, oxir-oqibatda

demokratik jamiyatning mazmun mohiyatini tushunib yetish va o'zlarining xalqaro andozalarga mos keluvchi milliy demokratik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish baxtiga muvassaf bo'ladilar.

3. Global axborotlashgan makon qanchalik ijobiy bo'lsin, undan ma'naviy-mafkuraviy qurol sifatida foydalanishning keskin darajada kuchayib borishi mafkuraviy faoliyat yuritish sohasida, milliy-ma'naviy xavfsizlikni ta'minlashni, ya'ni dushmandan ma'naviy-mafkuraviy himoyalash eshlonini tashkil etishni talab qiladi. Bu himoya eshlonisiz mamlakatimiz o'zining ma'naviy ishlab chiqarish sohasidagi ma'naviy mustaqilligini qo'ldan boy berib qo'yishi mumkin. Demak, global axborotlashgan makon doirasida har xil buzg'unchi g'oya-mafkuralar tomonidan mamlakatimizning mustaqilligiga, xalqimizning tinch-osuda yashashiga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni e'zozlashiga qarshi mafkuraviy xuruj uyushtirayotgan, ma'naviy tahdid solayotgan qora niyatli kuchlarga nisbatan ma'naviy-mafkuraviy faoliyat olib borishda milliy-mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlash omillaridan unumli foydalanishni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir. Bu haqida professor S.Otamuratov quyidagi: milliy intellektuallarimizning tezlik darajasi oshirish; milliy-ma'naviy tiklanishimizni izchillik bilan davom ettirish; milliy-ma'naviy merosimizni yoshlar ongi va dunyoqarashining ajralmas qismiga aylantirish; tilimizning qonunda belgilab qo'yilgan darajada amal qilishiga erishish; qishloq madaniy-ma'naviy hayotini globallashtirishning avj olish darajalari talablariga muvofiq ravishda rivojlantirish; milliy ziyolilarining faolligini oshirish; mamlakatimizda qonun ustuvorligiga erishish va demokratik qadriyatlarni izchillik bilan rivojlantirish [4.399,408,414,425,433,437,444] omillarini kiritadi. Hech, shubhasizki, olim tomonidan ko'rsatib o'tilgan bunday omillar mamlakatimizning taraqqiyotini ko'ra olmayotgan hasadchilar, qolaversa, dushmanlarimiz tomonidan global axborotlashgan makonning infrastrukturallari orqali vayronkor g'oya va mafkuralar «toshini» otayotganlarga qarshi xalqimizning ma'naviy-mafkuraviy raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Davlatimiz tomonidan qabul qilingan «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari», «Ommaviy axborot vositalari», «Telekommunikatsiyalar to'g'risidagi», «Axborotlashtirish to'g'risida»gi qonunlar xalqimizning global axborotlashgan makonda xalqaro andozalarga mos ravishda erkin faoliyat olib borishlarini kafolatlovchi huquqiy normalar hisoblanadi.

Shu bois, globallashtirish sharoitida O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ma'naviy ishlab chiqarish jarayonlarining o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari mavjud va ular *birinchidan*, sog'lom nasl, sog'lom avlodni hosil qilish ishlarining izchil yo'lga qo'yilganligi; *ikkinchidan*, dunyoga kelgan sog'lom naslning barkamol etib tarbiyalash uchun ularga dunyoviy bilimlarning sir-asrorlarini o'rganishni ta'lim muassasalarini tashkil etish orqali amalga oshirilayotganligi; *uchinchidan*, kuchli ijtimoiy himoya yuritish asosida barcha kam ta'minlangan oilalar, nogironlar va keksalarning munosib turmush kechirishlari uchun shart-sharoitlar yaratib berilayotganligi; *to'rtinchidan*, zamonaviy bilim cho'qqilarini egallash uchun zarur bo'lgan axborot va kommunikatsion vositalar bilan ta'minlash ishlarining muntazam ravishda amalga oshirilayotganligi, xullas, ma'naviy ishlab chiqarish sohasini rivojlantirish uchun davlat budjetining 60% mablag'i sarflanayotganligi bilan ifodalanadi.

Demak, har qanday sharoitda ham mamlakatimizning barqaror rivojlanishi ana shu bir butunning ikki tomoni bo'lgan moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish jarayonlarini uyg'un tarzda tashkil etishga bog'liq bo'lib, globallashtirish sharoitida ana shu ikki omilni uyg'unlashtirish masalasi ziddiyatli kechmoqda. Bu ziddiyatlar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Tabiat va jamiyat o'rtasidagi ziddiyatlarning kuchayishi. Odamzotning tabiat in'om etgan boyliklardan ayovsiz tarzda foydalanishi oqibatida olimlarning taxminiga ko'ra 1990-2100-yillar orasida Yer planetasida issiqlikning 1,4° S dan 5,0° S gacha ortishi, Jahon okeanlari suvlarining esa XXI asr oxiriga kelib bir metr balandlikka ko'tarilishi kutilmoqda.

2. Biosfera va noosfera o'rtasidagi ziddiyatlarning mavjudligi. XXI asr boshiga kelib Qizil kitobga kiritilgan 5 mingdan ortiq hayvon va 26 mingdan ortiq o'simliklar yo'q bo'lib ketish arafasida turibdi. Yer yuzidagi 11% qushlar, 25% mayda ozuqaxo'rlar, 34% baliqlar, 25% suv va quruqlikda yuruvchilar, 11% o'simliklar yer yuzidan butunlay yo'q bo'lib ketish xavfi ostida turibdi.

3. Moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish jarayonida aholining ishlab chiqarish madaniyati bilan iste'mol madaniyati o'rtasidagi ziddiyatlar. Ijtimoiy hayotda iste'molchilikka berilib ketish hollarining kuchayib borayotganligi. Oilada tejamkorlikning yo'qligi yoki past darajada ekanligi va boshqalar.

Kelajakda ushbu ziddiyatlar oqilona hal etilsagina, jamiyatda barqaror rivojlanish bo'lishi mumkin.

Ammo barqaror rivojlanish o'zi nima? «Mustaqillik: Izohli-ommabop lug'at»da: «Barqarorlik (ijtimoiy, jamiyatdagi) – tinchlik, osayishtalik va ijodiy mehnat muhiti qat'iy, uzil-kesil hamda mustahkam o'rnatilgan muqim sharoit» [5.18], – degan ta'rif berilgan. Rivojlanish haqida esa, professor Q.N.Nazarovning «Falsafa asoslari» nomli kitobida: «Rivojlanish tushunchasi olamdagi ilgarilama harakatni, obyektlardagi sifatiy o'zgarishlarni, borliqdagi yangi mazmun va shakllarning vujudga kelishini ifodalovchi falsafiy kategoriyadir.

«Boburnoma»da 1502-1503-yillar voqealari, Boburning mag'lublikka yaqin damlari. Bobur Samarqand hamda Andijon kurashlari bilan band bo'lgan payt. Ayniqsa, Shayboniyxon bilan Sulton Ahmad mirzoning Boburga qarshi birlashib kurash olib borayotgan lahzasi. U katta va kichik xon dodalaridan yordam, marhamat kutib yurgan vaqti. Uning kayfiyatida g'amginlik, tushkinlik hukmron: «Xon dodamg'a ko'runush qilib, Shohbegim qoshig'a kelur edim. O'z uyimdek bosh yalang, oyoq yalang kirar erdim. Oxir mundoq sargardonliqtin va bu nav' bexonumonliqtin jong'a yettim. Dedimkim, mundoq dushvorliq bila tirilguncha, bosh olib yitsam yaxshi. Bu nav' xorliq va zorliq bila el bilguncha oyog'im yetgancha ketsam yaxshi» [1;89].

Bobur boshiga tushgan shunday siyosiy chalkashlik, ikki xon dodasi (amakilari Sulton Mahmud va Sulton Ahmadlar) Boburga homiylik bildirib, o'z manfaatlarini ko'zlab ish qilganlari, shu damda mag'lub Bobur uchun ancha murakkab, qiyin vaziyatda bir tomondan Sulton Ahmad Tanbal, boshqa tomondan Shayboniyxon shiddat bilan qarshi hujumni boshlagan edilarki, bu sahnalar «Boburnoma»ning badiiy tasvirlarga eng boy lavhalaridan sanaladi. Unda ishtirok etuvchi tarixiy shaxslarning ichki dunyosi, ruhiy olami, o'sha davr siyosiy beqarorligi, shahzodalar, bek va sarkardalarning toj-taxt uchun muttasil kurash olib borishlari, bir lahzada g'olib shaxsning o'sha damdayoq bir jang natijasida mag'lub shaxsga aylanib qolish jarayonini kuzatish mumkin: «Ilgaridan xabar kela boshladikim, Tanbal ham cherikini yig'ib Axsig'a kelibtur. Xonlar mashvarat qilib, ra'ylari munga qaror toptikim, manga bir pora cherik qo'shqaylar, Xo'jand suyini o'tub, O'sh va O'zgand sori borib, orqasig'a evrugaymen. ...Sahar vaqti O'sh qo'rg'onig'a g'ofilliqa yetushtuk. O'sh eli chora qila olmadilar, O'shni topshurdilar. Bittab' viloyat eli bizni ko'p tilar edilar. Tanbalning qo'rqunchidin va bizning yiroqlig'imizdin choralari topa olmaslar edi. ...O'shqa kelib kirgach, Andijonning sharq va janubidag'i tog' va tuz el va uluslari tamom kirdilar. O'zgandnikim burun Farg'onaning poytaxti ul ekondur, yaxshi qo'rg'oni bor, sarhadta voqe' bo'lubtur. Eli bizning qullug'imizni qabul qilib, kishi yiborib, manga kirdilar. Necha kundin so'ng Marg'inon eli ham dorug'asini urub qavlab, manga kirdilar. Xo'jand suyining Andijon tarafidag'i qo'rg'onlardan bir Andijondin o'zga tamom kirdilar» [1;91].

Shu tariqa Bobur o'zining kam sonli lashkari bilan yana g'oliblik nashidasini surib, Andijon taxti uchun kurashni boshlab yuboradi. Ammo, bu janglardan hali unchalik ko'ngli to'lmas, «Bu ayyomda bovujudkim mundoq qo'rg'onlar bizga kirdi va viloyatta mundoq oz-og'loq urush-murush bo'lur, vale hech jonibtin g'olibiyat va mag'lubiyat mushaxxas va ma'lum bo'lmas, chun (shuncha shahar va qishloqlar qo'lga kiritilgani bilan ham Bobur g'olibligiga ishonchsizlik bilan qaraydi – I.S.) Andijon tarafidag'i el va ulus va qo'rg'on va viloyat aksar manga kirdilar» [1;91]. Boburning xavotirida jon bor edi. Uning bunday mulohazasi Andijon shahrining aholisi, bek va a'yonlari Boburni qabul qilmasligi ham mumkin edi, chunki el ulusda Boburni qo'llashi mumkin, degan gap yurgan bo'lsa ham bu faqat el og'zidagi ma'lumot edi, xolos.

Boburning Kobulda ancha mustahkam o'rnatib olishi, temuriyzodalar – boburiylarning bu hududda saltanat qilishi Shayboniyxon tinchligini buzishi tabiiy hol edi. U qanday bo'lmasin, hiyla va makkorlik yo'li bilan bo'lsa ham Boburga zarba berish, uni har jihatdan temuriylar saltanatiga da'vogarlik qilishidan qaytarish hamda o'zi bu sarhadlarda ham yakka hokimiyat tuzishni orzu qilar edi. Buning uchun Shayboniyxon ancha strategik ahamiyatga molik Qandahor shahriga egalik qilishni maqsad qiladi. Bu xususda «Boburnoma»da shunday ma'lumotlar beriladi: «Shayboqxon Qandahorning tosh qo'rg'onini olib, arkini ola olmay yong'onini va Shayboqxon yong'onidin so'ng ba'zi jihatlarin Nosir mirzo Qandahorni solib, G'aznig'a kelganining xabarini mashruh arz qildi. Bir

necha kundan so'ng Shayboqxon Qandahor ustig'a g'ofilliqta kelur, tosh qo'rg'onni berkita olmaslar, qo'yarlar, arkning girdida necha yerda naqb solurlar, necha qatla urush keltururlar. Nosir mirzoning bo'ynug'a o'q tegar, olayovushqon ekandurlar. Ushmundoq iztiror holatida (bu o'rinda Nosir mirzo va Bobur tarafdorlaridan anchasining nomlari keltiriladi – I.S.) qo'rg'ondin tashlab chiqarlar. Qo'rg'on eli ma'yus bo'lub, oldurur mahalda Shayboqxon sulh so'zini orag'a solib, Qandahor ustidin qo'par» [1;160].

Shayboniyxon tomonidan Hirotning bosib olinishi Husayn Boyqaro sultonligidagi eng qora kun, bu shunchaki mag'lublik emas, balki temuriylar saltanatining yakson bo'lishi, Movarounnahr va Xurosonda uning amal qilishi yakunidagi fojiga aylangan hodisa edi. Shu kundan boshlab Shayboniyxon Movarounnahr va Xurosonda yangi saltanatning boshlig'i bo'lib qoladi. Bobur Husayn Boyqaro xonadoniga Shayboniyxon solgan kulfatlar, ayollari uchun isnod tarzida qilgan haqoratomuz harakatlari, saroy begimlari va malikalarini olib beklari va lashkarlariga nikoh qilib, gohida nikohsiz taqdim qilishi kabi vahshiyona, aqlga sig'maydigan, nojoiz harakatlaridan ko'plab misollar keltiradi, uning ma'naviy jihatdan asl qiyofasini ochib beradi. Bunda garchi sirtidan Shayboniyxon g'olib bo'lsa ham, uning qilmishlari, ma'naviy qiyofasi jihatdan mag'lub shaxsni eslatadi. Asli nasabida temuriyzodalarga bo'lgan nafrati, Husayn Boyqaro xonadoniga bo'lgan adovati bois, bu xatti-harakati bilan u ma'naviy mag'lubligini ko'rsatadi. Shu bois ham Bobur Shayboniyxonning jirkanch qiyofasini barcha illatlari bilan badiiy tarzda ifodalab, uni fosh etishga intilgan.

Biz imkon qadar «Boburnoma»dagi badiiy satrlardan g'olib va mag'lub shaxs ruhiyatida sodir bo'ladigan ruhiy holatlarni bir tarixiy shaxs – Shayboniyxon misolida ko'rib chiqishga harakat qildik va bu mavzuga keyingi tadqiqotlarda yanada batafsilroq to'xtalamiz, degan umiddamiz.

Adabiyotlar

1. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов. – Тошкент. Шарқ. 2002. – 335.
2. Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. – Тошкент.: Шарқ. 2014. – 744.
3. Муҳаммад Ҳайдар Мирзо. Тарихи Рашидий. Ваҳоб Раҳмонов ва Янглиш Эгамова таржимаси. Шарқ нашриёт-матбаа Бош таҳририяти. – Тошкент, 2010.
4. Низомиддинов Н.Ғ. Буюк бобурийлар тарихи (XVI-XIX аср). Монография. – Тошкент.: Fan va texnologiya, 2012 йил. – 516 б.
5. Қайумов А. Асарлар. 5-жилд. Заҳириддин Муҳаммад Бобур ижодиёти. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2009. – 303 б.

UDK: 42:378.147

NOFILOLOGIK FAKULTET TALABALARINING YOZMA NUTQ KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH

F.Sh.Alimov

Andijon davlat universiteti, mustaqil izlanuvchi

Mazkur maqolada nofilologik fakultet talabalarining ingliz tilidagi yozma nutq kompetensiyasini shakllantirishdagi qiyinchiliklar tahlili, yozuv va yozma nutqqa differensial yondashgan holda yozma nutq kompetensiyasini shakllantirish yo'llari va mashqlardan namunalar berilgan.

Kalit so'zlar: *nutqiy kompetensiya, yozuv, yozma nutq, kompetentivlik, mashqlar, nutqiy jarayon.*

Формирование компетенции письменной речи студентов нефилологических факультетов

В статье рассматриваются проблемы формирования письменной речевой компетенции студентов нефилологических факультетов и даются методические рекомендации по их устранению.

Ключевые слова: *речевая компетенция, письмо, письменная речь, компетенция, упражнение, речевой процесс.*

Formation of writing competence of students of non-philological faculties

This article includes the problems of forming written speech competence of the students of non-philological faculties, analyzes difficulties and the patterns of writing and written speech exercises.

Key words: *speech competence, writing, written speech, competency, exercises, speech process.*

Bugungi kunda nofilologik fakultetlarda chet til o'qitishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Nofilologik fakultet talabalari bo'lg'usi mutaxassislar hisoblanadi, shuning uchun ham ular zamonaviy mutaxassisga qo'yilgan talablarga javob berishlari kerak. Xorijiy hamkorlar bilan yozma axborot almashish va xorijiy manbalardan o'z kasbiga oid axborot o'z bilishni ham zamonaviy mutaxassisga qo'yilgan talablar sifatida qarash mumkin. Bu esa nofilologik fakultet talabalarida kasbiy kompetentivlik bilan birga chet tildagi yozma nutq kompetensiyasini ham shakllantirish zarurligini ko'rsatmoqda. Nutqiy kompetensiyani shakllantirishda esa bir qator omillarni hisobga olish zarur, chunki ular talabada nutqiy muloqotga nisbatan motivatsiya hosil qilishga yordam beradi. Avval talabalarining chet til o'rganishdagi passivlik sabablarini o'rganmoq lozim [1]. Ko'p hollarda buni oliy ta'limga kirishdan oldingi paytdagi til o'rganish jarayoni bilan izohlash mumkin. Tadqiqotimiz davomida talabalar bilan o'tkazilgan suhbat shuni ko'rsatadiki, ular darsni tashkil qilishdagi bir xil usullar va mashqlar shuningdek, uyga berilgan vazifalar hajmining kattaligi talabalarining chet til o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini pasaytirib yuborar ekan.

Talabalarda nutqiy muloqotni amalga oshirishga xalaqit berayotgan omillardan yana biri xato qilib qo'yishdan qo'rqish hissidir. Xato qilish esa o'qib, izlanish asosida kelib chiqishini eslatmoq lozim, chunki izlanmagan kishida xato ham bo'lmaydi.

Talabalarda o'qib, o'rganish va nutqiy muloqotdan qoniqish hosil qilinganda ularda chet til o'rganishga bo'lgan motivatsiya ortadi [2]. Talabalarining yozma nutq kompetensiyasini shakllantirishda ham yuqorida qayd etilgan psixologik omillarni hisobga olish lozim.

Ma'lumki, yozma nutq nutq faoliyatining boshqa turlaridan farq qiladi. U grafik kod va orfografik qoidalarga asoslangan yozma matn sifatida amalga oshiriladi. Shuni ta'kidlash lozimki, og'zaki nutqiy muloqotga asoslangan yondashuvda yozma nutqqa o'qitish vositasi sifatida qaralgan, uning nutqiy muloqot vositasi sifatidagi funksiyasiga esa kam e'tibor berilgan. Og'zaki nutqda fikrni ifodalashda turli ekstralingvistik omillardan (imo-ishora, harakatlar va h.k.) foydalaniladi [3]. Yozma nutqda esa bunday omillardan foydalanish imkoni yo'q. Ammo, yozma nutqda ham fikr aniq va batafsil ifodalanishi lozim, chunki u kommunikativ vazifani bajaradi. Yozma nutq mexanizimini shakllantirish oson kechmaydi. Avval yozuvni o'rganish, ya'ni yozuv texnikasini o'rganish, so'ng fikrni to'la ifodalash uchun kerakli so'zni tanlay bilish va matn hosil qilish kerak bo'ladi. Matn esa yozma muloqotda muhim ahamiyatga ega. Yozma matnni tayyorlash bir necha omillarga bog'liq. Bunday omillarga talabalarining til tayyorgarligi va yoshi bilan bog'liq omillarni kiritish mumkin. Til tayyorgarligi deganda, yozuvga oid orfografik qoidalar, so'z tanlay bilish va grammatik nuqtayi nazardan to'g'ri gaplar tuzish nazarda tutiladi.

Pedagogik va psixologik omillar xususida so'z yuritilganda esa, til o'rganuvchilarning yoshi va yozma nutq jarayonidagi kreativligini misol qilib keltirish mumkin. Kichik yoshdagi (masalan, maktab yoshidagi) til o'rganuvchilar ko'proq o'qigan yoki eshitgan axborotni qaytarib yozishga harakt qilishadi, talabalar esa o'qigan yoki eshitganlarini, tushunib olib o'z so'zlari bilan bayon qilishga moyil bo'ladilar. Ma'lumki, matn alohida gaplardan emas, balki mantiqiy bog'langan gaplardan iborat, shuning uchun ham yozma fikr bildirishda mantiqiy bog'liqlikka e'tibor qaratmoq lozim.

Keyingi yillarda yozuvga va yozma nutqqa nisbatan qiziqish ortib bormoqda. Ayniqsa, internet tarmog'i orqali yozma fikr bildirish imkoniyati kengaygandan so'ng yozma nutq bugungi kundagi muloqot vositasi sifatida ham ko'pchilikda qiziqish uyg'otmoqda. Bu esa, o'z navbatida, chet til o'rganuvchilarda yozma nutq kompetensiyasini shakllantirishda axborot texnologiyalari, elektron vositalar, grafik va orfografik qoidalarining integrallashuvi asosidagi yozma nutq ko'nikma va malakalarini shakllantirishni taqazo etadi.

Yozma nutq kompetensiyasini shakllantirishga yozma nutqiy jarayon bilan bog'liq qiyinchiliklarni bartaraf qilmasdan turib erishib bo'lmaydi [4]. Nofilologik fakultet talabalarining yozma nutq kompetensiyasini shakllantirishda kelib chiqadigan qiyinchiliklarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. O'zbek talabalarini ingliz tilidagi yozma nutqqa o'rgatishda ona tili bilan ingliz tilidagi tovush va harf o'rtasidagi farq fikrni ingliz tilida yozma ravishda ifodalashga to'sqinlik qiladi;

2. Og'zaki nutqda fikrni to'laroq ochib beruvchi va kommunikativ maqsadni aniq ifodalashga yordam beruvchi ekstralingvistik omillar (imo-ishora, harakat va h.k.) ko'p. Yozma nutqda esa bayon qilinayotgan fikrni to'la ochib berish uchun turli sintaktik vositalardan foydalanishga to'g'ri keladi va bu grammatik konstruksiyalarni kommunikativ maqsad hamda nutqiy vaziyatga mos tanlab ishlatilishini talab qiladi;

3. Ingliz tilidagi unlilarning turli til bo'g'ida turlicha o'qilishi, digraflarning o'qilishi va yozilishi o'rtasidagi farqlar, ayrim harf birikmalarining o'qilmay qolishi, so'zlarning grafik obrazi bilan tovush obrazining mos kelmasligi yozma nutqqa o'rgatishdagi qiyinchiliklardan hisoblanadi.

4. Til o'rganuvchilarda lingvokulturologik va sotsiokulturologik bilimlarning kamligi ham yozma nutq kompetensiyasini shakllantirishga to'sqinlik qilishi mumkin.

Ushbu yuqorida qayd etilgan qiyinchiliklarni bartaraf qilish, shu maqsadga yo'naltirilgan mashqlar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Bunday mashqlarni ikki guruhga ajratish lozim: 1) yozuvga o'rgatuvchi mashqlar 2) muloqotga yo'naltirilgan yozma nutq mashqlari.

1. Yozuvga o'rgatuvchi mashqlar

Unlilar va Undoshlar ishtirokida so'zlarni yozishni mashq qiling.

Pattern, type, bride, turn, forefinger, cure, park, system, why, same, note, thirsty, make, farewell, mark, pure, harebell, cry, spot, organism, structure, blame, tide. Large, reaction, batch mixer, migration, bathe, compression, certainly, watch, bacteriological, what, action, weather, selection, pleasure, chemistry, microorganism, whole.

Digraflar ishtirokida so'zlar yozishni mashq qiling.

Tuesday, group, coin, their, vein, cousin, book, royal, good, neighbor, look, tie, flour, day, suitable, poem, few, our, heir, chair, soon, dairy, moon, automatic, leaden, flourish, poor, beer, tomorrow, four, believe, may.

Jumlalarni yozishni mashq qiling.

Properties for our industry, for scientific progress, for the nuclear energy, concentration of methods, results of, kind of microorganisms, theory of the hydrogen atom, with materials, with various fields, under antibiotics, in the properties of the elements, in chemistry and biology, in the second half, in practical significance, in space, before the biologic analysis, before volume of gas, before the experiment, after chemical experiment, after the reactions.

Correct the sentences, then write your answer underneath.

1. what is your naim.
2. where are you form
3. who old are you
4. wich grade are you in.

There are mistakes of SPELLING, PUNCTUATION and CAPITALIZATION in this text. Can you correct them all?

the name of this scool is FIS There are more than onetousand students hear from all over The world. meny studentsdont no english so thay have esl lessens?do you like you're new school.

The stars show where a word is missing from the text. Erase the star and put in a suitable word!

The White family want a * in the town, where they can * nearthe shops and the cinema, but a new house * \$400 and theyhaven't got this much *. One day Mr Morris, an old * of theirs, comes to visit them.The Whites like to hear his * about different countries.Suddenly Herbert * that Morris has something in his * - it's a

monkey's foot! Morris * them that they can have three * withthe foot but he knows that it is very * and so he throws it onthe *. [5]

2. Mulotoqqa yo'naltirilgan yozma nutq mashqlari:

A letter to yourself 10 years ago

Imagine that there is a time machine that can send your letter to yourself when you were 10 years younger (teenagers can use 10 years here). Write some advice, encouragement or insights that you can share with your younger self.

A film review

Remember a film that produced a lasting impression on you. Write a review about the film's plot, setting, acting and your emotions. Publish it as a comment at the film's page at [Imdb](https://www.imdb.com).

A recipe

Share one of your favourite recipes with others. After you write it, you can also publish it at some cooking forum or community.

A psychological questionnaire

Imagine that you need to set up a survey about an interesting psychological phenomenon. Topics can range from everyday issues to self-fulfillment. Some examples can be: work satisfaction, personal happiness, positive outlook, relationships, choice of profession and so on. Create 10 to 25 questions. You can use multiple choice questions or open questions, as you like.

A biography

Write a biography of an interesting person from your country. If nobody springs to your mind, choose an interesting relative, friend or acquaintance.

An adventure story

Create a story about a group of people lost deep in the jungle or in the desert. It can include some realistic elements, but you'd better let your imagination lead you.

Expert's advice

Imagine that you work for a newspaper as an expert who gives advice about some difficulties that people experience. Your advice will then be published in the "letter and answer column". Remember some relative or friend who is going through a rough patch and write both, their letter to the newspaper and expert's answer.

A day in the life

Find a picture with an unusual person. Try to imagine what kind of life he or she has and write the description of one day in their life. The more exotic photo you choose, the better for your imagination and writing skills.

A childhood memory

Describe a memorable childhood event. Try to remember as many details as possible, then organise them in a captivating story [6].

Ingliz tilidagi yozma nutq kompetensiyasini shakllantirishga yozuv ko'nikmalarini shakllantirmasdan turib erishib bo'lmaydi. Buni uch bosqich asosida amalga oshirish mumkin. Ingliz tilida orfografik qoidalarga amal qilgan holda yozuv ko'nikmalarini shakllantirish talabalarida yozuv kompetensiyasini shakllantirishdagi birinchi bosqich hisoblanadi. Bu orfografik qoidalar asosida so'zlar, so'z birikmalarini va gaplarni yozishga qaratilgan mashqlarni o'z ichiga oladi. Masalan, berilgan harf, harf birikmalariga so'zlar yozing, gapdagi bo'sh joylarni to'ldiring, gapni tugallang, gaplarni tarjima qiling, savollarga yozma javob bering, berilgan sodda gaplardan qo'shma gap tuzib yozing kabi mashqlar shular jumlasidan.

Ikkinchi bosqichga til o'rganuvchidan biroz kreativlikni talab qiluvchi mashqlar kiritilgan. Berilgan qo'shma gaplarni o'qing va ma'noni saqlagan holda qisqartirib yozing, berilgan so'zlar yordamida hikoya tuzing, rasmni tasvirlab yozing kabi mashqlar shular jumlasidan.

Uchinchi bosqich yozma nutq kompetensiyasini shakllantirishdagi so'nggi bosqich bo'lib, unda chet til o'rganuvchilarda fikrni nutqiy vaziyat va kommunikativ maqsad talabiga mos ravishda ifodalash malakalari shakllantiriladi. Bu mantiqan bog'liq gaplarni o'z ichiga olgan qisqa yozma axborot tayyorlash, o'qilgan yoki eshitilgan axborotga nisbatan tanqidiy fikr bildirish, berilgan mavzu asosida bayon va insho yozishga qaratilgan topshiriqlarni bajarishni nazarda tutadi.

Kommunikativ maqsadni ko'zlovchi yozma nutqqa o'rgatish kundalik turmush tarzi va talabalarining kasbiy sohalariga oid mavzularda yozma fikr bildirish malakalarini shakllantirishni taqozo etadi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida qayd etilgan omillarga amal qilish nofilologik fakultet talabalarining ingliz tilidagi yozma nutq kompetensiyasini shakllantirishga samarali ta'sir qilgani holda bo'lajak mutaxassislarni zamon talablariga mos keluvchi standartlar asosida tayyorlashga va ularning kelgusidagi mustaqil kasbiy faoliyatidagi mahoratini oshirishga ham yordam beradi.

Adabiyotlar

1. Jalolov J.J., Maxkamov G.T., Ashurov Sh.S. "English language teaching methodology" // Fan va texnologiya nashryoti, Toshkent 2015 y.
2. Akopyan L.G. Razlichnoe podxodi v prepodavanii inostrannogo yazika studentam v neyazkovx vuzax // Vserossiyskaya nauchno-metodicheskaya konferensiya. Orenburg. 2016
3. Kolesnikova I.L., Dolgina O.A. Anglo-russkiy terminologicheskiy spravochnik po metodike prepodavaniya inostrannx yazikov. SPb. 2001
4. Ssoeva E.E. Formirovanie kommunikativnoy kompetensii v pismennoy rechi pri obuchenii inostrannm yazkam // Inostranny yazyk v shkole - 2006. -№7 str.43-46.
5. Alimov F. "Learn writing" (kimyo-biologiya fakulteti talabalari uchun)// "Akademnashr" 118 bet Toshkent.: 2010
6. Jeremy Harmer "How to Teaching Writing"//Longman 160 bet.UK. 2004

UDK: 81.361.7

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA TEMPORAL POSTERIOR SINTAKSEMALARNING XUSUSIYATLARI

G.F.Boltakulova

Samarqand davlat chet tillar instituti, katta ilmiy xodim-izlanuvchi

E-mail: g.boltakulova78@mail.ru

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tili gap tarkibidagi temporal posterior sintaksemalarning xususiyatlari tahlil qilingan. Substantsial temporal posterior sintaksema ingliz tilida asosan predlog after+vaqtni, paytni ifodalovchi otlar bilan birikib kelishi yordamida ifodalanadi. O'zbek tilida temporallikni ifodalovchi substantsial birliklar chiqish kelishigi qo'shimchasi – dan va ko'makchilar keyin, so'ng kabilar yordamida ifodalangan. Temporallik doirasida posteriorlikni aniqlashda ingliz va o'zbek gaplarni payt ergash gapli qo'shma gaplarga aylantirish bilan aniqlandi. Maqolaning nazariy tomoni ko'plab misollar bilan tasdiqlangan.

Kalit so'zlar: aktsional, gap, deriktiv, posterior, predlog, protsessual, sintaksema, stativ, substantsional, subordinativ, temporal, qo'shimcha.

Особенности темпоральных постериорных синтаксем в английском и узбекском языках

В настоящей статье анализируются особенности темпоральных постериорных синтаксем в структуре английских и узбекских предложений. В английском языке субстанциональные темпоральные постериорные синтаксемы формируются с помощью предлога after+существительное, выражающее время. В узбекском языке субстанциональные единицы, выражающие темпоральность, образуются с помощью частицы –дан и темпоральных единиц кейин, сўнг. Теоретическое содержание статьи подтверждается многочисленными примерами.

Ключевые слова: акциональный, предложение, директив, постериор, предлог, процессуал, синтаксема, стативный, субстанциональный, subordinativный, темпоральный, частица.

The peculiarities of temporal posterior syntaxemes in english and uzbek

The article analyzes peculiarities of temporal posterior syntaxemes in the structure of English and Uzbek sentences. In the English language substantional temporal posterior syntaxemes are formed with the help of preposition after+noun, expressing time. In the Uzbek language substantional units, expressing temporality, are formed with the help of particle –dan and temporal units кейин, сўнг. In the Uzbek language subordinate sentences with adverbial modifier of time have served for finding out posterior syntaxemes, expressing temporality. Theoretical content of the article is proved by numerous examples.

Keywords: actional, sentence, directive, posterior, preposition, processual, syntaxeme, stative, substantional, subordinative, temporal, particle.

Sof temporal sintaksema ish-harakatning bajarilish, bajariladigan yoki bajarilgan vaqtini anglatadi, temporal posterior sintaksema esa ish-harakatning bajarilishini biror voqeadan yoki boshqa ish-harakati bajarilgandan keyin bajarilganligini anglatadi. Ingliz tilida substantzial temporal posterior sintaksema asosan predlog after+vaqtni, paytni ifodalovchi otlar bilan birikib kelishi yordamida ifodalanadi.

1. Ivan Alexeyevich turned up after nightfall.
2. After the birth of the child, Aksinya devoted herself to her husband.
3. After breakfast she and I went out to start the tractor.
4. After a week of this work, he withered.
5. After a pause he asked

Mazkur gaplar tarkibida after nightfall (1), after the birth (2), after breakfast (3), after a week (4), after a pause (5) sintaktik birliklar temporal sintaksemani ifodalaydi.

Uni isbotlash uchun ushbu sintaktik birliklarga when so‘roq olmoshi yordamida transformatsiya interrogatsiyaga aylantirish mumkin:

1. When did Ivan Alexeyevich turn up?
2. When did Aksinya devote herself to her husband?
3. When did she and I go out to start the tractor?
4. When did he wither?
5. When did he ask?

Ammo temporallik doirasida posteriorlikni aniqlashda ushbu gaplarni payt ergash gapli qo‘shma gaplarga aylantirish bilan aniqlash mumkin:

1. Ivan Alexeyevich turned up after nightfall. – When the night had fallen Ivan Alexeyevich turned up.
2. After the birth of the child, Aksinya devoted herself to her husband. – When Aksinya gave birth to her child she devoted herself to her husband.
3. After she and I went out to start the tractor. – When she and I had breakfast then we went out to start the tractor.
4. After a week of this work, he withered. – He worked for a week and then he withered.
5. After a pause he asked. – He paused for a while then he asked.

Ayrim monografik ishlarda temporal posterior sintaksemani after yoki after+s doirasidagina qisman kuzatilgan [1, b. 12]. Ammo, mazkur sintaksema boshqa predloglar yoki ravishlar bilan vaqtni ifodalovchi leksik birliklar yordamida ham ifodalanadi.

1. In a few minutes the street was deserted.
2. They’ll all be here in a minute.
3. Within ten minutes the village was left behind.
4. A year later they had become an almost everyday occurrence.

Bu gaplarda ham in a few minutes, in a minute, within ten minutes, a year later sintaktik birliklar substantzial temporal ifodalash bilan bir qatorda posteriorlikni ham ifodalaydi [2, b. 74]. Avvalambor, temporallikni aniqlash uchun when so‘roq olmoshi yordamida transformatsiya interrogatsiyaga aylantiramiz:

1. In a few minutes the street was deserted. – When was the street deserted?
2. They’ll all be here in a minute. – When will they all be here?
3. Within ten minutes the village was left behind. – When was the village left behind?
4. A year later they had become an almost everyday occurrence. – When had they become an almost everyday occurrence?

Substantzial temporal sintaksema asosida posterior sintaksemani isbotlashda in, within, later kabilarni after predlogi bilan almashtirish mumkin:

1. In a few minutes the street was deserted. – In a few minutes the street was deserted.
2. They’ll all be here in a minute. – They’ll all be here after a minute.
3. Within ten minutes the village was left behind. – After ten minutes the village was left behind.
4. A year later they had become an almost everyday occurrence. – After later they had become an almost everyday occurrence.

Yuqoridagi misollar tahlilidan ma'lumki, substantzial temporal anterior sintaksemaning variantlari after + s, in + s, within + s, s + later kabilar hisoblanadi.

Substantzial temporal posterior sintaksemani ifodalovchi sintaktik birliklar gap tarkibida noyadroviiy tobe komponent o'rnida kelib, hokim komponentga subordinativ aloqa asosida bog'lanadi.

Ushbu aniqlangan sintaksema, ya'ni substantzial temporal posterior sintaksema subordinativ aloqa asosida quyidagi sintaksemalar bilan bog'lanadi:

- a) protsessual aktsional deriktiv sintaksema bilan: Two hours later the attach was renewed.
- b) protsessual aktsional sintaksema bilan: Six months later Zikhovidov turned up in Albania.
- v) kvalifikativ kvantativ sintaksema bilan: It was long after midnight.
- g) protsessual stativ sintaksema bilan: After a moment Miska awakened from his first sleep...

O'zbek tili misolida substantzial temporal posterior sintaksemaning variantlari quyidagicha ifodalanadi:

1. Olti oylardan keyin esa Baxti Arturnikiga batamom ketib qoldi.
2. Olti kundan keyin ustboshim tayyor bo'ldi.
3. Tushlikdan keyin hamtavoqlarim ketishdi.
4. Men kechikib, dafndan so'ng borgan ekanman.
5. Serjant Orzuqulov bir osh pishirmalar o'tib qaytib keldi.
6. Uch martalar proguldan so'ng haydaymiz.
7. Oradan bir necha kundan so'ng karekturasini o'qiy deb chiqqan edim.
8. Oradan yarim soat o'tar-o'tmas orolning quyi galariyasini men turgan qoya cho'qqisiga yuz yard masofaga yaqinlashtirdim.

Bu gaplar tarkibida substantzial temporal sintaksemani ifodalovchi sintaktik birliklar oylardan keyin, kundan keyin, tushlikdan keyin, dafndan so'ng, pishirmalar o'tib, proguldan so'ng, kundan so'ng, soat o'tar-o'tmas kabilar noyadroviiy tobe komponent o'rnida kelib, subordinativ 2 o'rnida kelgan komponentlar ketib qoldi, tayyor bo'ldi, ketishdi, borgan ekanman, qaytib keldi, haydaymiz, chiqqan edim, yaqinlashtirdim bilan bog'lanadi. Asosan ta'kidlash joizki, temporallikni ifodalovchi substantzial birliklar chiqish kelishigi qo'shimchasi – dan va ko'makchilar keyin, so'ng (esa) kabilar yordamida ifodalangan.

Ushbu gaplarda ham temporallikni aniqlashda temporallikni ifodalagan sintaktik birliklarga qachon? so'rog'ini qo'yish yordamida aniqlanadi:

1. Olti oylardan keyin esa Baxti Arturnikiga batamom ketib qoldi. – Qachon Baxti Arturnikiga batamom ketib qoldi?
2. Olti kundan keyin ustboshim tayyor bo'ldi. – Qachon ustboshim tayyor bo'ldi?
3. Tushlikdan keyin hamtavoqlarim ketishdi. – Qachon hamtavoqlarim ketishdi?
4. Men kechikib, dafndan so'ng borgan ekanman. – Qachon men borgan ekanman?
5. Serjant Orzuqulov bir osh pishirmalar o'tib qaytib keldi. – Qachon Serjant Orzuqulov qaytib keldi?
6. Uch martalar proguldan so'ng haydaymiz. – Qachon haydaymiz?
7. Oradan bir necha kundan so'ng karekturasini o'qiy deb chiqqan edim. – Qachon karekturasini o'qiy deb chiqqan edim?
8. Oradan yarim soat o'tar-o'tmas orolning quyi galariyasini men turgan qoya cho'qqisiga yuz yard masofaga yaqinlashtirdim. – Qachon orolning quyi galariyasini men turgan qoya cho'qqisiga yuz yard masofaga yaqinlashtirdim?

Differentsial sintaktik-semantik belgi posteriorlikni esa keyin, so'ng, o'tib, o'tar-o'tmas kabi ko'makchi va ravishlar oydinlashtiradi [3, b.204].

Chunki, gap tarkibida ifodalangan ish-harakatning bajarilishi yoki bajarilmasligi ma'lum vaqt yoki muddatdan keyin sodir bo'ladi.

O'zbek tili misolida substantzial temporal posterior sintaksema subordinativ aloqa asosida quyidagi sintaksemalar bilan bog'lanadi:

- a) protsessual aktsional sintaksema bilan: O'n kundan keyin kelinglar.
- b) protsessual stativ sintaksema bilan: Biror yildan so'ng esa fabrika tovuqlariga o'lat tegibdi.

Yuqorida tahlil qilingan misollar hosilasidan ma'lumki, ingliz tilida gap qurilmasida noyadroviiy tobe komponent o'rnida substantzial temporal sintaksemalar after + s, in + s, within + s, s

+ later kabilar yordamida ifodalansa, o'zbek tilida esa s + dan keyin, s + dan so'ng, s + o'tar-o'tmas kabilar orqali namoyon bo'ladi. Demak, ingliz tilida after + s, in + s, within + s, s + later o'zbek tilida s + dan keyin, s + dan so'ng variantlariga mos keladi. O'zbek tilidagi s + o'tar-o'tmas varianti ingliz tilida uchramaydi.

Substantsial temporal posterior sintaksema subordinativ aloqa asosida ingliz tilida protsessual aktsional, protsessual aktsional deriktiv, protsessual stativ, kvalifikativ kvalitatif sintaksemalar bilan bog'lansa, o'zbek tilida esa faqat protsessual aktsional va protsessual stativ sintaksemalar bilan bog'langanligining guvohi bo'ldik.

Adabiyotlar

1. Киямов Р. Э. Лексический и синтаксический анализ конструкций с предлогами after и before в современном английском языке // Автореф. дисс.... канд. филол. наук. – Одесса, 1983. – 16 с.
2. Сайфуллаев А. Предлогларни кодификациялашнинг контекстуал асослари. – Тошкент: Фан, 2014. – 144 б.
3. Усмонов Ў.У. Синтактик қиёсланишнинг тадқиқот томонлари ҳақида // Тилшуносликдаги янги йўналишлар ва уларнинг муаммолари. Илмий амалий селектор материаллари. Профессор Ў. Қ. Юсуповнинг 75 йиллик таваллудига бағишланади. – Тошкент, 2013 йил 23 февраль. – Б. 202-206.

UDK: 81.367

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA LOKATIV ADESSIV SEMANING VARIANTLARI

N.J.Sulaymanova

Samarqand davlat chet tillar instituti, katta ilmiy xodim-izlanuvchi

E-mail: sulaymanova.nilyusha@mail.ru

Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillarida lokativlik adessiv semaning variantlari: konnotativ, fakultativ va adverbial variantlari chuqur tahlil qilingan. Har bir variantning modellari taqdim etilgan. Har ikkala tilda lokativ semani ifodalovchi leksemalarni hisobga olish ancha murakkab, chunki lokativlikni ifodalovchi leksik material umumlashgan bo'lib, leksemalarning individual ma'nosiga to'liq tobe emas. Lekin adessiv semani ifodalovchi substantiv leksemalar turli xil semantik guruhlardan bo'lishi mumkin. Maqolaning nazariy tomoni ko'plab misollar bilan isbotlangan.

Kalit so'zlar: adessiv, adverbial, gap, konnotativ, lokativ, matn, model, sema, sintaksema, substantional, fakultativ.

Варианты локативных адессивных сем в английском и узбекском языках

Настоящая статья исследует варианты локативных адессивных сем в английском и узбекском языках: коннотативные, факультативные и адвербиальные варианты. Представлены модели каждого из вариантов. Теоретическая сторона статьи подтверждается многочисленными примерами.

Ключевые слова: адессивный, адвербиальный, предложение, коннотативный, локативный, текст, модель, sema, синтаксема, субстанциональный, факультативный.

Variants of locative adessive semas in english and uzbek

The present article investigates variants of locative adessive semas in the English and Uzbek languages: connotative, facultative, adverbial. The models of each variant are presented. It's difficult to investigate lexemes expressing locativeness. But substantional lexemes, expressing adessive semas, can be divided into various groups. Theoretical part of the article is proved by numerous exa.

Keywords: adessive, adverbial, sentence, connotative, locative, text, model, sema, syntaxeme, substantional, facultative.

Lokativ sintaktik birliklarni semalarga ajratib tahlil qilinganda, substantial lokativ doirasida adessiv, allativ, ablativ, translativ, ob'ekt, instrumental, tarz semalar va ularning ingliz va o'zbek tillarida ifodalanish usullari hamda subordinativ aloqa asosida qanday semalar bilan bog'lanish imkoniyatlari aniqlandi. Ushbu maqolada substantial lokativ adessiv semalarning variantlari tahlil qilinadi.

a) Konnotativ variantlar

Ingliz tili misolida lokativ adessiv semaning bir qator konnotativ variantlari mavjudligi aniqlandi. Ular quyidagi predlogli ot birikmalari yordamida ifodalanadi: *inside + S*, *in/on the opposite of + S*, *in + S*, *round* yoki *around + S* va hokazolar. Ushbu predloglar lokativ semaning variantlarini ifodalaydi. Bu konnotativ variantlarni adessiv semaning bir invariantiga kiritishda ularning asosan mazmuni jihati hisobga olinadi, semalarning oppozitiv munosabatlarini oydinlashtiradi. Shuning uchun ham lokativ adessiv semani ifodalashda ushbu predlogli ot birikmalari konnotativ variant hisoblanadi, chunki u birikmalar fakultativ variant singari birining o'rniga ikkinchisini erkin almashtirib bo'lmaydi.

Shunday qilib, adessiv semalarning konnotativ variantlarini bir-biri bilan almashtirib bo'lmazligi, predlogning ot bilan birikib kelishi ham otning leksik ma'nosiga ta'siri yo'q. Predloglarning leksik ma'nosidan kelib chiqib, semalarning u yoki bu variantini ifodalaydi:

Qiyoslang: They heard a footstep inside the house.

My friends arrived on the opposite of bank.

He was lodging by himself in the house. He would spring round the room.

Bu misollardan ko'rinib turibdiki, predloglar *inside*, *on the opposite of*, *in*, *round* o'zlarining leksik ma'nosi asosida lokativ adessiv semaning konnotativ variantlarini, birikib kelgan otlarning yoki kesim o'rnida kelgan fe'llarning leksik ta'siri unchalik sezilmaydi.

Ma'lumki, variant *inside + S* joylashish ma'nosini ifodalab, ob'ektning ichida ish harakatning bajarilishini yoki bajarilmasligini anglatadi:

We just managed to keep inside the boot.

Variant on the opposite of + S narsa predmetni, shaxsni bir ob'ekt yoki shaxsning qarshisida joylashishini ifodalaydi:

The groser's boy passed on the opposite of the street.

In + S birikmasi aniq bir joyda joylashishini yoki yetib kelishini belgilaydi. Bu predlog ko'p ma'noli hisoblanib, u sub'ektning yoki ob'ektning turgan, yashayotgan o'rnini anglatadi:

They had spent in the woods of Skene.

Around yoki round + S birikmasi biror narsa yoki biror ob'ekt, manzil atrofida ish-harakatning bajarilishini ifodalaydi.

They brought the cars around the villa.

Harri's always knows a place round the corner.

outside + S yoki out of + S birikmasi shaxsni yoki narsani makonning yoki joyning tashqarisida joylashishini ko'rsatadi:

The second man climbs out of the boat.

The Germans have stopped outside Udine.

Variant over + S yoki above + S makondan balandda joylashishini ifodalaydi:

There were clouds over the lake and over the valley.

Queen Elisabeth passed on the right bank just half a mile above Marlay Bridge.

Variant near + S sub'ektning yoki ob'ektning makon yaqiniga joylashishini ifodalaydi:

She came near the gates of the city.

Variant under + S sub'ekt yoki ob'ekt o'rinni ifodalovchi sintaktik birlikning tagida joylashishini anglatadi:

We stopped under the willows by Kempton Park.

It was while floating in his boat under Bishom beecles.

Variant between + S sub'ekt yoki ob'ekt ikki makon o'rtasida joylashishini ifodalaydi:

He'd already traced between the altar and the tripod.

Variant behind + S sub'ekt yoki ob'ekt belgilangan makonning orqasida joylashishini ifodalaydi:

I've got a cab behind the door.

I've discovered an M.S. behind the library of the Arsenal.

Variant in the middle of + S ish harakatini makonning o'rtasida bajarilishini yoki shaxsni joylashishini anglatadi:

She stood in the middle of the room.

The island was in the middle of a wide river.

Variant along + S ish harakatining shaxs tomonidan makon bo'ylab yo'nalishini ifodalaydi:

They walked along the passage.

Susie walked some way along the road.

O'zbek tilida ham lokativ adessiv semaning konnotativ variantlari asosan S + o'rin-payt kelishigi qo'shimchasi – da ning o'rin ravishlariga qo'shilib kelishi yordamida ifodalanadi:

Variant S + ortida yordamida sub'ekt yoki ob'ekt makon ortida joylashishini anglatadi:

Kun bulut ortida qoldi.

S + adog'ida birikma shaxs yoki narsa predmetning makon oxirida o'rin olishini ifodalaydi:

Dalasi Farg'ona adog'ida bo'ladi.

S + o'rtasida birikma shaxs yoki ob'ekt ikki makon o'rtasida bo'lishini anglatadi:

Ikkita askar o'rtasida bordim.

S + tarafda/tomonda birikmasi ish harakatni ma'lum makonda amalga oshishini ifodalaydi:

Bizning Surxon tarafda xo'jalar bekalar otini atamaydi.

Variant S + ustida/haqida birikmasi ish-harakatni yoki holatni biror ob'ektning bajarilishiga qaratiladi:

Mashina ustida ishlayotganlariga mana, 20 yil bo'lmoqda.

S + burchida birikma esa ob'ektning yoki sub'ektning makonning bir qismida joylashganligini anglatadi:

Uy burchida turmush beshik-beshik ko'zimga yomon ko'rindi.

Variant S + o'ngida birikma ish-harakatini makonning o'ng tomonida bajarilishini ifodalaydi:

Salohiddin bo'yrahi ariq o'ngida oyoq ildi.

Variant S + qoshida ish harakatning makonga yaqin joyda ijro etilishini ko'rsatadi:

Yormozor masjid-madrasa qoshida to'dalaydi.

S + chetida birikmasi yordamida ob'ekt yoki sub'ektning makon chetida joylashganligini ifodalaydi:

Mashina yo'lak chetida oyoq ildi.

Variant S + tevaragida/girdida ish-harakatning makon atrofida sodir bo'lishini ifodalaydi:

O'ra tevaragida beshta bidon bo'ldi.

Bolalar onamiz girdida g'uj-g'uj bo'lib oldi.

Variant S + labida/bo'yida ish-harakatining makonning bir joyida amalga oshishini ifodalaydi:

Bobomiz ariq labida muztar bo'lib – muztar bo'lib o'tirardi.

Buyrachi ariq bo'yida soyalaydi.

Variant S + yuzida/betida birikmasi ish-harakatining makonda sodir bo'lishini ko'rsatadi:

Hovli yuzida satillar dumalab yotdi.

Yer osti suvi yer betida bug'landi.

Variant S + poyida birikma ish-harakatini makonning pastki qismida bajarilishini ifodalaydi:

Mozor poyida tizza bo'ldim.

Variant S + orasida birikma ish-harakatini makonni ifodalovchi sintaktik birlik orasida sodir bo'lishini ifodalaydi:

“Sadist” bilan “Sokol” orasida koptok bo'lib borib kela berdim.

S + boshida birikmasi ish-harakatining makonning boshlanish joyida sodir bo'lishini ifodalaydi:

Dala boshida turmush agitmashina ashula aytdi.

Variant S + ichida sub'ekt yoki ob'ektni makon ichida joylashishini ifodalaydi:

Bolani o'zi paxta ichida qolibdi-da.

Variant S + ostida birikmasi sub'ektni yoki ob'ektni belgilangan makon tagida o'rinishini ifodalaydi:

Yong'oqni ostida ham uxlar edimi?

Mashina ko'prik ostida oyoq ildi.

Variant S + oldida ish – harakatini makon oldida bajarilishini ko'rsatadi:

Mototsiklimni kasalxona darvozasi oldida qoldirdim.

Yuqorida keltirilgan faktlardan aniqlanishicha, har ikkala tilda lokativ semani ifodalovchi leksemalarni hisobga olish ancha murakkab, chunki lokativlikni ifodalovchi leksik material umumlashgan bo'lib, leksemalarning individual ma'nosiga to'liq tobe emas. Lekin adessiv semani ifodalovchi substantiv leksemalar turli xil semantik guruhlardan bo'lishi mumkin:

a) konkret jonli va jonsiz otlardan tashkil topadi;

- b) mavhum otlardan iborat bo'lishi mumkin;
 v) atoqli otlar (geografik nomlar, jonli va jonsiz otlar) dan bo'lishi mumkin [2, b.106].

b) Fakultativ variantlar

Fakultativ variant deganda lokativ adessiv semani ifodalovchi sintaktik birliklarni birini ikkinchisi bilan erkin almashtirish mumkin. Ularning birini ikkinchisi bilan almashtirilganda gapning mazmuni sezilarli darajada o'zgarmaydi.

Ingliz tili misolida qaralganda adessiv semaning ifodalanishida predlogli ot birikmalarining fakultativ variantlari o'zbek tiliga nisbatan kengroq ifodalanadi, chunki predloglarning ko'p ma'noli ekanligidan dalolat beradi. Predlogli birikmalardan on + S, over + S, across + S fakultativ variant sifatida adessiv semani ifodalashi nazarda tutilganda, ularni birining o'rniga ikkinchisini almashtirish mumkin:

1. We all three sat round it on the grass → We all three sat round it over the grass → We all three sat round it across the grass.

2. Under + S, at the bottom of + S predlogli birikmalar ham fakultativ variantlar hisoblanadi:

We were at the bottom of the water → We were under the water.

3. behind + S, on the other side of + S, on + S's + back birikmalari ham bir-biri bilan almashtirilganda ham adessiv sema saqlanadi:

They meant to have tea on the other side of the river → They meant to have tea behind the river → They meant to have tea on the river's back.

4. by + S, near + S, in front of + S predlogli birikmalar adessiv semani ifodalaydi va ularni ham bir-biri bilan almashtirish mumkin:

I took and furnished a small flat near Victoria Station → I took and furnished a small flat by Victoria Station → I took and furnished a small flat in front of Victoria Station.

5. against + S, the opposite + S:

We sat on the ground with our backs against the wall → We sat on the ground with our backs opposite the wall.

6. in + S, inside + S birikmalari ham adessiv semani ifodalaganda, ularni erkin almashtirish mumkin:

They heard a footstep inside the house → They heard a footstep in the house.

7. in the middle of + S, in the centre of + S birikmalari ham erkin almashadi:

She stood in the middle of the studio → She stood in the centre of the studio.

O'zbek tili misolida qaralganda, lokativ adessiv semaning fakultativ variantlari juda kam uchraydi.

Variant S + (ning) oldida, S + (ning) yonida birikmalarini bir-biri bilan almashtirish mumkin:

SHiyp'on oldida mashinalar qator bo'ldi → SHiyp'on yonida mashinalar qator bo'ldi.

Mehmonxonaning oldida uzun bir avtobus bel bo'ldi → Mehmonxonaning yonida uzun bir avtobus bel bo'ldi.

Variant S + ostida, S + tagida ish-harakati biror ob'ekt tagida sodir bo'lishini anglatadi:

Ziyodning onasi tol ostida buxchani ochadi → Ziyodning onasi tol tagida buxchani ochadi.

Yong'oq ostida ham uxlar edimi? → Yong'oq tagida ham uxlar edimi?

Variant S + tevaragida, S + atrofida ish-harakatni makon atrofida bajarilishini, sub'ekt yoki ob'ektning makon atrofida joylashishini ifodalaydi:

SHoberdi masjid atrofida yuribdi → SHoberdi masjid tevaragida yuribdi.

Variant S + tarafda, S + tomonda ish-harakatni ko'rsatilgan manzilda bajarilishini anglatadi:

Bizning Surxon tarafda xo'jalar bekalar otini atamaydi → Bizning Surxon tomonda xo'jalar bekalar otini atamaydi.

Demak, o'zbek tilida lokativ adessiv semaning adverbial fakultativ variantlari ingliz tiliga nisbatan kam sonni tashkil qiladi, ingliz tili analitik tillar guruhiga kirishi bilan kelishik kategoriyasining yo'qligi hisobiga predloglar tizimi rivojlangan.

Ingliz tilida at + S, about + S, among + S, around + S kabi adessiv sema variantlari o'zbek tilida esa S + da, S + (ning) ustida, S + (ning) orqasida, S + (ning) qarshisida, S + (ning) o'rtasida, S + (ning) orasida kabilarning fakultativ variantlari yo'q.

v) *Adverbial variantlar*

Ingliz va o'zbek tillarida lokativ adessiv semaning adverbial variantlari asosan o'rinni ifodalovchi olmoshlar yoki ravishlar here – bunda, shu yerda, shu yerning o'zida; there – o'sha yerda, u joyda, u yerda; near – yaqinida, yonida; behind – orqada, ketida; within – ichida; outside – tashqarida, ustida; upstairs – yuqorida; inside – ichida, ichki tomonida; backward – orqa tomonida; ashore – qirg'oqda; around – atrofiga, tevaragida; past – yonida, yaqinida; where – qaerda; above – ustida, tepasida; somewhere – bir joyda; nowhere – hech qaerda, hech yerda; everywhere – hamma yoqda, hamma yerda; anywhere – biror joyda; below – ostida; under – ostida, tagida; downstairs – pastida, pastki qavatda; back – orqada; out – tashqarida; in – ichida va hokazolar.

Lokativ adessiv semaning adverbial variantlarini ingliz tili misolida ifodalanishiga ko'ra ikkiga bo'lish mumkin: 1. Olmoshlar yordamida; 2. Predloglar yordamida.

O'zbek tilida esa qayd qilingan o'rinni ifodalovchi ravishlar yordamida ifodalanadi.

Lokativ adessiv semalarni ifodalovchi adverbial variantlari gap qurilmasida ish-harakat yoki holatning bajarilish o'rini fe'l bilan bog'lanib, undan anglashgan harakatning joyini yoki manzilini bildiradi.

Bu borada qayd etish joyizki, ingliz tilida ayrim predloglar adverbial elementlarga aylanishi mumkin. Masalan, A.I.Smirnitskiy shunday ta'kidlaydi "... ingliz tilida in elementining turlicha qo'llanilishi: He was in the room, He came in gaplarida hol munosabatlar aniq, ammo birinchi gapda in mustaqil qo'llanilmagan, ya'ni yordamchi vazifasida kelgan, ikkinchi gapda esa mustaqil ma'noga ega bo'lib, in to'liq ma'noda ravishga aylangan" [1, b. 174]. Yuqorida qayd etilgan ravishlar mustaqil ishlatilganda ravishga aylanib, lokativ semaning adessiv, allativ, ablativ ma'nolarni ifodalashi mumkin.

But he stayed downstairs and waited for them.

He was there several weeks.

U pastda qoldi. Oqposho shu yerda yiqildi.

O'zbek tilida ham ingliz tilida ham adverbial elementlar ko'pincha gapda otga tobe bo'lib, u bilan birgalikda substantzial lokativ adessiv semani ifodalaydi.

Adabiyotlar

1. Смирницкий А. И. Синтаксис английского языка. – Москва: Иностр. лит. на иностр. яз., 1957. – 286 с.
2. Усмонов У. Гап таҳлилига янгича ёндашув // Халқаро илмий-анжуман материаллари. СамДЧТИ нинг 10 йиллигига бағишланади. – Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2004. – Б. 106-107.

УДК 371 С-1

ОСОБЕННОСТИ КРИТЕРИЯ ОЦЕНИВАНИЯ НАВЫКОВ ГОВОРЕНИЯ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

З.И.Салиева

Самаркандский государственный институт иностранных языков

E-mail: zarrinasaliev@mail.ru

В данной статье обращается внимание на навыки говорения на английском языке. Предлагаются критерии оценивания данных навыков, которые будут способствовать более эффективному обучению английскому языку на всех ступенях образования РУз.

Ключевые слова: коммуникативная компетенция, навык говорения, критерии оценивания, государственный стандарт, система CEFR.

Ingliz tilida gapirish ko'nikmalarini baholash mezonlari xususida

Mazkur maqola kommunikativ kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismi bo'lgan gapirish ko'nikmasiga bag'ishlangan bo'lib, muallif shu ko'nikmani O'zbekistonning barcha ta'lim darajalarida samarali qo'llash hamda uning muhim shartlaridan biri bo'lgan baholash mezonlarini izohlab beradi.

В отличие от Аристотеля, который использовал логику как инструмент анализа языка, одна из основных точек зрения возникла благодаря Канту. Кант предполагал, что логика является требованием не только для языка, но и для рационального мышления в целом. Ричард Монтегю (1970) дополнил мысль Канта: “я отвергаю утверждение о том, что существует большое теоретическое различие между формальными и естественными языками.” Это утверждение было признано и послужило стимулом для большого количества исследований в области искусственного интеллекта и формальной лингвистики. Фреге, Рассел и Карнап, и позже Витгенштейн считали, что логика превосходит язык. Будучи логиками, две эти группы находились в согласии друг с другом, однако позднее они признали ограниченность логики и силу языка.

Большое количество различных форм логики используется в различных областях. Однако, логика играла решающую роль до 80-х годов как аспект лингвистики и семантики. Язык устал объясняться посредством естественного языка и формальной логики. Аристотель разработал формальную логику как инструмент (*organon*) для анализа и рассуждений об онтологии, скрытой в языке. Они являются также словами и фразами для всего, что каждый из нас когда-либо открыл, предположил или вообразил. В отличие от Аристотеля, некоторые лингвисты и логики утверждают, что существует высший вид логики в основе всех естественных языков.

Впрочем, Рассел и Норвиг объясняют логику с другой точки зрения, с которой она может быть применена также к другим проблемам (Рассел И Норвиг, 2003). Например, формальная логика является слишком строгой, чтобы составлять основу языка. Логика и онтология являются абстракциями от языка. Эта проблема между логикой и языком по видимости делает множество теорий о языке бессмысленными. Кроме этого, Фреге, Рассел и Венский кружок пытались сделать формальную логику универсальным языком науки, однако эта попытка потерпела неудачу.

Позже, лингвистика сконцентрировалась на компьютерных науках. В связи с чем, термин «Нечеткая логика» используется в противовес традиционной логике. Нечеткая логика - это форма вероятностной логики. Кроме этого, переменные нечеткой логики могут иметь истинностное значение, которое колеблется в степенях между 0 и 1. В 1999 году в небольшом количестве исследований о нечеткой логике, которая была расширена для проработки концепции частичной правды, в которой истинностное значение может колебаться в пределах от абсолютно истинного и абсолютно ложного (Новак, В. Перфильева, И. и Мочкор, Я. 1999).

Правила нечеткой логики сосредотачиваются на человеческих различиях и личностном уровне. Так, с точки зрения нечеткой логики, личностный уровень означает знание. В дополнение, нечеткая логика применялась во многих областях, от теории управления до искусственного интеллекта. Не только переменные в математике принимают числовые значения, но и нечисловые лингвистические переменные часто используются для облегчения выражения правил и фактов (Заде, 1996).

В заключение, взаимосвязь языка и логики, которые построены на вокальных признаках и формах знаков, чьи более стабильные формы классифицируются как лексика и грамматика. Грамматика и логика описывают постоянные структуры знаков или инвариантов при трансформациях восприятия. Эти постоянные формы развиваются по мере того, как каждый человек взаимодействует с миром в нем.

Взаимосвязь когнитивного процесса и языка

Когнитивные психологи, которые ищут объяснения языковому познанию и изучению языка, сосредотачиваются на ментальных репрезентациях, сознании и процессах восприятия. Когнитивный процесс имеет огромное сложное определение, которое связано с мозгом и его функциями.

Изучение языка - это продукт сложного взаимодействия языковой среды и внутренними механизмами обучающегося. Важнейшее понятие, (память) - это процесс, включающий в себя кодирование, хранение и извлечение познавательной информации. Кроме того, кодирование поддерживает восстановление памяти. Кодирование - это процесс, характеризующийся оформлением входной информации в более полезную форму, их хранение знаний относится к тому, что воспоминания хранятся в течение определенного периода времени.

Бихевиоризм был очень влиятельным направлением между 1940-ми и 1950-ми годами. Бихевиористы изобрели другой подход и представление, утверждая, что обучение является продуктом стимула-реакции и окружающей среды. Бихевиоризм традиционно определяет поведение человека, которое формировалось и контролировалось дистанционно и автоматически при помощи стимулов в окружающей среде. Нейтральный стимул не отвечает изначально, позже организм учится правильно реагировать на раздражители при помощи закрепления. Поэтому отрицательный и положительный перенос может быть полезным в изучении языка. Положительный перенос возникает, когда правила применяются правильно для изучения языка. Отрицательный перенос, возникает, когда правила используются неправильно для изучения языка. Переносы влияют на всю систему обучения.

В противовес бихевиоризму, теория Пьяже как разум и схема, анализирует, как дети функционируют в мире, окружающем их, и как это влияет на их психическую стабильность. Обучение происходит вместе с обстоятельствами в окружающей среде, в особенности равновесием. Когда ребенок решает проблему, тем самым он учится, и таким образом возникают знания в результате действий этого ребенка. Когнитивная теория подтверждает, что знания приобретаются посредством общения и разума.

Исследования когнитивного языка пытаются объяснить язык с точки зрения других ресурсов и механизмов человеческого разума и тела (Веспур М, Лоуи В. и Ван Дижк М (2008). Они утверждают, что язык является частью человеческого познания, восприятия и категоризации. Когнитивные исследования заявляют, что язык предлагает перспективу, которая закладывается в когнитивное функционирование, природу, структуру и организацию мыслей и идей. Аналогично перспективе Хомского, язык является независимой системой, отдельной от других когнитивных и социальных способностей.

Лангакер, один из выдающихся лингвистов на сегодняшний день, развил модель языка, которая представляет лингвистическую структуру и организацию как отражающую общие когнитивные организационные принципы. Он также упоминает, что передача имеет относительную важность для субъектов на уровне восприятия и познания, и она также является частью конструкции языка. Более того, Лангакер (2000, 2008) предполагает, что элементы, составляющие ментальную грамматику индивидуума происходят из использования языка. Язык тесно взаимодействует с другими умственными способностями, зрительным восприятием, сенсомоторными навыками и памятью. В частности, для поддержки организации языковой структуры необходимы механизмы, связанные с когнитивными характеристиками внимания.

Когнитивные процессы и логика в изучении языка

Мозг не функционирует как специализированное компьютерное устройство, которое имеет большое количество автоматических ответов. Разделение функций правого и левого полушарий была доказана в неврологических исследованиях. Результаты экспериментов показали, что левое полушарие выполняет интеллектуальную, логическую и аналитическую функцию, которые связаны с мозгом, памятью, схемой и знанием. Эти концепции являются основными понятиями как когнитивных процессов, так и философии, которая нуждается в символической.

В течение 60-х и 70-х годов, различные языки и связанные с ними области привлекли внимание преподавателей языков. Фреж (1879) упомянул, что можно «сломить превосходство мира над человеческим духом путем простого закладывания неверных представлений, которые часто почти неизбежно возникают при использовании языка относительно взаимосвязей между концепциями».

Знаки и символы являются ключевыми для работы человеческого разума, для сбора и передачи знаний в человеческой культуре, и широко используются в интеллектуальной и многоуровневой комбинационной системе. Но каким-то образом, «символ» является наиболее неверно используемым словом. Научные теории знаков и символов, однако, не являются хорошо развитыми, и даже точные значения этих слов часто путают. Мы используем знаки и символы для малозначительных случаев, таких как дорожные знаки или в наиболее сложных случаях культурных и религиозных символов.

Витгенштейн полагал, что это, безусловно, связано с языком, который, естественно, является социальным; следовательно, нет никакого "внутреннего" пространства, в котором могут возникнуть мысли. Также мысль Витгенштейна улавливается в следующем заявлении: "Внутренний процесс" нуждается во внешних критериях. Это происходит, прежде всего, из его выводов о личных языках: аналогичное психическое состояние личности (ощущение боли, например) не может эффективно обсуждаться без общих критериев для его определения (Витгенштейн, Л. (1953/2001).

По Витгенштейну, психические состояния тесно связаны с окружающей средой субъекта, особенно с их социально-лингвистической средой, и аргументы, которые утверждают, что это не так, ошибочны. Витгенштейн согласился, что язык может вводить в заблуждение, но он отрицал, что искусственный язык может быть лучше. Более того, Витгенштейн отрицал, что определения возникают из того, что называется "формой жизни". Это, как правило, культура и общество, в

котором они используются. Витгенштейн указывает, что социальные аспекты познания а также произведения языка в большинстве случаев, и его функции для конкретной социальной ситуации.

Витгенштейн также переосмысливает возможности языка, передающие те вещи, которые известны пользователю. Таким образом, содержание по своей природе является частным. Обычный случай предполагает язык, на котором субъект называет свои ощущения и другой субъективный опыт, так, что смысл термина определяется индивидуумом.

Витгенштейн провел простой эксперимент: дать определение слову "игра". Хотя это может показаться на первый взгляд простой задачей, он идет дальше и ведет нас через проблемы, возникающие с каждым из возможных определений слова "игра".

В 1950-х годах, соглашение, которое, казалось, было достигнуто в отношении примата предложений в смысловых вопросах, определило крах движения логического позитивизма и мощное влияние, оказываемое философскими исследованиями позднего Витгенштейна.

В своем Трактате Витгенштейн утверждал, что "совокупность фактов" о мире может быть четко заявлена в языке или логике, и «о чем нельзя говорить, о том следует молчать». Эта книга определила повестку дня для формальной семантики в 20-м веке. В середине 1950-х годов логика и новая лингвистическая наука существовали в «блестящем взаимном одиночестве» Бар-Гиллель (1969, стр. 182).

Кроме того, результаты компьютерных исследований гораздо ближе к человеческому восприятию, чем когда-либо прежде. Сочетание этих технологических инноваций оказало влияние на теорию обучения, в том числе на когнитивную теорию знания, теорию долгосрочной и краткосрочной памяти, сенсорной памяти. Это привело к возникновению новой науки под названием нейро-нечеткая логика.

В настоящее время, логика, как нечеткая логика, так и концепция нейронных сетей, были разработаны в течение последних нескольких лет самостоятельно для понимания закономерностей поведения человека, особенно мыслительных процессов в связи с решением проблем. В то время как нечеткая логика использует приблизительное человеческое мышление в системах, основанных на знаниях, нейронные сети направлены на распознавание образов, оптимизацию и принятие решений.

Нечеткая логика строится на изучении силы моделируемых нейронных сетей. Существенная сторона динамической работы логики заключается в том, что ранние стадии когнитивных и языковых моделей являются неясными и нечеткими, и неопределенно связаны отсутствием знаний или недостоверными знаниями. Но, с другой стороны, нечеткая логика не так доступна для сознания, но некоторые модели являются более доступными для сознания.

Учитывая изложенное, язык находится под воздействием психологических подходов, а также достижений в познавательных перспективах и областях, связанных с логикой.

Вывод

Человеческие существа ведут очень сложные жизни. Мы сталкиваемся со всякого рода проблемами, требующими решения. Жизнь каждый день преподносит нам испытания. Поэтому необходимо мыслить четко и эффективно, чтобы быть успешным в решении проблем и преодолении испытаний в жизни, требующих воображения, позволяющего распознавать объекты в окружающей среде и понимать их значение. Логическое мышление является мышлением, применяющим действительное рассуждение, направленное на достижение правильного вывода. Оно является основой рационального мышления, мышления, которое соответствует реальному миру и позволяет нам хорошо в нем функционировать. Некоторые лингвисты считают, что необходимо мыслить логическим образом. Знаки и символы дают нам возможность использовать память для работы с человеческим разумом, человеческим знанием, человеческой культурой. Изучая логику, язык и модульность, Фокс (2010) указал на взаимосвязь логики и языка со знаками и символами. Логика добилась определенного прогресса, который пытается моделировать структуры внутри мозга человека и животных, которые приводят к росту этого навыка. Идеализация, определение и вербализация стали не только существенными понятиями для логиков, но и также для когнитивных лингвистов.

Оригинальные идеи Хомского об универсальной грамматике также полагались на логические правила. Кроме того, Пинкер (2010) объясняет язык как сложную и логическую

древовидную структуру. Как уже упоминалось, познавательная перспектива придает функциям умственной деятельности центральное значение для анализа того, как развивается опыт обучения. Это не удивительно, что язык представляется одной из основных тем в когнитивной науке, предполагая, что память и функция памяти составляют переломный момент логики и познавательного процесса.

Обширные взаимосвязи между логикой и когнитивной системой не были полностью раскрыты в настоящей статье, они выходят за ее пределы. Вместе с тем статья служит созданию предварительной структуры для изучения этих взаимосвязей с другой точки зрения для того, чтобы появились идеи для дальнейших исследований и дискуссий.

Литература

1. Берк, Л., Винслер, А. (1995). Поддержка обучения детей: Л. С. Выготский и дошкольное образование. Вашингтон, округ Колумбия: Национальная ассоциация образования детей младшего возраста. (Документ ERIC № ED384443)
2. Бар-Гиллель, Ю. (1970). Аспекты языка, Иерусалим, Амстердам: North-Holland Publishing Company. Магнес Пресс.
3. Хомский, Н. (1965). Аспекты теории синтаксиса. Кембридж, Массачусетс: MIT Press.
4. Дрейфус Х., Дрейфус С. (1986). Превосходство разума над машиной: сила человеческой интуиции и ... Нью-Йорк: (The Free Press, 1986).
5. Фреге, Г. (1879). Begriffsschrift, английский перевод в Дж. Хейенорте, изд. (1967) От Фрегедо Геделя, Harvard University Press, Cambridge
6. Фокс, Дэн. (2010). Логика, язык и фенотипы модульной лингвистики, Банбери центр, май 2010
7. Люгер, Г., Стаблфилд, В. (2004). Искусственный интеллект: структуры и стратегии для комплексного решения проблем, 5-е издание. Benjamin/Cummings Publishing Company (2004)
8. Лангакер, Р. В. (2000). Динамическая модель на основе употребления. В М. Барлоу и С. Кеммер (ред.), Модели языка, основанные на их употреблении. Стэнфорд, Калифорния CSLI Publications, 1-64.
9. Лангакер, Р. В. (2008). Когнитивная грамматика: Основное введение. Оксфорд: Оксфорд Юниверсити Пресс. Мур.
10. Хокинс, Дж. Блэйкли, С. (2005). По вопросам интеллекта. Times Books/Henry Holt and Company, Нью-Йорк. Нильссон 1998
11. Монтегю, Р. (1974). Формальная философия. Нью-Хейвен: Издательство Йельского университета.
12. Новак В., Перфильева, И., Мочкор, Дж. (1999). Математические принципы нечеткой логики, Dordrecht: Kluwer Academic. ISBN 0-7923-8595-0
13. Пинкер С. (2010). Когнитивная ниша: совместная эволюция интеллекта, социальности и языка. Труды Национальной академии наук, 107, 8893-8999.
14. Пул, Д., Макворт, А., Гебель Р., (1998). Вычислительный интеллект: Логический подход. Нью-Йорк: Oxford University Press. ISBN 0-19-510270-3.
15. Рассел, Стюарт Дж., Норвиг, П. (2003). Искусственный интеллект: современный подход (2-е изд.), Upper Saddle River, Нью-Джерси: Prentice Hall, ISBN 0-13-790395-2.
16. Вэспур, М., Лоуи, В. Ван Дижк, М. (2008). Изменчивость в развитии второго языка с точки зрения динамической системы. Modern Language Journal, 92, 214-23.
17. Витгенштейн Л. (1953/2001). Философские исследования. Blackwell Publishing. ISBN 0-631-23127-7.
18. Заде, Л. (1996) Нечеткие множества, нечеткая логика, нечеткие системы, World Scientific Press, ISBN 981-02-2421-4

UDK: 821.512

ERTAKLAR TARJIMASIDA MILLIYLIK VA MILLIY KOLORIT MUAMMOSI

G.A.Raximova

O'zbekiston milliy universiteti, o'qituvchi

Ushbu maqolada bolalar adabiyoti namunalari, xalq og'zaki ijodi namunalari – ertaklarning katta-yu kichik, barchaga birday tarbiyaviy ahamiyati, inson ongining yuksalishidagi o'rni haqida so'z yuritiladi. Bunda jahon xalqlari ertaklari durdonalarining hissasi ham beqiyosdir. Shu ma'noda, muallif fransuz ertakshunosi Sharl Perro ertaklarining o'zbek tarjimashunos olimlari M.Xolbekov va Sh.Minovarovlar tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan ikkala variantni solishtirib o'rgangan.

Kalit so'zlar: ertak, asliyat, tarjima, bevosita tarjima, bilvosita tarjima, jahon ertaklari, tarbiyaviy ahamiyat.

Проблемы национального и местного колорита при переводе сказок

Данная статья посвящена проблеме изучения детской литературы, в частности, сказок, способствующих развитию детского мышления, расширению кругозора...Обращается внимание на изучение сказок Ш.Перро в переводе узбекских ученых Холбекова М. и Миноварова Ш. как один из факторов решения данной проблемы.

Ключевые слова: сказка, оригинал, перевод, прямой и косвенный перевод, зарубежные народные сказки, воспитательное значение.

The problem of national specifics in translation of tales

The given article is about the children's literature, the fairy tales and folk tales of the world and their educational meanings for the children. In this manner, the author learns by comparing the translations of the uzbek translators M.Kholbekov and Sh.Minovarov into Uzbek from French the tales of the french writer Ch.Perrault.

Key words: fairy tale, original, translation, direct translation, indirect translation, world folk tales, educational meaning.

Ertaklar xalq og'zaki ijodining yetakchi janrlaridan biri hisoblanadi. Ertaklar zamirida chuqur ma'no va mazmun, donolik va samimiylik, hamda katta hayotiy tajriba yotadi. Ertaklarning ham donishiy ham tarbiyaviy ahamiyati borki, ertak eshitgan, o'qigan insonning ongi va tafakkuri yanada yuksaladi. Bugungi kunda yurtimiz kitobxonlari o'zbek xalq ertaklaridan tashqari jahon xalqlari ertaklari bilan ham yaqindan tanishish imkoniga egalar. Bu borada mamlakatimizda bir qancha ijobiy ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. Shunday maqsadda qilingan ishlardan biri yurtimizda 1997-yildan buyon adabiy-badiiy, ijtimoiy-publistsistik jurnal "Jahon adabiyoti"ning nashr etilishi va unda mutarjimlarimiz tomonidan o'zbek tiliga bevosita va bilvosita amalga oshirilgan jahon xalqlari adiblari asarlari tarjimalari e'lon qilinishidir.

Bundan tashqari jahon xalqlari ertaklarining o'zbek tiliga tarjima qilingan namunalari alohida kitoblar holida keng kitobxonlar ommasiga taqdim etilishi ham quvonarli holatdir.

Ertak janrining rivojlanishida fransuz yozuvchilarining o'rni beqiyos. Fransuz adiblari hayotiy tajribalarida eshitgan va to'plagan xalq ijodi namunalari qog'ozga tushirib, nashr etishga alohida e'tibor berganlar. Shunday olijanob ish bilan shug'ullangan fransuz adiblaridan biri Sharl Perrodir. Bundan taxminan uch yuz yil oldin Fransiya qiroli huzurida mulozim bo'lib xizmat qilgan Sharl Perro o'z farzandlari uchun to'plagan xalq ertaklari hamda o'z ijodining mahsuli bo'lgan ertaklarni bir to'plam holida nashr ettirgan.

1628-yilda tavallud topgan Sharl Perro 75 yil umr ko'rdi. Xalq og'zaki ijodiga qiziqishi katta bo'lgan Sharl Perro avlodlardan avlodlarga o'tib kelgan ertaklarni to'plash bilan jiddiy shug'ullangan, o'zi ham adabiy ertaklar bitish bilan band bo'lgan. Uning ilk ertaklar to'plami 1696-1697-yillarda nashrdan chiqdi va butun dunyoga tanildi. Bu kitob dunyoning o'nlab tillarida qayta-qayta nashr etildi va nashr etilmoqda. Sharl Perroning ertakshunoslik sohasidagi xizmatlari esa "... folklorshunoslar tomonidan alohida e'tirof etilib, ijodiy faoliyati bo'yicha ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan" [1].

O'tgan asrning 50-yillaridan boshlab kitobxonlarimiz ham fransuz xalq ertaklarini o'zbek tilida o'qish baxtiga muyassar bo'ldi. Sharl Perroning ertaklari dastlab rus tili orqali, mustaqillik yillarida

esa to'g'ridan-to'g'ri o'zbek tiliga tarjima qilindi. Ertaklarni vosita (rus) til orqali o'zbek tiliga dastlab A.Abdurazzoq va Shukrullo tarjima qilgan bo'lsalar, ularning ilk to'g'ridan-to'g'ri tarjimasi atigi 1978-yili M.Xolbekov tomonidan amalga oshirildi [2]. 1989-yili M.Xolbekov fransuz yozuvchilari ertaklarining bevosita tarjimasini e'lon qildi [3]. To'plamdan Sh.Perroning "Kichkina Puse" (Le petit Ruset), "Etik kiygan mushuk" (Le Shat botté), "Uyqudagi malika" ("La Velle au bois dormant"), "Mazluma" (Cendrillon ou la petite pantoufle de verre), "Sehrgarlar" (Les Fées), "Ko'k soqol" (Barbe-Bleue) va "Rike-kokilcha" (Riquet à la Houppe) ertaklari ham joy olgan.

Mustaqillik yillarida Sh.Perro ertaklari tarjimasi bilan Shoazim Minovarov (fransuz tilidan o'zbek tiliga)[4], To'liqin Alimov [5] va Ilhom Zoir [6] (rus tilidan o'zbek tiliga) shug'ullandilar. Sh.Perroning ertaklaridan ayrimlari o'zbek tiliga bir necha marotaba tarjima qilingan. E'tiborlisi shundaki, tarjimalar ham bevosita, ham bilvosita amalga oshirilgan. Ular orasida jumladan, "Uyqudagi go'zal" (fransuz tilidan M.Xolbekov va Sh.Minovarov, rus tilidan T.Alimov), "Shumshuk qiz" (fransuz tilidan M.Xolbekov va Sh.Minovarov, rus tilidan T.Alimov) va "Qizil qalpoqcha" (fransuz tilidan Sh.Minovarov, rus tilidan I.Zoir) ertaklari bor. Ba'zi ertaklarni esa ikki tarjimon – M.Xolbekov va Sh.Minovarov bevosita aslyatdan tarjima qilgan. Bular "Uyqudagi go'zal", "Shumshuk qiz", "Ko'k soqol", "Etik kiygan mushuk", "Sehrgarlar", "Kokildor Rike" va "Jimjiloqvoy" ertaklaridir. Bunga ajablanmasa ham bo'ladi, zero jahon adabiyotining ajoyib durdonalarining aynan bir tilga qayta-qayta tarjima qilinishi keyingi tarjimalarning sifati yaxshilanishi va asliymonand bo'lishiga olib keladigan omillardan biridir.

Tarjimada barkamollikka intilish uzluksiz davom etadi, chunonchi "Faust" tragediyasi rus tiliga o'ttiz marta, "Hamlet" undan ham ko'proq tarjima qilingan. "Keyingi paytlarda tarjimachiligimizda inglizchadan, nemischadan, fransuzchadan tarjima degan yozuvlar odatiylik kasb etyapti, tarjimada nafaqat tilni bilishning o'zi kifoya qilmasligi, balki asar yaratilgan tilda gaplashuvchilarning urf-odati, rasm-rusumi, turmush tarzi, fe'l-atvori, ruhiyatini bilish ham shartligi e'tirof etilyapti [7].

Badiiy tarjimaning eng katta talablaridan biri o'zga xalqlar adabiyoti durdonalarini tarjima qilishda milliylik qoida va talablariga qat'iy rioya qilishdir. Keyingi paytlarda tarjimonlarimiz juda katta mahorat va san'at bilan betakror va serjilo tarjimalar yaratmoqdalar. Yutuqlar ketida, albatta, ba'zi bir kamchiliklar ham bo'lishi muqarrar, ammo ba'zi tarjimalarda kichik xatolar ham asarning milliyligiga putur yetkazishga olib keladi. Biz mazkur tadqiqotda fransuz ertaklarining o'zbekcha tarjimalarida olamning fransuzcha tasviri va uning o'zbekcha tarjimalarda aks ettirilishini, shu jumladan, ertaklarning milliyligini ochib berishga xizmat qiladigan realiyalar (xos so'zlar)ning tarjimada qayta yaratilishi va tarjimonlar mahorati hamda ular duch kelishi mumkin bo'lgan ba'zi muammolarni tahlil qilamiz.

Buning uchun biz Sharl Perro ertaklarining aslyatlari hamda ularning qator rus va o'zbek mutarjimlari tomonidan amalga oshirilgan tarjimalarini tahlilga tortdik. Biz Sh.Perro ertaklarining Shoazim Minovarov, Muhammadjon Xolbekov, To'liqin Alimov va Ilhom Zoir amalga oshirgan tarjimalarining o'ziga xos qirralarini aniqladik, yutuq va kamchiliklarini ilmiy va asosli tahlil qilishga urindik.

Bir qarashda, barcha tarjimalar juda chiroyli va adekvat yaratilgan, degan fikrga borish mumkin, ammo asarlarning aslyatlari va ularning o'zbekcha tarjimalarini sinchiklab tahlil qilar ekanmiz, ba'zi juz'iy kamchiliklarni qayd etmay ilojimiz yo'q.

Fikrimizni "Qizil qalpoqcha" va "Mazluma" (Zolushka) ertaklarining fransuzcha aslyatlari va ularning o'zbekcha tarjimalari tahlili misolida tasdiqlashga harakat qilamiz.

Jumladan, "Qizil qalpoqcha" ertagi, aslyatda:

- Un jour sa mère fait des galettes et dit à sa fille:

« Va voir comment se porte ta grande mère qui est malade et porte-lui une galette et ce petit pot de beurre » [8].

Shoazim Minovarov tarjimasi:

"O'zing bilan birga mana bu kulchalardan va xurmachadagi sariq'moydan olvolgin"[9].

Ruscha tarjimasi:

« Как-то раз испекла мама пирожок и сказала дочке:

- Сходи-ка ты Красная шапочка и пошла к бабушке, снеси ей этот пирожок и горшочек масла, да узнай, здорова ли она»[10].

Ilhom Zoir tarjimasi:

“Bir kuni onasi bo‘g‘irsoq pishirib, qiziga dedi:

- Qizil qalpoqcha, sen mana bu bo‘g‘irsoq va xurmachadagi moyini olib bor-da, buvingning sog‘lig‘ini bilib kel”[11].

Navbatdagi tarjima:

“Bir kuni qizchanning onasi bo‘g‘irsoq pishiribdida:

- Qizil qalpoqcha, mana bu ko‘zachadagi yog‘ bilan bo‘g‘irsoqlarni olib, buvingni ko‘rib kel, - debdi”[12].

“Cendrillon ou la petite pantoufle de verre” - “Mazluma” (M.Xolbekov), “Kuloyim yoxud billur boshmoqchalar” (Sh.Minovarov), “Shumshuk qiz” (T.Alimov) ning o‘zbekcha tarjimalari haqida ham shu gapni aytish mumkin.

Buning uchun nazarimizda “Cendrillon ou la petite pantoufle de verre” ertagining fransuz tilidan bevosita tarjima qilingan ikki o‘zbekcha muqobilini taqqoslab ko‘rish yetarli, deb hisoblaymiz.

Asliyatda:

“Lorsqu’elle avait fait son ouvrage, elle s’allait mettre au coin de la cheminée, et s’asseoir dans les cendres, ce qui faisait qu’on l’appelait communément dans le logis Culcendrillon. La cadette, qui n’était pas si malhonnête que son aînée, l’appelait Cendrillon ; cependant Cendrillon, avec ses méchant habits, ne laissait pas d’être cent fois plus belle que ses soeurs, quoique vêtues très magnifiquement”. (P.P . 40-41.).

“Mazluma”, M.Xolbekov tarjimasi:

“Mazluma qiz yumushlarini tugatib bo‘lib, pechka yonidagi burchakda shumshayibgina mo‘ltirab o‘tirarkan. Opalari shohi-atlasga o‘ranib yurishar, u esa qishin-yozin o‘zining juldur kiyimlarini yechmas ekan”.(B.29).

Sh.Minovarov tarjimasi:

“Oqshomlari uy ishlarini bajarib bo‘lgach, qiz o‘choq oldiga borib isinar va natijada hamma yog‘iga kul yopishib qolgan paytlar ham bo‘lar ekan, shuning uchun bo‘lsa kerak oiladagilarning hammasi uni Kuloyim deb chaqirishar ekan. Ayniqsa, o‘gay opalarining kenjasi Kuloyim laqabini sho‘rlik qizga nisbatan ko‘p ishlatar ekan. Lekin kiyimlari qanchalar yomon ahvolda bo‘lmasin, Kuloyim shohona liboslarga burkangan opalaridan yuz karra chiroyliroq ekan” (S.51).

Asliyat bilan uning ikki o‘zbekcha tarjimasi o‘rtasidagi farqni fransuz tilini bilmaydiganlar ham anglashi qiyin emas. Ko‘rinib turganidek, M.Xolbekov ertakni erkin tarjima qilgan bo‘lsa, undagi biror so‘zni ham qoldirib ketmaslikka intilgan Sh.Minovarov qizchanning ahvolini ancha og‘irlashtirgan (sho‘rlik qiz). Bundan tashqari asliyatda qizchanning opalari juda ajoyib kiyingan bo‘lsa, M.Xolbekov ularni shohi-atlasga o‘raydi, Sh.Minovarov esa shohona liboslarga burkaydi. Shunga qaramay qizcha tasvirida Sh.Minovarovdan farqli o‘laroq (kiyimlari qanchalar yomon ahvolda bo‘lmasin) M.Xolbekov to‘g‘ri yo‘l tutadi (juldur kiyim).

Yana kiyim xususida.

Asliyatda:

“Moi, dit la cadette, je n’aurai que ma jupe ordinaire ; mais en récompense, je mettrai mon manteau à fleurs d’or, et ma barrière de diamants, qui n’est pas des plus indifférents.”(R.41).

M.Xolbekov tarjimasi:

“Men esa, -debdi kichigi, - chiroyli yubkam bilan zargulli koftamni kiyimoqchiman”. (B.29).

Sh.Minovarov tarjimasi:

“Men bo‘lsam, zar gul bosilgan nimchamni odatda kiyadigan ko‘ylagimning ustidan kiyib olaman va gavhar taqinchoqlarimni taqib olib, hammaning ko‘zini o‘ynataman”. (B.51).

“boqqa kirsang, suvelak turibdi, uning ichida oltita kaltakesak bor”. Xolbekov tarjimasi

“Endi boqqa kirib suv chelakni ats ko‘targinda, uning tagida yotgan oltita kaltakesakni tutib olib kel!” –debdi sehrigar. 53 bet Minavarov tarjimasi.

“Agar shu vaqtda chiqmasang, faytoning kaltakesaklarga aylanib qoladi”. 31 bet M. Xolbekov tarjimasi.

“Yarim tundan bir lahza ham kechiksa

“Sehrigar faytonni boshqaruvchi kucherni nimadan qilishni bilmay turganida, qizcha unga debdi”. 30-bet M. Xolbekov tarjimasi.

“sehrigar ulardan eng kattasini saylabdida, sehrli tayoqchasini tekkizi

Xolbekov tarjimasi:

Yuqoridagi to'rttala tarjima ham o'zicha go'zal, o'ziga xos uslub va xarakterga ega, ushbu tarjimalarning ba'zi bir nuqsonlari ham mavjud. Keling, avvalo asliyat matnining va tarjimalarning ma'nosiga e'tibor beraylik. Ushbu tarjimalarning umumiyliigi original asar mazmuni to'liq ochib berilgan va bir qarashda o'zbek kitobxonlariga juda tushunarli. Biroq Ammo, shuni unutmaslik kerakki, biz tarjima orqali bilim saviyamizni, fikrlash doiramizni va dunyoviy tasavvurlarimizni yuksaltiramiz. Xo'sh, shunday ekan, mobodo tarjimon va mutarjimlarimiz boshqa xalq adabiyotini milliyalashtirish, moslashtirishga harakat qilsalar, unda biz nimaga erishamiz?! Aynan tarjima orqali o'zga xalqning yashash tarzi, milliy taomlari, milliy kiyimlari, milliy bayramlari va urf-odatlarini to'g'risida aniq ma'lumotlarga va tasavvurlarga ega bo'lamiz. "Bir xalqning adabiy asarlarini boshqa xalq tiliga tarjima qilish,- deb yozgan edi rus adibi V.G.Belinskiy,-ularning o'zaro yaqinlashishlariga, bir-birlari bilan g'oyalar almashishlariga asos bo'ladi. Ana shunda yangi adabiy asar kelib chiqadi va aqliy siljish yuz beradi". Shunday ekan, tarjimonlarimiz tasvirlanadigan xalqning kiyimlari, milliy taomlari va milliy bayramlarini bizning milliy kiyimlarimiz, milliy taomlarimiz va milliy bayramlarimiz bilan almashtirar ekanlar, unda kitobxon qanday yutuqqa erishadi?!. Tarjimaning buyukligi esa to'g'ridan to'g'ri o'zga dunyo haqida ma'lumotga va taassurotga ega bo'lish bilan xarakterlanadi.

Yuqoridagi misollarga e'tibor bersak, Ilhom Zoir, muallifi ko'rsatilmagan tarjimalarda fransuz milliy pishirig'i "la galette" o'zbek xalqining milliy bayramlari va hayitlarda pishiriladigan "bo'g'irsoq" bilan almashtirilganligining shohidi bo'ldik. Ma'lumki, "Bo'g'irsoq - sut, tuxum, yog' solingan xamirdan yumaloqlab, yog'da pishirilgan ovqat" (O'TIL:427) Demak, yumaloqlab pishiriladigan pishiriq.

Fransuz xalqining "La galette" i esa galette f -1) lepyoshka, galeta.

Lepyoshka – obinon, kulcha. Tugmacha kulcha, 513-bet ruscha o'zbekcha lug'at

Galeta – galeta (qotirilgan kulcha non yoki pechene) 196 –bet

Galette – obinon, kulcha; qotirilgan non. (mullajiring,pul)

Galette n.f. (de galet) . 1. Préparation culinaire plate et ronde, à base de farine ou de féculents(kraxmal), que l'on cuit au four ou à la poêle(pech). Galette de pâte feuilletée que l'on mange pour la fête des Rois et qui contient une fève permettant de désigner le « roi » ou la « reine » de l'assistance (Le Petit Larousse1993:468)

Demak, fransuz tilining izohli lug'atida "la galette" un yoki kraxmaldan tayyorlanadigan aylana xamir bo'lib, pechda yoki gazda pishiriladi. Yog'da qorilgan xamirli galettani "qirol" yoki "qirolicha" yordamchilariga bayram torti, pirogini tayyorlashni buyurib, Qirol bayramida tortiq qilinadi (tarjima bizniki). Fransuz tilida berilgan izohda birinchidan "la galette"ning shakli yumaloqlangan xamir emas, aylana, ikkinchidan esa, aynan ana shu galetta fransuz milliy pishirig'i bo'lib, qirollik bayramlarida pishiriladi va tanavvul qilinadi. Yuqoridagi tarjimonlarimiz ya'ni Ilxom Zoir va no'malum tarjimonimiz ushbu milliy taomni transliteratsiya orqali berib, matn oxirida esa "la galette" fransuz xalqining milliy pishirig'i bo'lib, aylana shaklda bo'ladi va bu pishiriq odatda qirollik bayramlarida tayyorlanadi deb izoh berganlarida edi o'zbek kitobxonini yangi ma'lumotga ega bo'lgan bo'lardi. Chunki, "...transliteratsiya xalqlar turmush tushunchalarini aks ettiradigan xos so'zlarni tarjimada talqin etishning eng samarali usullaridan bo'lib, uning yordamida asliyatning milliy xususiyati siqiq holda talqin etiladi". (Musayev Q, 2005:93)

Yuqoridagi ilmiy asoslangan fikr ya'ni asliyatdan qilingan tarjima doim o'zining asliymonandligi, to'laqonligi va to'g'riligi bilan ajralib turgan. Shuning uchun ham, asliyatdan amalga oshirilgan H.To'rabekov va Shoazim Minavarov tarjimasi o'zining badiiy va milliy to'laqonligi bilan boshqa tarjimalardan ajralib qoldi. Yuqoridagi tarjimonlarimiz yo'l quygan xatolar va kamchiliklar ushbu tarjimada kuzatilmadi. Minavarov "la galette" "kulcha" deb berib neytrallikka erishganlar.

O'zbek tarjimashunosi Ibrohim G'ofurov tarjima qilish jaryoni bu juda katta jarayon, shu bilan birga katta ijodiy jarayon deganlarida ming bora haq edilar. Chunki u tarjima jarayonida material yig'adi, lug'atlarga murojaat qiladi, asarni, yozuvchi uslubini o'rganadi, kosa tagidagi nimkosalarni chuqur his qilgandagina mukammal va asliymonand tarjimani dunyoga keltiradi. Mobodo tarjimon jiddiy va puxta tayyorgarlik ko'rmay tarjima qilar ekan u asov ot ustidan minglab odamlar ko'z o'ngida qulash bilan barobar deb aytib o'tganlar (Ibroxim G'ofurov)

Biz yuqorida barcha tarjimon va mutarjimlarimizning tarjimalarini bir biri bilan qiyoslab tahlil qilar ekanmiz, bundan faqat bitta xulosa kelib chiqadi, ya'ni taqqoslash orqali tarjima matnining asliyatga muqobilik darajasini aniqlash va tarjimon hamda mutarjimlar mahoratining o'ziga xos jihatlari yoritish. Zero, "Tarjima til biladigan har bir kimsa ham shug'ullansa bo'laveradigan yumush emas, balki fan va san'atdir" (G'.Salomov,1978:71) Haqiqatdan ham, tarjimonlarimizning til bilishi bu masalaning faqat bitta tomoni xolos, uning yana son- sanoqsiz talablari bor. Bu chuqur dunyoqarash, tinmay izlanish, ijodkorlik mahorati, layoqat va matonat bo'lmog'i kerak. Bundan tashqari, tarjima boshlashdan oldin har bir asar ustida ilmiy izlanish olib boriladi. Nematilla Otajonovning dissertatsiyalarida shunday jumlar bor "...mutarjim tarjimalarni boshlashdan oldin asar ustida o'ziga xos tadqiqot olib boradi, uni o'zi uchun kashf etadi, talqin qiladi, tushunib, singdirib oladi. Hamma hammasidan xabardor bo'ladi."

"Ma'lumki, badiiy asarni bir tildan ikkinchi tilga o'girishga kirishayotgan san'atkor, avvalo, asar g'oyasi va mazmunini tarjima o'quvchisiga to'la yetkazishni o'z oldiga maqsad qilib quyadi. Demak o'sha asardagi qator obrazlarni ham ularning butun murakkabligi, har bir personajning xarakter xususiyati, portreti, nutqi, ular bilan bog'liq bo'lgan voqea-hodisalarning ikir-chikirigacha tarjimada aks ettirish kerakki, bu bilan yozuvchi ko'zlagan maqsadi, asarning badiiy-estetik qimmati va g'oyaviy yo'nalishini ham qayta tiklangan bo'ladi"(Egamova Ya. Asl nusxadagi qahramonlar obrazini badiiy tarjimada qayta yaratish masalalari:fil.fan.nom.dis.T:O'zRFA TAI,1974.202 bet:65)

Xulosaga: "Tarjima ham san'at, ham maktab. Tarjimon o'z ishi bilan minglab kitobxonlar imtihonidan o'tadi. Bu narsa undan yuksak ma'suliyat talab qiladi. Qo'l uchida, asarni yaxshi his etmasdan qilingan tarjima bu odil imtihonda muvaffaqiyat qozonolmaydi." (N.Muxamedov.Tarjima san'ati.1973:210).

Adabiyotlar

1. Дадабоев С. Роман ва герман тилшунослигининг долзарб муаммолари. – Т., 2009. – Б.335.
2. Педро Шарл. Сехрар // Саодат, 1978, № 2.
3. Жаноб Сегэннинг эчкиси. Француз адибларининг эртаклари. – Т.: Юлдузча, 1989. – 112 б.
4. Perro Charl.. Ona G'oz ertaklari. – Т. : Sharq NMK, 2000. – 96 b.
5. Perro Charl. Shumshuk qiz. – Т. : Davr nashriyoti, 2009. - 20 b; Perro Charl. Uyqudagi go'zal. – Т.: Davr nashriyoti, 2009. – 20 b.
6. Perro Charl. Qizil qalpoqcha. – Т. : Gafur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. – 14 b.
7. Каримов Ш. Херманн Хессе ва жаҳон адабиёти // Адабий алоқалар, адабий таъсир ва таржимашуносликнинг долзарб масалалари. – Т., 2010. – Б.5.
8. Perrault Charles. Contes de ma mère l'Oye. – Paris, 2002. – P. 8. (bundan keyin ushbu nashrdan olingan misollarining sahiyasi qavs ichida keltiladi).
9. Perro Charl. Ona G'oz ertaklari. – Т. : Sharq NMK, 2000. – B.18.
10. Педро Ш. Сказки. – Ленинград, 1968.- С.83. (bundan keyin ushbu nashrdan olingan misollarining sahiyasi qavs ichida keltiladi).
11. Perro Charl. Qizil qalpoqcha. – Т. : Gafur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. – B.6. (bundan keyin ushbu nashrdan olingan misollarining sahiyasi qavs ichida keltiladi).
12. Perro Charl. Qizil qalpoqcha. – Т. : Cho'lpon, 2000. – B.8. (tarjimon kursatilagan, bundan keyin ushbu nashrdan olingan misollarining sahiyasi qavs ichida keltiladi)

UDK: 81.35

KOGNITIV DISSONANS FENOMENI VA UNING TARJIMADA TUTGAN O'RNI

R.X.Shirinova

O'zbekiston milliy universiteti, dotsent

Mazkur maqolada tarjimashunoslikda "kognitivnogo dissonansa" fenomenining o'rni, o'rganilish darajasi va badiiy tarjima jarayonidagi ahamiyati to'g'risida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Kognitiv dissonans, ohangdorlik, musiqaviylik, mutanosiblik, tarjimadan qoniqmaslik, pragmatik ta'sir.

Феномен когнитивного диссонанса и его место в переводе

В данной статье рассматривается феномен когнитивного диссонанса и его место в переводе. Отмечается степень его изученности и значимость в процессе художественного перевода.

Ключевые слова: когнитивный, диссонанс, гармоничность, сочетание звуков, перевод, прагматический эффект.

The phenomenon of cognitive dissonance and its place in the translation

This article discusses the phenomenal place of "cognitive dissonance" degree of it's study and its significance in the process of literary translation.

Keywords: Dissonance cognitive, harmony, proportionality, translation, satisfaction translation, unsatisfactory pragmatic impact.

Oxirgi yillarda tilni kognitiv aspektda tadqiq etish va badiiy tarjimaga kognitiv jihatdan yondashib olib borilgan ishlar salmog'i ancha oshib bormoqda. Kognitologiya ko'p aspektlik fanlardan biri bo'lib, uning tadqiqot ob'ektiga olamni bilish, anglash, idrok etish kabi masalalar kiradi. Ona tilini mukammal bilish va yana boshqa bir xorijiy tilni "zabt etish" - yangi bir olamni idrok qilish, anglash demakdir. Tarjimonlar tarjima bilan shug'ullanish barobarida yangi bir olamni kashf etguvchi mutaxassilar hisoblanadilar.

Badiiy tarjima jarayonida asliyat olamining milliy manzarasini tarjima tilida qayta yaratish tarjimondan lisoniy va nolisoniy bilimlarga ega bo'lishlilikni talab etadi. Tarjimaning adekvatlik darajasini aniqlash, tarjimalarni saralashda tarjimashunoslikda bir qancha nazariyalar mavjud. Nazariya esa vaqt o'tishi bilan tabiiy ravishda zamonaviy nazariyalar bilan yangilanib boradi. Xuddi shunday yangi yo'nalishdagi ammo, xorijda yetarli darajada o'rganilgan va faol qo'llanilib kelayotgan nazariyalardan biri kognitiv dissonans nazariyasidir. Bu nazariya tarjima adekvatligini aniqlash, adekvat tarjimaga erishishda to'sqinlik qiluvchi omillarning sabablarini o'rganish va ularni imkon qadar tarjima jarayonida kamaytirish hamda bartaraf qilish yo'llarini izlab topishga yo'naltirilgan nazariyadir. Bu nazariyaning asosini tashkil qiluvchi kognitiv dissonans muammosi va uni badiiy tarjimada tutgan o'rini aniqlab olishdan avval mazkur fenomenning mazmun va mohiyatini anglab olish lozim.

Dastlab kognitiv dissonans terminining lug'aviy ma'nosini anglab olish maqsadida, bir qancha lug'atlarga murojaat qildik. Kognitiv dissonans lotin tilida cognitio – "anglash" va dissonantia "nomuvofiqlik", "nomutanosiblik", "ohangsizlik" [1] degan ma'nolarni anglatadi. V.I.Dalning Izohli lug'atida esa quyidagicha izoh berilgan: "Dissonans-muj., frans. Nestroynost muz. zvukov; razladitsa, raznozvuchiu, raznoglasiye, raznoglas, raznota, rozn, protoiv zvuchiye, soglasiye, soglas"[2]. Ojegovaning izohli lug'atida esa "Dissonans- a, muj, 1. Negormonichnoye sochetaniye muzykalnykh zvukov, neslitnoye zvuchaniye tonov; protivop, konsonans. (spets) D.v. xore. 2. Peren. To, chto vnosit razlad, vstupayet v protivorechiye s chem n.; nesoglosovennost, nesootvetstviye, Vnesti d.v." [3]. A.N.Chudinovning Rus tili tarkibiga kirgan xorijiy so'zlar lug'atida quyidagicha ta'rif berilgan: "Dissonans-(novo lat. Dissonantia ot chast dis, i sonore zvuchat) Negarmonicheskoye, nepriyanoye dlya sluxa sochetaniye zvukov" [4]. Ensiklopedik lug'atda esa : "Dissonans- frans. Dissonance ot lat. Dissono nestroyno zvuchu. 1. V muzyke neslitnoye, napryajennoye odnovremennoye zvuchaniye razlichnykh tonov. Dissonans protivopolojen konsonansu, K dissonansu otnosyat bolshiye i малыe sekundy i septimy, uvelichenные i umenshyonные" [5].

Mazkur lug'atlarda kognitiv dissonans atamasiga berilgan izohlarning mazmun va mohiyati deyarli bir xil bo'lib, hamma izohlar umumiy holda **dissonans- konsonansning aksi, nomusiqaviy ohang, g'alizlik, nomuvofiqlik, nomutanosiblik degan ma'nolarni anglatadi.**

Ammo, o'zbek tilidagi izohli lug'at, lingvistik lug'atlarda mazkur atamaga berilgan izohni topa olmadik. Faqatgina internetdan onalayn lu-atda -D.Quronovning "Psixologiyaga oid termin va atamalarining izohli lug'ati" da quyidagi jumlaning topishga erishdik Uyunlashganlik dissonans, uyg'unlik konsonans. She'riyatda qofiyaning bir qator ko'rinishlari (to'liq va to'liqsiz qofiya; unlilar ohangdoshligigagina asoslangan assonans va undosh tovushlar ohangdoshligigagina asoslangan dissonans qofiyalar" [6].

Dissonans fenomeni ilk bora Fransiya va aynan musiqa sohasida paydo bo'lgan bo'lib, 1380 yilda *Ever Conti (Evert de Conty) Aristotel ishlari bilan tanishish va tarjima qilish jarayonida bu atamaga duch keladi*. [7] (mazkur ma'lumot ilk bor fransuz tilidagi manbalar asosida aniqlandi va o'zbek tarjimashunosligi e'tirof etilmoqda) Musiqada dissonans "tovushlardagi nomutanosiblik", "musiqadagi shovqin, tushunarsiz kuy", "bo'g'in, tovush va so'zlardagi nomuvofiqlik" kabilar tushunilgan [8]. Musiqa eshitish jarayonida so'zlarning g'alis, tushunarsiz eshitisli, kuylanishi, melodiyaning nomusiqaviyligi kabilar kuzatilgan va bu holat musiqa ixlosmandlarida musiqadan qoniqmaslik holatini (dissonans) keltirib chiqargan.

Keyinchalik esa fransuz adabiyotshunosligida ham bu atama kognitiv dissonans deb qabul qilingan. Fransuz shoiri Pol Verlen o'zining "Nazm san'ati" (*Art poétique*) asarida Uyg'onish davri shoirlariga ta'rif berar ekan, ularning she'riyati haqiqiy qo'shiqlar (*chansons*) ekanligini va bundan boshqa she'rlarda mantiq yo'qligini qayd etadi [9]. Bu nomutanosiblik, mantiqsizlik adabiyotda kognitiv dissonans tarzida talqin qilinadi.

1944-yilda esa mazkur atamaga avstriyalik psixolog Frits Xayder tomonidan ta'rif berilgan [10] va amerikalik ruhshunos Leon Festinger 1956 yilda Genri Riken (*Henry Riecken*) va Stenli Shaxter (*Stanley Schachter*) bilan hamkorlikda yozgan "Ushalmagan bashorat" ("*L'Echec d'une prophétie*") kitobida bu fenomenga ijtimoiy psixologik konsept sifatida yondashadi. L.Festinger mazkur muammoni inson psixologiyasiga ta'siri va uning sodir bo'lish jarayonlarini o'rganib chiqib, kognitiv dissonans atamasiga asos soldi. (1957) [11]. Olim inson psixologiyasida kognitiv dissonans holatini kuzatadi va inson bilimlar tizimidagi nomuvofiqlikni kognitiv dissonans holati deb izohlaydi. Masalan, inson chekishning zarari, uning salomatligi uchun yomon oqibatlarga olib kelishi borasida yetarli bilimga ega bo'la turib, uni iste'mol qilishini kognitiv dissonans holatiga misol qilib oladi. Bundan tashqari olim Ezopning "Tulki va uzum" masalini ham bu holatga misol tariqasida keltiradi. Masalda tulki g'arq pishgan uzumni uzib olishga harakat qiladi, ammo uni udalay olmaydi. So'ng, tulki uzumni pishgani haq bo'lsa-da, unga qarshi noto'g'ri fikrlash ya'ni uzumni pishmagan deb o'zini ishontirishga harakat qiladi. Bu holatni ham psixologiyada kognitiv dissonans deb izohlaydi. L.Festinger "nomutanosiblik"ni "dissonans", "mutanosiblik"ni esa "konsonans" deb ataydi va kognitiv dissonans nazariyasining asosini bilim tizimidagi nomutanosiblik, nomuqobillik tashkil etadi degan xulosaga keladi. Aynan mana shu oxirgi ta'riflar ko'proq neytral va u mazkur nazariyaning **bilim tizimidagi nomutanosiblik** degan ta'rifga mos keladi.

Kognitiv dissonans fenomeni keyinchalik juda ko'plab soha olimlari tadqiqotida ko'zga tashlana boshladi. Iqtisodiyot sohasida dissonans [12], marketing cohasida savdoda dissonans holati [13], informatikada dissonans [14] kabi ilmiy tadqiqotlarda dissonans holatining sabablari va yechimlari to'g'risida to'xtalib o'tilgan.

Demak, dastlab kognitiv dissonans musiqa, adabiyot va ruhshunoslik sohalarida o'rganilgan bo'lsa, keyinchalik rus va Yevropada iqtisodiyot, informatika, marketing sohalarida ham ko'zga ko'zga ko'rina boshladi. Keyinchalik tilshunoslikda sohasida ham bu fenomenga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Ayniqsa, G.D.Voskoboynikning "Lingvofilosofskiye osnovaniya obshchey kognitivnoy teorii perevoda" [15] mavzuidagi doktorlik dissertatsiyasi lingvofalsafiy aspektda olib borilgan tadqiqotlardan biridir. Olim tarjimon asliyatdagi kontekst bilan tanishish jarayonida o'zi kognitiv dissonans holatiga tushishi, tarjima matninin o'qish jarayonida retseptorning dissonans (qoniqmaslik) holatiga tushib qolishi va tarjimonning o'zi matn tarjimasida sun'iy dissonans holatini paydo qilishga sabab bo'lish mumkin. G.D. Voskoboynikning qayd qilishicha, bu holat tarjima jarayonida tarjimonning asliyat matniga mos keladigan unurni tarjima tilida topishda yoki tanlashda qiyinchiliklarga ro'para bo'lish natijasida hosil bo'ladigan hodisadir [16]. Olim Dj.Le. Kare "Портной из Панамы" romanini tarjima qilish jarayonida dissonans holatini keltirib chiqargan 5 ta kontekstni tahlil qilib, tarjimon psixologiyasida paydo bo'lgan dissonans holatlarini ko'rsatib o'tadi. Masalan xuddi shunday matnlardan biri "*Sg-nom Sollier s Eccles (?) я потерпел полное фиаско в том смысле, что нигде не смог найти его*". Mazkur matnni tarjima qilishda tarjimon *Sollier* kim va *Eccles* shahar, ko'cha yoki mamlakat nomimi? U buni matn ichida aniqlashga qiyналgan va uni tarjima tilida tashlab ketish kerakmi yoki almashtirish usulidan foydalanish qulayroqmi degan ikkilanish holatlarini o'zida o'tkazgan va bu holatni o'zi tarjimonning kognitiv dissonans holati deb qayd etgan. Demak, tarjimon ham o'z ish jarayonida ma'lum bir kontekstni tarjima qilganda asliyatda to'liq

berilmagan ma'lumotlarni tarjima qilishda kontekstdan qoniqmay dissonans holatiga tushib qolishi tabiiy hodisa.

S.V.Biyakova va O.A.Xopiyaynen tog' terminlarining tarjimasiga bag'ishlangan ilmiy maqolasida anglo-sakson va rus madaniyatida mavjud milliy-madaniy tafovutlar tarjimonda kognitiv dissonans holatini keltirib chiqaradi degan xulosaga keladi[17]. Ya.S.Kimishnikova "Поэтический перевод в свете теории когнитивного диссонанса (по материалам переводов стихотворения Р.Киплинга "If")"[18] ilmiy maqolasi ham ushbu masalaga bag'ishlangan bo'lib, unda asosan poetik tarjimada dissonans holati ko'rib chiqiladi. Shuni ta'kilash joizki, tarjima turlari ichida o'ta mashaqqatli va qiyin tarjima bu she'riy tarjima hisoblendi. Asliyatdagi olam milliy manzarasini tarjimada qayta yaratishda tarjimon ikki tilning eng nozik tomonlarini chuqur his qilishi, qisqa va ohangdor jummalarni asliyatda tushunarli qilib bera olishi lozim. Poetik tarjimada ham mazmun ham ohangni saqlash uchun tarjimon nafaqat tarjimon balki, shoir ham bo'lmog'i lozim. Ya.S. Kimishnikova R.Kiplingning "Agarda" ("If") she'rining tarjimasida jarayonida tarjimon asosiy e'tiborni she'rning g'oyasi va mazmuniga e'tibor bersa ohangdorlik yo'qolgan, yoki aksincha ohangni, musiqaviylikni ta'minlashga harakat qilinsa, asliyat mazmunidan uzoqlashishga olib kelganini asoslab beradi. U dissonansning boshqa turlari ya'ni aksiologik dissonans, ruhiy-axboriy dissonans, tarjimonning o'z iqtidoriga o'ta ishonishi natijasida sodir bo'ladigan dissonanslarni ko'rsatib o'tadi.

Ya.S.Kimishnikova she'riy tarjimada uchragan realiyalarni tarjima tilida berish uchun tarjimonning har bir realiyani o'rganish ustida juda chuqur tayyorgarlik ko'rishi lozimligini, begona realiyalarning mazmun-mohiyatini avvalo mustaqil o'rganib, keyin tarjima jarayonida tatbiq etishi lozimligini aytib o'tadi. Chunki, poetik tarjimada noo'rin va chuqur o'rganilmay berilgan realiyalar o'quvchini dissonans holatiga tushurib quyishi muqarrar. Haqiqatdan tarjimon qomusiy bilimiga ega bo'lishi va shu bilan birga shoirlik ilmidan xabardor bo'lishi ya'ni o'zi ham ijod bilan shug'ullanishi lozim deb o'ylaymiz. Agar tarjimon yozuvchi va shoir bo'la turib, she'riy tarjima bilan shug'ullansa, u adib bilan bemalol bellasha oladi ya'ni asliyatni tarjimada qayta yaratishga erisha oladi. Ana shunday iqtidor sohiblari amalga oshirgan tarjimalar asliymonand tarjimalar qatoridan joy oladi, aks holda u yaratgan she'riy tarjima nursiz, mantiqsiz, ohangsiz va o'rtamiyona nomuvofiq tarjimaga aylanib qolishi mumkin. Bunday tarjimalarni o'qigan kitobxonda pragmatik ta'sirchanlik darajasi yo'qolishi, she'rdan badiiy-estetik zavq olish darajasini tushib qolishi muqarrar.

Ma'lumki, B.Xolbekova "She'riy tarjima haqida mulohazalar" ilmiy maqolasida Oybekning "Na'matak" sarlavhali mashhur she'rini ingliz tarjimoni Rottenberg tomonidan tarjima qilingan variantini tahlil qilar ekan, asliyatdagi go'zal maftunkorliklik tarjimada aks etmaganligini ko'rsatib o'tadi[19]. Ayniqsa, olima she'riy tarjima tarjimaning boshqa turlariga nisbatan ancha murakkab jarayoni ekanligini, bu tarjimoni amalga oshiruvchi tarjimon ikki tilni mukammal bilishi, so'z tuyg'usi yuksak darajada rivojlangan, faqatgina tabiatan tug'ma iste'dodga ega ijodkor - shoir-tarjimon amalga oshirishini alohida ta'kidlaydi. Olima shirali so'z, shirali ohangni his etmagan, uni o'z tarjimasida qayta yarata olmagan tarjimon o'quvchi qalbini rom qila olmasligini aytib o'tadi.

A.M.Kaplunenka ham she'riy tarjimada kognitiv dissonansni kamaytirish yoki bartaraf etish borasida bir qancha ilmiy fikrlarni bildiradi[20]. Asosan, tadqiqotchi Shekspir sonetlarining ingliz tilidan rus tiliga tarjima qilishda asosiy e'tiborni intonatsiyaga qaratish lozimligini aytadi va quyidagilarni belgilab o'tadi:

- 1) She'rning strukturasi ya'ni shakl va mazmunni to'liq saqlash;
- 2) kirish so'zlari, oborotlar va saqlash;
- 3) Punktatsion belgilarga e'tibor berish;
- 4) Muallifi ritmidan foydalanib asliyat ritm ohangini saqlash;
- 5) "jimjimador" leksikadan voz kechish.

Demak, kognitiv dissonans tarjima nazariyasi va amaliyotida juda muhim ahamiyatga ega. Har bir mohir tarjimon tarjima jarayonida kognitiv dissonansning u yoki bu ko'rinishi bilan ro'para keladi. Shunday ekan bugungi kunda tarjima sohasida tarjimada kognitiv dissonansning tutgan o'rni, uning ahamiyati va tarjima jarayonidagi muammolariga bag'ishlangan turli xil qiyosiy tadqiqotlar ko'lamini oshirish lozim. Chunki, yuqorida mazkur mavzuga bag'ishlangan ishlarning aksariyati Yevropa tillaridan rus tiliga amalga oshirilgan tarjimalarda kognitiv dissonans muammosining qiyosiy tadqiqiga bag'ishlanganligini guvohi bo'ldik. Afsuski, o'zbek tarjimachiligida o'zbek tilidan chet tiliga va chet tilidan o'zbek tiliga qilingan tarjimalarda kognitiv dissonans muammosi va uni bartaraf etish

masalalariga bag'ishlangan alohida tadqiqotlar deyarli yo'q. Shunday ekan, bugungi kunda tarjima amaliyotida badiiy tarjimada olam milliy manzarasini qayta yaratishda adekvat tarjimalarga to'sqinlik qiladigan muammolar yechimiga bag'ishlangan ishlarga ehtiyoj borligi yaqqol ko'zga tashlanib qolmoqda.

Adabiyotlar

1. Чудинов А.Н. Словарь иностранных слов русского языка. – Санкт-Петербург, 2-изд. 1894.
2. Даля В.И. Толковый словарь Даля. 1863.Books.ru
3. Ожегов, С.И.Шведова.Н.Ю. Толковый словарь русского языка. Издательство "Азъ", 1992.
4. Чудинов А.Н. Словарь иностранных слов, вошедших в состав русского языка. Санкт-Петербург. 1910.
5. Южакова. С.Н.Большой Энциклопедический словарь. 2-е изд., 1992.
6. Куронов Д. Адабиётшуносликка кириш. Андижон.2000.
7. Article dissonance. Le Trésor de la langue française informatisé .[Ressource internet] :CNRC
8. Deux effets estrangement divers... : formes et fonctions de la dissonance dans Les Amours et les Contr' Amours de'Etienne Jodelle.Université Stendhal (Grenoble3) 2009.-P.8.
9. Verlaine Paul. L'art poétique.Maynial Eduard. Dir. Antologie de poètes du XIXième siècle. Paris. Hachette. 1930.-P.369.
10. Heider, F. Social perception and phenomenal causality. Psychological Review, 1944.
11. Festinger L. A. Theory of cognitive dissonance, Stanford University Press. 1957.
12. Céline Gallen : La théorie de la dissonance cognitive : un cadre unificateur pour la recherche en marketing sur les conflits. 2014.Université de Nantes. Lyon.2014.
13. Brehm, Jack Williams., Cohen, Arthur Brehm Explorations en dissonance cognitive. New York, Wiley.1962.
14. A. Wicklund, Jack W. Brehm Perspectives sur la dissonance cognitive en texte integral. Ohio State University.1976.
15. Воскобойник Д.Г. Лингвофилософские основания общей когнитивной теории перевода Автореферат диссертации на соскание ученой степени доктора филологических наук. М.2004.
16. Воскобойник Г.Д. Когнитивный диссонанс как проблема теории и практики перевода Основные концептуальные положения. Иркутск, 2002. -С 3
17. Биякова С.В., Хопияйнен О.А. Через когнитивный диссонанс переводчика к тождеству перевода (на материале горной терминологии)// Вестник Кузбасского государственного технического университета. 2006.-№5-С,158-162.
18. Кимишников Я.С. “Поэтический перевод в свете теории когнитивного диссонанса (на материале переводов стихотворения Р.Киплинга “If”) // Наукови записки (Национального университета “Острозька Академия”) Сер.:Филология.Выпуск 37.2013.-С.127-131.
19. Холбекова Б. Шеърӣ таржимаси ҳақида мулоҳазалар.//Бадий таржиманинг лингвопоэтик муаммолари.Республика илмий-амалий анжуман материаллари. Самарқанд.2012. -Б.222.
20. Каплуненко. А.М. Некоторые проблемы репродукция поэтического интонации при перевода с английского на русский (на материале сонетов Шекспира)// Вопросы теории и практика перевода.Сб.науч.трудов.-Вып.2.-Иркутск,1999.-С.16-21.

UDK: 004.9

AXBOROT TAHDIDINI BARTARAF ETISH TAMOYILLARI VA DARAJALARI**U.L.Yoziyeva***Qarshi davlat universiteti, mustaqil izlanuvchi*

Maqola umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarga bo'ladigan axborotlar tahdidi va uni bartaraf etishni ta'minlovchi himoya mexanizmlari, axborot ta'lim muhitini tuzish zarurati, axborotlardan himoyalash tamoyillari va darajalari muammosiga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: axborot tahdidi, tamoyil, ta'lim-tarbiya, uzluksizlik, uzviylik, majmuaviylik, ilmiylik, himoya obyekti, ochiqlilik, daraja, konseptual-siyosiy, qonuniylik, texnik-normativ, dasturiy-texnik.

Средства и уровни обеспечения защиты от информативных угроз

В статье речь идет о проблеме защиты учащихся от информационных угроз и необходимости в связи с этим создания информационно-образовательной среды, что позволит вести с ними разъяснительную работу.

Ключевые слова: информационная угроза, средство, воспитание, непрерывность, комплексность, образованность, объект защиты, открытость, уровень, концептуально-политический, закон, технико-нормативный, программно-нормативный.

Means and levels of defence from informative threats

The article deals with the problem of information threats to students and the need for creating information-educational environment in general educational institutions, mechanisms, policies and levels to protect students from harmful information".

Keywords: informative threat, means, breeding, complex, intelligence, object of defence, level, conceptual-political, law, technical-normative, programme-normative.

Globalashuv jarayonida jamiyatning axborotlashuvi natijasida ta'limda turli xavf va tahdidlar paydo bo'lmoqda, bunday xavf va axborot tahdidlarga qanday qarshi turishimiz mumkin?, yoki o'quvchilarni ularga qarshi turishga qanday o'rgatishimiz kerak? degan savol paydo bo'ladi. Shu sababdan o'quvchilar uchun pedagogik jarayonda va kundalik hayotda kompyuter texnikasidan foydalanishning salbiy holatlarini kamaytirish hamda ularni ogohlantirish maqsadida aniq tamoyillar ishlab chiqilishi lozim bo'ladi.

O'quvchilarga axborot tahdidi va uni bartaraf etishni ta'minlovchi tamoyillar deganimizda, biz bolalarni salbiy axborotlardan samarali himoyalash maqsadida amalga oshirilishi hamda tashkil etilishi kerak bo'lgan asosiy g'oyalar va muhim tavsiyanomalarni tushunamiz.

O'quvchilarga ta'sir ko'rsatuvchi axborotlar tahdidi va uni bartaraf etishni ta'minlovchi asosiy tamoyillarni quyidagicha ifodalashimiz mumkin:

1) barcha manfaatdor tomonlarni birlashtirish tamoyili. Ushbu tamoyil o'quvchilarga bo'ladigan axborotlar tahdidi va uni bartaraf etishni ta'minlovchi barcha subyektlarni: davlat, jamiyatdagi ijtimoiy institutlar, jamoatchilik tashkilotlari, ota-onalar, pedagogik hamjamiyat maqsadining umumiylikini ifodalaydi. Maqsadning umumiylik - bolalarni himoyalash maqsadi yo'lida barcha harakatlarni birlashtirishni talab qiladi. Shu bilan birga, davlat uchun alohida, uning imkoniyat va resurslari bilan aniqlanadigan boshqaruv roli tayinlanadi;

2) uzluksizlik, uzviylik va majmuaviylik tamoyili. Bu tamoyil har bir o'quvchining butun hayoti mobaynida axborot oqimlari bilan qamrab olinganligidan kelib chiqadi. Masalan, o'quvchini faqatgina umumiy o'rta ta'lim maktabida xavfli kontentdan himoya qilish zarur deb hisoblash xato bo'ladi. Bu tamoyil bolani axborotlar muhitida zararli axborotlardan himoya qilish uchun, ularning yoshini, psixologik o'ziga xos tomonlarini e'tiborga olgan holda choralar majmuasini ketma-ket amalga oshirishni nazarda tutadi. Bolalarni zararli axborotlardan himoya qilish uchun barcha himoya shakllaridan to'liq va atroflicha foydalanish lozim bo'ladi. Alohida shakl va texnik vositalarni tadbqiq etish maqsadga muvofiq emas. Himoyaning majmuaviylik tavsifi – o'ziga xos hodisa bo'lib, u murakkab tizimni tashkil etuvchi o'zaro uzluksiz bog'liq jarayonni nomoyon qiladi, ular, o'z navbatida bir-birini to'ldiruvchi tomonlarga, xossalarga, an'alariga egadir. Ta'lim muassasasining

xavfsizligini ta'minlash – bir marotabalik tadbir emas, u kundalik hayotimiz davomida amalga oshiriladigan doimiy va uzluksiz jarayondir. Ta'lim beruvchi muassasalar faoliyatiga ko'ra murakkab obyekt bo'lib, ularda kutilmagan vaqtda, e'tiborga olinmagan axborotlar ta'sirida xavf paydo bo'lib qolishi mumkin;

3) ilmiylik va metodik qo'llab quvvatlash tamoyili. Xavfsizlikni ta'minlash nafaqat xarajatlarni, balki birinchi navbatda bilimlar, aniq tasavvur va tayyorgarlik hamda ilmiy-metodik tavsiyanomalarni ham talab etadi. Xavfsizlik yuzasidan shaxsiy mexanizmlarni va himoya tizimlarini kashf qilishga vaqtni behuda sarflash kerak emas. Chunki, axborot xavfsizligi markazlari ishonchli va unchalik qimmat bo'lmagan lekin xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha ko'p muammolarni hal qiladigan texnik himoya vositalarini tavsiya qilishi mumkin. Zararli axborotlardan himoyalaniшни tashkil qiluvchi tizimli yondashuv, o'zaro bog'liq, o'zaro harakatlanuvchi va o'zgaruvchi shartlar va faktorlarni:

- barcha o'quv-axborot va darsdan tashqari faoliyatlar ko'rinishlarini;
- barcha faoliyat turlari uchun;
- ta'limning barcha bosqichlarida (maktabgacha, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim);
- himoya obyektini (o'quvchining shaxsiy axborot muhiti) tashqi muhit bilan o'zaro harakatini hisobga olishi lozim bo'ladi;

4) ochiqlik tamoyili – o'quvchi shaxsini axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha keng ma'noda axborotning yo'naltirilishi ota-onalar, o'qituvchilar, profilaktika ishlarini olib boruvchi ijtimoiy soha xodimlari uchun bolaga tahdid etuvchi xavflarning turlari ko'rsatilgan metodik tavsiyanomalarni hamda axborot resurslarini tuzish;

5) oddiylilik tamoyili va himoya vositalarini qo'llash. Himoya mexanizmlari tadbiq etish bo'yicha oddiy va tushunarli bo'lishi lozim. Qachonki foydalanuvchi uchun himoya mexanizmlari bilan ishlash yengil bo'lsa himoya samarali hisoblanadi. Himoya vositalaridan foydalanish qandaydir maxsus tillarni bilishni talab etishi yoki qo'shimcha mehnat talab etadigan harakatlarni bajarish bilan, masalan, dasturlash tilini o'rganish bilan bog'liq bo'lmasligi lozim;

6) o'quvchi uchun axborot xavfsizligi muhitini uyda va maktabda tashkil etish imkoniyati tamoyili. Bu tamoyilga asosan axborot ta'lim muhitini tuzish zarurati, uni dasturiy tashkiliy vositalari va zararli axborotlardan himoyalaniş usullari bilan to'ldirishi kerak. Bunday muhit o'quvchi shaxsining xavfsizligini ta'minlab, uni individual qobiliyatlarini ro'yobga chiqargan holda to'liq va atroflicha rivojlanishini amalga oshirishi lozim;

7) kelgusida inson hayotini himoyalanişni mukammallashtirib borish tamoyili. Inson bilimi va taraqqiyotining oshishi, texnika va texnologiyalarni mukammallashi, himoya choralariining ko'rilişhi natijasida inson xavflardan himoyalanganligini ta'minlanishiga sabab bo'ladi.

Bu tamoyillarning barchasidan, quyidagicha xulosa qilishimiz mumkin, har qanday tizimning tadrijiy rivojlanishi, o'z harakati davomida yashirin xavflarni aniqlab, uni bartaraf etib boradi.

Yuqorida qayd etilgan tamoyillardan o'quvchilarni axborotlar tahdididan himoyalanişini beshta darajasini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Konseptual-siyosiy daraja. Bu darajada axborotlar tahdidi va uni bartaraf etish sohasida davlat siyosatining aniq yo'nalishi bo'yicha hujjatlar qabul qilinadi, uni ta'minlash bo'yicha barcha subyektlar uchun maqsad va vazifalar aniqlanadi. Qo'yilgan maqsadni amalga oshirish yuzasidan yo'llar, mexanizmlar va vositalar belgilab olinadi.

2. Qonuniylik darajasi. Bu darajada axborot xavfsizligini ta'minlash yuzasidan tizimning huquqiy tomondan faoliyat va boshqaruvni amalga oshirish bo'yicha huquqiy normativ hujjatlar (Qonunlar, Hukumat qarorlari va boshqalar) qabul qilinadi.

3. Texnik-normativlik darajasi. Bu darajada axborotlar tahdidini bartaraf etishni ta'minlash yuzasidan boshqaruv va metodik materiallar hamda hujjatlar, vositalarni tadbiq etish va ishga tushirish bo'yicha standartlar ishlab chiqish amalga oshiriladi. Axborotlar texnologiyalari sohasini milliy va xalqaro standartlarga moslashtiriladi.

4. Ma'muriy daraja. Aniq ta'lim muassasasi doirasida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha tadbirlar amalga oshiriladi. Bu darajada tashkilot rahbariyati axborot xavfsizligini ta'minlash yuzasidan aniq chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Uning asosida axborot xavfsizligi sohasidagi o'quv muassasasi strategiyasini aniqlaydigan, tashkilotning xavfsizligini ta'minlanish siyosati hamda tizim faoliyat

yuritishi uchun axborot xavfsizligini majmuaviy ta'minlash bo'yicha ajratiladigan resurslar hajmi yotadi.

5. Dasturiy-texnik daraja. Bu daraja axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ham dasturiy, ham texnik vositalar foydalanishni nazarda tutadi. U yoki bu vositadan foydalanish, himoya qilinayotgan obyektning texnik tavsifnomasiga va aniqlangan tahdid bilan bevosita bog'liq.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'quvchilarda axborot tahdidi va uni bartaraf etishni ta'minlash tamoyillari va darajalariga asosan, axborotlardan himoyalaniish yo'llari va yo'nalishlari yuzasidan uni ta'lim faoliyatida amalga oshirish, o'quvchilarga axborotlar tahdidi va uni bartaraf etish bo'yicha alohida konsepsiya yaratilishi lozim bo'ladi.

Bunday konsepsiya o'zida quyidagilarni: zamonaviy qarashlar tizimini, g'oyalarni, maqsadli yo'nalishlarni, umumiy holatlarni, tamoyillarni, mazmun hamda texnologiyani o'quvchi shaxsiga axborot tahdidi va uni bartaraf etishni ta'minlash jarayonida subyektlar kasbiy faoliyatining metodologik va nazariy holatini jamlashi kerak.

Yuqorida qayd etilganlarning barchasi davlat, jamiyat va shaxs xavfsizligini ta'minlashini amalga oshirishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Бочаров М.И. Комплексное обеспечение информационной безопасности школьников. //Применение новых информационных технологий в образовании. 2009.
2. Саттарова Н.И. Информационная безопасность школьников в образовательном учреждении: дисс. ... канд. пед. наук: 13.00.01. / Саттарова Надежда Ивановна — СПб., 2003. — 28 с.
3. Yozieva U. Pedagogical conditions for information security of students. European Journal of Reflection in Educational Sciences (EJRRES) Vol.3 No.3, 2015, 49

UDK: 796-053.7:055.2

AYOL VA O'SMIR QIZLAR SPORT MASHG'ULOTINI TASHKIL ETISH USLUBIYATI

N.B.Xalmatova

Samarqand viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti katta o'qituvchisi

E-mail: xalmatovanasiba@mail.ru

Ushbu maqolada sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ayollarda harakat va vegetativ funksiyalar, sport mashg'ulotining fiziologik asoslari, jismoniy mashqlar bilan muntazam shug'ullanish, xotin-qizlar organizmining funksional imkoniyatlari va qobiliyatlarini takomillashtirish haqidagi masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: fiziologik sistemalar, harakat reaksiyalari, harakat sifatlari, hajm, jismoniy mashq.

Методика организации спортивных занятий женщин и девушек подросткового возраста

В данной статье освещаются проблемы организации спортивных занятий женщин и девушек подросткового возраста как один из факторов здорового образа жизни и пути их решения.

Ключевые слова: физиологическая система, реакция движения, свойства движения, объём, физические упражнения.

The organizational training methodology of teens and women's sports

In this article is opened shaping healthy life styles, vegetative functions and actions of women, physiological bases of sport occupations, occupied with physical trainings, protecting ability and possibility of teenager girls and woman functional organs.

Keywords: functional systems, reaction of the movements, quality of the movements, capacity, physical training.

“Sog'lom avlodni tarbiyalash – buyuk davlat poydevorini, farovon hayot asosini qurish deganidir”[5]. Davlatimiz rahbarining 1994-yil 2-may kuni O'zbekistonning birinchi davlat mukofoti

– “Sog‘lom avlod uchun” ordenini topshirish marosimida aytgan ushbu teran ma’noli so‘zlari onalik va bolalikni muhofaza qilish, aholi salomatligini mustahkamlash, yosh avlodni ma’naviy va jismoniy tarbiyalash, ularda Vatanga muhabbat tuyg‘usini shakllantirishda asosiy yo‘nalishni belgilab berdi.

Mustaqilligimizning dastlabki yillaridan mamlakatimizda onalik va bolalikni muhofaza qilish masalasi davlat ijtimoiy siyosatining strategik yo‘nalishlaridan biri etib belgilandi. O‘tgan yillar davomida millat genofondini yaxshilash, oilada tibbiy madaniyatni yuksaltirish, aholining turmush farovonligini va uzoq umr ko‘rish darajasini oshirish maqsadida sog‘lom avlod tug‘ilishi va uning tarbiyasi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga doir chora-tadbirlar ishlab chiqilib, izchil ishlar amalga oshirildi. Birinchi Prezidentimiz tashabbusi bilan mamlakatimizda 1998-yil Oila yili, 2000-yil Sog‘lom avlod yili, 2001-yil Ona va bola yili, 2008-yil Yoshlar yili, 2012-yil Mustahkam oila yili, 2014-yil Sog‘lom bola yili, deb e‘lon qilingani hamda shu munosabat bilan tegishli davlat dasturlarining bajarilgani bu boradagi ezgu ishlarga mustahkam asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Hozirgi kunda davlatimiz tomonidan, o‘shib kelayotgan yosh avlodni jismonan sog‘lom, aqlan yetuk bo‘lib voyaga yetishi uchun barcha shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratilmoqda. Mazkur jarayonlarni uzluksiz davom ettirish maqsadida, O‘zbekistonda kuchli ijtimoiy siyosat o‘zining taraqqiyot dasturiga asoslangan holda olib borilmoqda. Ushbu siyosatning yorqin namunasi sifatida, sog‘liqni saqlash tizimida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarni misol qilib ko‘rsatish mumkin. Uning asosiy yo‘nalishlaridan biri – onalik va bolalikni muhofaza qilish masalalarida yangi konseptual yondashuvlar bo‘lib, ular sog‘lom avlodning dunyoga kelishi va tarbiyalanishiga doir barcha sharoitlarning yaratilishiga qaratilgan. Bugungi kunga kelib, O‘zbekistonda keng miqyosda sog‘lomlashtirish tadbirlari olib borilmoqda. Bundan ko‘zlangan asosiy natija – “Sog‘lom ona – sog‘lom bola” maqsadiga erishishdir [6].

2016-yil 9-fevralda birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan “Sog‘lom ona va bola yili” Davlat dasturi tasdiqlandi. Unda «Ona va bola sog‘lom bo‘lsa, oila baxtli, oila baxtli bo‘lsa, jamiyat mustahkam bo‘ladi», degan hayotbaxsh qadriyat va olijanob g‘oyani jamiyatimizda teran anglash va qaror toptirish, oilani, onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini takomillashtirish, jamiyatda onalarga alohida hurmat-ehtirom muhitini mustahkamlash, barkamol avlodni tarbiyalash, oila institutini mustahkamlashda davlat hokimiyati organlari va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar ko‘zda tutilgan.

“Sog‘lom ona va bola yili” Davlat dasturida tug‘ma va irsiy kasalliklar sonini kamaytirish, aholi o‘rtasida mustahkam oila qurish va sog‘lom farzand tug‘ilishi uchun jismoniy tarbiya va sportni keng ommalashtirish, yoshlar, ayniqsa, qishloq joylarda qizlarni sport bilan muntazam shug‘ullanishga jalb etish masalalari ko‘rilgan. Shuning uchun O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 14-yanvarda qabul qilingan «Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida»gi 513-XII-sonli Qonuniga (O‘zbekiston Respublikasining 2000-yil 26-mayda qabul qilingan 76-II-sonli Qonuni tahririda) (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2000-yil, № 5-6, 147-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2005-yil, № 9, 309-modda) o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilib, uning yangi tahriri 2015-yil 4-sentabr № O‘RQ-394 moddasi tasdiqlandi [1,2,3,4].

Xotin qizlarda jismoniy tarbiya va sportga katta ishtiyoq va qiziqishni o‘yg‘otib, ularni bu sohaga uzluksiz jalb qila oladigan ta’lim tizimi doirasida o‘tkaziladigan sog‘lomlilik, go‘zallik, komillik g‘oyalari ruhida tarbiyalaydigan ommaviy sport harakatini shakllantirish zarur bo‘lmoqda. Shuning uchun Prezidentimiz tamonidan 2010 yil 1 apreldagi “Qishloq joylaridagi bolalar sporti obyektlarida band bo‘lgan ayol ustozlar mehnatini rag‘barlantirish chora tadbirlari to‘g‘risidagi” PQ 1315-sonli qarori ishlab chiqildi. Jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishni xotin qizlar orasida oqilona tashkil etish, ular organizmining barcha fizilogik ko‘rsatgichlariga ish qilish qobiliyatiga, salomatligini tiklashga, onalik bilan bog‘liq funksiyalarga ijobiy ta’sir qiladi. Kuzatishlar natijasida shu holat ma’lum bo‘ladiki, bir vaqtning o‘zida sport bilan shug‘ullanadigan va shug‘ullanmaydigan xotin-qizlar o‘rtasida kislorodning maksimal o‘zlashtirishi qo‘yidagicha ekanligi ko‘zatilgan: 12-13 yoshli qizlarda 1974-2221 ml/min tashkil qilsa, shug‘ullanmaganlarda esa 1509-1722 ml/min ni tashkil qiladi. Jismoniy mashqlar bilan muntazam shug‘ullanish xotin qizlar organizmining funksional imkoniyatlari va qobiliyatlarini takomillashtiriladi. Bunda qon tomir, nafas olish, mushak tayanch organlari, harakat faoliyati ortadi. Shu bilan birga, jismoniy rivojlanishi yaxshi bo‘ladi. Xotin qizlarning yoshiga alohida e’tibori berish kerak. Chunki ularning yoshlaridagi o‘zgarishlarida qon

tomirining o'zgarishi, umurtqa pog'onasining egiluvchanligi kamayishini, bo'g'unlarning ishlash qobiliyatining farqlanishini hamda tez charchash hollarini hisobga olish kerak.

Har xil yoshdagi qizlar mashqlar bilan shug'ullanishi asosan ikkita maqsadga qaratilgan bo'lib, ularning bittasi salomatlikni yaxshilash bo'lsa, ikkinchisi sport sohasida erkaklar bilan yonma-yon turib, respublika shon-shuhratini himoya qilishda ishtirok etishdir. Ma'lumki, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchi bunday ayollar soni yildan yilga ortib bormoqda.

Shuni ham aytish kerakki, qizlar va ayollar organizmining ish qobiliyati erkaklarning ish qobiliyatidan bir muncha past darajada bo'ladi. Bu ayollar organizmining anatomik va fiziologik xususiyatlari bilan bog'liq. Shuning uchun ayollarning salomatligini yaxshilash yoki ularning sportda yuqori natijalarga erishadigan holatga keltirish uchun beriladigan jismoniy mashqlar hajmini o'rtacha darajada belgilamay turib, qo'yilgan maqsadga erishib bo'lmaydi. Ayollar organizmini ta'riflash uchun uni erkaklar organizmi bilan ya'ni uning fiziologik sistemalari, a'zolar tuzulishi, ishi, jismoniy imkoniyatlari bilan taqqoslab ko'rish maqsadga muvofiq bo'ldi. Ayollarning bo'yi o'rtacha hisobda 1.62 sm bo'lib, erkaklarda esa, 1.72 sm ni tashkil etadi.

Ko'krak qafasi erkaklarnikiga nisbatan ayollarda qisqa bo'lib, diafragma ancha yuqori joylashgan bo'ladi. Ayollarning oyoq-qo'llari ham erkaklarnikigiga nisbatan qisqa, ammo ularning umurtqa pog'onasi uzun bo'ladi. Maxsus harakat reaksiyalarining tezligi erkaklardagiga nisbatan past bo'ladi, lekin markaziy asab sistemasi tomonidan muskullar taranglanishini farqlashda juda ko'p ko'rsatgichlar erkaklardagiga nisbatan ancha yuqori bo'ladi.

Vegitativ funksiyalarning borishi ham ayollarda erkaklarga qaraganda boshqacha bo'ladi. Masalan, gavda vaznining birligiga nisbatan harakatdagi qon miqdori ayollarda kam bo'ladi, ya'ni gavda vaznining bir kilogrammiga ayollarda 65 ml, erkaklarda esa 75 ml to'g'ri keladi. Ayollar qonidagi 1mm³ hajmdagi 4,0-4,5 mln dona bo'lib, erkaklar qonining shunday hajmida ular 4,5-5,0 mln donaga tengdir. Ayollar bilan erkaklarning qon aylanishi va nafas funksiyalaridagi farq muskul ishi bajarilishida yana ham sezilarli bo'ladi. Masalan, ular bir xildagi ishni bajarganda ayollarning yurak faoliyati va o'pka ventilyatsiyasining kuchayishi erkaklardagiga nisbatan ancha yuqori, biroq ish unumi kamroq bo'ladi. Sportning ayrim turlari bo'yicha ayollar erkaklarga nisbatan yaxshiroq natijalar ko'rsatadi. Ayollar qator anatomik va fiziologik ko'rsatgichlar bo'yicha tenglasha olmasalar ham, yuksak uyg'unlik, iroda va egiluvchanlik xislatlarini talab qiluvchi mashqlarni bajarishda erkaklardan ustun turadilar. Ayollar organizmining tuzulishi va funksional xususiyatlari yuqori kuch bilan bajariladigan yoki yuqori darajada chidamlilik talab qilinadigan ishlarni bajarishga imkoniyat bermaydi.

Xulosa qilib aytganda, sport mashg'ulotlari xotin qizlar organizmining rivojlanishida, barkamol avlodni dunyoga keltirishda muhim o'rin tutadi. Xotin qizlarimiz qayerda bo'lmasin, qaysi sohalarda ishlamasin har doim sport mashg'ulotlari bilan shug'ullanishlari uchun quyidagi mashqlarni tavsiya qilamiz:

1) Qomatni shakllantirish uchun;

A. Devor yoki gimnastik devor oldida qomatni to'g'ri tutish, boshning orqa tomoni, ko'kraklar, chanoq, ikrasimon mushaklar, tovonlar devorga tegib turish kerak – 5 minut.

B. To'g'ri qomatni saqlab, devordan 2-3 qadam oldinga yurib va yugurib o'tish va qomatni to'g'ri tutish – 3-4 marta.

V. Devor oldida qomatni to'g'ri saqlab, oyoq uchida 4-5 sekunt turish.

G. To'g'ri qomatni saqlab o'tirish, tizzalarni yonga qo'yish, bosh va umurtqa pog'onasini to'g'ri saqlagan holda sekin va asta turish va dastlabki holatga qaytish – 5-6 marta.

D. Yotgan holatda qomatni to'g'ri saqlash va bel qismini gilamga tekkazib turish – 6-7 marta.

2 Qorin bo'shlig'i mushaklariga beriladigan mashqlar.

A. Ikkala oyoqni bukish va yozish – 2-4 marta.

B. Qo'llar boshda, oyoqni ketma-ket ko'tarish – 3-5 marta.

V. Qo'llar tepada, oyoqlarni oldinga ko'tarib va sekin asta pastga tushurish – 4-6 marta.

G. Oyoqlarni to'g'ri ko'tarib, chalishtirish – 6-8 marta.

D. O'tirish, bosh va yelkani to'g'ri tutish – 5 s.

E. Qo'llarni oldinga yozib, oyoqlarni ko'tarish, o'tirish holatga kelish va to'g'ri qomatni tutish – 5 m.

3. Tananing yon tomonidagi mushaklarga beriladigan mashqlar.

A. Chap yonga yotish, o'ng qo'l tepada, chap qo'l tanada. Chap oyoqni ko'tarish va tushurish. Shu mashqni chap yonda bajarish – 7-8 marta.

B. O'ng tomonga yotib, so'ng ikkala oyoqni to'g'ri ko'tarib, oyoqlarni 4-5 hisobda ushlatib turish, asta-sekin o'z holatiga keltirish.

4.Oyoqlar uchun mashqlar. Oyoqlarni har xil holatlarda ko'tarish, egilgan oyoqlarni har xil holatlarda silkitish, sekinlik bilan bajarish, ikki oyoqda o'tirish, bir oyoqda harakatda va bir joyda o'tirish.

5. Qorinda yotgan holatda beriladigan mashqlar

Boshni ko'tarish, qo'llar yonda, qo'llarni panjalarda qisib yozish, tana va boshni ko'tarish, qo'llar oldinda yoki yonda 10-15 marta. Qorinda yotgan holatda to'g'ri oyoqlar bilan harakat qilish.

6.Tovon mushaklarini mustahkamlaydigan mashqlar.

A Tovonda yugurish, tovonning yon tomonida panjalarni qisib yurish, panjalar bilan mashqlar bajarish.

Bundan tashqari uy sharoitida ham ritmik gimnastika bilan shug'ullanish mumkin.

Ritmik gimnastikani uch qismga bo'lib o'rganish tavsiya etiladi:

1. Qism kirish qismi 5 -10 daqiqa davom etadi. U organizmni mashg'ulotga tayyorlashga mo'ljallangan. Kirish qismida to'g'ri qomatni tarbiyalash, harakat guzalligi va alohida muskul guruhleri uchun oddiy mashqlar bajariladi. Sonni baland ko'tarib joyda yurish, orada qo'l va bosh bilan harakatlar bajarib yurish, tashlanishlar, egilishlar, o'tirib turishlar kiradi. Kirish qismida xotirjam kuydan foydalaniladi.

2 Asosiy qism. Odatda 20-30 daqiqa davom etadi va har xil muskullar guruhini rivojlantirishga yo'naltiriladi. Kuch, chaqqonlik, chidamlilik, jismoniy sifatlarni tarbiyalash va mashqlarni yuqori yuklama bilan bajarish bu qism uchun mosdir. Bir ko'rinishdagi mashqlar ketma-kem kelmasligi, kuchga doir mashqlarni chizilish mashqlari bilan davom ettirish kerak. Bunga bora-bora qo'llar va yelkalar kamari, oyoqlar, gavda harakatlari qo'shiladi. Shundan so'ng, turkum mashqlar bajariladi. Ya'ni yugurish, sakrash, raqs qadamlari bajariladi. Yuklama ortib ketsa o'ynoqi va ohangrabo kuy hisobidan almashtiriladi.

3. Yakuniy qismi. 3-5 daqiqa davom etib, bu vaqtda yuklama asta kamaya boradi, bu esa organizmni nisbatan tinch holatga keltiradi. Bunda nafas olish hamda bo'shashtirish mashqlaridan foydalaniladi. Mashg'ulot xotirjam yurish bilan yukunlanadi. Past ohangga jo'r qilinib, shug'ullanuvchilarning asabi tinchlanadi.

Adabiyotlar

- 1.O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 14-yanvarda qabul qilingan «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 26-mayda qabul qilingan 76-II-sonli qonuni
3. O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 4-sentabr qabul qilingan № O'RQ—394 sonli qonuni . Ma'rifat-gazetasi 2015 y 72-son 2-8 betlar
4. «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi O'zbekiston respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida O'zbekiston respublikasining qonuni. 2-8 betlar [1,2,3,4]
5. "Sog'lom ona va bola yili" Davlat dasturi, 2016-yil 9-fevral.
6. Achilov A. Dastlabki odimlalar, rejalar, natijalar. – Toshkent. –2007. 3-bet.
7. Sa'dullaev A., Sherov A. Barkamol avlodni shakllantirishda jismoniy tarbiya va sportning tibbiy asoslari. – Toshkent, O'zbekiston. – 2011. 3-bet.
8. Azimov I.G. Sobitov.SH.S. Sport fiziologiyasi. – T. O'z DJTI Nashriyot bo'limi, 1993.
9. Azimov I.G, Xamraqulov A.K, Sobitov.SH.S. Umumiy va sport fiziologiyasidan amaliy mashg'ulotlar. –T., O'qituvchi, – 1992.
- 10.Salijonov X. Jismoniy mashqlar fiziologiyasi asoslari fanidan ma'ruzalar matni. – Farg'ona. 2001.

UDK:372.71..371.3

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING MATEMATIK-METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH**M.I.Toshpulatova***Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, katta ilmiy xodim-izlanuvchi*

Maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matematik-metodik tayyorgarligini takomillashtirish bo'yicha fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik kadrlar, pedagogik-psixologik, matematik metodik, kasbiy tayyorgarlik, ta'lim tizimi.

О совершенствовании работы по подготовке учителей-математиков начальных классов

В статье поднимаются вопросы, связанные с методической работой по подготовке будущих учителей начальных классов к проведению уроков математики. Рассматриваются проблемы и пути их решения.

Ключевые слова: педагогические кадры, педагогика, психология, математик, методический, подготовка, профессия, система образования.

Developing of the mathematic-methodological preparation of the teachers of pre-elementary

This article goes about developing of the mathematics-methodological preparation of the future pre-elementary class teachers.

Key words: pedagogical stuffs, pedagogical-psychological, mathematic –methodological, professional preparation, education system.

“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”da ta'lim tizimini “Yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbolli vazifalarni ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga”[1] yo'naltirishi alohida ta'kidlab o'tilgan. Mazkur talab oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlar shaxsini kasbiy, madaniy va ijtimoiy jihatdan yaxlit tarzda shakllantirishni shart qilib qo'yadi.

Mutaxassis shaxsini yaxlit tarzda shakllantirishga qo'yiladigan talablar, ayniqsa, pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Negaki, pedagog jamiyatda hamma vaqt o'ziga xos ijtimoiy, madaniy, ma'naviy-axloqiy va kasbiy maqom egasi sifatida gavdalanadi.

Pedagogika sohasida yirik tadqiqotlar olib borayotgan olim U.Sh.Begimqulov o'zining doktorlik dissertatsiyasida zamonaviy jamiyatda ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik yo'nalishini quyidagicha belgilab beradi:

- ta'lim tizimini isloh etish;
- mustaqil faoliyat tamoyilini ta'lim va tarbiyaning asosiy tamoyili sifatida e'tirof qilish;
- ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish [2, 26 b.].

Respublikamizda zamonaviy mutaxassislarni tayyorlashdagi asosiy tamoyillar sifatida ta'limni insonparvarlashtirish va ijtimoiylashtirish; ularning asosi sifatida esa milliy va umuminsoniy madaniy qadriyatlar aniq belgilab olingan. Shu bilan birga, bugungi kunda kadrlarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan yaxlit ta'lim jarayoni ta'limning jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim.

Zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi kerak? degan savolga A.A.Xoliqov quyidagi fikrlarni: “XXI asr o'qituvchisidan hozirgi kunda dunyoda bo'layotgan global o'zgarishlar, fan-texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi jarayonida, pedagogik mahoratni, o'tkir irodani, pedagogik-psixologik bilimlarni, o'z fanini chuqur bilishni va yuksak tafakkurni, siyosiy savodxonlikni, fikrlash doirasi keng va mulohazali bo'lishni” (3, 5 b.) bayon qilib o'tgan. Jamiyatimizda ro'y berayotgan tub islohotlar pedagog kadrlarni tayyorlash ishiga yangidan-yangi talablarni qo'yimoqda. Biroq, bugungi kunda pedagog kadrlarni tayyorlashga doir ayrim jiddiy muammolar ko'zga tashlanmoqda. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- o'quv-kasbiy sohada: yaxlit ta'lim jarayonida o'qituvchining ijtimoiy mavqeyi va rolining nazariy hamda amaliy jihatdan yetarlicha ko'rsatilmasligi; pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarida kasbiy mas'uliyat, o'quvchilar va o'qituvchilar jamoasiga kirib borish uchun zarur psixologik-kommunikativ sifatlar, ijtimoiy xulq atvor va muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga yetarlicha e'tibor berilmasligi;

- pedagogik faoliyat sohasida: pedagogik faoliyatning ijtimoiylashuv doirasini kengaytirish imkoniyatlarining cheklanganligi; ota-onalar, mahalla qo'mitalari, ijtimoiy tashkilotlar, madaniy muassasalar, matbuot vakillari bilan aloqalarning yetarli emasligi.

Sanab o'tilgan kamchiliklar respublikamiz pedagogika oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining anchagina qismi yetarlicha mukammal kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lmay qolayotganligining asosiy sabablaridandir. Zero, aynan ijtimoiy tabiatga ega bo'lgan ko'nikmalar pedagogik nazariya va amaliyotni o'zaro bog'lovchi omillardan hisoblanadi.

Bugungi kunda pedagog kadrlarni kasbiy tayyorlash sohasida quyidagi kamchiliklar kuzatilmoqda:

1) ijtimoiy yo'naltirilganlik, ya'ni kasbiy ta'limni jamiyatning aniq ijtimoiy xususiyatlari, ta'lim muassasasi, talabalar va o'qituvchilar jamoasining o'ziga xosliklarini hisobga olib tashkil etishga e'tiborning sustligi;

2) kasbiy-amaliy jihatdan tayyorlashning bir tomonlamaligi va cheklanganligi;

3) kasbiy-madaniy nuqtayi-nazarning shakllanmaganligi, pedagogning mutaxassis va shaxs sifatida imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga undaydigan omillarning yetarli emasligi sababli kelib chiqadigan kasbni qadrlash, motivatsiya darajasining pastligi, shaxsiy ijtimoiy mavqei borasidagi ikkilanishlar.

Sh.Qurbonov, E.Seytxalilovlarning fikricha, "Zamonaviy pedagog bolaga ta'lim beruvchi emas, balki uning qanday o'qiyotganligi va qanday rivojlanayotganligini to'liq tushunib his qila oladigan o'qituvchidir" [4, 22 b.].

O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lish bilan birga, o'quv jarayonida lozim bo'ladigan ilmiy bilimlarga asoslanib yosh avlodga ta'lim berar ekan, pedagogik va psixologik bilimlarni mukammal bilishi, dars berish metodikasini hamda texnologiyasini puxta egallagan bo'lishi lozim.

Bir qator olimlarning boshlang'ich sinf o'qituvchisining psixologik-pedagogik hamda kasbiy tayyorgarligining qay darajada bo'lishi kerakligi haqidagi fikrlariga ko'ra, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik-psixologik tayyorgarlik asoslari quyidagilarni tashkil qiladi:

– ijodiy o'sish uchun doimo dolzarblikka ehtiyojmand bo'lishi;

– ko'p tabaqali pedagogik ta'lim jarayonining o'ziga xosligini anglab yetishi,

– iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashda talab darajasidagi pedagogik salohiyatga ega bo'lishi,

– doimo o'z ustida ishlashi, bilimlarini takomillashtirib borishi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matematik-metodik jihatdan tayyorgarligi tekshirilganda, bir qancha tafovutli holatlar namoyon bo'ldi:

– talabalarda boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi bo'yicha vaziyatga shaxsiy fikrni bildirish holati yo'qligi;

– talabalar o'z bilimlaridan kerakli o'rinlarda foydalana olmasligi;

– pedagogika oliy o'quv yurtlarida an'anaviy va bugungi kun maktabida noan'anaviy yondoshuvning talab etilishi;

– avvaldan belgilangan mazmun bilan ishlashi;

– bugungi kundagi ta'lim jarayonidagi yangiliklarni idrok etib, ularni tadbiq etishga e'tiborning kuchayganligi va boshqalar.

Bu borada faoliyat yuritayotgan bir qancha metodistlar yangilanib borayotgan ta'lim tizimida matematika o'qitish metodikasi chuqur islohotlarga muhtoj ekanligini haqida so'z yuritmoqdalar. Bundan kelib chiqan holda, talabalarining kasbiy tayyorgarligi hamda ularni matematikani samarali o'qitishga o'rgatish jarayoni umumiy izlanishga muhtoj ekanligi namoyon bo'lmoqda.

Nazarimizda, boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish bo'yicha tahsil olayotgan bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik jarayoni murakkab dinamik tizim misolida ko'rib chiqilishi kerak: bunda har bir talabaning imkoniyati, uning hayotiy va kasbiy tayyorgarligi, barcha fundamental talablarga javob berishi, vaziyatga oldindan baho bera olishi, o'z ustida mustaqil ishlay bilishi, yangi

bilimlar, yangiliklarga chanqoqligi, fikrlash darajasi, bilim, malaka va ko'nikmasi hamda ulardan unumli foydalana olishi hisobga olinadi.

Talabalarga dars jarayonini aniq rejalashtirib, shu asosda faoliyat yuritish, ijodiy yondashuvga ega bo'lish, matematika rivojlanishi tarixi haqidagi tushunchalarni berish ularning nazariy-metodik jihatdan shakllanishiga turtki bo'ladi.

Talabalarining bilimni kengaytirish zamon talabi darajasiga etishishida fan asoslari bilan qurollantirish, innovatsion pedagogik texnologiya yutuqlari asosida "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" hamda "Ta'lim to'g'risida"gi qonun talablarini bajarish maqsadida ularning aqliy tafakkurlarini yuqori darajada rivojlantirishga erishish eng muhim vazifalardan biridir.

Bakalavriyat yakunida talabalar o'zining keyingi bosqichga yoki boshlang'ich sinflar bilan ishlashga tayyorgarlik darajasini bilishi kerak.

Matematika o'qitish metodikasi o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

–boshlang'ich sinflarda matematika kursining tuzilishi, xususiyatlari, mazmuni, vazifasi va maqsadi;

–boshlang'ich sinf o'quvchilarining asosiy matematik tayyorgarligi, sinflar bo'yicha asosiy talablar ularning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan baho mezonlari, texnologiyasi;

–asosiy o'quv vositalari darslik, o'quv qo'llanmasi va boshqa vositalar hamda ularni qo'llash metodikasi;

–o'quv - bilish faoliyatini tashkil qilishning asosiy va yordamchi shakllari;

–dars ishlanmasida o'quv jarayonini (o'quv materiallari unga mos metod, vosita va o'qitish shakllari tanlab) rivojlantirish;

–matematik mazmunda to'g'arak, olimpiada va boshqa darsdan tashqari mashg'ulotlarni olib borish;

–dastur asosida joriy rejalashtirish;

–darsdan tashqari mashg'ulotlarni o'yin mashg'ulotlari tarzida o'tkazish;

– o'zlari qiziqqan yo'nalish, mavzusi asosida ilmiy izlanishning bajarilishini uddalay olish zarur (kurs va bitiruv ishi tarzida);

– pedagogik texnologiyaning mazmuni va mohiyatini anglash;

– talaba boshlang'ich sinfda matematika o'qitish metodlarini;

– boshlang'ich sinfda matematika o'qitishni tashkil qilish shakllarini; –boshlang'ich sinfda matematika o'qitishda foydalaniladigan o'quv vositalarini;

– asosiy miqdorlarni o'rgatish metodikasi;

– arifmetik amallarni o'rgatish metodikasini;

– boshlang'ich sinflarda algebra elementlarini o'rgatish metodikasini; geometriya elementlarini o'rgatish metodikasini;

– boshlang'ich sinflarda masalalar yechishga o'rgatish metodikasini bilishi kerak.[5, 3 b.]

Talabalarda shu kabi pedagogik sifatlarining kamol topishi boshlang'ich sinflarda har tomonlama shakllangan shaxsni tarbiyalashda zamin bo'la oladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining matematik-metodik tayyorgarligi muammosiga bag'ishlangan tadqiqotlar o'rganib, quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

Birinchidan: talaba tayyorgarligidagi pedagogik-psixologik komponentning mavjud bo'lishi. Malakali matematika o'qituvchisini tayyorlashning muhim omillaridan biri uning pedagogik-psixologik tayyorgarligini ta'minlash hisoblanadi.

O'rta maktabda faoliyat yuritadigan bo'lg'usi pedagogga nisbatan N.M.Istomina quyidagicha fikr yuritadi: "An'anaviy boshlang'ich ta'lim o'qitish metodikasi didaktika bilan bog'liq bo'lsa-da, o'qituvchilarning psixologik rivojlanishi muammolari deyarli o'rganilmaydi." [6]

Ikkinchidan: boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari tomonidan matematika o'rgatish jarayonida o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlarining hisobga olinishi matematik bilimlar har tomonlama shakllanib kelayotgan shaxsning rivojlanishiga, amaldagi borliq matematik abstraksiyadan boyroq ekanligini his qilishiga yordam beradi.

Qadriyatlarga muntazam bog'lanish, hayotda matematika o'rni va ahamiyatini tushuntirish, inson rivojlanish tarixi bilan matematika rivojlanish jarayonini bog'lash, matematik bilimlarni ajrata bilish, matematika o'qitish metodlarini nazariya bilan amaliyotni bog'lash ahamiyatlidir.

Uchinchidan: bo'lajak o'qituvchini tayyorlashda uning egallashi kerak bo'lgan fundamental predmetlarga e'tiborni kuchaytirish. Bu fanlar ichida matematika alohida ahamiyat kasb etadi. "An'anaviy tarzda matematika fanlariga boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda birinchi va asosiy o'rin ajratiladi. Matematika fanlari umummadaniy, umumilmiy va kasbiy fanlar sifatida qaraladi". [7, 112 b.]

Matematikaga fundamental tayyorgarlikning maktabda o'qitiladigan matematika bilan alohida emas, balki uzviy bog'langan holda amalga oshirilishi, hamda nazariy ba'za bo'lib xizmat qilishi bu borada yuqori ko'rsatkichlarga erishishga zamin hozirlaydi. Mazkur masala bo'yicha G.L.Lukankin quyidagi fikrlarni keltirib o'tadi: "Maktab matematika kursining asosiy g'oya va mazmuni umummatematika kursini takrorlashi kerak. Oliy ta'lim jarayonidagi matematika bilan maktab matematikasini uyg'unlashtirish, o'qituvchi tayyorgarligining fundamental va elementar qismlarini koordinatsiyalash lozim. Oliy ta'lim jarayonidagi matematika o'qitish metodikasi g'oyasini boyitish zarur, bu o'z o'rnida bo'lajak o'qituvchilarga maktab matematikasiga keng nazar bilan qarash imkoniyatini beradi." [8, 30 b.]

To'rtinchidan: zamon talablariga mos keladigan o'qituvchini tarbiyalashda va fan bilan uzviylikni bog'lashda ta'lim jarayoni matematik va metodik nuqtayi-nazardan uzviy bog'langan bo'lishi kerak. N.B.Istominaning ta'kidlashicha, "Ushbu bog'liqlik harakatli aniq maqsadga yo'naltirilgan, sodda tilda tushuntiriladigan bo'lishi zarur. Boshlang'ich sinf matematika kurslarida matematika darslari bola shaxsini izlanishga, mantiqiy fikrlashga yo'naltirishi lozim." [9, 67 b.].

Beshinchidan: matematika ta'limini amalga oshirish jarayonida o'quvchi shaxsida ijodiy fikrlashni shakllantirish muammosi vujudga keladi. Bu borada atoqli olim L.M.Fridman shunday deydi: "Matematika o'qitishning asosiy masalalaridan biri – tafakkur va fikrlashni rivojlantirishdir" [10, 25 b.].

A.Z.Zakning ta'kidlashicha, o'quvchilarning aqliy rivojlanishida, ularning nazariy bilimlarni egallashida, masalaning mazmunini aniq va ravon tushunishlarida, har xil masalalarga umumiy yechim topish va ularni rejalashtirishlarida" [7, 13 b.] boshlang'ich sinf o'qituvchisining tayyorgarlik darajasi nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo'lajak o'qituvchi "har bir o'quvchining aqliy rivojlanishiga, ularning turli darajadagi intellektual tayyorgarligiga" yordam berishga tayyor bo'lishi kerak.

B.P.Erdniev esa, "o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish kaliti o'qituvchining kasbiy jihatdan mahoratli, bilimli bo'lishida va har bir o'quvchiga to'g'ri yondasha olishida" [11, 113 b.] deb hisoblaydi.

Oltinchidan: talabalarni – o'quvchilarda ijodkorlikni, ijobiy fikrlashni, ijodiy yondashuvni, o'rganishga moyillikni va boshqa sifatlarni rivojlantirishga va ularning tasavvurini boyitishga tayyorlash. Bu kabi tayyorgarlikka bolalarni rivojlantirish uchun ularni asta-sekin ijodiy faoliyatga undash kerak. Bu jarayonda dastlab o'qituvchidan katta yordam kerak bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, bo'lg'usi boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari tomonidan matematika o'rgatish jarayonida o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlarining hisobga olinishi matematik bilimlar har tomonlama shakllanib kelayotgan shaxsning rivojlanishida, amaldagi borliq matematik abstraksiyadan boyroq ekanligini his qilishlariga munosib yordam beradi.

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda qadriyatlarga muntazam bog'lanish, matematikaning inson hayotidagi o'rni va ahamiyatini tushuntirish, inson rivojlanish tarixi bilan matematika rivojlanish jarayonini bog'lash, matematik bilimlarni ajrata bilishga o'rgatish, matematika o'qitish metodlari nazariyasi va amaliyotini chuqur o'zlashtirishlarini ta'minlash muhim ahamiyatga molik.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi Qonuni. //Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –Toshkent; Sharq, 1997.
2. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. Doktorlik diss.avt. – Toshkent – 2007.
3. Xoliqov A.A.Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini pedagogik mahoratini rivojlantirish. Monografiya. – Toshkent, Iqtisod-Moliya nashriyoti, 2015. –420 b.
4. Qurbonov Sh., Seytxalilov E. Ta'lim sifatini boshqarish. – Toshkent, "Turon-Iqbol", 2006.

5. Jumaev M.E., Z.M.Urazova, M.I.Toshpulatova Matematika o'qitish metodikasi fanining ishchi o'quv dasturi. – Toshkent, 2016., 20 b.
6. Истомина, Н.Б. Роль методической науки в модернизации начального математического образования // Начальная школа. -2003. - № 11. - С.45-50.
7. Амосова, П.В. Методико-математическая подготовка студентов педагогических факультетов к развитию творческой личности школьника при обучении математике: Дисс., д.п.н., Астрахань, 1999. – 420 с.
8. Луканкин, Г.Л. Научно-методические основы профессиональной подготовки учителя математики в педагогическом институте: Автореферат дисс. д.п.н. Л., - 59 с.
9. Истомина, Н.Б., Латохина, Л.Г., Шмырева, Г.Г. Нрактикум по методике преподавания математики в начальных классах. - М.: Просвещение, 1986.-176 с.
10. Подготовка учителя математики: Инновационные подходы. Учебное пособие /Под ред. В.Д. Шадрикова. - М.: Гардарики, 2002. - 383 с.) Истомина, Н.Б. Роль методической науки в модернизации. Начального математического образования // Начальная школа. -2003. – № 11. – С.45-50.
11. Эрдниев, П.М. Укрупнение дидактических единиц как технология обучения. 4.1. - М., 1974. - 175 с.
12. Митина, Л.М. Психология профессионального развития учителя.- М.: Флинта: МПСИ. 1998. -200с.
13. Шадрикова В.Д. Подготовка учителя математики: Инновационные подходы: Учебное пособие / - М.: Гардарики, 2002.-383 с.

UDK: 374.5

PEDAGOGIC AMALIYOTIDA CHET TILINI BILISH UNING KASBIY KOMPETENTLIGINI OSHIRISH NUQTAYI NAZARI

X.A.Mamatqulov

O'zbekiston davlat jahon tillar universiteti, katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

Maqolada o'qituvchilarning xorijiy tillar bo'yicha kasbiy kompetentligini rivojlantirishning dolzarb vazifalari hamda pedagogik shart-sharoitlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: *innovatsiya, internet-resurs, integratsiya, kompetensiya, kasbiy kompetentlik, kreativlik, lingvistika, masofaviy ta'lim, motivatsiya, pragmatika, sotsiolingvistika.*

Знание иностранных языков в педагогической практике с точки зрения повышения профессиональной компетенции

В статье рассматриваются актуальные проблемы профессиональной компетентности учителей иностранных языков и пути их решения.

Ключевые слова: *инновация, интернет-ресурс, интеграция, компетенция, профессиональная компетентность, креативность, лингвистика, дистанционное обучение, мотивация, прагматика, социолингвистика.*

Theory of rising of professional competency in pedagogical practice on the basis of foreign language knowing

The article deals with the content and meaning of "competence", "competence", "professional competence" and pedagogical conditions of perfection of the professional competence of teachers акъ foreign languages.

Keywords: *innovation, online resource, integration, competence, professional competence, creativity, linguistics, distance learning, motivation, pragmatics, sociolinguistics.*

Ma'lumki, kompetentlik yondashuvini ko'proq ikki yo'nalishga: bir yoqlama-kognitiv va predmet-bilimga ajratib o'rganish qabul qilingan. Bunda globallashuv jarayoni oqibati sifatida ma'lumotlar oqimining tezlashuvi va tez yaroqsizlashuvi hamda murakkablashuvi predmet-bilimga asoslangan kompetentlikni maqsadli integral amaliyotga yo'naltirilganlik asosida takomillashtirishni taqozo qilmoqda.

Ushbu yondashuv an'anaviy xususiyatga ega bo'lgan til va nutq bo'yicha bilim, mahorat va ko'nikmalarni til o'rganuvchi pedagoglar uchun ko'chirib o'tkazish emas balki, uni iteraol

multimediya ko'rinishdagi axborot-metodik ta'minoti muhitini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalar asosida birlashtirish hamda undan foydalangan holda mustaqil, ijodiy va shaxs sifatida lingvistik yo'nalishni erkin tanlagan holda pedagog darajasiga chiqq oluvchi professional kompetentlikka aylanishi kerak.

Bugun pedagoglar amaliyotida chet tilini bilish uning kasbiy kompetentligini oshirish nuqtayi nazaridan og'zaki nutqni, madaniy va pedagogning o'z sohasi bo'yicha bilimni rivojlantirishni ko'proq zarur qilib qo'ymoqda. Bunda pedagog sohasi bo'yicha axborot-metodik ta'minotni xorijiy tilidagi muhitini ko'z oldiga keltirishi va uni ta'lim jarayonini faol mustaqil ta'lim jarayoniga aylantira olishi va xorijiy tilida axborot-metodik ta'minot resurs bazasidagi ma'lumotlarni o'z sohasi asosida erkin fikr yuritish olish imkoniyatiga erishish uchun nutq amaliyotiga ega bo'lishi va kommunikativ yo'naltiruvchi vositalarga ega bo'lishi kerak.

Xorijiy tili bo'yicha pedagog kasbiy kompetentligini axborot-metodik ta'minot shakllanishida alohida axborot texnik vositalar yoki interfaol metodik ishlanmalar resurs bazasidan foydalanish emas balki, ular asosida pedagog kasbiy kompetentlik birligini yaratish, uni axborot-metodik ta'minoti funksiyasini konstruksiyasini qurish, uni strukturalash hamda u asosida ta'limda pedagog kompetentligini samarali faoliyatini yaratishdan iborat majmualik birlikka ega bo'lishdir.

Ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish foydalanuvchilarning tafakkur ko'nikmalarini va murakkab vazifalarni hal qilish malakalarini rivojlantirishning yangi yo'llarini ochib beradi, ta'limni faollashtirish uchun prinsipial yangi imkoniyatlarni taqdim qiladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari auditoriya va mustaqil mashg'ulotlarni yanada qiziqarli, dinamik va ishonchli, o'rganiladigan axborotning katta oqimini oson o'zlashtiriladigan qilish imkonini beradi.

O'qitishning, hisoblash texnikasi vositalaridan foydalaniladigan, reproduktiv metodi tinglovchiga pedagog va (yoki) axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tomonidan xabar qilinadigan bilimlarni o'zlashtirishni hamda ta'lim oluvchining o'rganilgan materialni qayta yaratish, uni o'xshash (analogik) vaziyatlarda qo'llashga oid faoliyatini tashkil qilishni ko'zda tutadi. Mazkur metodni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bilan qo'llash ta'lim jarayonini tashkil qilish sifatini jiddiy yaxshilash imkonini bersa-da, biroq ta'lim jarayonini an'anaviy qo'llanadigan sxemadan (axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz) foydalanilganiga nisbatan tubdan o'zgartirishga imkon bermaydi. Bu jihatdan muammoli hamda tadqiqotchilik metodlaridan foydalanish ko'proq o'zini oqlaydi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalarining ta'limning boshqa texnik vositalariga qaraganda asosiy ustunliklari nozikligi, ta'limning turli modellari va algoritmlariga sozlash, shuningdek, har bir ta'lim oluvchining xatti-harakatlariga yakka tartibda reaksiya qilish imkoniyati sanaladi. Bunday vositalardan foydalanish ta'lim jarayonini yanada faollashtirish, unga tadqiqotchilik va izlanuvchanlik xarakterini bag'ishlash imkonini yaratadi. Darsliklar, televidenie va kinofilmlardan farqli o'laroq, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta'lim oluvchining xatti-harakatiga zudlik bilan javob berish, turli toifadagi ta'lim oluvchilar uchun materialni takrorlash, tushuntirish, puxtarok tayyorgarlikka ega bo'lgan ta'lim oluvchilar uchun yanada murakkab va o'ta murakkab materialga o'tish imkoniyatini ta'minlaydi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari ta'lim jarayonida quyidagi eng muhim jihatlari: differensial va individual o'qitish jarayonini tashkil qilishi; o'qish jarayonini baholash, teskari aloqa bog'lashi, o'zini-o'zi nazorat qilish va tuzatib borishi, o'rganilayotgan fanlarni namoyish etishi va ularning dinamik jarayonini ko'rsatishi, fan mavzularida animatsiya, grafika, multiplikatsiya, ovoz kabi kompyuter va axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanishi, o'quvchiga fanni o'zlashtirish uchun strategik ko'nikmalar hosil qilishi bilan alohida ahamiyatga egadir.

Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalarining amaliy tomoni ulardan ta'lim jarayonida foydalanish va kelgusida ta'lim tizimida ta'lim jarayoni uchun ma'lumotlar bazasini va virtual stendlar yaratishdek muhim vazifani amalga oshirishga zamin hozirlaydi.

Pedagoglar kasbiy kompetentligini oshirish jarayonining eng asosiy xususiyatlari – bu, uning yaxlitligi, tizimlilik, davriyligi va texnologiyaviyligidir. Yaxlitlik deganda, tarbiyalash va o'qitish jarayonlari, shuningdek shaxsni rivojlantirish va shakllantirish jarayonlarining ajralmas birligi tushuniladi. Tarbiyalash va o'qitish, garchi ilm-fan ularni farqlasada, bir-biriga bog'liq va ko'p umumiylikka ega. Tarbiyaning mazmunida me'yorlar, qoidalar, qadriyatlar ustunlik qiladi. O'qitish

asosan aql-idrokka ta'sir ko'rsatadi, tarbiyalash birinchi navbatda shaxsning iste'mol-daliliy sohasiga aylangan. Ikkala jarayon shaxsning ongi va xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadi va uning rivojlanishiga olib keladi. Qanchalik yaqin bo'lishiga qaramay, bu o'ziga xos jarayonlar bo'lib, ilm-fan ularni tarbiya qilish nazariyasida alohida ko'rib chiqadi. Bunda, zamonaviy shart-sharoitlarda uslubiy tamoyil va ayniqsa, dolzarb hisoblangan butun pedagogik jarayonning yaxlitligi ta'minlanadi.

Pedagoglar kasbiy kompetentligini oshirish jarayonlarini axborotlashtirish pedagogik-psixologik maqsadlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqishni va ulardan foydalanishni nazarda tutadi.

Bu jarayon zamonaviy axborotlashgan jamiyatda shaxsni rivojlantirish maqsadlarida pedagogning kasbiy kompetentligini oshirish faoliyatining tashkiliy shakllari, metodlari, mazmunini tanlash va metodologiyasini takomillashtirishni hamda pedagogning intellektual salohiyatini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Ta'limning tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarga yo'naltirilganlik tamoyiliga ko'ra, pedagog tomonidan o'rganuvchilarda ma'lum bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirayotib, aniq bir mavzu bo'yicha mashg'ulotning tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi salohiyatidan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir. Pedagoglar bilimi, malaka va ko'nikmalarini nazorat qilishning asosiy maqsadi, ular erishgan yutuqlar va muvaffaqiyatlarni aniqlash, uni takomillashtirish yo'llarini ko'rsatish va shu asosda pedagoglarga faol ijodiy faoliyat ko'rsatish uchun sharoit yaratishdan iborat. Bu maqsad, birinchi navbatda, tinglovchilar tomonidan o'quv materiallarini o'zlashtirish sifati bilan, ya'ni o'quv dasturida belgilangan bilim, malaka va ko'nikmalarni egallash darajasi bilan bog'liq. Ikkinchi tomondan, nazoratning asosiy maqsadini aniqlashtirish, o'zaro va o'z-o'zini nazorat qilish bo'yicha yondashuvlarni o'rganish hamda o'zaro va o'z-o'zini nazorat qilishga bo'lgan ehtiyojning shakllanishi bilan bog'liq. Uchinchidan esa, bu maqsad tinglovchilarda bajarilgan ish uchun javobgarlik hissining namoyon bo'lishi kabi shaxsning ijobiy sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan bo'ladi.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning ta'lim va tarbiya ishlar tizimida qo'llanishi mavjud bo'lgan ayrim tushunchalarni ham mazmunan, ham mohiyatan qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Shu bois, tarbiya jarayonlarini tashkil etishda majmualiy yondashuvni amalga oshirish boshlandi. Ta'lim va tarbiya ishlari jarayoni murakkab jarayon bo'lib, unda ta'lim muassasasining jamoasi, murabbiy va pedagoglarning o'zaro munosabatidagi yaxlitlik ta'minlanadi. Endilikda ushbu jarayon elektron tarbiya resurslari – rasmiy Veb-saytlar, elektron formatdagi adabiyotlar, audio va video materiallar, o'rgatuvchi kompyuter dasturlari bilan uyg'unlashib bormoqda. Bu vaziyatda pedagogning kasbiy kompetentligini oshirish faoliyati jarayonlari ko'proq pedagogning ichki imkoniyatlari, intellektual salohiyati, axborotni qabul qilish va o'zlashtirish qobiliyatlariga bevosita bog'liq bo'lmoqda.

Yuqorida bayon qilingan fikrlardan kelib chiqqan holda, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim muassasalari pedagogning kasbiy kompetentligini oshirish faoliyati ishlarni boshqarish tizimida qo'llash, bir tomondan, tinglovchilardan resurslarni o'zlashtirishining oshishiga, ikkinchi tomondan, pedagoglarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, ularning ma'naviy kamoloti darajasi to'g'risida ma'lumotlar olish, ularning dinamikasini kuzatish, bashoratlash, zarur hollarda tuzatishlar kiritish kabi imkoniyatlarni yaratadi. Bularning barchasi ta'lim muassasasi pedagogning kasbiy kompetentligini oshirish faoliyati tizimini takomillashtirishga va uning samaradorligini oshirishga qaratilgan vositalardir.

Bizning fikrimizcha, oliy ta'lim muassasalarining pedagog kadrlari kasbiy kompetentligini uzluksiz oshirish faoliyati jarayonlarida ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning axborot-metodik ta'minotini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish samarali usullaridan hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-sonli qarori.
2. Ансиферова Л.И. К психологии личности как развивающейся системе // Психология формирования и развития личности / Под ред. Л.И. Ансиферовой. - М.: Наука, 1981. - С. 3-19.

UDK: 796.8

YOSH DZYUDochILAR MUSObAQa OLDI TAYYORGARLIgIDA MASHG‘ULOT MIKROTSIKLLARI**F.Sh.Axmedov***Samarqand davlat universiteti, o‘qituvchi*

Ushbu maqolada yosh dzyudochilar musobaqaoldi tayyorgarligida mikrotsikllar xarakteri tahlil qilingan. Mazuga doir adabiyotlar o‘rganilgan. Musobaqaoldi tayyorgarligida mashg‘ulot mikrotsikllarining xususiyatlari tahlil qilingan. Amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalitso‘zlar: musobaqaoldi tayyorgarligi, mashg‘ulot mikrotsikli, mashg‘ulot yuklamasi, umumiy tayyorgarlik bosqichi, maxsus tayyorgarlik bosqichi, maxsus-musobaqa tayyorgarligi bosqichi.

Тренировочные микроциклы в период предсоревновательной подготовки юных дзюдоистов

В данной статье рассматриваются особенности проведения учебно-тренировочных занятий с юными дзюдоистами в предсоревновательный период. Проведен литературный обзор по тематике. Анализирована специфика тренировочных микроциклов в период предсоревновательной подготовки. Даны практические рекомендации по их усовершенствованию.

Ключевые слова: предсоревновательная подготовка, тренировочный микроцикл, тренировочная нагрузка, общеподготовительный этап, специально подготовительный этап, специально-соревновательный этап подготовки.

Training microcycles in precompetitive preparation of young judoists

The features of training microcycles in precompetitive preparation of young judoists are analyzed in this article. The specifics of training microcycles in the period of precompetitive preparation are analyzed. Practical recommendations are developed for their improvement.

Keywords: precompetitive preparing, training microcycles, training load, general preparing level, special preparing level, special-competitive preparing level.

Yildan yilga sport haqidagi bilimlar va sportchilar tayyorlash to‘g‘risidagi ilmiy ma’lumotlar hajmi ortmoqda. Bu xususida gap ketganda alohida mamnuniyat bilan aytish kerakki, O‘zbekistonda sportni rivojlantirishning ilmiy asoslangan tizimlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish yetarlicha o‘rganilmoqda [1, 8]. Ayniqsa, yosh sportchilarni tayyorlash masalasiga alohida ahamiyat qaratilgan. Mamlakatimizda ko‘pgina sport turlari qatori dzyudo ham jadal rivojlanib bormoqda. Yosh dzyudochilar mashg‘ulotlarini maqsadga muvofiq tashkil qilish, yuqori sport natijalarini kafolatlovchi uslublarni amaliyotga joriy qilish yildan yilga o‘z dolzarbligini orttirib bormoqda. Yosh dzyudochilar musobaqaoldi tayyorgarligini samarali tashkil qilish, birinchidan, sport natijalarining o‘rishiga zamin hozirlasa, ikkinchidan, dzyudochilar tayyorgarligining yaxlit strukturasi ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur maqolada ham aynan yosh dzyudochilar musobaqaoldi tayyorgarligida mikrotsikllar xarakteri va xususiyatlari bilan bog‘liq masalalar tahlil qilinadi. Musobaqaoldi tayyorgarligi mikrotsikllarida mashg‘ulotlar va sportchilarning musobaqalardagi ishtiroki qiyosiy tahlil qilingan.

Ushbu mavzuni yoritish maqsadida Samarqand viloyati dzyudo bo‘yicha yoshlar terma jamoasining (14-16 yosh) O‘zbekiston chempionatiga tayyorgarlik jarayoni tadqiqot obyekti sifatida tanlab olindi. Musobaqaoldi tayyorgarlik jarayonining amalda borishi va natijada terma jamoaning kutilayotgan musobaqadagi ishtiroki qiyosiy tahlil qilindi.

O‘rganilayotgan mavzu uzoq yillik tadqiqot tarixiga ega. Yosh dzyudochilar musobaqaoldi tayyorgarligini optimallashtirishga doir kuzatishlar olib borilgan. Keyinchalik, dzyudo taraqqiyotining yangi bosqichida zamonaviy yondashuvdagi tadqiqotlar yosh dzyudochilar musobaqaoldi tayyorgarligi mikrotsikllarining o‘ziga xos ekanligini ko‘rsatdi. Masalan, A.N.Lens va G.S.Tumanyan (1969) dzyudochilar mashg‘ulotlarida individual tayyorgarlik rejasini ishlab chiqib, bunda individual tayyorgarlik alohida ahamiyatga ega ekanligini e’tirof etishgan. A.N.Lens va G.S.Tumanyan fikricha

yosh va malaka darajasidan qat'iy nazar dzyudochilar tayyorgarligida individual yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Tayyorgarlikning ayrim davrida individual tayyorgarlikka katta ahamiyat qaratilsa, ayrim hollarda sportchilar umumiy rejalar asosida mashg'ulotlarda ishtirok etishi taklif etilgan. Shuningdek, ayrim mutaxassislar dzyudochilar tayyorgarligining uzoq yillik rejasini e'tirof etishgan. Unga ko'ra mag'ulotlarning har qanday rejasi ma'lum talablar va qonuniyatlar asosida tashkil qilinadi, mashg'ulotlarning uzoq yillik dasturi shartli ravishda turli bosqichlar va davrlarga ajratiladi.

M.A.Pismenskiy, Ya.K.Koblev, V.I.Sitnik (1982) o'z ishlarida dzyudochilar uzoq yillik mashg'ulotlarini qisqa davrga mo'ljallangan tsikllardan iborat ekanligini ko'rsatib o'tgan. Ular fikricha nafaqat dzyudoda, balki, kurash turlarida mashg'ulotlar tizimi mikrotsikllardan tashkil topib, ular turli xil bo'ladi. Masalan, 5:2, 4:1, 3:1, 2:1. (mashg'ulot kunlari va dam olish bilan) [6]. Shuningdek, ko'pgina yetakchi olimlar yuqoridagi fikrlarni qo'llab-quvvatlovchi mulohazalar bildirganlar (V.M.Dyachkov, 1964, V.M.Zatsiorskiy, 1966, L.P.Matveyev, 1967, 1977, M.Ya.Nabatnikova, 1970, N.G.Ozolin, 1970, R.S.Salamov, 2005, T.S.Usmonxo'jayev, 2006).

Ayrim o'zbek olimlari tomonidan dzyudo bo'yicha mashg'ulotlar olib borishga qaratilgan metodologik ishlar nashr qilingan. (F.A.Kerimov, J.Toshpulatov, A.Bagdasarov, A.A.Istomin, A.A.Absatarov, N.Azizov va boshqalar). Mavzu doirasidagi adabiyotlarni tahlil qilish va o'rganish shuni ko'rsatadiki, yosh dzyudochilar musobaqaoldi tayyorgarligida mikrotsikllar xususiyatlari va xarakteri o'ziga xoslik kasb etmoqda. Sport amaliyotidan ma'lum bo'lishicha mashg'ulotlar mikro, mezo va makrotsikl kabi alohida va bir-birini taqozo qiluvchi bosqichlardan tuziladi [2]. Mashg'ulot mikrotsikli deganda bir necha kun davomida o'tkaziladigan va mazkur tayyorgarlik bosqichi vazifalarini kompleks hal etishni ta'minlaydigan mashg'ulotlar seriyasi tushuniladi [3, 7]. Mashg'ulotlar mikrotsiklining qanchalik puxta ishlab chiqilganligi va amaliyotda ulardan to'laonli foydalanish sport natijalarining u yoki bu darajada bo'lishiga asos bo'ladi. Yosh dzyudochilarning musobaqaoldi tayyorgarligi mikrotsikllarida mashg'ulotlar bevosita ilgari ishlab chiqilgan reja asosida olib borilganligi kuzatishlar jarayonida aniqlandi. Ishlab chiqilgan reja soatlarda aks ettirilib, mazmun jihatdan shug'ullanuvchilarning individual xususiyatlariga to'la mos keladi. Shu bilan birga tayyorgarlik jarayoni murabbiylarning doimiy nazorati ostida tashkil qilindi. Tayyorgarlik jarayonini bir tomondan, bir necha tomondan va butun jarayonni yaxlit xolda baholash va o'rganish zarurati mavjud [4]. Shu sababli biz kuzatishlar jarayonida mashg'ulotlar tizimining barcha yo'nalishlarini (texnik, taktik, jismoniy, ma'naviy-irodaviy, ruhiy) parallel ravishda tahlil qilish lozimligini e'tirof etamiz. Zero, mashg'ulotlar jarayonining asosiy maqsad va vazifalari texnik va taktik tayyorgarlikni oshirish, bellashuv mahoratini takomillashtirish, jismoniy sifatlarni rivojlantirish, organizm ish qobiliyatini yuksaltirish va sport formasini shakllantirishdan iborat [5].

Kuzatilgan mashg'ulotlar shunday xulosa beradiki, mashg'ulotlar tizimini shartli ravishda uchta asosiy bosqichga ajratgan holda tashkil qilish lozim. Har bir bosqichning o'ziga xos xususiyatlari, maqsad va vazifalari bo'lib, bular mashg'ulot mikrotsikllarida jismoniy yuklamalar dinamikasining o'zgarishi, tayyorgarlik turlari uchun ajratilgan soatlar hajmi bilan xarakterlanadi. Mashg'ulotlar haftalik mikrotsikllarda o'z aksini topib, bu zamonaviy sport mashg'ulotlarini tashkil qilish qonuniyatlari va tamoyillariga to'la mos keladi. Yosh dzyudochilar musobaqaoldi tayyorgarligining taklif etilayotgan bosqichlari alohida vazifalarni nazarda tutib, umumiy maqsad – yuqori sport natijasini qo'lga kiritish bilan tavsiflanadi: umumiy tayyorgarlik bosqichi; maxsus tayyorgarlik bosqichi; maxsus musobaqa tayyorgarligi bosqichi.

Umumiy tayyorgarlik bosqichi (UTB) – bu sportchining umumiy tayyorgarligi, jismoniy, ruhiy, texnik va taktik tayyorgarligini oshirishni maqsad qilib qo'yadi. UTBda sportchining imkoniyatlari, musobaqa potentsiali tobora ortishiga erishish nazarda tutiladi. UTBda sportchining bir yoqlama rivojlanishi emas, balki, har tomonlama taraqqiy topishiga erishish lozim. Bu birinchidan, sportchi salomatligining mustahamlanishi va uning maqsadga muvofiq rivojlanishiga ijobiy ta'sir etsa, ikkinchidan, musobaqalar jarayonida sportchining faol ishchanligini ta'minlaydi.

Musobaqaoldi tayyorgarligining birinchi bosqichi asosida uchta mikrotsiklda tashkil qilindi. Texnik va taktik tayyorgarlik barqaror olib borildi. Aytib o'tish lozimki UTBda asosiy e'tibor sportchilarning har tomonlama rivojlanishi va ular organizmini keyingi bosqichlardagi yuklamalarga moslashtirishga qaratildi. Shuningdek, sportchilarning salomatligi, jismoniy rivojlanishi ham alohida nazorat qilindi. UTB to'g'risida quyidagi 1-jadvaldan to'liq ma'lumot olish mumkin.

Yosh dzyudochilar musobaqaoldi tayyorgarligi UTBda mikrotsikllar xususiyatlari

№	Ko'rsatkichlar	Haftalar (mikrotsiklda)			Jami bosqichda
		I	II	III	
1	Mashg'ulotlar soni	11ta	10ta	11ta	32ta
2	Kunlik mashg'ulotning o'rtacha davomiyligi (min.)	92,5	96	96	284, 5
3	Mikrotsiklda mashg'ulot davomiyligining o'rtacha ko'rsatkichi (min.)	1017,5	960	1056	3033,5
4	Mikrotsiklda UJT ulushi (% , min.)	35%, 357	35%, 336	30%, 316	33,3 %, 1009
5	Mikrotsiklda MJT ulushi (% , min.)	30%, 305	30%, 288	30%, 316	30%, 909
6	Mikrosiklda TTT ulushi (% , min.)	35%, 357	35%, 336	40%, 422	37%, 1115
7	Ruhiy, ma'naviy-iroda va nazariy tayyorgarlik	Mazkur tayyorgarlik turlari mashg'ulot yo'nalishiga muvofiq olib borildi.			
Jami					3035 ±2,5 min

MTBning asosiy maqsadi sportchilarning maxsus bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga va takomillashtirishga qaratildi. MTBda jismoniy tayyorgarlik bilan birgalikda TTT o'ziga xos ravishda olib borildi. MTB 4ta mikrotsikldan iborat bo'lib, 1 va 2 mikrotsikllar UTB mazmunidan keskin farq qilmadi. 3 va 4 mikrotsikllarda TTT va JT nisbatlari sezilarli darajada o'zgardi. Tafovutlar faqatgina soatlarda emas tayyorgarlik mazmuni bilan ham ahamiyatlidir. Tayyorgarlik turlarining mazmuni asosan sportchi tomonidan yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarni bartaraf qilish, uning maksimal darajadagi ish faoliyatini rivojlantirishga qaratildi.

Yosh dzyudochilar musobaqaoldi tayyorgarligi MTBda mikrotsikllar xususiyatlari

№	Koʻrsatkichlar	Haftalar (mikrotsiklda)				Jami bosqichda
		I	II	III		
1	Mashgʻulotlar soni	11ta	11ta	11ta	10ta	43ta
2	Kunlik mashgʻulotning oʻrtacha davomiyligi (min.)	135,5	133	135	132,5	536
3	Mikrosiklda mashgʻulot davomiyligining oʻrtacha koʻrsatkichi (min.)	490,5	1463	1485	1325	5763,5
4	Mikrosiklda UJT ulushi (% , min.)	30%, 447	25%, 366	20%, 297	20%, 265	23,75%, 1375
5	Mikrotsiklda MJT ulushi (% , min.)	30%, 447	35%, 512	40%, 594	40%, 530	36,25%, 2083
6	Mikrotsiklda TTT ulushi (% , min.)	40%, 596	40%, 585	40%, 594	40%, 530	40%, 2305
7	Ruhiy, maʼnaviy-iroda va nazariy tayyorgarlik	Mazkur tayyorgarlik turlari mashgʻulot yoʻnalishiga muvofiq olib borildi.				
Jami						5763, ±5 min

MMTBda asosiy e'tibor sportchilarning musobaqa potentsialini oshirish va o'zlashtirilgan harakat malakalarini mustahkamlashdan iborat. Kuzatilgan mashg'ulotlarda TTT va MJTga alohida ahamiyat qaratildi. Sportchilar bilan individual ishlash, o'zlashtirilgan usullarni takrorlash va

kombinatsiyalashtirish borasida alohida ishlar bajarildi. Sportchilarning iroda hamda maxsus chidamliligini oshirish yuzasidan tegishli tadbirlar olib borildi (3-jadval).

Yosh dzyudochilar musobaqaoldi tayyorgarligi MMTB mikrotsikllar xususiyatlari

№	Ko'rsatkichlar	Haftalar (mikrotsiklda)		Jami bosqichda
		I	II	
1	Mashg'ulotlar soni	11ta	11ta	22ta
2	Kunlik mashg'ulotning o'rtacha davomiyligi (min.)	92,5	92,5	185
3	Mikrotsiklda mashg'ulot davomiyligining o'rtacha ko'rsatkichi (min.)	1017,5	1017,5	2035
4	Mikrotsiklda UJT ulushi (% , min.)	30%, 305	30%, 305	30%, 610
5	Mikrotsiklda MJT ulushi (% , min.)	30%, 305	30%, 305	30%, 610
6	Mikrotsiklda TTT ulushi (% , min.)	40%, 407	40%, 407	40%, 814
7	Ruhiy, ma'naviy-iroda va nazariy tayyorgarlik	Mazkur tayyorgarlik turlari mashg'ulot yo'nalishiga muvofiq olib borildi.		
Jami				2034±1 min

Yosh dzyudochilar musobaqaoldi tayyorgarligining taklif etilayotgan shakli uchta bosqichda tashkil qilindi. Birinchi bosqich – UTB, 3 ta mikrotsikl, ikkinchi bosqich – MTB, 4 ta mikrotsikl va uchinchi bosqich – MMTB, 2 ta mikrotsikldan tashkil topdi. O'ylaymizki, kelgusida mazkur mavzu doirasidagi izlanishlar ko'lamini ortadi. Murabbiylar yosh dzyudochilar tayyorlash tizimining ilg'or tajribalaridan amaliyotda keng foydalanadilar.

Adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni. 2015-yil 4-sentyabr (yangi tahriri).
2. Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры. М.: «Физкультура и спорт». 1991. – С. 467.
3. Керимов Ф.А. Спорт кураши назарияси ва услубияти. – Тошкент, 2004. – 163 бет.
4. Керимов Ф.А. Спорт соҳасидаги илмий тадқиқотлар. – Т.: Zar qalam, 2004. – 141 бет.
5. Истомин А.А., Абсатаров А.А. Борьба дзюдо. – Т.: Медицина. – 1990. – С. 13.
6. Писменский М.А. [и др]. Многолетняя подготовка дзюдоистов. М.: 1982. с 9.
7. Усмонхўжаев Т.С. [ва бошқ.]. Болалар ва ўсмирлар спорт машғулоти назарияси ва услубиятлари. – Тошкент, Илм зиё, 2006. 22, 36 бетлар.
8. Керимов Ф.А. Информационное обеспечение в системе подготовки высококвалифицированных спортсменов. Жисмоний тарбия ва спорт назарияси ва услубиятининг замонавий муаммолари. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Тошкент, 2015. – 5 бет.

UDK: 373.6

KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA MAXSUS FANLARNI O'QITISH MOHIYATI VA XUSUSIYATLARI

E.M.Murtazayev

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, o'qituvchi

E-mail: murtazaev_70@mail.ru

Bugungi kunda kasb-hunar kollejlari maxsus fanlarni o'qitish, ta'lim jarayonini optimallashtirish, mustaqil bilim, o'quvchi yoshlarni zamon texnikasi, uning ishlash texnologiyasi bilan qurollantirish texnik tafakkur va dunyoqarashini shakllantirish muhim o'rin tutadi. Ushbu masalaning ahamiyatidan kelib chiqib maqolada maxsus fanlarni o'qitish xususiyatlari o'rganilgan va tegishli taklif va xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: funksional, inshoot, konstruksiya, maxsus fanlar, optimallashtirish, tafakkur, modernizatsiya, xususiy metodika, pedagogik texnologiyalar, pedagogik mahorat, maket, model.

Особенности преподавания специальных предметов в профессиональных колледжах

В настоящее время в профессиональных колледжах работа направлена на оптимизацию процесса обучения, а именно: улучшение уровня преподавания специальных предметов, организацию самостоятельной работы учащихся, использованию на занятиях современных педагогических технологий. В настоящей статье рассматриваются особенности преподавания специальных предметов в профессиональных колледжах и предлагаются методические рекомендации.

Ключевые слова: функциональность, здание, конструкция, специальные предметы, оптимизация, мышление, модернизация, частная методика, педагогические технологии, педагогические навыки, макет, модель.

The nature and characteristics of teaching special subjects in vocational colleges

Nowadays teaching special subjects, optimization of the learning process, self-study, training students in the use of modern technologies has an important role in professional colleges. Given the importance of this issue the features of teaching special subjects in vocational colleges and corresponding recommendations are given in the article.

Key words: functionality, building, construction, special subjects, optimization, thinking, modernization, individual techniques, educational technology, pedagogical skills, model.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning "Ona yurtimiz baxtu-iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish eng oliy saodatdir" kitobida ta'kidlashicha, "birinchi navbatda, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ishga joylashtirish ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotimizning eng muhim ustuvor yo'nalishi bo'lib qolmoqda[1].

Avvalambor, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, kasanachilik va xizmat ko'rsatish sohasini, ayniqsa, qishloq joylarda yanada rivojlantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangilash dasturlarini amalga oshirish, transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish hisobidan keyingi paytda O'zbekistonda yiliga qariyb 1 millionta ish o'rni yaratilmoqda."Darhaqiqat, kollejlarni bitirgan bolalarni ishga joylashtirish majburiyatini davlatimiz zimmasiga olyapti. Buning natijasida O'zbekistonda to'qimachilik, poyabzal tikish, temirchilik, ganchkorlik, duradgorlik, o'ymakorlik bilan shug'ullanadigan mohir hunarmandlar yetishtirib kelmoqda. Ishbilarmonlik, tadbirkorlik yoshlarning asosiy mehnat faoliyatiga aylanib bormoqda. Ayniqsa, respublika viloyatlarida uy-joy qurilishlarida faol ishtirok etayotgan yoshlar jamiyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Chunki kasb-hunar ta'limi muassasalarida tahsil olayotgan bo'lajak kichik mutaxassislarni bilimdon, zamon texnikasini chuqur biladigan, kadrlar etib voyaga yetkazish davr talabiga aylangan. Buning uchun kasb-hunar kollejlari maxsus fanlarni o'qitish, ta'lim jarayonini optimallashtirish, mustaqil bilim, o'quvchi yoshlarni zamon texnikasi, uning ishlash texnologiyasi bilan qurollantirish texnik tafakkur va dunyoqarashini shakllantirish muhim o'rin tutadi. Shuning uchun ham, ta'lim jarayonida maxsus fanlarni o'qitishni doimo takomillashtirib borish, o'qitish vositalari va metodikasidan to'liq foydalanish har bir o'qituvchining vazifasi hisoblanadi. Bu esa o'qituvchidan har qanday maxsus fanlarini o'qitish metodikasini chuqur bilishni talab etadi. Chunki, maxsus fanlarini o'qitish o'quvchilarning nazariy bilimlari, amaliy malaka va ko'nikmalarini rivojlantirishda mashg'ulotlarning mazmunini qiziqarli bo'lishini ta'minlash bilan birga, ta'lim maqsadlari, tamoyillari, mazmuni, shakllari va uslubi yotli xilini ifodalaydi [2].

Maxsus fanlarini o'qitish mohiyati o'ziga xosligi shundaki, kasb-hunar ta'limi yo'nalishi, sohasidagi mukammal vazifalarni amalga oshirishga yordam beradi. O'quvchi bilimini, ta'lim-tarbiyasini rivojlantiradi.

Maxsus fanlarini o'qitish jarayoni o'quv faoliyatida o'quvchilarga bilimlarni qabul qilish, tushunish va o'zlashtirish, olingan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash kabilarning uzviyligini ta'minlaydi. Maxsus fanlarini o'qitish o'quvchi bilimlari va ko'nikmalari, qobiliyatlari va ular tomonidan mustaqil egallangan bilimini rivojlantirishga xizmat qiladi. Buning natijasida o'quvchilar nimani bilish kerak ekanligini idrok qilib boradilar. Nazariy bilimlarni amalda bajaradilar, masalalar yechadilar, bilimlarining mohiyatini tushunib oladilar. U yoki bu mavzu bo'yicha aniq ko'nikmaga ega bo'ladilar. Ularda mutaxassislik fanlardan bilim olish va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish natijasida ko'nikmalar rivojlanib boradi.

Ya'ni o'quvchilar o'zlashtirib olgan bilimlarini amaliyotga qo'llay boshlaydilar. Shu jihatdan ham ularga bilim berish jarayonida o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonini samarali boshqarishi lozim. Chunki o'qitish mutaxassislik fanlarini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirishning eng qulay manbai hisoblanadi. Shuning uchun ta'lim jarayonida maxsus fanlarini o'qitish aniq maqsadga yo'naltirilishi lozim [3].

Ma'lumki, tabiat hodisalari, jamiyatda ro'y beradigan voqealar inson ongi orqali o'zlashtirilganda odam va tabiat, jamiyat o'rtasida qandaydir aloqa o'rnatiladi. Kasb-hunar kollejlari maxsus fanlarini o'qitish jarayonida o'quvchilarga qurilish qurollari, ularning turlari, qo'llanilishi va ta'limiy-tarbiyaviy imkoniyatlari haqida ma'lumot berish muhim hisoblanadi. Chunki, maxsus fanlarni o'qitish qurilish ishlarda binolar va inshootlar konstruksiyasi, qurilish chizmachiligi, materialshunoslik, koshinkorlik, mozaika, marmar yuzalarni qoplash va jilo berish ishlari texnologiyasiga oid mashg'ulotlarda ularning bilimlarini, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ma'lumot darajasini oshirishga yordam beradi. "Beton qorish ishlari texnologiyasi", "Binolarning muhandislik jihozlari", "Bino va inshootlar konstruksiyasi", "Qurilish materiallari va buyumlari" kabi maxsus fanlar mashg'ulotlarida sxema, diagramma, modellar, maketlar, axborot texnikasi va texnologiyalaridan foydalanish asosida amalga oshirilishi kasb-hunar ta'limi muassasalarida tahsil olayotgan o'quvchilarning o'zlashtirishi lozim bo'lgan o'quv ma'lumotining hajmini kengaytirishga, uning mazmunini murakkablashtirishga olib keladi. Bunday sharoitda o'quvchilar ko'proq o'quv materialini mustaqil, ijodiy o'zlashtirishlariga to'g'ri keladi. Buning uchun maxsus fanlarini o'qitishning yangi metod, usul, shakl va vositalar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'quvchilarga yetkazish lozim. Chunki maxsus fanlar birinchidan, o'quvchilarning ko'proq ma'lumotlarni o'zlashtirishini ta'minlashni yo'lga qo'ysa, ikkinchidan, ularning o'qish-o'rganishlari uchun yordam beradi.

Bugungi kunda maxsus fanlarning eng muhim vazifalardan biri bo'lajak quruvchilarga ko'proq ma'lumot berib, ularni o'z mutaxassisligi jarayoniga tayyorlash texnologiyasi bilan tanishtirishdan iboratdir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda maxsus fanlar bo'lajak quruvchilarni turli mutaxassislik bilan tanishtirish va ularni tashkil etish va qo'llash yo'llari, usullari va metodlari bilan qurollantirishni asosiy maqsad qilib qo'yadi [4].

Qurilish kasb-hunar kollejlari maxsus fanlarini o'qitish jarayonida o'quvchilarning bilim saviyasini oshirish, mustaqil-ijodiy ta'limini yo'lga qo'yish, tarbiyalanganlik darajasini yuksaltirish uchun bo'lajak quruvchilarga ma'lumot berish, ularni amaliyotda qo'llashga o'rgatishni asosiy maqsad qilib qo'yish bilan birga, mazkur vazifalarni hal etishni nazarda tutadi: Bunda;

- maxsus fanlarni o'qitish jarayonida qurilish turlari, haqida o'quvchilarga ma'lumot berish va amalda qo'llay olish ko'nikmalarini hosil qilish;
- o'rganilayotgan qurilish obyekti uchun o'quvchilarda maxsus fanlarni tanlay olish, ulardan oqilona foydalanish malakasini tarkib toptirish;
- maxsus fanlarning quruvchilik to'g'risida o'quvchilarga tushuncha berib, ularni amalda qullash his-tuyg'usini shakllantirish;
- o'quvchilar mehnatini unumli tashkil qilish, vaqtini tejash va shu asosda o'quv ma'lumotlarini puxta o'zlashtirishga yordam beruvchi maxsus fanlarni to'la qo'llash uchun imkon yaratish;
- o'quvchilarda quruvchilik jarayonlariga qiziquvchanlikni rivojlantirish;
- bo'lajak quruvchilarda maxsus fanlardan foydalangan holda mutaxassislik mahoratini hosil qilish;
- obyektlarni chuqur o'rganish asosida maxsus fanlar tizimidagi ahamiyatini anglab yetishni o'quvchilarga yetkazish;
- o'quvchilarda EHM, kompyuterda ishlash va internetdan foydalanib ma'lumotlarni mustaqil qo'lga kiritish malakalarini hosil qilish;

-maxsus fanlarining ta'limiy-tarbiyaviy imkoniyatlari bilan o'quvchilarni yaqindan tanishtirish va h.k

Albatta, bunda o'qituvchining pedagogika, xususiy metodika, pedagogik texnologiyalar, pedagogik mahorat kabi bilimlari kollejlari maxsus fanlarni o'qitishni rivojlantiradi va takomillashtiradi. Bunday bog'liqlik maxsus fanlarni yanada takomillashuvi, o'qituvchi mehnatining osonlashuviga va o'quvchilar savodxonligini oshishiga hamda kun sayin ko'payib, murakkablashib borayotgan ma'lumotlar, xabarlar, axborotlarni ularga aniq, qisqa, lunda qilib yetkazishga yordam beradi[5].

Shu o'rinda e'tirof etish joizki, maxsus fanlar - bu qotib qolgan taraqqiy etmaydigan didaktik hodisa emas. Balki ta'lim va tarbiya samaradorligini ta'minlovchi qator omillarni ilmiy-amaliy

jihatdan yo'lga qo'yuvchi ijodkorlik, yaratuvchanlik texnikaviy faoliyatining natijasidir. Shunga ko'ra maxsus fanlarni o'qitishda davr talablaridan kelib chiqish, didaktik jarayonning muhim komponenti deb bilish, ta'lim-tarbiyani harakatlantiruvchi, jadallashtiruvchi va samaradorligini oshiruvchi omillarni aniq qo'llashga da'vat etuvchi deb qarash lozim. Shuni inobatga olib maxsus fanlarni o'qitishda va natijani baholashda ularning ilmiyligiga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir. Chunki, har qanday ilmiy asosga ega bo'lgan narsa natijali, maxsulli bo'ladi. Ilmiy asos tajribada sinalgan va taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qila oladigan vosita hisoblanadi. Shuning uchun maxsus fanlarni o'qitishda ilmiylikka asoslansa natija kutilgandek bo'ladi. Shu jihatdan ham maxsus fanlardan foydalanilganda o'qituvchi uning ilmiyligiga e'tibor berishi maqsadga muvofiqdir. Maxsus fanlarni o'qitish hamma davrda birdek rivojlanmaydigan narsa emas. U davr bilan ham nafas, doimiy rivojlanishda bo'lgan pedagogik-texnik hodisadir[6].

Maxsus fanlarni o'qitishni amalga oshirish va unda zamon talabi, ehtiyojidan kelib chiqib, texnologik jarayonlardan foydalanish ta'lim-tarbiyaning maqsadi, vazifalari, mazmuniga e'tibor beriladi. Maxsus fanlarni o'qitishda ta'lim jarayoniga mos holda metodlar, didaktik vositalar tanlanadi va qullaniladi. Gap shundaki, maxsus fanlarni o'qitish metodlari, usullarini vositalarini inobatga olingan holda uning muvaffaqiyatini ta'minlash mumkin.

Shuning uchun o'qituvchi maxsus fanlarni o'qitishda o'quv mavzularining o'quvchi shaxsini shakllantirishdagi mavqeini bilgan holda didaktik vositalarni, metodlarni aniqlashi va qo'llashi kerak bo'ladi. O'quv-tarbiya jarayonida maxsus fanlar o'quvchilarning rivojlanishiga, shaxsning shakllanishiga ta'sirini inobatga olishni nazarda tutadi. O'quv mavzulariga mos tanlangan metodlar, didaktik vositalarning o'quvchi kuchiga mosligini ta'minlash o'qish-o'qitish ishlarining samarasini kafolatlashini ta'minlaydi. O'qituvchi maxsus fanlarni o'qitishda uning metodlari va vositalarini tanlash va qo'llash bilan birga o'quvchilarning kuchini, uni qabul qilishga tayyorligini hisobga olishi darkor. Buning uchun maxsus fanlarni o'qitish jarayonida osondan-qiyinga, aniqdan-noaniqqa, yaqindan-uzoqqa qoidalariga amal qilishi maqsadga muvofiqdir. Demak, o'qituvchi maxsus fanlarni o'qitishda ushbu qoidalariga amal qilsa, kuzlangan maqsadga erishadi va ta'lim-tarbiya samaradorligi oshadi. Ma'lumki, maxsus fanlarni o'qitish natijasi o'quvchilar bilim, ko'nikma, malakalari orqali aniqlanadi.

O'quvchi o'z mutsaxassisligi bo'yicha maxsus fanlarni o'qitishga qiziqsa, ularga intilsa, uning samarasi shuncha yuqori bo'ladi. Bundan tashqari maxsus fanlarga doir bilimlar 71%dan yuqori bo'lsa, u samarali hisoblanadi. Maxsus fanlarni o'qitishda axborot-kommunikativ texnologiyalari muhim o'rin tutadi. Mazkur texnologiyalar sifati, o'quv materiallariga mos o'qitish vositalarining tanlanganligi va o'qituvchining ushbu vositalardan o'rinli foydalanishi va o'quvchilar bilimining yuksakligiga tayanish muhim o'rin tutadi. Demak, maxsus fanlar samarasi, undan olingan foyda yoki natija asosida aniqlanishi lozim. Shunday qilib, maxsus fanlarni o'qitish kasb-hunar ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonini ilmiy-texnik asosda qurish, o'quvchilarning ma'lumotlarini mustaqil o'zlashtirishi, tahlil qilishi va ularni shaxsiy mulkiga aylantirishi uchun muhim omil bo'lib hisoblanadi. O'quv-tarbiya jarayonida o'qitishning mukammalligini, ishonchliligini kuchaytirib, o'rganuvchilarning obyekt voqealarini tushunib yetishini oshiradi va bilim sifatini yaxshilaydi.

Demak, kasb-hunar kollejlari maxsus fanlarni o'qitish alohida o'rin tutadi. Maxsus fanlarni o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etish, ijobiy samara berish bilan birga ta'limda yangicha o'quv metodlarini qo'llashga imkoniyat yaratadi. Bugungi kunda kompyuterlar bilan ta'minlangan auditoriyalarda mashg'ulotlarni amalga oshirish rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, o'quv jarayoniga kompyuterning kirib kelishi barcha didaktik vositalarni bajarish imkonini beradi. Bunda o'quvchilarga o'rganilayotgan mavzu bo'yicha axborot berilmoqda. O'quv jarayonida ko'rgazmalilikning rolini oshirilmoqda. O'quvchilarning qiziqishlari qondirilmoqda, ularning bilimi, ko'nikmalari rivojlanmoqda.

Kasb-hunar kollejlari qo'llaniladigan didaktik vositalarning pedagogik xususiyati ularni yaratish va saqlanishini ta'minlashdir. Darhaqiqat, didaktik vosita turlari har xil bo'lganligi sababli mashg'ulot jarayonida har bir fanning o'qituvchisi xususiy metodikadan ham xabardor bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Didaktik vositalar ta'lim mazmunining pedagogik asoslarini belgilaydi. O'quvchilarning bilish faoliyatini, qonuniyatlarini, uni o'quv jarayonida faollashtirishning yo'llarini rivojlantiradi. O'qitishning

umumpedagogik metodlar tizimini hamda ularni samarali qo'llashning shart-sharoitlarini yaratadi. Ta'lim-tarbiya muassasalarida o'quv ishlarini tashkil qilish shakllarini belgilaydi va takomillashtiradi.

Kasb-hunar kollejlari kichik mutaxassislarni tayyorlashning sifatini oshirish o'quv-moddiy bazani rivojlanganligi darajasi bilan bog'liqdir. O'quv jarayoniga zamonaviy o'qitish vositalarini keng tadbiq etilishi o'quvchilarning o'quv-idrok etish faoliyatini yuqori darajada tashkil qilish, o'qituvchilar mehnatining intensivligini oshirish imkonini beradi. O'qitish vositalarini mohirlik bilan qo'llash o'quvchilar mustaqilligini rivojlantirish darsda ularni yakka tartibda va guruhli ishlashlari imkoniyatini kengaytirish, ishchi materialni o'zlashtirishda aqliy faollik va tashabbusni takomillashtirish imkonini beradi.

Maxsus fanlarni o'qitish asosida o'quvchilar o'zlarning mutaxassisligi bo'yicha o'quv axborotini oladilar yoki mashq qiluvchi vazifalarni bajaradilar. Bilim va ko'nikmalarini shakllantiradilar. Maxsus fan yordamida o'quvchilar ongida qurilish obyektlarining mohiyatini his qilishga va shu bilan birga o'qitishning sifatini oshirishga ko'maklashadi. Ular yordamida o'qitish ko'rgazmali bo'ladi. Murakkab o'quv materialini ham oson qiladi.

Shuning uchun o'qituvchi, avvalo maxsus fanlarning pedagogik xususiyatlari va imkoniyatlarini aniq belgilashi, uning o'quvchiga ta'sirini oldindan rejalashtirishi va nihoyat, ishlash texnikasi, hamda malakalarini puhta egallagan bo'lishi darkor. Bunda, o'quv jarayoniga katta o'zgarishlar kiritiladi. O'quvchiga qurilish ma'lumotlarini to'liq bayon etish amalga oshirishi uchun sharoit yaratiladi. E'tirof etish joizki, keyingi yillarda o'qitishning kompyuter texnologiyalari o'quv-tarbiya jarayonida foydalanish keng tus olmoqda. Bu o'z navbatida dars mashg'ulotlarining ko'p qirrali va ta'sirchan bo'lishiga yordam berishi bilan birga, o'quvchilarning mustaqilligini oshirishi mumkinligini ko'rsatmoqda. Maxsus fanlarni o'qitishda ta'limning axborot muhiti o'quv jarayonining samarali bo'lishi, bilimlarning o'quvchilar tomonidan mukammal o'zlashtirilishi, ta'lim-tarbiya jarayonida maqsadga muvofiq foydalanish, muayyan qoidalar, talablar, holatlarga rioya qilishni toqazo qiladi. Bu asoslar maxsus fanlarning o'ziga xos jihatlarini ifoda etadi va ayrim fanlardan farqli tomonlarini belgilab berishga yordam ko'rsatadi.

Mashg'ulotlarda turli yozma axborotlar, grafik va sxematik chizmalarni aks ettirish, misollar, masalalar yechish, mashq bajarish kabilar amalga oshiriladi. Amaliy mashg'ulotlar jarayonida shunday vaziyatlar ham bo'lib turadiki, ba'zan bayon etilayotgan axborotlarni o'quvchilarga yetkazish, ularni mustahkamlashda namoyish qilinayotgan ko'rsatmali material kamlik qiladi. Shunda o'qituvchi o'quv-ko'rgazmali vositalar namoyish etishda doskadan foydalanadi. Mashg'ulot jarayonida doskadan optimal foydalanishi uchun mashg'ulot mavzusi va rejasini oldindan tayyorlash, faqatgina zarur sanalar, voqealar, idrok qilish qiyin bo'lgan so'zlarni doskaga yozish va ularni tushunarli barcha uchun ko'rinadigan va chiroyli xusnixatda bo'lishi, grafiklar chizish, ayrim diagrammalarni aks ettirish uchun rangli bo'rlardan foydalanish, yoziladigan fikrlar, darsliklardagi ma'lumotlarni to'ldiruvchi, ma'lumotlarni boyituvchi tarzda bo'lsa, unda doska muhim o'quv-ko'rgazmali vosita rolini bajara oladi[7].

Qurilish kasb –hunar kollejlari o'quv-tarbiya faoliyatining ishini takomillashtirishning zaruriyati tufayli o'qitish jarayonini yaxshilash, o'zlashtirish sifatini oshirish, ishlarini yo'lga qo'yishda samarali yordam berishga qaratilgandir. Shu bilan birga o'quv ishlarini innovatsion shakl va metollarini rivojlantirish o'qitishning ilg'or tajribalarini boyitish va keng yoyish, o'quv muassasi xodimlarining ijodi va ilmiy pedagogik tajribalarni rag'batlantirish o'qituvchilar faoliyatini tashkil etadi. Ular tomonidan amalga oshiriladigan o'quv faoliyatini rejalashtirish va unga erishish usullarini, modellarni amaliyotda sinab ko'rish hamda o'quvchilarning maxsus fanlar haqidagi bilimlarini takomillashtirishdan iborat bo'ladi.

O'qituvchining o'quvchilarni bilimga bo'lgan qiziqishini amalga oshirish va ularning metod va usullarini belgilash bilan birga ta'lim jarayonini mazmunli va qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi.

Umuman olganda, o'qituvchi ta'lim mazmunidagi insonparvarlik va demokratik tamoyillarga asoslanib, ta'lim oluvchilarni faollashtirish, ta'lim jarayonini jadallashtirish, o'quv-biluv jarayonini samarali tashkil etish va boshqarish, o'quv materialini o'quvchi ongiga yetkazish samaradorligiga erishish vazifalarini hal etadi.

Maxsus fanlarni o'qitishda o'qituvchi ta'lim jarayonida xusuiy metodika, metod va vositalar, modul, bo'limlarga ajratib amalga oshiradi.

Lekin, bularning barchasi ta'lim jarayonida alohida-alohida emas, majmuiy tarzda qo'llaniladi. Chunki, hozirgi davrda shaxsni shakllantirishga ham yaxlit holda yondashilib, ta'lim jarayoni ham bir butun holda amalga oshiriladi. Shu ma'noda o'quvchilarni kasb-hunar kollejlari maxsus fanlarni o'qitish alohida o'ringa ega. Ularda dastlab mavzular aniqlanib olinadi, har bir fan mazmuniga oid mavzular ajratiladi va ularni o'rganish umumiy bir zanjirda loyihalashtiriladi.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu-iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish eng oliy saodatdir". – Toshkent: "O'zbekiston", 2015.
2. Rahimov O.D., Ro'ziyev X.J., Murodov M.O. "Ta'lim sifati va innovatsion texnologiyalar". – T.: Fan va texnologiya, 2016.
3. Tursunov S.Kasb -hunar kollejida "sog'lomlashtirish maktabi" dasturi shakllantirish va amalga oshirish. Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.
4. Zunnunov A, Maxkamov U. Didaktika: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. – T.: Sharq, 2006.
5. Talim texnologiyasi. T.: – O'qituvchi, 1999. – 71 b.
6. Tojiboyeva D. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. – T, 2007.
7. Tojibayeva D., Xo'jayev N., Avalova G. Iqtisodiy pedagogika. – T.: Fan va texnologiya, 2008.

UDK: 378:42

OLIIY TA'LIM O'QITUVCHILARINING INNOVATSION PEDAGOGIK FAOLIYATINI INGLIZ TILI O'QITUVCHILARI MISOLIDA TASHKIL QILISHNING MAZMUNI VA MOHIYATI

G.Azizova

Samarqand viloyat Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti

Ushbu maqolada oliy ta'lim o'qituvchilarining innovatsion pedagogik faoliyatini tashkil etishning mazmuni va mohiyatini anglab yetish, har bir pedagog kundalik faoliyatida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amalda tadbiq etishi, innovatsion mazmun, shakl, vosita va usullardan foydalanishi ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlovchi omil ekanligi ko'rsatib berilgan. Bugungi kunda chet tillarni o'qitishga davlat tomonidan qo'yilayotgan talab o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tilida erkin so'zlashishga o'rgatish, buning negizida kelgusi kadrlarning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari, jumladan ingliz tilini o'qitishda uzluksiz ta'limni amalga oshirishning dolzarb ahamiyat kasb etishi kabi masalalar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion jarayon, ingliz tili, barkamol shaxs, inson kapitali, pedagogik faoliyat, chet tillarini o'qitish.

Организация инновационной педагогической деятельности преподавателей вуза (на примере преподавателей английского языка)

В статье рассматриваются проблемы, связанные с организацией инновационной педагогической деятельности преподавателей вуза, и пути их решения. Делается акцент на организации данной работы преподавателями английского языка, соответствующей требованиям, предъявляемым к занятиям в высшей школе.

Ключевые слова: инновационный процесс, английский язык, гармоничная личность, человеческий капитал, педагогическая деятельность, обучение иностранным языкам.

The meaning and importance of innovation pedagogical activity of teachers of higher education on an example of English language

The articles shows awareness of the meaning of the values in the organization of innovative pedagogical activity teacher of higher education, the use to practice every teacher in the daily activities of modern pedagogical technologies using innovative sense, forms, tools, and techniques as the factors ensuring the effectiveness of the learning process. Nowadays, the state put to the younger generation demands fluency in a foreign language on the basis of the world an information technology

and achievements of civilisation, including the relevance of continuing education in the teaching of English.

Keywords: *the innovation process, English language, personality, human capital, educational activity, learning foreign language.*

Mustaqillik yillarida ta'lim sohasida tub burilish va islohotlar, yangilanish va o'zgarishlar, bunyodkorlik va taraqqiyot, modernizatsiya qilish va liberallashtirish davri bo'ldi. Islohotlarning bosh maqsadi - O'zbekistonda demokratik, fuqarolik, huquqiy va dunyoviy davlat asoslarini barpo etishga qaratildi, mana shunday yangi jamiyat asoslarini esa yangi barkamol shaxs shakllanishisiz qurib bo'lmashligi ta'kidlandi. O'zbekiston Respublikasi demokratik va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish yo'lidan borar ekan barkamol shaxsni shakllantirish masalalari o'z dolzarbligini yo'qotmasligi aniq.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida innovatsion omil masalasini o'rganish mustaqillik yillarida eng katta ilmiy qiziqish uyg'otgan ilmiy muammolardan biri bo'lib, mazkur muammo ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb masalalar bilan hamohanglikda hamda ta'lim tizimida amalga oshirilgan tub islohotlar jarayoni bilan uzviylikda hal etildi va o'rganildi. Shunga ko'ra, ta'limda innovatsiya masalasi uning keng tarmoqli va mohiyatli amaliy faoliyatini o'z mazmuniga qamrab olgan yo'nalishlardan biriga aylandi.

Ta'limda innovatsiya pedagogik jarayon mazmunining o'zgarishlarga yuz tutganligi bilan, ya'ni uning demokratlashuvi, xalqchilligi, mamlakatdagi ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy, ma'naviy va ma'rifiy islohotlar jarayoni, iqtisodiy o'sish va rivoj bilan bog'liqligi, davlatning kadrlar siyosati asosida shakllantirilganligi bilan belgilandi.

So'nggi yillarda zamonaviy jamiyatlar uchun eng oliy qadriyatlardan biri sifatida "inson kapitali" termini ishlatilmoqda. Xo'sh, inson kapitali nima va uning chet tillarini erkin bilish, chet tillarni o'zlashtirish bilan nima aloqadorligi mavjud?

Inson kapitali (*Human Capital*) - inson va jamiyat manfaatlarini ro'yobga chiqarish uchun zarur bo'lgan bilim, malaka, ko'nikmalar yig'indisi sanaladi.

Inson kapitali istilohi birinchi marotaba 1961-yili amerikalik olim Teodor Shuls tomonidan qo'llanilgan va ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lib, keyinchalik uning safdoshi Geri Bekker mazkur terminning mazmunini rivojlantirib, inson kapitalini rivojlantirish va unga ijtimoiy investitsiyalarni kiritish, inson shaxsi va uning har tomonlama o'sishiga nisbatan iqtisodiy manfaatdorlik prinsiplarini ishlab chiqdi. Ularning «inson kapitali» istilohi va uning mazmunini har tomonlama manfaatli ekanligi isbotlab berishlari Teodor Shulsning 1979-yilda, Geri Bekkerning esa 1992-yilda xalqaro Nobel mukofotini olishlariga asos bo'lib xizmat qildi. «Inson kapitali» tushunchasining rivojlantirilishiga shuningdek, rossiyalik olim Semen Kuznets o'z hissasini qo'shgan, u ham 1971-yilda iqtisod bo'yicha Nobel mukofotini olishga sazovor bo'lgan.

«Inson kapitali» termini ichiga insonning unib o'sishi uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat, kiyim-kechak, ta'lim, salomatlik muhofazasi, madaniyat, mana shu narsalarni ta'minlash uchun kerak bo'lgan davlat xarjlari kiritiladi. Tabiiy ravishda, bugungi kunda rivojlanib borayotgan hududlarda inson kapitali istilohi tarkibida ularning chet tillarini bilishlari, chet tillari orqali dunyoning eng rivojlangan hududlaridagi mavjud postmodern ilm va fan yutuqlarini egallay olishlari masalasi ko'ndalang turadi. Chunki inson kapitali intensiv ravishda rivojlanib borayotgan dunyo timsoli, uning fundamenti, uning asosi sanaladi. Inson kapitali bo'lmas ekan, rivojlanib boruvchi iqtisod, rivojlanib boruvchi jamiyat ham bo'lmaydi. Rivojlanib boruvchi jamiyatning muhim bo'g'ini, uning harakatlantiruvchi kuchi esa - inson kapitalining nechog'li chet tillarni bilishi va o'z bilim, malaka va ko'nikmalarini jamiyat taraqqiyoti uchun qo'llay olishiga bevosita bog'liq bo'ladi. Inson kapitali - innovatsion iqtisod va iqtisodiy bilimlari majmuini anglatib, aslida istiqbol jamiyatni yaratish asosi sifatida baholanadi.

Antropologik bilimlar tarkibida quyidagi inson kapitali turlarini ajratiladi:

- Xususiy inson kapitali;
- Turli firma va tashkilotlar inson kapitali;
- Milliy inson kapitali.

Chet tillarini bilish va o'z shaxsiy taraqqiyoti va jamiyat taraqqiyoti uchun mana shu bilimlarni samarali ishlata olish yuqorida ta'kidlangan inson kapitalining barcha ko'rinishlari uchun

zarur va ularning mavjud bo'lishi, ularning shakllantirilgan bo'lishi innovatsion iqtisodni ta'minlab beradi. Shu nuqtayi nazardan, chet tillarni bilish yuqorida ta'kidlangan: - Xususiy inson kapitali; - Turli firma va tashkilotlar inson kapitali; - Milliy inson kapitali kabi bosqichlarning har birida mavjud bo'lishi, amal qilishi va o'z foydasini berishi taqozo etiladi. Shu nuqtayi nazardan, eng rivojlangan davlatlarda ularning milliy boyliklari tarkibida inson kapitali 70/-80 % tashkil qilsa, Rossiyada bu ko'rsatkich - 50 % ni tashkil qiladi. Binobarin, bizning mamlakatimizda inson kapitali rivojlantirish, va uning tarkibida uning o'ziga xos xususiyatlarini biri bo'lgan - chet tillarini bilish talabini rivojlantirish va ta'minlash taqozo etiladi. Inson kapitali, xususan uning chet tillarini bilishi, bugungi kunda zamonaviy iqtisodning ishlab chiqarish va ijtimoiy faktorlaridan sanaladi, bu omil iqtisodni rivojlantiruvchi kuchi sifatida baholanadi.

Inson kapitali, xususan yoshlarimizning chet tillarini, xususan ingliz tilini bilishlari aslida istiqbol taraqqiyot omili bo'lib xizmat qiladi.

Masalan, XX asrning so'nggi choragida Shvetsiya, Finlyandiya kabi davlatlar inson kapitaliga alohida e'tibor qaratishlari hamda inson kapitalining turli xususiyatlarini rivojlantirishlari natijasida o'z mamlakatlarida innovatsion iqtisod taraqqiyotini ta'minlay olishga sazovor bo'lishgan, shu bilan birga bu davlatlar qisqa muddat ichida moddiy boyliklarga asoslangan iqtisodiyotni zamonaviy yuqori texnologiyalar asosidagi iqtisodga aylantira olishgan.

Chet tillarini, xususan ingliz tilini o'rganish salbiy va passiv holdagi inson kapitalini faol, ya'ni musbat inson kapitali aylantirishga imkon yaratadi. Oxir oqibat u keskin ijtimoiy o'sish va taraqqiyot, mamlakat iqtisodiyotida sifat bosqichini yuzaga keltiradi. Mana shu jarayonlarning muhim yo'nalishlaridan biri "barkamol avlod"larning chet tillarni chuqur bilishi talabi asosida amalga oshiriladi. "Barkamol shaxs" tushunchasi tarkibida uning chet tillarini egallashi, uning xorijiy davlatlar iqtisodiy taraqqiyoti jarayonlarida dunyo miqyosida raqobatbardosh kadr darajasiga etishi, multimedaniy va global dunyo taraqqiyoti davrida o'zini mustaqil shaxs sifatida namoyon eta olishi kabilarni o'z mazmuniga qamrab oladi.

"Innovatsiya" terminining o'zi mustaqil istiloh sifatida XIX asrdagi ilmiy tadqiqotlarda ishlatila boshlangan. Adabiyotlarimizda innovatsiya muammolari ko'p vaqtgacha iqtisodiy tadqiqotlar tizimida o'rganib kelindi. Innovatsiya istilohi XX asrdan boshlab keng miqyosda muomalaga kiritilgan. Mazkur termin avstriyalik iqtisodchi Y. Shumpeter asarlarida keng qo'llanilgan («The Theory of Economic Development», 1934).

Ta'limda innovatsiya hamda innovatsion texnologiyalar muammosi yangi yo'nalishlardan bo'lishiga qaramay, bugungi kunning eng dolzarb, ilmiy qiziqish uyg'otadigan, ham xorijiy ellarda, ham mamlakatimizning o'zida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan ko'p tarmoqli sohalaridan biri sanaladi. Bizgacha amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida ta'limdagi innovatsion jarayonlarning mazmuni, mohiyati, shakllari, vositalari va uslublari, yangi pedagogik texnologiyalar borasida ko'plab tadqiqotlar va maxsus modellar ishlab chiqilgan:

-mamlakatimiz ta'lim tizimida tub islohotlarni amalga oshirish jarayonida innovatsion o'zgarishlarga berilgan o'rin, uning mavqei va baho, innovatsion o'zgarishlar tartibi va bosqichlari;

- ta'lim va tarbiya berish doirasidagi umumiy innovatsion jarayonlar va maqsadlar, ta'limdagi innovatsiya jarayonining mazmun mohiyatiga aloqador tadqiqotlar;

- ta'lim tizimi va ta'lim muassasalarini tashkiliy va amaliy jihatdan boshqarishdagi innovatsion jarayonlar mazmuni;

- ta'lim tizimi va ta'lim muassasasi rahbarining innovatsion jarayonni boshqarishga doir faoliyatini tashkil etish muammolari va maqsadlari;

- ta'limda innovatsion jarayon, uning tuzilishi va pedagogik jarayonni modelllashtirish;

- ta'lim muassasi va ta'lim jarayoni amaliyotiga innovatsiyalarni joriy etishda o'qituvchi, pedagogning mahorati va uning innovatsion jarayonga bo'lgan motivatsiyasi kabi yo'nalishlarda bo'lib o'rganib, maxsus ko'rib chiqish mumkin.

Biroq oliy ta'lim tizimi ingliz tili o'qituvchilarining innovatsion pedagogik faoliyatini tashkil qilishning pedagogik asoslari masalasi aloxida o'rin bo'lib turibdi. Shu asosda, ko'rib chiqilgan yo'nalishlar ichida maxsus e'tiborni o'qituvchi, xususan ingliz tili o'qituvchisi faoliyatidagi innovatsion jarayon mazmuni va mohiyati masalasiga urg'u berilmoqda. Chunki oliy ta'lim o'qituvchisining pedagogik faoliyati shaxsni tarbiyalash jarayonida ta'lim-tarbiya olish sharoitlarini yaratish, uning ehtiyojlarini qondirish va qobiliyatlarini ochish hamda rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Jamiyatning bugungi kundagi iqtisodiy, moliyaviy, ijtimoiy holati ta'limda gumanizatsiya va demokratlashuv talablariga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirmoqda. Bu esa ta'limning bosh vazifasi zamonaviy jamiyat uchun zarur bo'lgan mutaxassis-kadrlarni tayyorlab, etishtirib berish vazifasini eng dolzarb masalalardan biriga aylantiradi. Shu bilan birga xalqaro, davlatlarro va madaniyatlararo munosabatlarning kundan-kun kengayib borayotganligi chet tili o'qituvchilarining pedagogik faoliyatini yangi mazmunda qayta qurilishini taqozo etadi. Chunki zamonaviy mutaxassis, yoki raqobatbardosh kadrni chet tillardan tashqarida anglash qiyin. Raqobatbardosh mutaxassis albatta chet tillarini chuqur bilishi hamda zamonaviy iqtisodiy-moliyaviy tahdidlarga qarshi sergak bo'lishi darkor. Binobarin, barkamol shaxs tushunchasini chet tilini bilish va uni o'z mutaxassisligi doirasida erkin qo'llash malakalaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Kompetentli, kreativ, ijodiy yonashuvli, intellektual, aqliy mantiqqa ega bo'lgan, tezkor echimlar qila oladigan, istiqbol rivojini oldindan ko'ra oladigan kadrlarni tarbiya qilish jarayoni ularni chet tilini bilish nuqtayi nazaridan mustaqil va erkin qila olish demakdir.

Shunga ko'ra, chet tili, xususan ingliz tili o'qituvchilari pedagogik faoliyatining shaxs shakllanishidagi o'rni va ahamiyati beqiyos darajada o'sib borayotir. Bugungi kunda ingliz tili o'qituvchisi o'z pedagogik faoliyatini pedagogik innovatsiya asosida tashkil eta bilishi hamda boshqarishi, o'z pedagogik faoliyati uchun zarur bo'lgan pedagogik texnologiyalar va interfaol usullarni ishlab chiqqan bo'lishi, ularni kundalik faoliyatida ta'lim jarayoniga tadbiq eta olishi, o'z innovatsion pedagogik texnikasiga ega bo'lishi, o'z faoliyatini loyihalashtira olishi, chet tili o'qitishning bosqichma-bosqich yaxlit modelini yarata olishi zarur. Demak, ingliz tili o'qituvchisi zimmasiga yuklatilgan turli innovatsion vazifalar ko'lamida juda keng bo'lib, ularning barchasini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berish keraklidir.. O'zbekistonda ta'lim tizimining dunyoviy xarakterga ega ekanligi, bilimli bo'lish va shaxs iste'dodlarini rag'batlantirish kabi tamoyillar ham shuni taqozo etadi.

XX asr boshlarida yangi bilim sohasi - yangiliklarni kiritish, qo'llash yuzaga keldi. U mahsulot ishlab chiqarish sohasida texnik yangiliklarni kiritish qonuniyatlarini o'rgana boshladi. Yangiliklarni kiritish haqidagi fan - innovatika - firmalarning yangi reja, xizmatlarni ishlab chiqish va tadbiq etish faoliyatiga talablar keskin oshib borishi aks ettirilgan holda paydo bo'ldi.

Bunday ta'limning bosh natijasi egallangan bilim, ko'nikma va malakalar emas, balki shaxs o'sishiga qobiliyat, empatik o'zaro munosabatlar va shaxsiy samaradorlikka qaratilgan yuqori ijtimoiy faollik tushuniladi. Hayotiy kelajakni amalga oshirish uchun inson ongli tarzda qayta o'z-o'zini faoliyatini yo'lga qo'yadi va buning uchun ta'lim jarayoni imkoniyatlaridan foydalanadi. Bundan tashqari oliy ta'limda har bir fanlarni o'qitish sohasida pedagogika va psixologiya fanlari bloki tezkor texnologik izlanishlarni amalga oshirish bilan shug'ullanishlari zarur.

Uzluksiz ta'limda o'qitishning yangi tizimini, ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash, zamonaviy o'quv uslubiy majmualarni yaratish va o'quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash zarur bo'ladi.

Keyingi yillar davomida amal qilib kelingan har tomonlama yetuk komil shaxsga doir milliy qarashlar aynan mustaqillik yillarida demokratik va huquqiy qadriyatlar tizimida talqin qilindi va amaliyotga joriy etish uchun asos qilib olindi. Ta'lim jarayoni ham uning har bir bosqichida mana shu yangilangan mohiyatni, innovatsion mazmunni yoshlar tafakkuriga singdirishi va ularni raqobatbardosh qilib jamiyatga etishtirib berishi taqozo qilindi. Yangi bosqichda barkamol shaxs shakllanishiga doir barcha vazifalarni bir to'xtamga keltirish, mazkur maqsadning nazariy va amaliy jihatlarini ishlab chiqish, oliy ta'lim tizimi uchun joriy etish mexanizmlarini belgilash kabi vazifalar ham dolzarb ekanligini ko'rsatib berdi. Xulosa qilib aytganda, bugungi kun yoshlarda yangilik va modernizatsiya qilish jarayonlariga kamarbastalik, ular mohiyatini chuqur anglash, islohotlar maqsad va mazmunini qo'llash, yangi munosabatlarga intilish, izlanish, o'ziga va idrokiga ishonch, o'z salohiyatini jamiyat taraqqiyoti uchun sarflashga tayyorlik, shaxs sifatidagi komillikka intilish, bunyodkorlik ishlariga tayyorlik, davlat va jamiyat ravnaqi hamda takomilini istash, taraqqiyotga ochiq nazar bilan qarash va sofko'ngillilik, bag'rikenglik, bunyodkorlik xis-tuyg'ulari kuchli hisoblanadi. Shunga ko'ra, pedagogik jarayonlarni ham mana shu yoshlar kayfiyatlariga monand ravishda innovatsion olib borish taqozo etiladi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. –Toshkent, 1997. 17-18 bet.
2. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi. –T. 1997. 12-13 bet.
3. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –Toshkent: Sharq, 1997. 46-49 bet.
4. O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Abdug'anievich Karimovning 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-sonli Qarorining ijrosini ta'minlash munosabati bilan tashkil etilgan Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Jizzax-2016 y, 30-noyabr 327-330 bet.
5. Azizzodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2006. – 56-59 bet.
6. Abdullaeva Sh.A., Choriev R.K. Hamkorlik pedagogikasi. – Toshkent, 2016. – 65-70 bet.

UDK: 371.3**O'QUVCHILARDA TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI****N.N.Narzieva***Qori Niyoziy nomidagi pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti, mustaqil izlanuvchi*E-mail: n.narziyeva78@mail.ru

Maqolada ta'lim jarayonida o'quvchilarda integrativ yondashuv asosida tadqiqotchilik elementlarining ilmiy asoslari hamda ularda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishning mantiqiy-ijodiy fikrlashga o'rgatish orqali amalga oshirilishi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: *inson tafakkuri, yangilangan pedagogik tafakkur, o'quvchining shaxsiy xususiyatlari, tadqiqotchilik elementlari, integrativ yondashuv, tadqiqotchilik ko'nikmalari, ijodiy fikrlash.*

О формировании навыков исследовательской работы учащихся

В статье рассматривается проблема интегративного подхода в процессе обучения учащихся исследовательской работе, ее организации и проведении.

Ключевые слова: *идеология человека, обновленная педагогическая идеология, основные характеристики учеников, элементы исследований, исследовательская практика, творческое мышление.*

Questions of formation of research abilities of students

The article concerns the integration approach to students in education process basically research elements of scientific basis and forming research skills of students get knowledge of logical and creatively thinking.

Keywords: *the view of a person, the renewed pedagogical view, personal characteristics of a pupil, elements of researches, integration approach, research practice, creative mentality.*

Uzluksiz ta'lim tizimida o'quv-tarbiya jarayoni o'ziga xos pedagogik ilmiy tadqiqot faoliyatidan iboratdir. Zero, O'zbekiston Respublikasida "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi asosida olib boriladigan islohotlarning tub maqsadi ham davlat va jamiyatning ta'lim jarayoni oldiga qo'ygan buyurtmasini ta'minlashdan iborat. Jumladan, davlat va jamiyat taraqqiyoti uchun zarur, raqobatbardosh, ilmiy salohiyatga ega bo'lgan etuk mutaxassislarni tayyorlash, ularga beriladigan ta'lim-tarbiya va ilmiy bilimlar mazmunini takomillashtirishga qaratilgan.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlab o'tganlaridek: "Bu murakkab dunyoning azaliy va abadiy muammolari, shu bilan birga, har bir davrning dolzarb masalalariga har tomonlama asosli ilmiy javoblar topilgan taqdirdagina ma'naviyat olami yangi ma'no-mazmun bilan boyib boradi. Boshqacha aytganda, har bir ilmiy yangilik, yaratilgan kashfiyot - bu yangicha fikr va dunyoqarashga turtki beradi, ma'naviyatning shakllanishiga o'ziga xos ta'sir o'tkazadi"[1].

Uzluksiz ta'lim tizimining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan umumiy o'rta ta'lim jarayonida o'quvchilarni tadqiqot ishlariga yo'naltirish, ularda tadqiqotchilik ko'nikmalarini elementlarini shakllantirishda eng muhim bo'g'in hisoblanadi.

Ta'lim amaliyotidan ma'lumki, o'quvchi maktabga qabul qilingandan boshlab, maktab o'qituvchisi har bir fanning ilmiy-nazariy asoslarini integrativ yondashuv asosida chuqur o'rgatishi bilan birga mantiqiy-ijodiy fikrlashlariga, ijodiy ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratadi.

O'quvchilarni integrativ bilimlar tizimi bilan qurollantirish, ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish ta'lim tizimi bosh maqsadidan kelib chiqqan, bajarilishi zarur bo'lgan asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ta'lim texnologiyalari vositasida o'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish asosida ilmiy tadqiqot ishlariga yo'naltirish quyidagi vazifalarni amalga oshirishni taqozo etadi:

- Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi maqsadi va vazifalarini ro'yobga chiqarish;
- ta'lim-tarbiya va ilmiy tadqiqot ishlari jarayonida o'qituvchi va o'quvchining o'zaro pedagogik hamkorlik faoliyati samaradorligini oshirish;
- barkamol avlodning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish maqsadida ularga eng ilg'or bilim berish usuli hisoblangan ob'ektiv borliqqa tizimli yondashuv tamoyilidan foydalanish.

Jahon pedagogikasi erkin ijodiy fikrlovchi, mustaqil shaxsni shakllantirishning umumiy asoslarini keng miqyosda tadqiq qilgan va ko'plab natijalarni qo'lga kiritgan bo'lsada, jamiyat taraqqiyotida ta'lim tarbiya jarayoni zamon talabiga mos holda mustaqil ravishda rivojlanib, takomillashib borishi xozirgi kunda o'z ifodasini topmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlar yili" Davlat dasturida (dasturning 6-bo'limi) "Bolalarning ijodiy fikrlash qobiliyatlari, iqtidorini barvaqt aniqlash uchun shart-sharoitlar yaratish"[2] ga alohida e'tibor qaratilgan fikrimizning yaqqol dalilidir, chunki bunga har bir bolaning ongli ehtiyoji va ichki qiziqishini uyg'otmay turib erishib bo'lmaydi. Bunday ehtiyoj va qiziqish faqat tadqiqotchilik qobiliyati, ijodiy fikr bor kishida bo'ladi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarni tadqiqotchilik faoliyatga yo'naltirish masalasiga jahon pedagogika ilmidan hamisha u yoki bu darajada e'tibor qaratilgan. O'quvchilarni dars jarayonida faqat o'qituvchi aytganlarni bajaradigan ishtirokchidan ta'lim-tarbiya jarayonining ijrochilari darajasiga ko'tarish maqsadida o'zlashtiriladigan bilimlarni tarbiyalanuvchi oldiga muammo shaklida qo'yish zarurligi sho'rolar pedagogikasida o'tgan asrning etmishinchi yillarida ko'tarilgandi. Lekin bundan asosiy maqsad o'quvchi faolligini oshirish orqali faqat bilim o'zlashtirish samaradorligini ko'tarishdan iborat edi.

E.G'oziyev, B.Raximov va boshqa olimlar bu masala bo'yicha ilmiy aylanmagan fikrlar bildirishgan. Ular bolani intellektual faoliyatga undovchi ichki ehtiyoj muammoli vaziyatlarda paydo bo'lishini, bu ehtiyoj uning oldiga qo'yilgan murakkab masala mohiyatini bilishga bo'lgan qiziqishdan tug'ilishini asosladi. O'quvchi oldiga qo'yilgan muammoni o'zidagi tadqiqotchilik qobiliyati, intellektual imkoniyat va hayotiy tajribani to'liq safarbar etgan holda hal etishini ilmiy-amaliy jihatidan isbot qilib berdilar.

Har qanday inson o'z oldida ko'ndalang turgan hayotiy yoki ilmiy muammoni hal etish uchun o'ylanadi, izlanadi, bilganlarini taftish qiladi, zo'riqadi, mashaqqat chekadi. Bu ruhan sog'lom odamga xos bo'lgan tabiiy xususiyat. Ta'lim jarayonida shunday vaziyatga solingan bola ham o'sha muammoni hal qilish orqali bilim olish yo'lida mehnat qiladi[3]. Lekin nomlari yuqorida tilga olingan olimlarning tadqiqotlarida o'quvchilarni tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish masalasi bolalarning bilim olish yo'lidagi faoliyatini uyushtirish ko'zda tutilgan va bu yo'lida ijodiy ishlarning rolini oshirish tavsiya etilgan bo'lsada o'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalari elementlarini shakllantirish alohida ilmiy tadqiqot muammosi sifatida o'rganilmagan.

Ma'lumki, o'quvchilarda falsafiy mushohadaga, psixologik tahlilga, mantiqiy fikrlashga, tafakkur qirralarini rivojlantirishga ishtiyoq va harakat kuchli bo'ladi. Shu bilan birga, ularda fantaziyaga moyillik ham mavjud bo'ladiki, mana shu fiziologik-psixologik holat tafakkurni rivojlantirish, bilishga intilishga omil hisoblanadi. Bu esa o'quvchilarning pedagogik-psixologik imkoniyatlari boshqa yoshdagi bolalarga nisbatan ko'proq ekanini, olamni bilishga ishtiyoq kuchliligini bildiradi[4]. O'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishda ularning

mustaqil, ijodiy fikrlashga e'tibor berish muhim ahamiyat kasb etadi, shuning uchun ham bolaning maktab davri shaxs sifatida shakllanishida asosiy bosqich bo'lib xizmat qiladi.

O'quvchilarda mantiqiy fikrlash malakalarini, mustaqil ravishda muammolarni hal qila bilish ko'nikmasini shakllantirish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omilidir.

Muammoning kengroq tahlil qiladigan bo'lsak, avvalo, mustaqil fikrlash insonni voqelikni anglab etishi va ilmga bo'lgan ijobiy munosabatidan boshlanadi. Ilmni mohiyatini anglab etgan kishigina erkin mustaqil, mantiqiy fikrga ega bo'la oladi.

Xuddi shunday dunyoqarash yaqin va o'rta Sharqdagi ilg'or pedagogik ta'limotning asoschisi Abu Nasr Forobiy asarlarida ham mavjuddir. U bilim o'zlashtirish jarayoni haqida shunday deydi: "Inson bilimlarni aql va sezish organlari orqali qo'lga kiritadi ... seziluvchi obrazlar his etish orqali, aqliy obrazlar esa seziluvchi obrazlar orqali bilinadi ..." [5].

Forobiy "Aql to'g'risida"gi risolasida axloqli kishining "o'n ikki tug'ma xislati"ni ta'riflar ekan, insonning fikrlash xususiyatiga alohida ahamiyat beradi. Uning fikricha, aql-zakovatli inson barcha masala yuzasidan o'tkaziladigan muhokama va mulohazani tez va to'g'ri tushunadigan, uning ma'nosini anglab so'zlovchining maqsadi va aytilgan fikrining chinligini tezda payqay oladigan, xotirasi juda baquvvat bo'lib, ko'rgan, eshitgan, sezgan narsalarining birontasini ham esidan chiqarmay, yodida saqlab qoladigan, zehni biror narsaning alomatini sezishi bilan, bu alomat nimani anglatishini tezda bilib oladigan, fikri va aytmochi bo'lgan mulohazalarini ravon bayon eta oladigan, bilimlarni osonlik bilan o'zlashtira oladigan bo'lishini alohida ta'kidlaydi.

Buyuk Sharq mutafakkiri Abu Ali ibn Sino nafaqat tibbiyot olamidagi kashfiyotlari bilan, balki ta'lim va tarbiya sohasidagi asarlari bilan ham milliy pedagogika tarixida muhim o'rin tutadi. U "Tadbiri manozil" ("Bolani maktabda o'qitish va tarbiyalash") asarida o'quvchilarning fikrlash faoliyatini yaxshilash, bilim berish jarayonining samaradorligini oshirishda o'quvchilarni birga o'qitish zarurligiga diqqat qaratadi. Bunda o'quvchi zerikmaydi, fanni egallashga qiziqish yuzaga keladi, bir-biridan qolmaslik uchun harakat, musobaqalashish istagi rivojlanadi. Shu asosda o'quvchilar o'qigan kitoblari, fikr-mulohazalari, kattalardan eshitgan fikrlari bilan o'rtoqlashadilar va ana shu jarayonda ularning mantiqiy fikrlash darajasi shakllana boradi.

Buyuk qomusiy olim, faylasuf va pedagog Abu Rayhon Beruniy ham bilimlarning hosil bo'lishida aql, fikr, sezgilarining o'rni haqida so'z yuritir ekan, shunday deb yozadi: "Faqat sezgi orqali, sezgi organlari yordamida o'zlashtirilgan bilimlar xatolarga olib kelishi mumkin. Agar inson sezgilardan fikrlash va xulosa chiqarish yordamida foydalansa, ana shu sezgilar yordamida idrok qilinadigan narsalarni o'rganishda juda katta yutuqlarga erishmog'i mumkin. Istaklarga mehnat tufayli erishiladi" [6].

G'azal mulkining sultoni, ma'rifatparvar davlat arbobi Alisher Navoiy asarlarida ham insonning o'z fikri, dunyoqarashiga ega bo'lishi, bilim olishi va olgan bilimlarini hayotda qo'llay bilishda inson tafakkurining o'rni katta ekanligiga alohida ahamiyat beriladi. Shoir "Mahbub-ul-qulub" asarida bilim olib mustaqil mushohada yurita olmaydigan insonni "ustiga kitob ortilgan eshak"ka qiyoslaydi va "nodon" deb ataydi.

XX asrning so'nggi o'n yili o'zbek xalqi ijtimoiy hayotida, ongida tub burilishlar davri bo'ldi. Qisqagina vaqtda millatning olamni, voqelikni anglash, idrok etish va tushuntirish tarzida jiddiy sifat o'zgarishlari yuz berdi. Bu o'zbek xalqining o'zligiga qaytganligi, millat tafakkurining sog'lomlashganligini ko'rsatadi.

Ana shu ijobiy o'zgarishlar milliy pedagogikamizda ham o'z aksini topdi. Endilikda milliy pedagogikamizning maqsadi bilim berish va mutaxassis tayyorlash asosiy niyati bo'lgan mustabid tuzum pedagogikasidan farqli o'laroq, barkamol shaxs tarbiyasiga qaratilgan. Pedagogika fanlari doktori Q.Yo'ldoshev esa milliy tarbiyashunoslikda samara keltiruvchi faoliyat bu - pedagogik hamkorlik, ya'ni o'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi faoliyati, deb ko'rsatadi. "Endilikda pedagogika fanining asosiy e'tibori tarbiyalanuvchini faollashtirishga, uni pedagogik jarayonning ishtirokchisiga, tarbiyachining sherigi yoxud hamkoriga aylantirish yo'lini tadqiq etishga qaratilgan"

O'quvchilarning mantiqiy fikrlashini, tafakkurini rivojlantirishda ona tili ta'limi katta imkoniyatlarga ega ekanligini isbotladi. Chunki tafakkur nutq vositasida ifodalanadi, u ayni chog'da shaxslik sifatlarini tarkib toptirishning ham muhim omilidir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mantiqiylik – bajariladigan ishga beriladigan yordam miqdori yoki yordam mavjud emasligi nuqtayi nazaridan faoliyat tavsifnomasidir. O'quvchilar qiziquvchi, bilimga intiluvchi, ichki ehtiyoj o'zining imkoniyatlari darajasida amalga oshadi.

Bu yoshdagi o'quvchi shaxsining rivojlanishi o'ziga xos xususiyatga ega. Bu, eng avvalo, ularda o'zini takomillashtirish istagining kuchayishi va o'qishga bo'lgan qiziqishining o'sishi bilan xarakterlanadi[7]. Bu davrning eng muhim xususiyatlaridan biri mantiqiy fikr yuritishga intilishdir. Shuning uchun ham bu davrda faqat nazariy bilim bermasdan, turli amaliy vaziyatlarga munosabat bildirishni shakllantirish, ko'proq izlanish, ijodiy yondashuv, tafakkur rivojiga e'tibor qaratish lozim. Jahon ta'lim tizimida falsafa, psixologiya har bir fanning metodologik asosida turadi. Chunki barcha fanlar nazariy jihatdan falsafiy qonuniyatlarga asoslanadi. Shuningdek, tafakkur ham inson psixologiyasi va falsafiy qonuniyatlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Borliqni anglash - tafakkur shakllari orqali vujudga keladi. Har bir o'quvchi o'z amaliy faoliyatida fikrlashning mazmun-mohiyati, uning rang-barangligi, ko'pqirrali tomon va xususiyatlarini hisobga olib, ularga ongli ravishda amal qilishlari lozim.

Real borliqni anglash ta'limning hayot bilan aloqadorligini o'rgatishdan iborat. O'quvchining fikri keng va atroflicha bo'lishi uchun o'qituvchi ta'limning hayot bilan aloqadorlik tomonini unga anglatishi lozim. Bilim oluvchi ana shuni tushunib yetsagina o'z kuch-g'ayratini, bilimlarni qiziqib o'rganishga sarflay oladi.

Pedagogik va metodik adabiyotlarda ko'rsatilishicha, pedagogik muammolarni kompleks o'rganish o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, o'quv-tarbiya ishlarining samaradorligini oshirish, pedagogik jarayonni optimallashtirish, ta'limni ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish imkoniyatlarini oshiradi[4].

Insonning tafakkuri qanchalik mustaqil bo'lsa, u shunchalik tashabbuskor bo'ladi. Odamning fikrlashi qancha erkin bo'lsa, u shuncha izlanuvchan, ijodkor bo'ladi. Shakllanib kelayotgan shaxs oilada kattalar, maktabda o'qituvchilar hokimligidan qutulsa, uning ruhiy, aqliy, jismoniy imkoniyatlariga qarab ish tutilsa, bolada o'z xatti-harakati uchun javobgarlik hissi paydo bo'ladi. U o'z fikri, qarashiga ega bo'ladi. Fikr kishisi hamisha o'z qarashlarini asoslaydi, kerak bo'lganda himoya qiladi. Shuning uchun yurtimizda mustaqil, ijodiy fikrlovchi shaxslardan iborat barkamol avlod tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, maktab ta'limi jarayonida o'quvchilarda borliq haqida ma'lumot, tushuncha hosil qildiribgina qolmay, ana shu dunyoni o'zi anglab etish uchun ularga sharoit, imkoniyat yaratishimiz zarur.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.-T.:Ma'naviyat, 2008.-176 b.
2. "Yoshlar yili" Davlat dasturi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 29-fevraldagi PQ 805-son Qarori bilan tasdiqlangan.
3. G'oziyev E., Ikromov J. Mustaqil fikrlashning komillikka ta'siri.//Xalq ta'limi.-2001.-4.-B. 31-38.
4. Рахимов Б.Х. Роль научно-исследовательской работы в подготовке высококвалифицированного специалиста.// Международный научный журнал.международной академии наук. 2008.№1 г.Балашов.с-28-30.
5. Абу Наср Форобий. Рисолалар. Масъул муҳаррир Ўзбекистон Республикаси ФА ҳақиқий аъзоси М.М.Хайруллаев. – Тошкент: Фан нашриёти, 1975. – 71-72 б.
6. Абу Райҳон Беруний. Танланган асарлар. I-т. – Тошкент, 1968, – 151 б.
7. Фридман Л.М., Кулагина И.Ю. Психологический справочник учителя. - М.: Просвещение, 1991. – С. 288.

UDK: 371.3

BO'SM FAOLIYATI SIFATINI OSHIRISHDA YOSH SPORTCHILARNING MOTIVLARINI SHAKLLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN O'QUV-MASHG'ULOT ISHLARINING AHAMIYATI**Z.B.Boltayev***Samarqand davlat universiteti*

Ushbu maqola BO'SM o'quvchilarining motivlash sohasini rivojlantirish bilan bog'liq yosh xususiyatlarini o'rganish va o'quv-mashg'ulot jarayonini tashkil etishga qaratilgan. O'quvchilarning motivlari hamda qiziqishlarini rivojlantirishning aniqlangan dinamikasiga muvofiq holda mazkur masalani oqilona hal etish yo'lini izlashda ularni hisobga olish asosida kurash bo'yicha sport maktabi faoliyati samaradorligini oshirish muammosiga qaratilgan.

Kalit so'zlar: BO'SM, motivlash, o'quv-mashg'ulot jarayoni, dinamika, kurash.

О учебно-тренировочной работе дюсш по формированию мотиваций спортсменов

Данная статья посвящена вопросам развития мотиваций учеников ДЮСШ и предлагаются пути их решения.

Ключевые слова: ДЮСШ, мотивация, учебно-тренировочный процесс, динамика, кураш.

The necessity of educational – training works for forming the motives of young athletes in growing effectiveness of the activity of ctss

This investigation is closely connected with development of motivation of the pupils of CTSS, is important for studying age's peculiarities and forming educational-training process, solving the problems of developing the pupils' motives sand interests according to the problem of growing effectiveness of sport schools on kurash

Keywords: CTSS, motivation, educational-training process, dynamics, kurash.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi terma jamoalari a'zolari va yaqin zaxiradagi sportchilarni tayyorlashning muhim vazifalaridan biri zamonaviy tayyorgarlik tizimini optimallashtirish va tayyorgarlik vaqtidagi innovatsion jarayonlar strategiyasi yuritishdir.

Yosh sportchilarni tayyorlash ko'p yillik jarayon bo'lib, ta'lim va tarbiyaning barcha qonuniyatlari va tamoyillarini qamrab olgan holda amalga oshiriladi. Shu tariqa, murabbiy faoliyatining umumiy asosiy qoidalari o'z mohiyatiga ko'ra har qanday pedagog faoliyati tamoyillariga to'liq mos keladi. Sport faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari pedagog- murabbiyga, uning shaxs haqidagi har tomonlama bilimlariga oid kasbiy ko'nikmalari hamda zakovatiga alohida talablar qo'yadi. Shunga qaramay, uning umumiy bilimi, kasbiy vakolati, jumladan, o'quvchi shaxsiga psixologik - tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish usullari to'g'risidagi bilimlari butun faoliyati samaradorligini belgilaydi.

Sportchining doim o'zgarib turadigan imkoniyatlari turfa xil omillar ta'siri ostida unda ro'y beradigan tebranishlarga teskari bo'lgan aloqalar yordamida sport mashg'uloti jarayonini boshqarishning asosi bo'lib xizmat qiladi; teskari aloqalar quyidagilar: murabbiyga sportchidan keladigan ma'lumotlar (kayfiyat, ishga munosabat, umumiy ahvol va h.k.) [50], **sportchining xulq-atvori haqidagi ma'lumotlar (mashg'ulot faoliyatining hajmi, uning bajarilishi, sezilgan xatolar va b.) [138];** tezkor mashg'ulot samarasi to'g'risidagi ma'lumotlar (tizimlarda mashg'ulot yuklamasi tufayli yuzaga kelgan funksional siljishning kattaligi va xususiyatlari) sportchining shug'ullanganlik holatidagi o'zgarishlarni aks ettiruvchi mashqlar samarasi to'g'risidagi ma'lumotlar va hokazolar.

A.A.Derkach va A.A.Isayevning [2, 73] fikricha, o'quv-mashg'ulot jarayonining ilmiy asoslangan holda tashkil etilishi, murabbiyning uni har tomonlama rivojlantirish maqsadi hamda vazifalariga muvofiq yosh sportchi shaxsini shakllantirishni ta'minlash malakasida namoyon bo'ladi. Bunday boshqarish murabbiydan shaxsga ta'sir ko'rsatish yo'llarini hamda muayyan sharoitlarda ularni qo'llay bilishni talab qiladi. Yuqori malakali sportchilarni muvaffaqiyatli tayyorlashda quyidagi jihatlar - murabbiyning nazariy tayyorligi va mahorati darajasi; uning mashg'ulot jarayonini to'g'ri tashkil eta olishi, mashg'ulotlarni rang-barang va qiziqarli o'tkaza olish malakasi; bolalar va o'smirlarning biologik rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallaganligi, sportchilar bilan o'zaro til topisha

olish qobiliyati; oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishga erishishi; shug'ullanuvchilarning faoliyat motivlarini yuksaltirishi va boshqalar alohida o'rin egallaydi.

M.M.Rahimovning [4, 129] ta'kidlashiga ko'ra, kurash bo'yicha BO'SM murabbiysining ishi texnik-taktik harakatlarga o'rgatish jarayonining usuliy jihatdan to'g'ri bo'lishini ko'zda tutibgina qolmasdan, dastlabki o'qitish, ayniqsa, tizimli mashg'ulotlarga o'tishda motivlarni mustahkamlash va motivlash asoslari susayishining oldini olishga yo'naltirilgan butun boshli tadbirlar tizimini amalga oshirishni mo'ljallashi lozim.

O'quvchilar qiyinchiliklarni yengib o'ta olishi, sport rejimi va intizomni saqlay bilishi uchun murabbiy faoliyatida tashabbuskorlik alohida ahamiyatga ega. Bolalar murabbiy kayfiyatining o'zgarishini, uning o'tkazilayotgan mashg'ulotga munosabatini ziyraklik bilan his etadilar. Mashg'ulotda yuqori natijalarga erishish jarayonida o'quvchining murabbiy vakolatlariga to'la ishonch bilan ongli ravishda, bajarilayotgan ishlarning zururligini tushungan holda ishtirok etishi nihoyatda muhim. Maxsus psixologik tayyorgarliksiz mashg'ulot topshiriqlarini bajarishga majbur etish sportchida salbiy hissiyotlarni yuzaga keltiradi, mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqishni so'ndirib, sport bilan shug'ullanishga yo'naltirilgan motivlarni cheklaydi.

Murabbiy uchun o'quvchining ota-onasi bilan muloqot jiddiy ahamiyat kasb etadi. Muloqotga yetarlicha baho bermaslik malakali kurashchilarni tayyorlashda muvaffaqiyatsizlikka olib kelishi mumkin. Shu sababdan, murabbiyning bevosita vazifasi -ota-onalarni o'g'il-qizlarining sportdagi yuksalishiga qiziqtirishdan iborat. Ota-onalarning hech bo'lmaganda goh-gohida mashg'ulotlarga kelishlari, farzandlarining sport hayotini yaqindan bilishlari juda muhim. Bu yosh sportchini kurash bilan shug'ullanishga yanada rag'batlantiradi.

Yosh kurashchilarga xos xususiyatlar musobaqaga, kurashga intilish, alohida ajralib turish istagidir. Musobaqalarda ishtirok etish orqali ular muntazam mashg'ulotlarning muhimligini tushunadilar, astoydil mashq qilish yo'li bilan erishish mumkin bo'lgan haqiqiy istiqbollarni ko'ra oladilar. Turli-tuman to'siqlarni yengishga o'zgarimas, ijobiy motivlarni shakllantirish natijasida sport mahoratini egallash, sport rejimini bajarish, murabbiy ko'rsatmalariga vijdonan munosabatda bo'lish hamda shaxsiy intilishlarda umumiy jamoa ishining bir qismini ko'rish xohishi kuchayadi. Shunday qilib, yosh sportchida motivlarni shakllantirish muammosi sport faoliyati, birinchi navbatda, murabbiy va BO'SM ning butun pedagoglar jamoasi faoliyatining asosiy muammosiga aylanishi mumkin.

Mazkur masalaning tadqiq etilishi holatini tahlil qilish natijasida shunday xulosa chiqarish mumkin: yosh sportchida motivlarni shakllantirish muammosi sport faoliyati va, eng avvalo, murabbiyning hamda butun BO'SM pedagoglari jamoasi faoliyatining asosiy muammosiga aylanishi mumkin.

Ushbu muammoning sababi, eng avvalo, o'quvchilar kontingentini mustahkamlashga yo'naltirilgan o'quv-mashg'ulot ishlarining yo'lga qo'yilmaganligidadir. Bolalarning sport kurashi mashg'ulotlariga yaroqliligi darajasini xolis baholash, o'quv-mashg'ulot jarayoniga ularda barqaror sport qiziqishlari hamda sport mashg'ulotlariga motivlarni rivojlantirish tadbirlarini kiritish BO'SM o'quvchilari kontingentining mustahkamlanishi va, umuman, ish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Amaliy tajriba bilan tanishish va uni umumlashtirish maqsadida Samarqand shahar XTBga qarashli BO'SM murabbiylari orasida so'rovnoma asosida savol-javob o'tkazildi. Bu usul eng qulay va maqsadga muvofiq hisoblanadi, chunki u tekshirilayotgan masalaning dolzarblik darajasini aniqlashga yordam beradi [27,72]. So'rovnoma BO'SM o'quv-mashg'ulot guruhlari o'quvchilarining motivasiyaga munosabatini shakllantirishga oid savollar kiritildi. Shunday qilib, so'rovnoma natijalari va murabbiylar tomonidan mashg'ulotlarni tashkil etish ustida olib borilgan pedagogik kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, o'quv-mashg'ulot jarayonida bir xildagi mashg'ulot topshiriqlari ustuvor; mashq jadallashtirib o'tkazilayotgan tayyorgarlikning vositasi va asosiy usuli bo'lib qolgan. Yosh sportchilarni tayyorlashda psixologik-pedagogik usullarga deyarli ahamiyat berilmaydi. O'quv-mashg'ulot ishlarining darajasi past; o'yin yo'nalishiga ega bo'lgan mashg'ulotlar foizi juda kichik - 5%, nazariy mashg'ulotlarni tarbiyaviy-ta'limiy xususiyatli boshqa ish shakllari kabi bor-yo'g'i 10% murabbiylargina amalga oshiradilar.

Murabbiylar faoliyatini pedagogik kuzatish va xronometraj o'tkazish mashg'ulotlarning bayonnomalarini tuzish imkonini berdi, ularni tahlil etish sport mashg'ulotlarining qo'llanilayotgan vosita va usullari cheklanganligini yana bir bor tasdiqladi. Ayni paytda murabbiyning ishga mohirona munosabati bilan (mashg'ulotning zichligi, o'z vaqtida boshlash, tanaffuslar miqdori, intizomning

buzilishi) bolalarning mashg'ulotlarga qatnashishi orasida aniq bog'liqlik ko'zga tashlanadi. Masalan, yuqori davomat - 100% gacha mashg'ulotlari zichligining kattaligi hamda qo'llaydigan vosita va usullarining rang-barangligi bilan ajralib turadigan murabbiylar uchun xos. Mashg'ulotlarda muntazam ravishda bir me'yori, bir xil topshiriqlarni qo'llaydigan murabbiylarning mashg'ulotlarida davomat o'rtacha 65% ga teng bo'ldi. Umuman olganda, pedagogik kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, tahlil qilingan mashg'ulotlar umumiy miqdorining 36,2% idagina motor zichlik hamda davomat ko'rsatkichlari yuqori bo'ldi.

Bolalarning nisbatan qisqa dastlabki tayyorgarlik bosqichidan keyin (odatda, ko'pi bilan bir yil) darhol bir me'yordagi zerikarli mashg'ulot topshiriqlariga kirishishga majbur bo'lishi, buning ustiga shunday mashg'ulotlarning haftasiga ko'pincha 5-6 kundan o'tkazilishi ularning psixikasi tabiatiga nihoyatda jiddiy ziddiy mavjudligidan dalolat beradi. Murabbiyning tarbiya sohasidagi yo'naltirilgan va tizimli faoliyati bo'lmas ekan, asab tizimi xususiyatlari bilan belgilanadigan tez paydo bo'lib, yo'qoladigan qiziqishlarning beqarorligi sport motivlarining shakllanishiga xalal beradi.

Yuqorida ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish uchun quyidagilarni o'z ichiga olgan choralar majmuasini tavsiya etamiz: 1) ota-onalar va bolalar orasida zamonaviy odam hayotiga sport ko'rsatadigan ta'sirning turli qirralari yuzasidan aniq maqsadli ma'rifiy-targ'ibot ishlarini amalga oshirish; 2) ota-onalar bilan hamkorlikda turli bellashuvlar, sport bayramlari, bolalar bilan boshqa shaharlarga musobaqalarga borishni tashkil etish; 3) mashg'ulot jarayonida vositalarning yuqori darajadagi xilma-xilligiga, o'yin va bellashuv xususiyatiga ega mashqlarning ustuvorligiga erishish; 4) tarbiyaviy xususiyatli suhbatlar, mashhur sportchilar bilan foydali uchrashuvlarni tez-tez o'tkazib turish; 5) mashg'ulotlar vaqtida bolalarni ijod jarayoniga faol jalb etish; 6) bajarilgan ish natijalarini tahlil etgan holda nazorat va o'z-o'zini nazorat usullaridan keng foydalanish va hokazolar. Murabbiyning asosiy vazifasi guruh tarkibini barqarorlashtirish («diqqatini tortish va qiziqtirish»), kurash texnikasini takomillashtirish, jismoniy rivojlanish darajasini oshirish, irodaviy sifatlar, maqsadga intilish, mehnatsevarlikni tarbiyalashdan iborat. Psixologik hozirlash sifatida shunday shiorlardan foydalanish lozim: «Biz - yagona jamoamiz», «Biz - azamat bolalar», «Biz hamma narsani eplaymiz», «Reja qildik - bajardik», «O'z nuqsonlarimizni yengamiz», «Bizda qoloqlar yo'q», «Bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun» va hokazolar. Hafta oxirida muntazam ravishda musobaqalar, yagona test dasturi bo'yicha bellashuvlar o'tkazish. «Men eng yaxshi murabbiyman», «Haftaning eng yaxshi kurashchisi», «Haftaning bosh dangasasi» va boshqa tanlovlarini bolalarning o'zlari yakunlasin. Ushbu psixologik-pedagogik ta'sir ko'rsatish usullari yordamida bolaning motivlash sohasini sport nuqtayi nazaridan ahamiyatli yutuqlarga hozirlash hamda muntazam ravishda mashg'ulotlarga va musobaqalarda ishtirok etishga barqaror qiziqishini saqlab qolish imkoniyati mavjud.

Adabiyotlar

1. Каримов И.А. Юсак маънавият - энгилмас куч. - Т.: Маънавият, 2008. - Б. 62-63.
2. Деркач А.А., Исаев АА. Педагогическое мастерство тренера. - М.: Физкультура и спорт, 1981. - С. 368.
3. Керимов Ф.А., Нуруллаев А.К. Вольная борьба. Программа и учебное пособие для детско-юношеских спортивных школ, специализированных детско-юношеских школ Олимпийского резерва. - Т.: ЎзДЖТИ, 2005. - С. 158.
4. Рахимов М.М. Спорт машғулотларининг назарияси ва услубияти асослари. Жисмоний тарбия институти ва олий таълим муассасалари жисмоний тарбия факультетлари учун дарслик. - Т.: ЎзДЖТИ, 2005. - Б. 220.
5. Тастанов Н.А., Гончарова О.В. Методика скоростно-силовой подготовки детей младшего школьного возраста, способствующая развитию взрывной силы мышц ног //Педагогик таълим. - М., 2003. - №5. - С. 55-57.

UDK 321:37.04

**AXBOROT GLOBALLASHUVI DAVRIDA YOSH AVLOD MEDIA TA'LIMI
MUAMMOLARI****M.Yunusov***O'zbekiston milliy universiteti, mustaqil tadqiqotchi*

Globallashuv jarayonida axborot oqimini shiddat bilan o'sishi, axborot maydoni kengayib, turli xil axborotlarning yoshlar ongiga ta'siri hamda mediata'limning maqsad vazifalari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: axborot, globallashuv, axborot kommunikatsiya, internet, ommaviy, mediata'lim

Проблемы медиа образования в эпоху информационной глобализации

Статья посвящена проблемам медиа образования в период информационной глобализации. В центре внимания статьи – цели и задачи медиа образования в период увеличения потока информации в процессе глобализации, расширения области различных воздействий на разум молодёжи.

Ключевое слова: информация, глобализация, информационная коммуникация, интернет, масса, медиа образования.

The problems of media education in the era of information globalization

The information about the increase in the flow of information in the process of globalization, the expansion of the area of the different effects on the mind of young people, as well as the goals and objectives of media education.

Keywords: information, globalization, information communication, Internet, mass, media education

Hozirgi globallashuv jarayonida axborot oqimi shiddat bilan o'sib, axborot maydoni kengayib, ularning tarqalish doirasi, usul va vositalari o'zgarib bormoqda. Jamiyat hayotining deyarli barcha sohalarini, ta'limning rivojlanishini "media" (ya'ni, televideniye, radio, kinematografiya, ommaviy nashrlar hamda kompyuter axborot tizimlari)siz tasavvur qilish qiyin bo'lib qoldi. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'lim muassasalarining moddiy-texnik va axborot bazasini mustahkamlash, o'quv-tarbiya jarayonini yuqori sifatli o'quv adabiyotlari va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash, uzluksiz ta'lim tizimini axborotlashtirish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Demak, ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, uzluksiz ta'lim tizimida maktabgacha ta'limdan oliy va undan keyingi ta'limga qadar tarbiyalanuvchi va ta'lim oluvchilarda mediatushunchalarni qaror toptirish davr talabi hisoblanadi. Yurtboshimiz Islom Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" kitobida axborot globallashuvi davrida yosh avlodni tarbiyalash ishlariga alohida e'tibor qaratish zarurligini inobatga olgan holda shunday degan edi: "Bugungi kunda yoshlarimiz nafaqat o'quv dargohlarida, balki radio-televideniye, matbuot, Internet kabi vositalar orqali ham rang-barang axborot va ma'lumotlarni olmoqda. Jahon axborot maydoni kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat o'rab-chirmab, uni o'qima, buni ko'rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o'rab olish, hech shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsadlarimizga ham to'g'ri kelmaydi"¹. Prezidentimizning ushbu so'zlaridan axborot globallashuvi davrida yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash uchun alohida e'tibor qaratishga, yoshlarning kelajagiga teran nazar tashlashga da'vat etilayotgani yanada oydin bo'ladi.

Ha, darhaqiqat globallashuv jarayonini ortga qaytarib bo'lmaydi. Bugun xalqaro munosabatlar tizimida o'z o'rniga, o'z so'ziga ega bo'lgan, demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish, xalqaro hamjamiyatga tobora ko'proq integratsiyalashish, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lidan borayotgan O'zbekiston uchun globallashuv jarayonining qator ijobiy xususiyatlari mavjudligi, shubhasiz aniq. O'z navbatida globallashuv hodisasining salbiy tomonlari borligidan ham ko'z yuma olmaymiz. Hozirgi kunda g'arazli maqsadlarni amalga oshirish uchun zimdan olib borilayotgan tahdidlar ba'zi millatlarning milliyligini yo'qotishga, yoshlar ongini zaharlashga qaratilayotganligi sezilib qolmoqda. Ana shunday hodisa va omillarni inobatga olgan holda bugungi kunda yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishda mediata'lim, ya'ni

ta'limda matbuot, radio, televideniye, internet va boshqalardan foydalanish usulidan unumli foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Buning uchun, eng avvalo, mediata'lim qurollari va vositalari har tomonlama "ishga shay" bo'lmog'i, barcha bilim maskanlarida Internet tarmog'iga ulangan kompyuter xonalari doimiy ravishda faoliyat yuritmog'i, davriy nashrlarning yig'majildi bo'lmog'i, ulardan o'quvchi-yu talaba yoshlarning muntazam ravishda foydalanishlari uchun sharoitlar yaratilmog'i kerak.

Shu o'rinda mediata'lim qanday ta'lim degan haqli savol tug'iladi. Aslida "media" so'zi lotinchadan olingan bo'lib, "omil" degan ma'noni anglatadi. Mediata'lim esa o'quvchilarga ta'lim berish jarayonida yangicha usullardan foydalanishni talab etadi. Rossiyalik olimlar tomonidan yaratilgan "Pedagogik-psixologik lug'at"da mediata'lim "pedagogikadagi ommaviy kommunikatsiyalarning o'quvchilar tomonidan o'rganilishi" deb ta'riflanadi. Shuningdek, soha mutaxassislarining ta'kidlashicha, mediata'-limda "media" tushunchasi orqali matnni terish, ko'paytirish, tarqatish, saqlash, o'quvchilar o'rtasida axborot almashinishini ta'minlashga xizmat qiladigan texnika asboblari ham tushuniladi. Bundan tashqari, media insonning atrof borliqni (ijtimoiy, axloqiy-psixologik, badiiy-intellektual aspektda) bilishi va anglashini ta'min etuvchi majmuaviy vosita hisoblanadi. Bir so'z bilan aytganda, mediata'lim -- o'quvchilarga taqdim etilayotgan bilim hamda ma'lumotlarning tez, tushunarli va yodda qolarli bo'lishini ta'minlovchi o'qitish usulidir.

Xo'sh, mediata'lim tizimini yosh avlod vakillariga bilim berishda keng ko'lamda tadbiq etishdan ko'zda tutilgan maqsad nima? Mediata'limning asosiy maqsadi - zamonaviy axborot sharoitida yosh avlodni turli axborotlarni qabul qilish, tushunish, o'z ruhiyatiga ta'sirini anglash, texnika vositalari va zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida kommunika-tsiyalarning noverbal shakllari asosida amalga oshiriladigan muloqot usullarini o'zlashtirish, bir so'z bilan aytganda, yosh avlodni hayotga tayyorlashdan iborat.

Jahon ta'limi amaliyotida bu sohadagi izlanishlar o'tgan asrning 70-yillaridayoq boshlanib, pedagogikada o'ziga xos yo'nalish - mediata'limning vujudga kelishiga zamin yaratgan. Bu borada Buyuk Britaniya, AQSh, Kanada, Fransiya kabi davlatlar karvonboshilik qiladi². O'zbekistonda esa yosh avlod mediata'limiga asrimiz boshlarida e'tibor qaratila boshlandi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 17 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining umumta'lim muassasalarida "Medata'lim" o'quv dasturini ishlab chiqish va tatbiq etish to'g'risida"gi farmoyishi e'lon qilingach, ta'limning bu tizimiga e'tibor yanada kuchaydi. Shu munosabat bilan 7-sinf dan boshlab maktablarga "Mediata'lim" alohida o'quv fani sifatida kiritildi.

Ayni paytda yurtimizda turli ijtimoiy-ilmiy va iqtisodiy sohalarga medianing ta'siri tobora ortib bormoqda. Bu ta'lim tizimi oldiga ham yangi vazifalarni ko'ndalang qilib qo'ymoqda. Endilikda o'quvchidan zamonaviy texnika asboblarni bilish, undan foydalana olishgina emas, balki turli mediamatnlarni tushunish, OAV tomonidan uzatilayotgan ma'lumotlarni umumlashtirish, interpretatsiyalash layoqati hamda mustaqil ijodiy ishlash malakalariga ega bo'lishi uchun kreativ tafakkur sohibi bo'lish, axborot materiallari taqdimotini tayyorlashda ma'lumotlarni izlash, qayta ishlash layoqatiga ega bo'lishi kabilar ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Haqiqatanan ham bugungi murakkab mafkuraviy jarayonlarni, hayot tarzimizga zid bo'lgan zararli g'oyalar mohiyatini ochib berish uchun ta'limda mediata'lim tizimini keng ko'lamda joriy etish lozim. Ta'limda matbuot, televideniye, radio va boshqa axborot vositalaridan unumli foydalanishga erishish, axborot globallasuvi davrida har qanday xabarlariga o'z vaqtida javob berishni yo'lga qo'yish, ularning saragini sarakka, puchagini puchaka chiqarib borishda bevosita o'quvchi va talaba yoshlar bilan munozara va muhokamalar o'tkazish orqali muammo yechimini qo'lga olish kerak. Ana shundagina yosh avlod vakillari axborot globallasuvi davrida har qanday xurujlarga, tahdidlarga o'z vaqtida bekamu ko'st javob berishga erishadi. Ma'naviyatimizga, madaniyatimizga, turmush tarzimizga, urf-odatu an'analarimizga, dunyoqarashimizga yot bo'lgan unsurlar bilan kurasha olish imkoniga muyassar bo'ladi. Zero, mamlakatimizda yoshlarga ta'lim-tarbiya berish, har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan bir chog'da bu kabi omillar shubhasiz ijobiy natijalarni vujudga keltiradi.

Adabiyotlar

1. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch", T.: Ma'naviyat, 2010. – 114-bet.
2. «Uzluksiz ta'lim» jurnali. T.: 2012-yil, 4-son.

UDK: 373.6:158

KASB-HUNAR KOLEJLARIDA PEDAGOG MUTAXASSISLARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING PSIXOLOGIK JIHLARI**R.X.Jiyanqulova**

Samarqand davlat universiteti, o'qituvchi

E-mail: jiyankulova.rahima@gmail.com

Mazkur maqolada kasb-hunar kolejlarida mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning psixologik jihatlari asoslash masalasi yoritiladi. Kasb-hunar kolleji "Boshlang'ich ta'lim va sport – tarbiyaviy ish" ta'lim hamda "Maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar" ta'lim yo'nalishlarida psixologiya, kasbiy psixologiyasi, mehnat psixologiyasi fanlari o'qituvchilarni turli-tuman kasb-hunarlarga yo'naltirishda mazmuniga milliy qadriyatlarni singdirish muammolari haqida ma'lumotlar keltiriladi.

Kalit so'zlar: kasbiy fanlar, bo'lajak mutaxassislar, qadriyatlar, maxsus fanlar, kasbiy – ruhiy, barkamol, shakllantirish, o'quv reja, umumkasbiy fanlari bloki, psixologiya, sport psixologiyasi.

Психологические аспекты профессиональной подготовки педагогических кадров в профессиональных колледжах

Статья посвящена вопросам психологических особенностей и профессиональной педагогике обучения и специальностей в области профессиональных колледжей. Предполагается, что проблемы в обучении национальных традиций в профессионально-технических региональных колледжах по таким предметам и следующим учебным дисциплинам: "Первичное образование и спортивная подготовка", "Воспитательная деятельность вне школы", "Психология", "Профессиональная и трудовая психология".

Ключевые слова: профессиональная тема, будущий специалист, традиции, особый предмет, профессиональный, духовный, совершенный, формирование, учебный план, общие профессиональные дисциплины, спортивная психология.

The psychological peculiarities of professional training of pedagogues and specialties in vocational colleges

This article is about the matters of psychological peculiarities of professional training in pedagogues and specialties in vocational colleges. It is assumed that the problems in teaching national traditions directing to the profession in vocational regional colleges via such subjects and the following educational disciplines: "Primary education and sport training", "Upbringing activities out of schools", "Psychology", "Professional and labour psychology".

Keywords: professional subject, future specialist, tradition, special subject, professional spiritual, perfect, forming, educational plan, general professional subjects, sport psychology.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi malaka talablariga mos holda kasbiy tavsifnoma asosidagi muayyan kasbga tayyorlov jarayonini amalga oshiradi va bo'lajak kichik mutaxassislarni mehnat bozoriga zamonaviy raqobatbardosh qilib tayyorlaydi hamda bundagi raqobatbardoshlik: zamonaviy kasblarga mos kasbiy tavsifnoma va kasbiy malakaga qo'yilgan talablar; umumkasbiy tayyorgarligi; ijtimoiy va ma'naviy etukligi; kasbiy tashkilotchilik sifatleri; kasbiy tayyorgarlik darajasining kasb standartiga muvofiqligi; kasb tayyorgarlikdagi texnologik sifatleri; kasbiy faoliyatga nisbatan innovatsion yondashuv qila olishligi, vaqt va o'quv vositalari hamda qurollaridan foydalanishda tejamkorligi bilan baholanadi. Shuning bilan birga KHKda bo'lajak mutaxassis xalqorasida yashab turmush kechirishga va kasbiy yo'nalishi bo'yicha faoliyat ko'rsatish uchun zarur bilim, ko'nikma, malakalar majmuasini o'zlashtirishga qaratilgan ongli kasbiy jarayonga tayyorlanadi [1].

Shu sababli ham, hozirda KHKlarini bitiruvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda ularning kasbiy-ma'naviy etukligi va intellektual salohiyatligiga alohida talab qo'yilmoqda. Bu talabni bajarishga ta'lim-tarbiya jarayonidagi an'anaviy uslub va texnologiyalar javob bera olmay qoldi. Bunga sabab, jamiyat taraqqiyoti darajasi va unga mos mutaxassislar tayyorlash jarayoniga qo'yilgan talablar takomillashtirilib bormoqda [2].

Bo'lajak kichik pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda innovatsion o'zgarishlar qilish lozimligini va bu orqali sezilarli sifat o'zgarishlari qilib yuqori samaradorlikni qo'lga kiritish kerakligini taqozo etmoqda. Bunga sabab bular orqali ta'lim mazmunini milliy qadriyatlardan foydalanish negizida modernizatsiya qilishga imkoniyat yaratiladi[4].

Bunday talablar asosidagi ta'lim-tarbiya jarayonini olib borish bo'lajak kichik pedagoglarning kasbiy jihatdan intellektual salohiyatini va ma'naviy etukligini yanada rivojlantiradi, ta'lim-tarbiya maqsadlarining dolzarbligini oshirib qaralayotgan jarayonning optimal variantlaridan birini tanlash imkoniyatini beradi va bo'lajak kichik mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi optimal variantlarni qo'lga kiritish quyidagidek ta'lim jarayonining asosiy kategoriyalarini hisobga olishni talab etadi: ta'lim metodlari; ta'lim vositalari; ta'lim texnologiyalari; o'qitishga mos ma'lumotlarni tanlab va uni axborotga aylantirish; an'anaviy ta'lim mazmuni bilan milliy-ma'naviy qadriyatlarga oid ma'lumotlarni integratsiya qilish; olib boriladigan ta'lim mazmunini va unga kiritiladigan ma'lumotlarni tahlil qilish; innovatsion o'qitish xususiyatlarini aniqlash; o'qitishni kompyuterlashtirish; o'qitishning asosiy hamda yordamchi vositalarini aniqlash va ular asosida ta'lim berishning algoritmini asoslash hamda uni joriy etishga tayyorlash. Bu esa o'z navbatida bo'lajak kichik pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash yo'nalishining o'quv rejasi, o'quv dasturlari, o'quv rejasidagi fanlar bloklari va ularning aloqadorligi hamda ularga mos ma'lumotlar bazasiga bog'liq bo'ladi [6].

KHKning "3141600 - Boshlang'ich ta'lim va sport – tarbiyaviy ish" "maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar" yo'nalishlari bo'yicha namunaviy o'quv rejaga e'tibor beradigan bo'lsa, unda quyidagi fanlar bloklari bor: umumta'lim fanlari; kasbiy ta'lim fanlari (umumkasbiy va maxsus fanlar) o'quv amaliyoti; pedagogik amaliyot; shuningdek, diplom oldi va boshqa amaliyotlar, kollej ixtiyorida soatlar [7].

Ularni o'rganishdan oldin o'quv rejada umumkasbiy fanlari bloki psixologiya va sport psixologiyasi fani mazmun-mohiyatiga oid qisqacha ma'lumotlarni keltirib o'tamiz.

Kasb-hunar kollejlari "Boshlang'ich ta'lim va sport – tarbiyaviy ish" yo'nalishi uchun psixologiya va sport psixologiyasi fani 40 soat, "Maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar" yo'nalishi uchun Psixologiya 80 soat belgilangan bo'lib uning mazmuniga quyidagicha mazmundagi milliy qadriyatlarni singdirish mumkin.

I bo'lim. Psixologiyaga kirish. 1-mavzu. Psixologiya fani haqida... Psixologiya fanining tarixi.

Mamlakatimizda psixologiya fani taraqqiyoti tarixi uzoq o'tmishga va baqquvvat asosga ega ekanligini psixologiya fanining etnopsixologiya tarmog'i uchun zaruriy manbalarni Abu Rayhon Beruniyning «Hindiston» va «O'tmish avlodlar xotiralari» asarlarida, ijtimoiy psixologiya Abu Nasr Forobiyning «Fozil shahar aholisining fikrlari», Abu Ali ibn Sinoning «Donishnoma» tibbiyot psixologiyasi va zoopsixologiya va hokozolarga Abu Ali ibn Sinoning «Tib qonunlari» va «Ash-shifo» asarlarida ilk bor ishlab chiqilganligini kichik mutaxassislarga tushuntirib berish

2-mavzu: Hozirgi zamon psixologiyasining vazifalari, metodlari, psixologiyaning metodlari: kuzatish, suhbat, test-biografiya.

Bolaga tashxis qo'yishda ommalashgan biografik metodning imkoniyatlarini yoddan chiqarmaslik kerak. Chunki, Sharq xalqlarida «Qush uyasida ko'rganini qiladi» degan naql bolaga baho berishda asosiy qoidaga aylangan.

Yuqorida bayon qilinganlardan ko'rinadiki, bolaning qobiliyat, layoqat, tarbiyalanganlik darajasini aniqlashga qaratilgan ilmiy – tadqiqot metodlari kabi milliy qadriyatlarimizni tiklanishi, shubhasiz, uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari amaliyotida munosib o'rin egallaydi.

3-mavzu. Miya va psixika. Oliy nerv faoliyati....

Abu Ali ibn Sinoning «Tib qonunlari» asarida asab tizimining tashqi bog'liq va tananing harakat, tana sezgisini ta'minlab turuvchi borliq funksiyasini juda yaxshi tushungan holda psixologik hodisalarni fiziologik jarayonlarga bog'liqligi to'g'risidagi fikrlarini birinchilardan bo'lib oldinga surganligini ko'rsatish.

Asab tizimi, bosh miya-bu psixikaning yuz berishini asosi ekanligini, tana va muhit, a'zo va uning funksiyasi har doim o'zaro bog'liklikdaligini, bir butunlikdaligini, tan miyaning funksiyasi bo'lishini, miya ishining o'zgarishi insonda ruhiy kasalliklarni sodir bo'lishiga olib kelishini ko'rsatish.

Ulug' alloma tomonidan psixik jarayonlarning markazlari miya, sezgi markazi miyaning old qismida, xotira markazi miyaning orqa qismida, xayolning markazi miyaning o'rtasidagi jo'yagining oldingi qismida, o'ylash, fikrlash bilan bog'liq markaz o'rta jo'yakda, ixtiyoriy harakatlanish qobiliyati miyaning orqa jo'yagida joylashgan degan fikrni olg'a surilganligini kichik mutaxassisldarga tushuntirish.

Abu Nasr Forobiy miyani yurak singari odam organizmining markazi deydi. Alloma, shu o'rinda, miya yurakdan qon olishi, unga bo'ysunishini ko'rsatish barobarida, u butun organizmga va uning a'zolariga rahbarlik qilishini va o'z buyrug'iga bo'ysundirishini ta'kidlaydi.

Ulug' mutafakkirning ushbu fikridan, bir tomondan, insondagi ruhiy jarayonlar bilan fiziologik-anatomik jarayonlar, psixika bilan organizm o'zaro bog'liq holda mavjud, ikkinchi tomondan yurak insonning biologik hayotini, miya esa uning ruhiy-ma'naviy hayotini boshqarib turadi, degan xulosa kelib chiqishini o'quvchilarga ko'rsatish.

Forobiyning bu ta'limoti psixik jarayonlarning paydo bo'lishini nerv-fiziologik jarayonga bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

II bo'lim. Shaxs va faoliyat. 1-mavzu. Shaxs psixologiyasi. Shaxs rivojlanishining manbalari ...irsiyat.

Davlatimizning ta'lim sohasidagi asosiy hujjatining «Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlar» bo'limida «Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlarni aniqlash va o'qitish uslubi...shakllantiriladi», deb alohida ta'kidlanishi o'quvchilar taqdirida irsiyatning muhimligini, uni sobiq soet ta'lim-tarbiya tizimi amaliyotidan farqli ravishda butun jahon pedagogika-psixologiya fani kabi milliy pedagogikamiz tomonidan tan o'linishi, shubhasiz, pedagogik tafakkurimizda ijobiy siljishlarga turtki bo'ldi. Bu esa, o'z-o'zidan ulug' mutafakkirlarimiz tomonidan ishlab chiqilgan insonni bilish metodikasini-sharqona genetik metod(yondashish)ni o'rganishga, ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etishga imkon beradi. Ya'ni ota-ona va boshqa o'tmish avlodlaridan meros bo'lib o'tgan qobiliya, layoqat, fan(kasb-hunar)ga bo'lgan munosabatni o'rganish imkonini beradi. Buni musiqa qobiliyatni avloddan-avlodga o'tishini mashhur san'atkorlar - Zokirovlar, Uzoqovlar, Rajabiylar kabi sulolalar misolida ko'rish mumkin.

Hozirgi zamon kishisi shaxsiga xos milliy axloqiy xususiyatlar. Forobiy shaxs axloqining sifatlariga to'xtalib, o'zida o'n ikkita tug'ma xislatni birlashtirgan kishi axloqli odam bo'ladi deb uqtiradi, ya'ni, bk mukammal taraqqiy etgan barcha organlari bilan bajarilishi zarur bo'lgan ishlarni osonlik bilan amalga oshiradigan; barcha muhokama va mulohazalari tez va to'g'ri tushunadigan, bildirilgan fikrlarning chinligini tez payqab oladigan; baquvvat xotirasi asosida ko'rgan, eshitgan, sezgan narsalarining birortasini ham esdan chiqarmay yodda saqlaydigan; yuqori darajadagi tez va o'tkir zehni bilan narsalarning alomatiga qarab uning mazmun-mohiyatini tez anglab oladigan; aniq, tushunarli, so'zlaydigan, o'z fikr va mulohazalarini ravon bayon etadigan; bilim olish va o'qishga muhabbati yuqori, o'rganmoqchi bo'lgan bilimlarni oson o'zlashtiradigan; ovqatlanish, ichimlik iste'mol qilishda ochko'zlik qilmaydigan, qimor o'yinlaridan uzoq yuradigan va ular keltiradigan xursandchiliklardan jirkanadigan; haqiqat va uning tarafdorlarini sevadigan, yolg'on va yolg'onchilarga nafrat bilan qaraydigan, ruhi, g'ururi va o'z vijdonini qadrlaydigan, oliyjanob ishlarni bajaradigan; dirham, dinor vash u kabi turmush buyumlariga past nazar bilan qaraydigan; adolatni sevadigan, adolatsizlikka, jabr-zulm o'tkazuvchilarga qarshi kurashadigan, ularga yo'l qo'ymaydigan; adolatli bo'lib, qaysarlik qilmaydigan, o'zbilarmonlikka berilmaydigan, qat'iylilik, jasurlik ko'rsatib o'zi zarur deb bilgan ishlarni bajaradigan, bunda ojizlik va qo'rqishni bilmaydigan shaxsdir.

2-mavzu. Shaxs ehtiyojlari, motiv va qiziqishlari. Alisher Navoiy insonning axloqiy fazilatlarini to'g'risidagi o'z qarashlarida har bir odam munosib ishlar bilan shug'ullanishi, o'z nomini yomon, tuban xulq-atvor bilan bulg'amasligi, uning martabasi, aqli, shaxsiy qobiliyati, irodasiga qarab ko'tarilishi lozimligi insonga baho berishda uning hayotdagi faoliyati, qilgan ishlariga, jamiyatga naf keltirganiga, foydali ishlar bilan shug'ullanganiga qarab uni qadrli, fazilatli kishi yoki boshqalarga ziyon etkazadigan insonlarning tinch-osoyishtaligini buzadigan kimsalar chin inson emas deb hisoblash barobarida buyuk shoir o'z davrining tabaqalariga mansub bo'lgan tirik shaxs(odil va zolim podsho, to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi va riyokor shayx, olim va johil, vafoli va vafosiz savdogar, sahovatli va xasis dehqon yoki chorvador va hakoza) larning barchasini xususiyatlarini «Mahbub ul-qulub», «Hayratul abrор» asarlarida o'zaro zid qo'yib, ularning kishilik jamiyatiga keltirgan foyda va zararlarini aniq dalillar asosida isbotlab berganligini o'quvchilarga ko'rsatish.

Beruniy «...hayotda ko'p aziyatlar chekkan, hatto umrining oxirida turmush qiyinchiliklariga duchor bo'lgan, ammo har qanday og'ir sharoitga qaramasdan e'tiqodidan qaytmagani uning o'z ma'naviy ideallariga naqadar sodiq...» (Islom Karimov) qolib, butun kuchini yig'ib, bor imkoniyatini ishga solib, ziyraklik va tirishqoqlik qilib, fanning juda ko'p tarix, falsafa, astronomiya, geodeziya, mineralogiya kabi sohalari bilan shug'ullanib, o'zining qiziqishlar doirasining kengligini namoyish qila oldi.

«Beruniy yunon falsafasini o'rganib, hind falsafasini mutoala qilmoq uchun sanskrit (qadimgi hind tili) ni o'rgana boshladi: urush, talon-taroj, ommaviy qirg'inlar bo'lishiga qaramay fan ahllari o'z ishlarini davom ettirganliklarini ko'rsatib berish barobarida ikki orani nafrat va xudbinlik kayfiyatlari buzib turgan joylarda Beruniy begona odam bo'la turib bu o'lka kishilari ahvolini tushuntirishga harakat qildi» (Javharlal Neru).

Ilmiy-tarixiy manbalarda Abu Rayhon Beruniyning vaqtini qanchalik qadrlaganliklari haqida ayrim ma'lumotlar bor. Ulug' alloma mutolaa, kitob yozish, tajriba o'tkazishdan yiliga ikki kunni (birinchisi «Navro'z olami kirgan kun azondan kechgacha qo'sh qo'shib, shudgor qilishga, nihol ekishga, ikkinchisi, boshqqa birinchi o'roq tushganda qo'llariga o'roq olib azondan to kechgacha bug'doy o'rgani) o'zi uchun dam olish deb hisoblar ekan. Shu boisdan «bir daqiqa vaqtini behuda o'tkazgani, halok bo'lgani» der ekan.

3-mavzu. Guruh va jamoalar. Jamiyatchilikni shakllantirishda mehnat va tarbiyaning o'rni Abu Nasr Forobiy «Fozil shahar aholisining» fikrlari asari orqali butun shahar (yoki mamlakat) misolida odamlar o'rtasida tenglik, kasb-hunar tanlashlarida va ishlarida erkinlik, ularning tinchligi va erkinliklariga xalaqit bermaydigan, barchaga barobar munosabatda bo'ladigan hammaning manfaatini o'zlarining shaxsiy manfaalaridan ustun qo'yadigan, hatto voz kechadigan, xalq manfaatini himoya qilishga o'zlarining kuch-quvvatini ayamaydigan kishilar rahbar (podsho, sulton)lik qiladigan kishilar o'rtasida turli yaxshi odatlar, zavq-lazzat paydo bo'lishini talabalarga ko'rsatib berish: Va teskari, butun fikri-zikri, aql-idroki boylik to'plash, mol-dunyo orttirishga qaratilgan shahar (jamoat) xalqidan chiqqan rahbar (podsho, sulton) lar ham rahbarlikni mol-dunyo orttirishga erta-yu – kech harakat qilgan rahbarlarning qo'l ostida ishlayotgan shahar aholisida buzuvchi odatlar, shahvoniy nafs, bir-birini ko'rolmaslik, nizo-janjallar paydo bo'lishini muqarrar ekanligini ko'rsatish.

III bo'lim. Shaxsning psixik jarayonlar. 1-mavzu: Sezgi. Sezgi turlari va ularning tavsifi. O'rta Osiyolik jahonga mashhur alloma Abu Nasr Forobiy o'zining «Majmuar Rassoil al-hukamo» asarida sezgilar, ularning moddiy asosi klassifikatsiyalash, oziqlantiruvchi quvvat, ichki va tashqi quvvatlarni muhokama qilgan. Bunda u tashqi ruhiy quvvatlar, ya'ni tashqibuyumlar, hodisalar inson sezgi a'zolariga bevosita ta'sir qilganda vujudga keladigan quvvat, deb ko'rsatadi. Sezgilarning kelib chiqishi va murakkab jihatdan besh turli tashqi quvvatni qomusiy olim quyidagicha talqin qiladi:

- teri-badan sezgisi;
- ta'm bilish sezgisi;
- hid bilish sezgisi;
- nutq sezgisi; (eshitish sezgisi nazarda tutiladi)
- ko'rish sezgisi.

Bularning hammasini Forobiy sezish quvvati deb biladi.

Ichki quvvatlarga:

- xotira-tasavvur quvvati;
- xayol quvvati;
- tuyg'u –emotsiya quvvati;
- nutq quvvati;
- quvvat notiqi tarkibida mantiqiy fikrlash quvvati.

Quvvat deganda Forobiy insonga xos xususiyat va qobiliyatlarni ko'zda tutadi.

2-mavzu: Idrok. Idrok va ta'lim jarayoni. Forobiyning odamzod ibtidosi bo'lmish quvvatlar (so'zlash quvvati, tanlab olish, xayol quvvati, sezish quvvati)ning mazmun-mohiyatini talabalarga tushuntirish. Jumladan, psixik jarayon sifatida so'zlash quvvati insonga bilim va hunarni egallashga, o'zining xulq-atvoridagi xunuk va go'zal harakatlarni ajrata olishga, zararli yoki foydali narsani, laziz va achchiq narsalarni fahmlashga imkoniyat yaratadi.

Tanlab olish quvvati yordamida inson u yoki bu narsani istashi yoki ulardan kechishi, ta'sirlanishi yoki tortishi tufayli unda nafrat yoki muhabbat do'stlik yoki dushmanlik, qo'rqinch yoki qo'rqmaslik,

g'azab yoki rozilik, shahvat yoki minnatdorchilik his-tuyg'uga oid holatlar paydo bo'lishini talabalarga ko'rsatish lozim.

His etish xususiyatlari (ko'rish, eshitish, hid sezish, ta'm maza bilish, teri sezgisi) faoliyatlarini talabalarga yoritib berish asqotadi. Jumladan, ta'm-maza bilish sezgisi orqali inson shirish va achchiqni bir-biridan ajratadi, ammo go'zallik bilan xunukni, zarar bilan foydani ajrata olmaydi.

Ibn Sino «Tib qonunlari»da ruhiy jarayonlar va dunyoni bilish haqida fikr yuritish barobarida bilish sezgilar yordamida hissiy bilish tushunchalar yordamida fikrlash orqali bilishdan tashkil topishi, sezgi tashqi narsalarning o'zi bo'lmay balki bizning hislarimizda vujudga kelishini, sezgida narsa va hodisalarning ayrim tashqi belgilari, aniq tomonlari bilinsa, aql ularning mohiyatlarini, ichki tomonlarini mavhumlashtirish yordamida bila olishni talabalarga ko'rsatish.

4-mavzu. Tafakkur. Tafakkur shakllari. Hukm. Forobiyning bilish jarayonini ikki bosqichi, ya'ni hissiy va aqliy bilish haqidagi ta'limotining muhimligini; hissiy bilish sezgilar orqali aniq va moddiy narsalarning bevosita ta'siri natijasida hosil bo'lishi, aql orqali bilish esa aniq moddiy jismlar orqali emas, ularning ta'sirisiz va ulardan tashqari faqat ruhiy obrazlar asosida vujudga kelishini talabalarga ko'rsatish.

Abu Nasr Forobiy ilgari aql-intellekt tushunchasini bir tomondan, psixik jarayon ekanligini va ikkinchi tomondan uni tashqi ta'sir, ta'lim-tarbiya jarayonida vujudga kelishini, aql faqat insonga xos bo'lgan tug'ma quvvat – ruhiy kuch bilan bog'liqligini, har bir o'quvchi tushunish, fahmlash, muhokama qilish, o'ylab topish, fikrlash quvvatiga ega ekanligini va bu xususiyatlar bolaning o'sib kamolga etib borishi bilan yanada rivojlanishigini bo'lajak kichik mutaxassislariga ko'rsatish.

Bundan XI asr ilgari Abu Nasr Forobiy bu masalaga e'tibor berganligini, uning «...ularning ba'zi birlarida kashf, ixtiro quvvati bo'lmaydi, ba'zilarida esa bu quvvat kamroq bo'ladi» deb ta'kidlagan so'zlariga asoslanib kollej o'quvchilariga har bir shaxsda tafakkur rivojlangan bo'lishi zarurligi bugungi kun talabi ekanligini uqtirish.

Prezident I.A.Karimov «Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch» asaridaturkiy va forsiy tilda so'zlovchibiron-bir kimsa yo'qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e'tiqod bilan qaramasa, degan fikrini davom ettirib «Agar bu ulug' zotni avliyo desak, uavliyolarning avliyosi, mutafakkir inson, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir», dedi.

Xalq og'zaki ijodining noyob durdonasi bo'lmish «Alpomish» dostonini xalqimiz asrlar davomida yaratgan, o'z iymon-e'tiqodidek asrab-avaylagan, qancha avlod-ajdodlarimiz «Alpomish» dostoni asosida tarbiyalangan, o'zligini anglagan, ma'naviy boylikka ega bo'lganligini ta'kidlab, «demak xalqimiz bor ekan, Alpomish siymosi barhayotdir».

Xuddi shuningdek IV bo'lim. Shaxsiy hissiyot (1-mavzu. His-tuyg'ular, Emotsiya. Affekt. Hissiyotning fiziologik asoslari, tuyg'u, hissiyotning ta'lim jarayonidagi ahamiyati, shaxsning hissiyotga berilish darajasi.

2-mavzu. Iroda. Shaxsning irodaviy sifatleri. V bo'lim. Shaxsning psixik xususiyatlari. 1-mavzu. Qobiliyatlar kabi manbalarni o'rganishda ham milliy - ma'naviy qadriyatlardan foydalanish masalasi ham tadqiq qilindi.

Ushbu sohada olib borilgan izlanishlarimiz natijalari bo'lajak kichik pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi psixologiya fani mazmuniga milliy-ma'naviy qadriyatlarga oid malumotlarni integratsiyalash ularni kasbiy ma'naviy va ruhiy jihatdan barkamol qilib shakllantirishga mustahkam didaktik asos bo'la olishligini ko'rsatdi va bu KHK dagi umumkasbiy va maxsus fanlar va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarida o'z isbotini topdi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash mumkinki, bayon qilingan ta'lim texnologiyasi negizida ular egallashi lozim bo'lgan kasb bo'yicha bo'lajak mutaxassislarda kasbiy-ruhiy jihatdan barkamol bo'lib shakllanishi kerak bo'lgan kasbiy ko'nikmalar va malakalar asosini tashkil etuvchi bilimlar majmuasi shakllantiriladi.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassislar taraqqiyot omili. - Toshkent.: O'zbekiston. – 1995. 23 b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 174 b.
3. Shodiev N., Jiyanqulova R.X., N.Ziyaeva. Pedagogika fanini o'rganish jarayonida kichik mutaxassislarni boy milliy merosimiz bilan tanishtirish // Uzluksiz ta'lim sifat va samaradorligini

- oshirishning nazariy-uslubiy muammolari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. - Samarqand, 2012.
4. Muslimov N.A. O'qituvchi shaxsini shakllantirishning nazariy-metodologik omillari. //Xalq ta'limi .№5-6. 2003. 73-786.
 5. Jiyanqulova R.X. Kasb-hunar kollejlari bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ilmiy pedagogik asoslari . Monografiya. – T.: Fan va texnologiya, 2015. – 158 B.
 6. Jiyanqulova R. Bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda milliy qadriyatlardan foydalanish. //Uzluksiz ta'lim. №4. -T.: 2014. B-115.
 7. Jiyanqulova R. Pedagog kadrlarni kasbiy faoliyatga tayyorlash// «Ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar». IMJ. -T.: 2014. -№2. -59b.

УДК: 373.6:158

**НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ ПРОЕКТИРОВАНИЯ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА В
ИНФОРМАЦИОННО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ В СИСТЕМЕ НЕПРЕРЫВНОГО
ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ ПЕДАГОГОВ**

А.А.Хашимов¹, А.А. Хаджаев²

¹ Главный научно-методический центр, старший научный сотрудник-исследователь

² Центр развития высшего и среднего специального, профессионального образования,
заместитель директора

В статье освещены методы требования к непрерывному повышению квалификации педагогов. Здесь-же отмечены, что для формирования профессиональных качеств современного педагога, ему необходима знания работы в информационной образовательной среде, а также проектировать и осуществлять профессиональное самообразование на основе средств ИКТ.

Ключевые слова: образование, модульная обучения, технология, ИКТ, проблемное образование, подготовка.

**Axborot ta'lim muhitida pedagoglarning uzluksiz malaka oshirish tizimi o'quv jarayonini
loyihalashning ba'zi aspektlari**

Ushbu maqolada pedagoglarni uzluksiz malaka oshirishlari buyicha talablar yoritilgan. Bu yerda zamonaviy pedagogning professional sifatlarini nomoyon bulishida unga AKT asosida professional o'zini o'qitishni amalga oshirish va informatsion ta'lim muxitda ishlay olishni bilishi kerakligi belgilab o'tilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, modulli o'qitish, texnologiya, AKT, muammoli o'qitish, tayyorgarlik.

**Some aspects planning of teaching process of re-preparation of pedagogues in
information educational environment**

The article highlights the methods of requirements for continuing professional development of teachers. Here, as noted, that for the formation of professional qualities of the modern teacher, it requires knowledge of working in the information educational environment as well as to design and implement professional self ICT-based tools.

Keywords: education, modular training, technology, ICT, problem education, training.

Известно, что основоположником узбекской модели развития, автором «Национальной программы подготовки кадров», первым Президентом Республики Узбекистан И. Каримовым в нашей стране за годы независимости осуществлены коренные структурные и содержательные реформы, затронувшие все уровни системы образования и нацеленные на обеспечение ее соответствия мировым стандартам. Коренным образом перестроена система управления образованием, подготовки, переподготовки и повышения квалификации педагогических и научно-педагогических кадров, пересмотрено содержание образовательного процесса, финансирование и материально-техническое обеспечение сферы образования.

На современном этапе модернизация отечественного образования, формирование новой модели высшей школы обуславливают потребность в развитии профессиональной компетентности педагогов, отвечающей современным вызовам времени. Педагог был, есть и в обозримом будущем будет ключевой фигурой образовательного процесса, а уровень его профессиональной подготовки и личностные качества остаются приоритетными факторами успеха модернизации образования, результативности использования новых технологий и средств обучения. Одним из важнейших условий эффективности деятельности педагога становится его способность к быстрой адаптации к изменяющимся условиям окружающего мира, что предполагает во многом иную (по содержанию и направленности) готовность педагога к профессиональной деятельности.

В этих условиях возрастает роль системы непрерывного повышения квалификации педагогов, в частности и всей системы дополнительного профессионального образования, в целом.

В связи с этим, в последние годы в нашей стране проведены научные исследования по совершенствованию системы повышения квалификации, проблемам ее функционирования на республиканском и региональном уровнях, содержания деятельности центров повышения квалификации педагогических кадров.

Проведенные нами анализ профессиональной деятельности педагогов показывает, что даже высокий уровень предметно-методической подготовки педагогических кадров не обеспечивает ожидаемого обществом результата. Для реализации новых целей и содержания непрерывного повышения квалификации педагогов, необходимо проанализировать и научно обосновать методические основы проектирования учебного процесса в новой информационной образовательной среде.

Следует отметить, что за последние годы в мировой педагогической практике в значительной мере созданы концептуальные подходы и психолого-педагогические основы разработки и функционирования информационной образовательной среды. Проведён анализ основных компонентов профессиональной деятельности педагога, эффективность которых может быть повышена при использовании средств ИКТ.

Вопросы создания информационной образовательной среды стали предметом целого ряда исследований. В этих исследованиях формируются различные подходы к пониманию сущности, структуры и состава компонентов информационной образовательной среды, их функций.

Информационная образовательная среда в системе повышения квалификации педагогов является системой нового уровня, включающей в себя компоненты учебной, управленческой и научной деятельности. Главным составляющей информационной образовательной среды является учебный процесс, в котором вовлечены слушатели и преподаватель.

Мы рассматриваем информационную образовательную среду в системе повышения квалификации педагогов как неотъемлемую часть системы обучения применительно к новым требованиям и условиям, то есть как новую модель учебного процесса, в которой используются информационные технологии, позволяющие эффективно организовать индивидуальную и коллективную работу преподавателя и слушателей, а также интегрировать различные формы и стратегии освоения знаний по предмету, направленные на развитие самостоятельной познавательной учебной деятельности.

Исходя из этого, нами был проведен анализ большинства существующих классов информационных ресурсов а также их методическая основа используемых в учебном процессе для курсов повышения квалификации. Учитывая его результаты, в качестве частей учебной компоненты информационной образовательной среды можно выделить:

- электронный учебник (компьютерный гипермедиа-учебник);
- электронную справочную систему;
- компьютерные модели и конструкторы;
- электронные тренажеры;
- компьютерную систему измерения знаний, умений и навыков;
- телекоммуникационные средства.

При создании информационных ресурсов учебной компоненты среды необходимо четко определить цели и задачи обучения, тщательно и детально планировать деятельности слушателей, разработать учебно-методические материалы на основе психолого-педагогических принципов построения учебного процесса, в частности принципа его профессионально-педагогической направленности, планировать и учесть обратную связь между слушателями и преподавателем, между слушателем и учебным материалом, формировать у слушателей умение самостоятельно оперировать информацией.

Проведённые исследования показывают, что использование средств ИКТ в рамках традиционной системы повышения квалификации педагогов не может изменить сам процесс (а, отсюда и его результаты) по целевому назначению и переходу к современным видам учебной деятельности. Следовательно, суть проблемы подготовки педагога к эффективной работе в информационной образовательной среде заключается в том, чтобы на основе анализа влияния этой среды на изменение содержания его профессиональной деятельности, целевых установок такой деятельности, научить педагога, прежде всего, проектировать учебный процесс, основанный на принципиально новых дидактических возможностях информационной образовательной среды. Именно образовательная среда на базе средств ИКТ способна придать учебному процессу те качества, которые обеспечат достижение востребованных современным обществом образовательных результатов.

Таким образом, новые образовательные результаты могут быть достигнуты только в процессе освоения современных видов учебной деятельности, т.е. в инновационном образовательном процессе, выстроенном в информационной образовательной среде. Использование для построения образовательной среды средств ИКТ существенно расширяют её интерактивные возможности, намного увеличивают визуализацию учебного материала, обеспечивают оперативный контроль и коррекцию результатов учебной деятельности, обеспечивают доступ к новым источникам учебной информации, предоставляют слушателям средства решения учебных и практических задач, формирующих исследовательские, проектировочные умения, творческий характер их деятельности.

Многие годы проектировочный компонент профессиональной деятельности педагога был ограничен рамками типовой учебной программы, логикой построения учебника, последовательностью изложения в нём учебного материала, жёсткими методическими рекомендациями, готовым набором учебных задач и т.д. Иначе говоря, проектировочная деятельность педагога сводилась, как правило, к решению частных методических вопросов в рамках предписанного нормативной базой и единой унифицированной средой образовательного процесса.

В настоящее время ситуация принципиально изменилась. Запросы современного общества к результатам образования, многообразие образовательных систем, право педагога на выбор методов и средств обучения и, наконец, резко возросшие дидактические возможности информационной образовательной среды на базе средств ИКТ поставили перед преподавателем задачу и обеспечили ему условия для самостоятельного проектирования учебного процесса, отвечающего его методическим потребностям и убеждениям и направленного на достижение современных образовательных результатов. Всё это позволяет нам рассматривать проектировочный компонент как ключевой в профессиональной деятельности современного педагога.

Готовность педагогов к эффективной работе в новой информационной образовательной среде имеет два аспекта: во-первых, готовность к оперированию средствами информационных и коммуникационных технологий и, во-вторых, готовность к их применению для совершенствования учебного процесса и достижения современных образовательных результатов.

Анализ практики подготовки педагогов в педагогических вузах и системе повышения квалификации показывает, что первая составляющая реализуется, в целом, удовлетворительно, а её методические основы были предметом исследования ряда научных работ ведущими отечественными и зарубежными учеными. Суть второго компонента готовности состоит в понимании того, что педагогическая эффективность использования средств ИКТ определяется не стремлением повысить эффективность традиционного образовательного процесса, а тем, что

они должны изменить сам образовательный процесс, создать условия для достижения принципиально новых образовательных результатов. Это обуславливает приоритетное место освоения проектировочной деятельности педагога в информационной образовательной среде в числе других компонентов его профессиональной деятельности. Но именно неготовность педагога к проектированию учебного процесса в информационной образовательной среде, основанной на использовании средств ИКТ, является сегодня наиболее слабым звеном в методической подготовке обучаемого.

При этом целый ряд фундаментальных методических проблем, связанных с подготовкой педагога к проектированию учебного процесса в информационной образовательной среде и выделением проектировочного компонента в его профессиональной деятельности в качестве ключевого, остается за пределами интереса исследователей и разработчиков.

Недостаточная методическая разработанность подготовки педагога к проектированию учебного процесса в информационной образовательной среде на базе средств ИКТ обусловлена следующими основными факторами:

- ориентация содержания подготовки и повышения квалификации педагога на использование средств ИКТ в ходе традиционного образовательного процесса, а не образовательного процесса, построенного с ориентацией на дидактические возможности новой образовательной среды, вследствие чего существенно снижается эффективность такой подготовки;

- опыт, накопленный в этой области крайне ограничен, и он не стал достоянием массового педагога, следовательно, в процессе освоения нового содержания проектировочного компонента профессиональной деятельности педагога требуется развитие коммуникативных форм деятельности, направленных, в частности, на оценку, обобщение, распространение и внедрение в практику передового опыта и обоснованных инноваций;

- отсутствие необходимой материально-технической базы, кадровых ресурсов в каждом отдельном образовательном учреждении, что актуализирует проблему интеграции данных ресурсов в формате сетевого взаимодействия таких учреждений, как современной организационной формы повышения квалификации педагогов.

Анализ содержания этих факторов позволяет утверждать о наличии существенных противоречий, которые определяют основную проблему, исследуемую в нашей работе: несоответствие дидактического потенциала средств ИКТ и информационной образовательной среды, построенной на их основе, и готовности педагога эффективно использовать этот потенциал в силу недостаточной разработанности методической системы непрерывного повышения квалификации педагогов к работе в информационной образовательной среде.

Отметим также, что принципиальным отличием современного подхода к обновлению содержания непрерывного повышения квалификации педагогов является усиление ориентации на новые образовательные результаты. В психолого-педагогической науке разработана деятельностная парадигма образования, постулирующая в качестве цели образования развитие личности обучаемого, в том числе, на основе освоения универсальных способов деятельности. Процесс обучения понимается не только как усвоение системы знаний, умений и навыков, составляющих когнитивную и инструментальную основу компетенций обучаемого, но и как процесс развития личности, обретения социального опыта. Если приоритетом нынешнего общества и системы образования является способность вступающих в жизнь молодых людей самостоятельно решать встающие перед ними новые, ещё неизвестные задачи, то результат образования «измеряется» опытом решения таких задач. Тогда на первый план наряду с общей грамотностью выступает умение слушателей курсов повышения квалификации, например, умение находить недостающую информацию, выдвигать гипотезы, работать в проектном режиме, проявлять инициативу в принятии решений, прогнозировать ситуацию, находить способы решения задач и т.д. Это и становится одним из главных ожидаемых результатов обучения. Такие новые образовательные результаты возможно достигнуть в современной информационной образовательной среде.

В современном научном знании информационная среда трактуется в трех вариантах: 1) одна из сторон деятельности, при которой человек рассматривается как участник

коммуникационного процесса; 2) как система исторически сложившихся форм коммуникации; 3) как созданная всем обществом информационная инфраструктура, позволяющая осуществить коммуникативную деятельность в масштабах, соответствующих уровню развития этого общества.

Анализ существующих определений информационной образовательной среды позволяет нам сделать вывод, что информационная образовательная среда - это совокупность (скорее, система) информационной, технической и учебно-методической подсистем, целенаправленно обеспечивающих и оптимизирующих учебный процесс и ориентирующих его участников на получение новых образовательных результатов.

Данная трактовка обусловлена ещё и тем, что новая информационная образовательная среда обладает рядом современных дидактических характеристик, к числу которых следует отнести – гибкость, целостность, открытость, вариативность, полифункциональность, интерактивность, развитую визуализацию, оперативный контроль учебных достижений, доступ к разнообразным источникам учебной информации, организация индивидуальной работы слушателей, развитие их познавательной самостоятельности и творчества средствами ИКТ, возможность использования новых педагогических инструментов для решения учебных задач (тем самым, расширяя круг решаемых задач), возможность перехода к принципиально новым моделям изучаемых процессов и объектов с возможностями их анализа, исследования и экспериментов с ними и т.д. Кроме того, информационная образовательная среда позволяет реализовать дидактические возможности инновационных педагогических технологий, эффективно организовать индивидуальную и коллективную работу слушателей, обеспечивая тем самым целенаправленное развитие их самостоятельной и познавательной деятельности.

Важно отметить, что в информационной образовательной среде меняются и методы обучения. К таким инновационным методам мы относим: обучение на основе информационных ресурсов, ассоциативный метод, методы, основанные на использовании искусственного интеллекта (метод «вынужденных предположений», метод прецедента, учебное компьютерное моделирование, обучение посредством телеконференций и др.)

В связи с такой постановкой проблемы меняются и требования к непрерывному повышению квалификации педагогов. Отсюда следует, что для формирования профессиональных качеств современного педагога, необходимых ему для работы в информационной образовательной среде, таких, как: способность выстраивать образовательный процесс, направленный на достижение слушателями новых образовательных результатов, в соответствии с их возрастными особенностями: конструировать содержание, методы и технологии обучения на основе деятельностного подхода; использовать разнообразные формы организации учебной деятельности обучаемого, стратегий проектного, модульного обучения, методически обусловленных возрастными и личностными особенностями слушателей; проектировать и осуществлять профессиональное самообразование на основе средств ИКТ – необходимо усовершенствовать существующую систему повышения квалификации педагогов.

Литература

1. Атанасян С.А Теоретические основы формирования информационно-образовательной среды вуза. Монография/Воронеж: Научная школа, -2008. 200с.
2. Баграмян Э.Р., Чернобай Е.В. Роль современной системы повышения квалификации педагогов в подготовке педагога нового поколения// Международные научные исследования. – 2011. – №1-2. С.55-57.

UDK:158:008

INSON KAMOLOTINI TA'MINLASHDA MADANIY OMIL: STRUKTURAVIY-FUNKSIONAL JIHAT**R.S.Samarov**

TDTU professori, fals.f.d., psixol.f.n.

E-mail: samariyon@mail.ru

Maqolada inson kamolotini tarkibiy qismlari va ularning shakllanishida madaniy omilning ta'siri masalasiga doir munosabat bildirilgan. Bunda, badiiy adabiyotning roli va vazifalari misol tariqasida tanlangan bo'lib, badiiy asarning tili va kitobxonning tili orasidagi tafovut misollar yordamida ko'rstaib o'tilgan.

Kalit so'zlar: inson, manaviyat, individual ma'naviyat, individual ma'naviyatning tuzilishi, madaniy tizim, qadriyatlar, shaxsiy qadriyatlar, ijtimoiy institut, kamolot, kamolot nazariyasi, badiiy til, kitobxon tili, madaniy jarayon, ijodiy faoliyat.

Функционально-структурный роль роль культурного фактора в развитии человека

В статье анализируется вопрос развития человека и формирования структурных компонентов. На примере художественной литературы автор анализирует язык произведения и язык читателя. Литература выполняет несколько функций в становлении личности.

Ключевые слова: человек, духовность, индивидуальная духовность, структура индивидуальной духовности, культурная система, ценности, личностная ценность, социальный институт, теории развития, художественный язык, язык читателя, культурный процесс, творческая деятельность.

Functional role of a cultural factor in development of the person

In article the question of development of the person and formation of structural components is analyzed. On an example of fiction the author analyzes language of product and language of the reader. The literature carries out several functions in formation of the person.

Keywords: spirituality, structure of individual spirituality, cultural system, literary genre, literary hero, values, social institute, theories of development, art language, cultural process, creative activity.

Inson kamolotini¹ ta'minlash masalasiga oid turli ta'limotlar yaratilgan bo'lib, ularda turli fanlarning yutuqlariga asoslangan holda ilmiy qarashlar majmuasi yaratilgan. Inson, ijtimoiy-biologik mavjudot bo'lganligi hisobidan, unda jismoniy, ma'naviy va psixologik xossalari mujassamlashgan bo'ladi. Shu sababli, inson kamoloti deganda o'z tuzilishiga ega bo'lgan uchta xossani yaxlit tarzda sathiy ko'rishda muvozanatda ifodalanishini tushunish maqsadga muvofiq. Bu jarayon ko'p qamrovli, turli ijtimoiy institutlarning hamkorlikda faoliyat yuritishini taqozo etadi. Adabiyot esa, ijtimoiy institut sifatida insonni ma'naviy va psixologik jihatlaridan kamolotini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Boshqacha aytganda, munosabatlar tarzini tartibga keltiruvchi, baholovchi, hayot tarzini, maqsadni, xulq namunasini, dunyoqarashni shakllantiruvchi, qadriyatlarni tarkib toptiruvchi va rivojlantiruvchi, me'yorlarni belgilab taskin beruvchi², tafakkur tarzi³ va hissiyotlarning maqbul tarzini ifodalashni o'rgatuvchi va targ'ib etuvchi kabi vazifalarni bajaradi.

Insoniy kamolot yo'lini ta'minlashda adabiyotning o'rnini boshqa biron bir madaniy-ma'rifiy majmua bosaga olmaydi. Bizningcha, adabiyot (jumladan badiiy adabiyot) aniq tabiiy til vositasida

¹ Kamolot (كَمَالٌ) zohiriy va botiniy fazilatlarini to'liq shakllanganligi, kamolni jami. Kamol (كَمَالٌ) esa, mukammal, to'liq degan ma'nolarni anglatadi.

² Bizningcha, psixologik yordam ko'rsatish tizimida vosita sifatida biblioterapiyani tanlanishi, adabiyotning tasalli berish vazifasini yuqori mahsuldorligi bilan asoslanadi. Chunki biblioterapiya uchun, har qanday adabiyot (muallif, janr, matn) tavsiya etilmaydi.

³ Adabiyot va falsafni ajratish jarayonida uslubiy qiyinchiliklar kechadi. Uning sabablaridan biri adabiyot boshqa vazifalariga qaraganda tafakkurni shakllantirish vazifasini yaqqol ifodalanganligi sabab bo'lishi mumkin.

bayon etilgan, aniq hajmga (janr ko'inishiga) ega bo'lgan matnni⁴ qamrab olib, ma'lum mazmunni ifodalab berishi, biron bir g'oyani shakllantirishi, me'yorlarni ko'rsatilganligi va hayotining biron sohasiga taalluqligi jihatidan dunyoviy, diniy, ilmiy va amaliy kabilarga ajratiladi.

Adabiyot yaxlit ijtimoiy-madaniy majmua sifatida maishiy-madaniy, ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy-madaniy, siyosiy-madaniy, huquqiy-madaniy, tibbiy-madaniy kabi g'oyalarni mujassam etib, qaysi tilda yaratilgan bo'lsa, o'sha til sohiblarining kechinmalari, intilishlari, xotiroti, hayot tarzini in'ikos etadi. Shu tariqa, adabiyot milliy qadriyatlarni shakllantirib (takomilini ta'minlab), uni umuminsoniy qadriyatlar darajasigacha chiqrish uchun funksional ta'sir ko'rsatib, milliy madaniyatni targ'ib etib, dunyo manzarasining badiiy tasvirini takomillashtiradi. Bu o'z navbatida adabiyotning **ma'naviy** va **polimorfizm** tizimlarini shakllantirishidan dalolat beradi. Ya'ni, adabiyot **ma'naviy** va **polimorfizm** tizimlarini yaratib, jamiyatning ijtimoiy va madaniy tizimini amal qilishi uchun, tizimosti (podсистема) tarzida ishtirok etadi. Bu, o'z navbatida adabiyotni milliy-ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash vositasi sifatida ham idrok etishni taqozo etadi. Negaki har qanday g'oya adabiyot vositasida, qahramonlarning siymosi, hissiy kechinmalarini ta'siri asosida yoki yordamida moddiylashadi. Garchi, **ma'naviy tizim**, turli tarixiy davrlarda bo'lib o'tgan ilmiy munozaralarning mavzusi bo'lib kelganligini va bugungi kunda, ya'ni globallashuv jarayonida milliy ma'naviyatni haphabop "ma'naviyat shakli" (model tarzida) vositasida turli axboriy kanallar orqali siqib chiqarish avj olgan zamonda, milliy ma'naviyatni saqlab qolishda amaliy mazmun kasb yotganligini inobatga olsak. Adabiyot, ma'naviyatni funksional sharhini alohida inson (qahramon) siymosida (individual ma'naviyat (shaxsiy qadriyatlar tizimi emas) tarzida) ifodalab berishga qodir ekanligini alohida ko'rsatib o'tish lozim. Aynan ana shu ifodalab berish asnosida ijodkorning ijodiy faoliyati psixologik jihatdan baholanadi. O'quvchi madaniy zavq olib, asar qahramonining shaydosiga aylanib qoladi. Shu sababli bo'lsa kerakki, oilada farzand tug'lsa, biron asarning qahramonini nomini tanlab qo'yishadi. Chunki o'sha qahramonni hayot tarzi, o'zini namoyon etishi, har xil vaziyatlarda insoniylikni saqlay olgan holda ish tutishi, o'quvchini o'ziga rom etgan bo'ladiki, buni adabiyotni madaniy zavq bag'ishlab, odamiylikni shakllantirish uchun xizmat qilishi deb ko'rsatsak ma'qul.

Ma'naviyat, individual tarzda alohida insonning surati va siyrati orasidagi muvozanatni ta'minlab, akkumilyativ vazifani bajaradi. Akkumilyativ vazifani bajarishi "... ma'naviyatning tarkibiy qismlari hisoblanmish: -maqsad, real e'tiqod, bilim, aql, orzu-umidlar, xotira, did, tamiz⁵, tuyg'ular, insonni o'ziga va atrofdagilarga bo'lgan munosabati, qadriyatlari..." [4] kabi unsurlarni yaxlit tarzda ovoz, tana a'zolarining harakati, qadam qo'yish, qarash, idrok etish, predmetga ramz solish, atrofdagilar va o'ziga bo'lgan munosabat xarakteri, talabini bildirish, manfaatlarini himoyalay olishi, ehtiyojlarining qondirish uchun tanlangan yo'l tarzida namoyon etishida ifodalanadi. Shu sababli, jamiyatda adabiyotga, aniqrog'i, uning turli janrlariga o'quvchini munosabati o'zgarib turadiki, bu nafaqat ularning ma'naviy ehtiyojini qondirish yoki qondirmasligiga bog'liq, balki ibrat uchun yaratilgan zamon qahramoni siymosini to'liq tasvirlab berishga ham bog'liqdir. Buni belgilab olish uchun (ilmiy yondashuv nuqtai nazar asosida) bazaviy ehtiyojlar qatoridan joy olgan ma'naviy ehtiyojlarni ijtimoiy-psixologik diagnostikasini o'tkazish talab etiladi. Shu yo'l asosida ijtimoiy buyurtmachi hisoblanmish jamiyatning talabi qondiriladi.

Ijtimoiy-psixologik diagnostika ijtimoiy falsafa, ijtimoiy psixologiya va sosiologiya fanlari doirasida o'tkazilishi lozimki, mazkur, ularni diagnostik va prognostik vazifasiga kiradi. Ijtimoiy-psixologik diagnostika vositasida jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy holatni, aniqrog'i, joriy munosabatlarning xarakteri, rahm-shavqatni, xayrxohlikni, oqibatlilikni, samimiylilikni, andishalilikni, sabrlilikni, mehr ko'rsatishni, g'amxo'rlik, millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglikni hayotda ifodalanganlik darajasini baholab beradi. Shundan so'nggina, ilmiy muammo belgilanib, uni o'rganish tarzi aniq metodologiya asosida amalga oshiriladi. Shu tariqa, nazariya va amaliyot birligi tamoyilini amal qilinishi ta'minlanadi.

Masalaga ilmiy-an'anaviylik nuqtayi nazar bilan qaraganda, ta'kidlash lozimki, adabiyot, aniq makon va tarixiy davrning ijodiy tafkkurining hosilasi sanalib, o'sha davrning badiiy manzarasini,

⁴ Matn (مَتْن) sharh va iqtibosdan tashqari asl kitob.

⁵ Tamiz (تَعْيِيز) yomonni yaxshidan ajratish, farqlay olish. Amir Xusrav Dehlaviy bu xususda shunday yozadi: "Kimda tamiz kamdir, odamiylik kam, O'lik misolidir tiriklikda ham". Xusrav Dehlaviy she'riyatidan. – T.: O'zbekiston, 1979. 120 –bet.

mavjud ruhini in'ikos ettirish bilan birga, uning istiqboldagi rivojlanish yo'llarini belgilash uchun rag'bat (stimul) berishi lozim. Adabiyot tarixidan ma'lumki, juda ko'p badiiy syujetlar ilmiy tadqiqotning ishchi farazi sifatida tanlanib, tajribalar asosida ifodalab berilgan. Mazkur ijtimoiy-psixologik xususiyat ijodkorning (shoir, yozuvchi, dramaturg, ssenarist, rejissyor, bastakor va b.) shaxsi, mikroduyosi, mahorati va prognostik qobiliyatiga bog'liq bo'lib, bunda ijodkor tizimli idrok va tafakkur sohibi sifatida quyidagi mavzularni tasvirlab berish iqtidorini ishtirok etishini alohida ko'rsatib o'tish lozim:

- insonning yaqinlariga, jonzotlarga va buyumlarga, tabiatga nisbatan zo'ravonligini;
- "Men", "Biz" va "Ular" kabi maishiy-ijtimoiy birliklardagi bog'lovchi va ayiruvchi tarkiblarni;
- hayotdan zavq olish tarzi, nafrat hissini namoyon etmaslik sabablarini;
- o'zlikni saqlash, oliy hissiyotni namoyon etish, hamda aniq xulq strategiyasiga ega bo'lishni;
- "Inson-Inson", "Inson-Maishiy-madaniy muhit", "Inson-Millat va boshqa millat vakillari", "Inson-Fan va texnika", "Inson-Oila", "Inson-E'tiqod va ehtiyoj", "Inson-Orzu va umid" kabi munosabatlarning avtonom tuzulishi va funksional aloqadorligini;
- Insonni moddiy, ma'naviy va jismoniy kabi ehtiyojlari va ularni qondirish uchun tanlangan yo'l hamda e'tiqodning mohiyatini;
- ishlab chiqarish va xayolot olami, bozor munosabatlarining tuzilishi va axloq me'yorlarini ishtirokini;
- hayvonot va nabotot olamini inson hayoti bilan taqqoslab, umumiylik va xususiylikni ko'rsatishni;
- ma'naviy va moddiy qadriyatlarning yaratilishi, sayqal topishi va uni avaylash hikmat ekanligini;
- inson qadriyat ekanligini, uni anglash uchun ma'lum bir fazilatlarga ega bo'lish lozimligini va b.

Maishiy va ijtimoiy hayotda biron bir mavzuning dolzarblashuvi, ya'ni madaniy siyosiy lashuvini gohida ijodkor-insonning shaxsi bilan, ba'zida esa u tomondan yaratilgan matn yordamida tasvirlangan siymolarni hayotiyli bilan bog'lashadi. Buning natijasida zamon va ijodkor, milliylikni tasvirlovchi shaxs, ijodkor va namunai ibrat (etalon), ma'naviy talab va ijodkor, ijod va subyektiv kechinmalar tarzida yondashib, dolzarblashgan mavzuni sharhi amalga oshiriladi. Bizningcha, yana uni takomillashuvini ta'minlash maqsadadida, bu jarayonda aniq bir makonda yuzaga kelgan maishiy, iqtisodiy, madaniy, siyosiy kabi vaziyatlarni, aniqrog'i joriy holatini ideal holatga yetkazish uchun zamin yaratilganligi kabilarga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Ijodkor aniq ijtimoiy-madaniy muhitning, vaqt va jarayonning bunyodkori, ishtirokchisi, kuzatuvchisi, yo'naltiruvchisi sifatida ijod mahsulini yaratadi. Ijod mahsuli esa, turli janr shaklida badiiy adabiyotga taalluqli bo'ladi. Bu o'z navbatida jamiyat a'zolarining kitobxonlik darajasini vaqti vaqti bilan dinamik tahlilini amalga oshirib, jamiyatda namoyon bo'ladigan maishiy va ijtimoiy mazmundagi qusurlarni isloh qilish uchun, o'tkaziladigan ma'rifiy tadbirlar yo'nalishini begilab olish jarayonini samarali kechishini ta'minlaydi.

Inson, ijtimoiy-biologik xilqat bo'lganligi uchun ham statik mazmun emas, balki dinamik mazmun kasb etadi. U, kamol topishga moyil (o'zgaruvchan) hisoblanganligi uchun kamolot sari ongli tarzda qadam qo'yib, o'zi uchun ma'lum bo'lmagan hodisa va holatlarni o'rganishga intilib, turli hukm chiqarib, o'zining hayot yo'lini belgilab oladi. Hamma o'ziga to'g'ri baho bera olmaydi, negaki o'zini yaxlit tarzda idrok etishga qodir emas. Adabiyot esa, badiiy siymolar yordamida, turli syujetlar vositasida (ko'zgu tarzida) o'zini o'zi idrok etishga o'rinadi. Inson, o'zini idrok etib, o'z tabiatining qandayligini, umr guzaronlik qilishdan ko'zlangan maqsadi nimadan iborat ekanligi, nima "yaxshi"yu nima "yomon"ligini bilib oladi. Ana shu "yaxshi" va "yomonlik"ni ajrata olishda, ularning mohiyatini anglashda adabiyot ustanovka beruvchi, me'yorlarni saralab beruvchi va shakllantiruvchi sifatida amaliy o'rin tutadi. Adabiyot maishiy, madaniy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ekologik va madaniy ong hamda axloqiy hamda kasbiy tafakkur tarzi va dunyoqarashni shakllantirish (rivojlantirish) uchun xizmat qilishi natijasida, falsafiy refleksiya qamroviga taalluqli bo'lgan vaziyatli dunyoqarash muammosi bilan to'qnashib, uni "yechim" yo'lini belgilab berish uchun xizmat qiladi. Adabiyotda, badiiy janr ko'rinishida inson hayoti va faoliyatiga doir falsafiy g'oyalar majmuasi shakllanadiki, insonning hayot-faoliyatini o'rganuvchi fanlarda uni "Inson konsepsiyasi", "Kamolot nazariyasi", "Kamil inson ta'limoti" deb ham yuritishadi.

Zamondoshimiz Xurshid Do'stmuhammadning "Qichqiriq" hikoyalar majmuasidan joy olgan Shabada [5] nomli hikoyada Komron siymosida "istayman", "qo'limdan keladi", "orzuyimmi yoki xom xayolmi?" va "borini asrash kerakmi yo..." tarzida ifodalanadigan kechinmalarning ziddiyati mahorat bilan tasvirlangan bo'lib, yozuvchi Komronni yaxlit "MEN"i tizimida "hissiy meni"ning dominantligini va "aqliy meni" bilan keskin tafovutda ekanligini ko'rsatib berishga musharraf bo'lgan. Bu jarayonda Mirsayid tog'a (badiiy siymo sifatida) muvozanatni ta'minlovchi, oqibat va andishaga chorlovchi, oru nomus va sharaf borligini bildiruvchi (psixologik nuqtai nazardan, Komronni "MEN"ini to'ldiruvchi, tartibga chorlovchi) sifatida qatnashgan. O'quvchi hikoya bilan tanishgach, hayotiy voqyealarni idrok etish me'yorini, hissiy kechinmalarning ta'siri asosida tafakkur tarzini amal qilishini, mulohaza yuritish odobini, subyektiv hukm chiqarishda ishtirok etuvchi xossalarni amal qilishini bilib oladi. Va, naxodki?-degan savol bilan o'ziga murojaat etib, hissiy kechinmalarni "tartibga keltirish" masalasi haqida o'zi bilan o'zi munozaraga kiradi.

Yozuvchi, o'quvchini shaxsiy va oilaviy munosabatlarda kuzatilishi mumkin bo'lgan vaziyatga tushirish maqsadida, "aqlni charxlash psixotexnikasi"dan foydalanib, hikoyaning ibtidosini "Ishora" [5] bilan boshlagan bo'lsada, o'quvchiga ta'sir ko'rsatish uchun nasriy va nazmiy shakldagi matnlarda kuzatiladigan "Emosional effekt"dan o'rinli foydalanganiki buni ijodiy muvaffaqiyatning namunasi deb ko'rsatish mumkin.

Adabiyotda, zamona qahramonini yaxlit siymosini yaratish va o'quvchilarga yetkazish jarayoni murakkab kechadi. Va, bu tabiiy holat hisoblanadi. Chunki "kecha(o'tmish)▲bugun(hozir)▲erta(kelajak)" kabi hayot tarzida amal qiladigan maishiy va ijtimoiy me'yorlar, qadriyat va ideallar dinamik mazmun kasb etishi natijasida, o'zgarib turadi (joyini o'zgartiradi, takomillashadi, mohiyatini yo'qotadi). Aynan, o'zgarish sabablarini faylasuf, tarixchi, psixolog va munaqqidlar asoslab berishlari lozim bo'ladi. Agarda, madaniy jarayonda badiiy matnni yaratuvchisi va uning iste'molchisi orasida matnni idrok etish yuzasidan tafovut (matnni yaxlit tarzda idrok etamolmaslik tufayli vujudga keladigan masofa) vujudga kelganligini inobatga olsak, bunda nafaqat **Inson kamolotini ta'minlashda badiiy adabiyotning roli** mavzusi, balki metodologik vazifa ham dolzarbligicha qolmoqda. Negaki, insonning kamolotga yetishini ta'minlashda falsafiy, psixologik, sosiologik, pedagogik ta'limotlar yaratilgan. Ammo ularni birlashtirilgan yaxlit tarzi Inson psixologiyasi (ayrim manbalarda insonshunoslik deb ham yuritishadi) ko'rinishida yaratilmagan. Mazkur nazariya bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarning zimmasida turgan, o'z yechimini topishi shart bo'lgan masala hisoblanadi.

Bugungi kunda, badiiy adabiyot va o'quvchi orasida joriy etilgan me'yorlarning chegarasi kengayishi yoki torayishi natijasida o'quvchi matni va yozuvchi matni kabi dilemlar vujudga kelgan. Bu holat, o'z navbatida badiiy matnlarni uch guruhga, **ijtimoiy** (kommunikatorni faoliyatini tasvirlovchi), **psixologik** (shaxsning strukturasini ifodalovchi) va **lingvistik** (istiora, kinoya, radif, qofiya tarzidagi bayonlar tarzi) kabilarga ajratgan holda o'rganishni amalga oshirishni taqozo etadi. Bu, o'z navbatida badiiy adabiyot voqyeani vujudga kelishi va kechishi jarayonida qahramonlarni kechinmalarini, atrofdagilarni munosabatini, xulq namunasini tasvirlab berish yoki sharhlash, aqliy va hissiy sohalarini rag'batlantiruvchi so'z va iboralardan o'quvchiga ta'sir ko'rsatish maqsadida foydalanish (ifodalab berish) bilan chegaralanib qolmasligini ta'minlashga erishishni taqozo etadi. Buning uchun, milliylikning tamal toshi hisoblanmish individual ma'naviyatni shakllantirish masalasiga e'tibor qaratish lozim. Individual ma'naviyatni shakllantirishga ta'sir ko'rsatadigan omilla talaygina. Bunda adabiyot ko'pfunksionalligi jihatidan alohida mazmaun kasb etadi. Bu o'z navbatida ma'rifiy faoliyatda qo'llaniladigan usul va vositalarning maqsadi, vazifalarining aniq ko'rsatilishi bilan birga, o'quvchilarning yoshi, yashash hududi, madaniy mansubligi kabi xususiy etnomadaniy-demografik tarkiblarni ilmiy asoslanishini taqozo etadi. Shundagina ijodkor matni va uning iste'molchisi orasida matnni yaxlit tarzda idrok etish, "hazm qilish"da kuzatilayotgan uzilish bartaraf etiladi. Uzilish ta'minlanmagan taqdirda, bir marotabali-"savdogar asar" qabiliga mansub bo'lgan namunalarning soni oshib boradi. Milliy ma'naviyatni himoyalash tizimini izdan chiqarishga qaratilgan tahdidlarning soni oshib boradi. Va, shu tariqa o'quvchida go'zallikdan bahramand bo'lish zavqi, go'zallikka baho berish didi, muloqot madaniyati, munosabatlarda amal qilinishi shart bo'lgan me'yorlar ham shakllanib, turli salbiy unsurlarning ta'siriga tushmaslik uchn individual himoya qabog'i tarkib topadi. Shu sababli, jamiyatda badiiy adabiyotni o'qish dinamikasini baholashda inson qadriyat va o'zaro munosabatlarda axloqiy me'yorlarning saqlanishi fazilat ekanligini targ'ib etishga,

o'quvchida tafakkur madaniyati, idrok me'yorini shakllantiruvchi, xayirli ishlarni bajarishga yo'naltiruvchi, munosabat bildirish (baho berish, hukm chiqarish) oqibatida kishilararo paydo bo'ladigan maishiy munosabat tarzi, psixoemosional holatni ta'minovchi individual ma'naviyat xossalarini tasvirlovchi asarlarning yaratilishi va targ'ib etilayotganligiga e'tibor qaratish lozim.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Xurshid Do'stmuhammad. Qichqiriq: Yangi hikoyalar. – Toshkent: Sharq, 2014. – 3-47-bet.
2. Xusrav Dehlaviy she'riyatidan. – Toshkent, 1979. 120 –bet.
3. Samarov R. Axborotning psixologik xavfsizligini ta'minlash mexanizmi // Uslubiy qo'llanma. – Toshkent: Universitet, 2015. – 6-bet.
4. Axborotning psixologik xavfsizligini ta'minlash mexanizmi // Uslubiy qo'llanma. – Toshkent: Universitet, 2015. – 6-bet.

UDK: 331.5

DAROMADLAR VA XARAJATLARGA DOIR HISOBOTLARNI XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQ TAKOMILLASHTIRISH**S.N.Tashnazarov***Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, dotsent*E-mail: tashnazarov68@mail.ru

Ushbu maqolada moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarga muvofiq daromad va xarajatlarning tarkibi keltirilgan. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va xulosalar ishlangan.

Kalit so'zlar: tushumlar, asosiy daromadlar, asosiy bo'lmagan tushumlar, xarajatlar, korxonaning odatdagi faoliyati bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar va odatdagi faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlar.

Совершенствование отчета доходов и расходов согласно международным стандартам

В статье рассматриваются вопросы о доходах и расходах предприятия согласно международным стандартам финансовой отчетности и предлагаются пути их решения.

Ключевые слова: выручка, основной доход, неосновная выручка, расход, расход в связи и вне связи с деятельностью предприятия.

Enhancing of statements of revenues and expenses according international standards

This article considers the constitution of income and expenses in accordance with International Financial Reporting Standards. The scientific conclusions and suggestions for improving the reporting on the financial resources is developed.

Keywords: revenue, the main income, non-core revenues, expenses, expenses related to the ordinary course of business, expenses not related to the ordinary course of business.

O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonunning yangi tahriri 7-moddasida "Aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, zahiralar, daromadlar, xarajatlar, foyda va zararlar va ularning harakati bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalari buxgalteriya hisobining obyektlaridir" deb ta'kidlangan [1].

Daromadlar va xarajatlar to'g'risida buxgalteriya hisobining obyekti sifatida moliyaviy hisobotlarda axborotlarni shakllantirishda ularning ilmiy asoslangan tasnifi muhim rol o'ynaydi. Shu bois, daromadlar va xarajatlarning amaliyotimizdagi tarkibi va ularning tasniflanishi, bu borada ilg'or xorijiy tajribalar va xalqaro standartlarda keltirilgan qoidalarni tadqiq etish va shu asosda yakuniy moliyaviy natijalar to'g'risidagi moliyaviy hisobotni takomillashtirish masalalari o'ta dolzarbdir.

Buxgalteriya hisobining xalqaro konseptual asoslarida (2, 85-b.) tushumlar (income) **asosiy daromadlar** (revenue) va asosiy bo'lmagan bo'lmagan tushumlarga, ya'ni **naflarga** (gains) ajratilgan.

Xalqaro standartlarga binoan, asosiy daromadlar tarkibiga korxonaning odatdagi faoliyati davomida yuzaga kelgan, turli xil jumladan, realizatsiya, rag'batlantirishlar, foizlar, dividendlar, royalti va ijara daromadlari kiritilgan.

Shundan kelib chiqib, asosiy faoliyat bilan bog'liq daromadlarni ikki guruhga ajratish mumkin:

1) operatsion faoliyatdan olingan daromadlar (tovar, mahsulot, ish va xizmatlar realizatsiyasidan olingan daromadlar);

2) moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar (royalti, dividend, foizlar, ijara daromadlari).

Asosiy bo'lmagan tushumlar, ya'ni naflar tushumlar tavsifiga (aniqlanishiga) javob beradigan va u korxonaning asosiy faoliyati natijasida yuzaga kelishi yoki yuzaga kelmasligi mumkin bo'lgan boshqa moddalardir. Bularga joriy bo'lmagan aktivlarni tasarruf qilishdan olingan foyda, sotishga qobiliyatli qimmatli qog'ozlarni qayta baholashdan olingan naflar, valyuta kursi farqi, kreditorlik qarzlarini hisobdan chiqarishdan olingan naflar, qaytarilmaydigan moliyaviy yordamlar, olingan penya, jarima va neustoykalar, hisobot davrida aniqlangan o'tgan davrlar daromadlari va boshqa naflarni kiritish mumkin.

Xalqaro standartda [2, 68-69-b.] xarajatlar (**expenses**) korxonaning odatdagi (ordinary) faoliyati bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar va odatdagi faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlarga (**losses**) ajratilgan.

Buxgalteriya hisobining konseptual qoidalariga muvofiq, **“korxonaning odatdagi faoliyati bilan bog'liq xarajatlar – bu korxonaning odatdagi faoliyati kursi jarayonida yuz bergan, misol uchun sotish tannarxi, ish xaqi va depresiatsiya xarajatlarini o'z ichiga oladi.”**

Korxonaning odatdagi faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlari – bu korxona odatdagi kursi faoliyati jarayonida yuz berishi yoki yuz bermasligi mumkin bo'lgan xarajatlardir. Bunday xarajatlarga, jumladan, tabiiy ofat tufayli yuzaga kelgan zararlar, joriy bo'lmagan aktivlarni tasarruf qilish natijasida yuzaga kelgan zararlar, valyuta kursi farqi bo'yicha zararlar kiritilgan

Xalqaro va milliy standartlar talablaridan kelib chiqib xarajatlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1) odatdagi faoliyat bilan bog'liq xarajatlar:

1.1. Sotish tannarxi;

1.2. Operatsion xarajatlar;

2) moliyaviy faoliyat xarajatlari;

3) ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik xarajatlari;

4) odatdagi faoliyatga bog'liq bo'lmagan xarajatlar.

Odatdagi faoliyat bilan bog'liq xarajatlar tarkibida operatsion xarajatlar salmoqli o'rinni egallaydi.

Amaldagi xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizomda boshqa operatsion xarajatlarga sotish va ma'muriy xarajatlarga olib borish yoki taqsimlash qiyin bo'lgan moddalar kiritilgan. Lekin, uning tarkibini takomillashtirish zaruriyati mavjud. Bu boadagi fikr va xulosalarimizni keltiramiz:

Birinchidan, ko'pgina xarajatlarni sotish yoki ma'muriy xarajatlarga olib borish imkoniyati bo'lishiga qaramasdan ular boshqa operatsion xarajatlarga kiritilgan. Bizning fikrimizcha, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash xarajatlari, maslahat va axborot xizmati, auditorlik xizmati to'lovlari, bank va depozitariy xizmatlari xarajatlari ma'muriy xarajatlarga olib borilishi kerak. Chunki, boshqaruv xodimlari o'z faoliyatlari davomida zarur axborotlarga ega bo'lish uchun axborot xizmatini ko'rsatuvchi firmalar xizmatidan foydalaniladi yoki maslahat bilan advokatlik yoki auditorlik firmalariga murojaat qiladi. Ushbu moddalar menejerlarning o'z faoliyatlari doirasida amalga oshiradigan zaruriy ma'muriy xarajatlardir.

Ikkinchidan, boshqa operatsion xarajatlar tarkibidagi ayrim xarajatlar mazmun jihatdan ushbu guruhga mos kelmaydi. Bu xarajatlarga kompensatsiya va rag'barlantirish harakteridagi to'lovlar, ish haqini hisoblashda hisobga olinmagan to'lovlar, ishlab chiqarish jarayoniga bevosita bog'liq bo'lmagan moddiy boyliklarning yo'qolishlari va kamayishlari, byudjetga soliqlar va yig'imlar hamda davlat maqsadli fondlariga ajratmalarni kiritish mumkin. Bizning fikrimizcha, ushbu moddalarni u yoki bu xarajat turiga kiritishda uning qaysi faoliyat bilan bog'liqligiga alohida e'tibor berish kerak. Masalan, kompensatsion va rag'barlantirish to'lovlari ishlab chiqarish ishchilari, sotish yoki ma'muriy personallarga tegishli bo'lishi mumkin. Shunga qarab kompensatsiya va rag'barlantirish to'lovlarni ishlab chiqarish, sotish yoki ma'muriy xarajatlarga olib borish mumkin bo'ladi. Xuddi shu tamoyilda ish haqini hisoblashda hisobga olinmagan xarajatlarni ham ishlab chiqarish, sotish va ma'muriy xarajatlarga kiritish mumkin. Amaldagi qonunchilikka muvofiq, mol-mulk solig'i, ekologiya solig'i, suv uchun to'lov bo'yicha xarajatlarni ham qaysi faoliyatga bog'liqligiga qarab taqsimlash lozim deb o'ylaymiz. Masalan, mol-mulk solig'ini ishlab chiqarish, sotish va ma'muriy faoliyatdagi mol-mulklar nisbatiga qarab taqsimlash lozim. Chunki, yuqori texnologiyali korxonalarda mol-mulk solig'i salmoqli xarajat hisoblanadi va uning asosiy qismi ishlab chiqarish jarayonida foydalanilayotgan mashina va asbob-uskunalariga to'g'ri keladi. Bunday hollarda mol-mulk solig'ini operatsion xarajat deb e'tirof etish maqsadga muvofiq emas deb hisoblaymiz. Bu xarajat bevosita mashina va asbob-uskunalarni tutib turish bilan bog'liqdir. Shu sababli, ishlab chiqarish vositalari bilan bog'liq mol-mulk solig'i summasini ishlab chiqarish tannarxiga olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Xuddi shuningdek, ishlab chiqarish jarayonida foydalanilayotgan suv uchun to'lovlarni ham ishlab chiqarish xarajatlariga olib borish o'rinli bo'lar edi. Ushbu xarajatlarda ishlab chiqarish tannarxi, sotish va ma'muriy xarajatlar tarkibiga olib borish mumkin bo'lmagan xarajatlarni, jumladan, ekologiya solig'i,

aylanmadan pensiya fondiga ajratma, aylanmadan yo'l fondiga ajratmalarni boshqa operatsion xarajatlar tarkibida qoldirish mumkin.

Uchinchidan, boshqa operatsion xarajatlar tarkibiga mohiyat va mazmun jihatdan operatsion bo'lmagan xarajatlar ham kiritilgan. Bunday xarajatlarga o'z xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarish va xo'jaliklar zararlari, ishlab chiqarish zahiralari va tayyor mahsulotlarni eng kam bahoda yoki realizatsiyaning sof qiymatida qayta baholash yoki narxini tushirish, tara operatsiyalari bo'yicha zarar, asosiy vositalar realizatsiyasidan ko'rilgan zarar, jarima, penya va neustoykalar, hayr- ehsonlar, debitorlik qarzlarni hisobdan chiqarish moddalarini kiritishimiz mumkin. Bizning fikrimizcha, o'z xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarish va xo'jaliklar xarajatlari umumishlab chiqarish xarajatlari sifatida e'tirof etilib, ular mahsulot tannarxiga taqsimlanishi lozim. Ishlab chiqarish zahiralari va tayyor mahsulotlarni qayta baholash natijasida ko'riladigan zararlar bevosita ishlab chiqarish xarajatlari va sotish natijalariga ta'sir ko'rsatadi.

To'rtinchidan, fikrimizcha Nizomda keltirilgan yangi xo'jalik sub'ektlari, ishlab chiqarish, sex va agregatlarni o'zlashtirish xarajatlari, boshqarish tizimini takomillashtirish, yangi turdagi mahsulotlarni o'zlashtirish va amaldagisini takomillashtirish, yaratuvchanlik, ratsionalizatorlik, tajriba-eksperimentalar ishlar xarajatlari mazmun va mohiyati jihatidan operatsion xarajatlar emas. Bu xarajatlarni ko'proq ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari xarajatlari olib borish maqsadga muvofiqdir. Bu borada 11-son BHMS talablarini inobatga olish kerak deb o'ylaymiz. Standartga muvofiq, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotga aktivga aylanmagan tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari xarajatlarni alohida modda sifatida kiritish o'rinli bo'ladi. R.Libbi va boshqalar tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari xarajatlarni operatsion foyda aniqlangunga qadar alohida xarajat moddasi sifatida ifodalashni tavsiya qilganlar (3, 262-bet).

Korxona xo'jalik faoliyati davomida odatdagi faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlar yoki operatsion bo'lmagan xarajatlar yuz beradi, qaysiki yakuniy moliyaviy natijaga ta'sir etadi. Bunday xarajatlarning operatsion bo'lmagan deb atalishiga sabab, ularning yuz berishi yoki bermasligi biznesning asosiy operatsion faoliyati bilan bevosita bog'liqlikda bo'lmaydi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, korxonalarining odatdagi faoliyat kursi bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlar tarkibiga uzoq muddatli aktivlarni tassaruf qilishdan ko'rilgan zarar, tara operatsiyalari bo'yicha zarar, to'lanadigan jarima, penya va neustoykalar, valyuta mablag'lari kurs farqi bo'yicha ko'rilgan zarar, debitorlik qarzlarni hisobdan chiqarish, ko'rsatiladigan hayr-ehsonlar, moliyaviy yordamlar va favquloddagi xarajatlarni kiritishimiz mumkin bo'ladi.

Amal qilayotgan 21-sonli BHMSga muvofiq, schyotlar rejasida davr xarajatlarni hisobga olish uchun 9400-schyot mo'ljallangan. Lekin, schyotlar rejasida "ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik xarajatlari" va "odatdagi faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlar" uchun alohida schyotlar ko'zda tutilmagan. Yuqoridagi fikr va mulohazalar hamda 11-son BHMSning talablaridan kelib chiqib, 9440 schyotni "Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari xarajatlari" deb nomlash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Ushbu schyotda aks etuvchi xarajatlar tarkibini 11-son BHMSda keltirilgan moddalarga muvofiqlashtirish lozim bo'ladi. 9450-schyotni esa "Odatdagi faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlar" deb atash va uning tarkibida ushbu guruhga oid yuqorida qayd qilingan moddalarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot natijalaridagi fikr va mulohazalar asosida «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot»ning mukammallashtirish shaklini ishlab chiqdik (1-jadval).

Jadval 1

Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	O'tgan yilning shu davrida		Hisobot davrida	
		Daro-madlar (foyda)	Xara-jatlar (zarar)	Daro-madlar (foyda)	Xara-jatlar (zarar)
1	2	3	4	5	6
Tovar (mahsulot, ish va xizmat)lar realizatsiyasidan olingan yalpi daromad	010				
Qaytarilgan realizatsiya va narxini kamaytirish	020				
Taqdim qilingan chegirmalar	030				

Tovar (mahsulot, ish va xizmat)lar realizatsiyasi-dan olingan sof daromad (010-020-030)	040				
Tovar (mahsulot, ish va xizmat)larning sotish tannarxi	050				
Tovar (mahsulot, ish va xizmat)lar realizatsiyasidan olingan yalpi foyda (030-040)	060				
Davr (operatsion) xarajatlar, jami [080+090+100+110]	070				
Realizatsiya xarajatlari	080				
Ma'muriy xarajatlar	090				
Boshqa operatsion xarajatlar	100				
Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari xarajatlari	110				
Operatsion foyda (060-070)	120				
Boshqa operatsion bo'lmagan daromadlar	130				
Boshqa operatsion bo'lmagan xarajatlar	140				
Moliyaviy faoliyat bo'yicha daromadlar, jami [160+170+180+190]	150				
Dividend ko'rinishdagi daromadlar	160				
Foiz ko'rinishdagi daromadlar	170				
Uzoq muddatli ijara hisobidan olingan daromadlar	180				
Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa daromadlar	190				
Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar, jami [220+230+240]	200				
Foiz ko'rinishdagi xarajatlar	220				
Uzoq muddatli ijara foizlari bo'yicha xarajatlar	230				
Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar	240				
Umumxo'jalik faoliyati bo'yicha foyda (zarar) [120+130-140+150-210]	250				
Favqulodda foyda (zarar)	260				
Buxgalteriya hisobi usul (metod)lari o'zgarishi ta'siri	270				
Soliq to'lagunga qadar foyda [250+(-)260+(-) 270]	280				
Foyda (daromad) solig'i	290				
Yuqoridagi moddalarga kirmaydigan boshqa soliq va ajratmalar	300				
Hisobot davridagi sof foyda (zarar) [290-300]	310				

Direktor_____

Bosh buxgalter_____

Manba: Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

Mazkur hisobot shakli amaldagisidan quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi va xalqaro standartlar talablariga javob beradi:

1) Ushbu hisobot shakliga tovar (mahsulot, ish va xizmat)lar realizatsiyasidan olingan yalpi daromadlar, qaytarilgan realizatsiya va chegirmalar hamda taqdim qilingan chegirmalar ko'rsatkichlari o'z aksini topdi;

2) hisobot shaklida davr (operatsion) xarajatlari yangicha tarkibga asoslandi;

4) moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar va xarajatlarning xalqaro standartlarga muvofiq tarkibi taklif etildi.

3) hisobot tarkibiga operatsion bo'lmagan xarajatlar va operatsion bo'lmagan daromadlar hamda ilmiy-tadqiqot xarajatlari moddalari kiritildi;

4) Korxona hisob siyosatida belgilangan usullari o'zgarishining moliyaviy natijalarga ta'siri inobatga olindi.

Yuqorida bayon qilingan daromadlar va xarajatlarga oid moliyaviy hisobotini takomillashtirish bo'yicha berilgan xulosa va tavsiyalar korxonalar amaliyotida qo'llanilishi moliyaviy buxgalteriya

hisobida shakllanayotgan axborotlarning sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu tavsiyalardan buxgalteriya hisobiga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirishda ham foydalanish mumkin.

Tadqiqotlar asosida keltirilgan taklif va tavsiyalar korxonalarda daromad va xarajatlar hisobini xalqaro tamoyillar asosida tashkil etishga yordam beradi, deb o'ylaymiz.

Adabiyotlar

1. Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi Qonun. Xalq so'zi gazetasi. 2016-yil 14-aprel.
2. Международные стандарты финансовой отчетности: Издание на русском языке М.: АСКЕРИ - ACCA, 2005.
3. Libby, Robert. Financial accounting /Robert Libby, Patricia A. Libby, Daniel G. Short. Irwin, Printed in USA, 1996. 752 p.

UDK: 331.5

ALISHER NAVOIYNING IQTISODIY-IJTIMOY FAOLIYATI

O.Ro'zibayev

Samarqand davlat universiteti

*Agar bu ulug' zotni
avliyo desak, avliyolarning avliyosi,
mutaffakkir desak, mutaffakkirlarning mutaffakkiri,
shoir desak shoirlarning sultonidir.*

Islom Karimov

Ushbu maqolada o'zbek mutaffakkiri va shoiri Alisher Navoiyning iqtisodiy-ijtimoiy faoliyati, uning zamondoshlari, undan keyingi davr vakillari, hozirgi tadqiqotchilar yaratgan asarlardan olingan ma'lumotlar asosida, yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy ahvol, mol-mulk, bug'doy, arpa, maxsus maosh, qurilish, bog'lar, bino, inshoat, madrasa, mablag'.

Социально-экономическая деятельность Алишера Навои

Данная статья посвящена социально-экономической деятельности Алишера Навои. Автор, анализируя литературы современников поэта и новых исследований учёных, ещё раз придёт к выводу, что Алишер Навои не только был поэтом и мыслителем, но и профессиональным экономистом и политиком своего времени..

Ключевые слова: экономическое положение, имущество, пшеница, ячмень, специальная зарплата, строительство, сады, здание, сооружение, медреса, денежные средства.

Social-economic activities of Alisher Navai

The article deals with the economic activity of the great Uzbek poet Alisher Navai. The author uses modern sources to show the economic condition of Alisher Navai. The author tries to show that Alisher Navai was not only a great poet but a professional economist and politician.

Keywords: economic condition, entity, wheat, barley, specific wage, building, gardens, structure, madrasah, funding.

Mana besh asrki, Mir Alisher Navoiyni komil inson timsoli sifatida ulug'laymiz, hurmat qilamiz. Uning asarlari, qilgan ezg-u amallari tufayli bu zotning avlodi ekanligimizdan faxr tuyamiz. Illo, bu zot o'z davrida nafaqat umrboqiy asarlari bilan, balki savobli ishlari bilan el orasida yuksak ehtirom va sharafga ega bo'lgan.

Bu haqda uning zamondoshlari ham, undan keyingi davr vakillari ham, hozirgi tadqiqotchilar ham ko'p ma'lumotlarni qayd etib o'tishgan. Bu haqda tartibi bilan to'xtalib o'tish orqali buyuk bobakalonimiz shaxsini yangi chizgilar bilan boyita olsak, maqsadimizga yetgan bo'lamiz.

Avvalo, Alisher Navoiyning iqtisodiy ahvoli haqida. "...Ma'lum bo'lishicha, otameros katta mol-mulk, vazir sifatida ko'plab yer va sarmoya sohibi bo'lgan Alisher Navoiy, Bobur qayd etishicha, Husayn Boyqaroga har yili mamlakatning obodonchilik ishlari uchun "peshkash"lar qilib turgan" [2, 31].

Alisher Navoiyning mol-mulki haqidagi asosiy manba "Vaqfiya"dir. Biroq shuni e'tiborga olish lozimki, bu asar faqat Navoiy tomonidan vaqf qilingan mol-mulk hisobini bera oladi xolos. Ushbu asar va boshqa manbalar uning umumiy boyligi haqida yetarli tasavvur uyg'ota olmaydi. Jumladan, Faxriy Hirotiy Amir Alisherning kundalik daromadi 75000 dinor va chiqimi 15000 dinor deb qayd etadi [3, 82]. O'quvchida qiyoslash imkoni tug'ilishi uchun yana bir ma'lumotni keltirib o'tsak, "Vaqfiya"da keltirilishicha, "Navoiy vazifadorlar va o'quvchilarning o'zigagina bug'doy, arpa va oshliqdan tashqari oyiga 1300 oltinga yaqin maosh tayinlagan"[3,83]. Shu o'rinda yana bir ma'lumotni ham keltirib o'tishni lozim topdik, Faxriy Hirotiy Navoiyning Samarqandda yashagan paytlarini "ayanchli, nochor" edi deb tasvirlagan, holbuki shoir Samarqand hokimi Ahmad Hojibekning hamsuhbati, qaramog'idagi, Bobur ta'kidlaganidek, maxsus maosh olib turuvchi, arkoni bo'lgan. Tabiiyki, keyinchalik katta mol-mulk egasiga aylangan Alisher Navoiyning (butun boshli viloyat hokimining izzat e'tiborida bo'lgan) o'tmishi Faxriyga nochor bo'lib ko'ringanining[3, 58] o'zi, Alisher Navoiy davlati haqida yetarlicha tasavvur bera oladi deb o'ylaymiz.

Darhaqiqat, Alisher Navoiy katta yer-mulk egasi edi. U 1481-yili o'zining bor mol-dunyosidan voz kechib, xayriya, ya'ni vaqf mulkini tashkil qiladi. Vaqf mulki – Hirot hududidagi imoratlar, xususan, Ixlosiya madrasasi va unga tegishli imoratlar, 24 do'kon, 3-4 tim bozori, bog'rog'lar (255,5 jarib uzumzor va mevazor bog'lar, yerlarning muayyan qismi (545 jarib- 1 jarib 1,2 ga maydonga teng) va ularni ishlatishdan tushgan daromad to'laligicha ta'lim muassasalari, musofirxonalar va darvishlar, qalandarlar, kambag'al muhtojlar, yetim-yesirlarning ehtiyojlarini qoplab turishga qaratildi... Hirotida Navoiyning shaxsiy tashabbusi va mablag'i bilan Xalosiya, Shifo'iya, Nizomiya kabi bir necha madrasa va xonaqo qurilib, ularda mashhur olimlar dars berish va ilm bilan shug'ullandilar [3,4].

Davlatshoh Samarqandiy o'zining "Tazkirat ush-shuaro"sida: Navoiy mutasaddi qilgan kishilarning sa'y-harakati bilan Xurosonning mashhur buloqlaridan - Tus viloyatining yuqori qismida bo'lgan Chashmayi gil suvi 80 kilometrlik ariq qazilib, muqaddas Mashhad shahriga olib kelinganligini yozadi [2, 31].

Alisher Navoiyning xayriya amallari, bunyodkorlik faoliyati haqida o'z zamonasidan hozirgi davrga qadar beto'xtov gapirib kelinmoqda. U qurdirgan Xalosiya xonaqosida har kuni mingdan ortiq faqir va miskinlar ziyofat qilinib, laziz taomlar bilan to'ydirilgan. Har yili muhtojlarga ikki mingga yaqin po'stin, bosma chakmon, ko'ylak-ishton, toqiya va kafsh ulashilgan. Mashhadda Imom Rizo bog'ida Dor ul-huffoz qurdirib, yonida har kuni muhtoj, zaif va yetimlarga ovqat berish uchun maxsus uy soldirgan [3, 78].

Alisher Navoiyning bunyodkorlik va ijtimoiy himoyaga yo'naltirilgan ishlarini quyidagi ma'lumotlar bilan nihoyalaymiz. "Navoiy zamondoshlari u qurdirgan xayriya bino, inshootlar soni va tavsifini to'liq keltirish so'zning uzayishiga sabab bo'lishini hisobga olib, o'zlari aniq bilgan inshootlar ro'yxatini keltirganlar. Masalan, Davlatshoh Samarqandiy o'n ikkita inshoot haqida gapirsa, Xondamir yuzdan ortiq bino, inshoot, ko'prik va hovuzlarni sanab o'tadi, Faxriy Hirotiy uning 370 xayriya binosini qurganini umumiy qilib keltirsa, Som mirzo aniqlik kiritib, ularning to'qsontasi rabotligini aytadi"[3, 79].

Alisher Navoiyning xayrli amallari faqat shu bilangina cheklanib qolmagan, u ko'plab ilm-u ma'rifat ahliga yaxshiliklar qilib, ularga e'tibor ko'rsatgan, ular ham o'z navbatida shoirga nisbatan minnatdorchilik fikrlarini o'z asarlarida keltirib o'tishganki, bu masala yana bir tadqiqot mavzusi bo'la oladi.

Adabiyotlar

1. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – 108 б.
2. Qosimov B., Jumaxo'ja N. O'zbek adabiyoti . 10-sinf uchun darslik. - T.: G'.G'ulom, 2001. - 464 b.
3. Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий: манбаларнинг қиёсий-типологик, текстологик таҳлили. - Т.: Академнашр, 2011. – 326 б.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SAYLOV TIZIMI:**MILLIY VA XALQARO TAJRIBA****Z.O.Kuvandikov**

Samarqand davlat universiteti, yu.f.n.

E-mail: q-zokir@samdu.uz

Mazkur ilmiy maqolada muallif O'zbekiston Respublikasida bo'lib o'tadigan har bir saylov jarayonida saylovchilar va saylanuvchilar huquqlarini ta'minlashda milliy va xalqaro huquq normalari, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar va xalqaro tashkilotlarning faoliyatini yanada oshirish; milliy saylov qonunchiligiga implementatsiya qilingan xalqaro umume'tirof etilgan tamoyillar va standartlarning saylov jarayonlarini tashkil etish va saylov kuni ijro etilishini yanada mustahkamlab borish haqida ilmiy mulohazalar yuritgan.

Kalit so'zlar: fuqarolar saylov huquqi, saylov jarayonlarini tashkil etish va o'tkazish, milliy saylov huquqi, xalqaro saylov huquqi bo'yicha tajribalar, huquq implementatsiyasi va saylovchilar huquqiy madaniyati.

Избирательная система Республики Узбекистан: национальный и международный опыт

В статье дается анализ содержания законодательства о выборах Президента Республики Узбекистан. Особое внимание уделено основным принципам закона Республики Узбекистан о выборах, организации и порядку проведения выборов Президента.

Ключевые слова: избирательное право граждан, организация и порядок подготовки к выборам, национальная система выборов, международное право, международные принципы, имплементация права, правовая культура.

Electoral system of the republic of Uzbekistan: national and international experience

The meaning and essence of legislation of the President of the Republic of Uzbekistan. The special attention was paid to the main principles of Law of the Republic of Uzbekistan about elections, its organization and discipline of varying of election of the Republic of Uzbekistan. The essence of studying the system is opened, comparative analyses from international legal practice and agreement acts is carried out. The discipline of carrying and organization of elections in the Republic of Uzbekistan are described in the article where are based on general international principles on the basis of equality of citizens.

Keywords: elective right of citizens, organization and discipline of preparing in elections, national system of elections.

Saylov – bu har bir jamiyatda siyosiy jarayonlarning raqobatlilik va haqqoniyligini ta'minlaydigan vosita bo'lib, unda siyosiy kurashning madaniylashgan shakli ifodalanadi. Shu nuqtayi nazardan har bir davlatda saylov vositasida fuqarolarning davlat hokimiyati vakillik organlarini saylash va saylanishga oid konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishi tushuniladi.

Mustaqillik yillarida saylov huquqi va saylov jarayonlarini tashkil etishning xalqaro andozalarga mos milliy huquqiy asoslari yaratildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Siyosiy partiyalar to'g'risidagi, O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risidagi, Senati to'g'risidagi, Davlat hokimiyatining mahalliy vakillik organlariga saylovlar to'g'risidagi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risidagi, Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi qonunlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi, Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risidagi, O'zbekiston Respublikasining Markaziy saylov komissiyasi to'g'risidagi, O'zbekiston Respublikasida Fuqarolarning o'zini - o'zi boshqarish organlari to'g'risidagi qonuni, O'zbekiston Respublikasining Jamoat birlashmalari to'g'risidagi, Ommaviy axborot vositalari to'g'risidagi qonunlar, hamda O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan xalqaro hujjatlar, ya'ni, Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt (1966-yil 19-dekabr) hamda Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt (1966-yil 19-dekabr) shular jumlasidandir.

Respublikamizda saylov jarayonlarini tashkil etish va uni amalga oshirishda 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasining 1-moddasida *hamma odamlar o'z qadr*

qimati hamda huquqlarida erkin bo'lib tug'iladilar. Ularga aql va vijdon ato qilingan, binobarin birlariga nisbatan birodarlik ruhida munosabatda bo'lishlari kerakligi, shuningdek, ushbu xalqaro hujjatning 21-moddasida -har bir inson bevosita yoki erkin saylangan vakillar vositasi orqali o'z mamlakatini boshqarishda qatnashishi huquqiga egaligi,-har bir inson o'z mamlakatida davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa ega- xalq irodasi hukumat hokimiyatining asosi bo'lishi lozim, bu iroda davriy va soxtalashtirilmaganligi, yalpi va teng saylov huquidan yashirin ovoz berishyo'li bilan yoki ovoz berish erkinligini ta'minlaydigan boshqa teng qiymatli shakllar vositasida o'ztkaziladigan saylovlarda o'z aksini topishi lozimligi kabi asosiy va muhim qonuniy talablar mustahkamlangan.

Respublikamiz Konstitutsiyasining 7-moddasida *xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbai ekanligi* alohida ko'rsatilgan bo'lib, ushbu huquqlar demokratiyaning qonuniy kafolati sifatida xizmat qilib, mazkur modda Inson huquqlari Umijahon deklaratsiyasining 21-moddasida hamda EXHTning Kopengagen hujjatining 7-bandi qoidalarida o'z ifodasini topib, ular Konstitutsiyamizga implementatsiya qilinganligidan dalolat beradi.

Mamlakatimiz Parlamenti tomonidan saylov tizimini yanada takomillashtirish maqsadida 2014-yil 16-aprelida, Konstitutsiyamizning 117-moddasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Unda, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyatining vakillik organlariga saylash va saylanishi huquqiga ega ekanligi, har bir saylovchi bir ovozga egaligi va ovoz berish huquqi, o'z xohish irodasini bildirish tengligi va erkinligini ta'minlashga qaratilgandir. Ushbu modda O'zbekistonda saylov tizimi tushunchasini ham ochiq oydin belgilab berdi.

Mamlakatimiz saylov tizimining qonuniy asoslarini takomillashtirish bo'yicha huquqshunos olimlar va mutaxassislar tomonidan ko'plab ilmiy – nazariy va amaliy fikrlar ilgari surilmoqda. Jumladan, "Har qanday davlatni demokratik davlat, deb e'lon qilishning o'zi kifoya emas, muhimi, uning tashkil etilishi vafaoliyatini tegishli huquqiy institutlar, huquqiy kafolatlar bilan ta'minlanganidir. Bunday konstitutsiyaviy-huquqiyinstitutlarning negizini saylov huquqi instituti tashkiloti [1]. Ba'zi huquqshunoslar esa "Saylov fuqarolarni davlat va jamiyat ishlarini bajarishga jalb qilishning eng muhim shakllaridan biridir" deya e'tirof etishmoqda [2]. Yuridik fanlari doktori professor G.Malikova, mamlakatimiz saylov qonunchiligiga EXHT tomonidan 1990-yilda qabul qilingan "Insoniylik mezonlari bo'yicha Kopengagen hujjati", Parlamentlararo ittifoqining 1994-yilda qabul qilingan "Erkin va adolatli saylovlar mezonlari to'g'risida"gi Deklaratsiyasi hamda, 2002-yilda Venetsiya komissiyasi tomonidan qabul qilingan "Saylovlarga nisbatan rahbariy prinsiplar" kabi xalqaro hujjatlar milliy saylov qonunchiligimizda nomzodlar huquqlarining kafolatlari bo'yicha belgilangan qoidalarga to'la mos kelishligini asosli ta'kidlaydi [1]. Prof.A.Saidov O'zbekiston Respublikasining saylov qonunchiligi eng yuqori demokratik standartlarga mos ekanligini, mamlakatimizning xalqaro munosabatlarning teng huquqli sub'ekti sifatida BMT, EXHT va boshqa xalqaro tashkilotlar doirasida zimmasiga olgan majburiyatlarga to'liq javob berishligini e'tirof etadi [4].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlar ko'rsatish saylovga oltmish besh kun qolganida boshlanadi vaqirq besh kun qolganida tugaydi [2]. Prezidentlikka nomzodlar ko'rsatish siyosiy partiyalar yuqori organlari tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti saylovi to'g'risidagi qonunning 1-moddasida, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti saylovini O'zbekiston Respublikasining fuqarolari umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yuli bilan amalga oshirilishi kafolatlangan. Ayrim mamlakatlarda esa saylovlarga qatnashish fuqarolar uchun majburiy bo'lib, agarda ular saylovlarga qatnashmasa javobgarlikka ham tortilishlari mumkinligi belgilangan. Masalan, Avstraliyada saylovga kelmaganlarga jarima solinadi. Gretsiya va Peruda bir qator davlat muassasalari oxirgi saylovga kelmaganlarga ayrim davlat xizmatlari ko'rsatishni rad etadi. Braziliyada esa saylov uchastkasiga uzrli sababsiz kelmagan 18 yoshga to'lgan braziliyalikka toki u o'z aybini kelgusi saylovda hozir bo'lish yo'li bilan yuvmaguncha pasport berilmaydi. Boshqa bir misol – jinsiy belgiga ko'ra kamsitish. Bunday hol yaqindagina, hatto, ma'rifatli Yevropada ham kuzatilgan: Shveysariyada ayollar saylov huquqiga 1971-yilgacha ega bo'lmaganlar, mahalliy ahamiyatga molik ayrim saylovlarda esa shveysariyalik ayollar 1991-yilgacha ishtirok eta olmaganlar [6].

Shuningdek, ayrim xorijiy mamlakatlarda saylov jarayonini tashkil etish va uni o'tkazish, davlat hokimiyati ijro organlariga, ichki ishlar organlariga yoki bo'lmasa Markaziy saylov komissiyasi a'zolarining aksariyat qismining sudyalarga yuklatilganligini ko'rish mumkin. Masalan, Buyuk Britaniya, Italiya, Fransiya va AQSHda ijro organlari amalga oshiradi. Germaniyada, ichki ishlar organlari shug'ullanadi. Saylovlarni Pokistonda sud organlari tashkil qilsa, Ruminiyada Markaziy saylov komissiyasiga (yettita a'zosi Oliy sud sudyalardan iborat) yuklatilgan [7].

Saylovlarni o'tkazishning demokratik shakli ham mavjud bo'lib, unga MDHga kiruvchi mamlakatlar, xususan, O'zbekiston Respublikasida saylov jarayonni tashkil etish va uni o'tkazish bo'yicha 2014-yil 4-sentyabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida" gi qonun asosida tuzildi. Saylov o'tkazishning asosiy prinsiplaridan biri bo'lgan **umumiy saylov huquqi prinsipi** ma'lum yoshga yetgan, aqli raso O'zbekiston Respublikasi barcha fuqarolarining saylovda (saylash va saylanishda) ishtirok etish huquqiga ega ekanligini anglatadi. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonunning 20-moddasida, O'zbekiston Respublikasining har bir fuqarosiga uning saylovhuquqlari sud yo'li bilan himoya qilinishi va davlat boshqaruv organlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqlari kafolatlangan. Ushbu qonunning 6-moddasida saylovchilar qayerda bo'lishligidan qat'i nazar, ularga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida bevosita qatnashish huquqi kafolatlangan [8]. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 147-moddasiga asosan Respublikamizda saylov huquqini amalga oshirilishiga to'sqinlik qilish jinoiy-huquqiy javobgarlikka sabab bo'ladi.

O'zbekistonda 2015-yil mart oyida bo'lib o'tgan Prezident saylovida AQSH, Yevropa, Osiyo va Afrikaning 43 davlatidan hamda 5 ta xalqaro tashkilotdan, EXHT, Demokratik institutlardan, MDH va Shanxay hamkorlik tashkiloti, Butunjahon saylov organlari assotsiatsiyasi va Islom hamkorlik tashkilotidan 300 ga yaqin kuzatuvchi qatnashdi. Ushbu saylovda respublikamizdan 35 mingdan ortiq kuzatuvchi qatnashdi. Navbatdagi saylov jarayonida, ya'ni 2016-yil 4-dekabrda bo'lib o'tadigan Prezident saylovida respublikamizga xorijiy mamlakatlardan keladigan kuzatuvchilar soni olti yuzdan oshishi ko'zda tutilmoqda. Bu esa Prezident saylovlarining yanada demokratik tamoyillariga asoslanishidan darak beradi.

Yuqorida keltirilgan milliy huquq va umume'tirof etilgan xalqaro huquq normalaridan kelib chiqib xulosa o'rniida Respublikamizning saylov tizimi va saylov jarayonini yanada takomillashtirish maqsadida ayrim fikr mulohazalarni bildirmoqchimiz. Birinchidan, O'zbekiston Respublikasida bo'lib o'tadigan saylov jarayonida saylovchilar va saylanuvchilar huquqlarini ta'minlashda inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar va xalqaro tashkilotlarning faoliyatini yanada oshirish; ikkinchidan, milliy saylov qonunchiligiga implementatsiya qilingan xalqaro umume'tirof etilgan tamoyillar va standartlarning saylov jarayonlarini tashkil etish va saylov kuni ijro etilishini yanada mustahkamlab borish; uchinchidan, har qanday saylovlar jarayonida kuzatuvchilar huquqini va ularning rolini yanada oshirib borish; to'rtinchidan, saylov oldi targ'ibot ishlarini yanada faollashtirish.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007 y., 15-son, 152-modda; 2008 y., 52-son, 510-modda; 2011 y., 16-son, 159-modda; 2014 y., 16-son, 176-modda).
2. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi Qonuni. 1991 yil 18 noyabr, Oliy Majlis palatalarining Axborotnomasi, 2011 y., 12/1-son, 344-modda).
3. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. 1994 yil 5 may, 1051-XII-son. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1994 y., 5-son, 127-modda; O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2004 y., 51-son, 514-modda).
4. Kanyazov E., Zulfiqorov SH., Turg'unov O.. O'zbekiston Respublikasi saylov tizimi va saylov qonunchiligi. - T.: "O'ZBEKISTON", 2014.-40 bet.
5. Raximova M.A.. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovlari: xalqaro tajriba – Toshkent: «O'zbekiston», 2015. – 40 bet.
6. N.Mamatkulova. Saylov huquqining konstitutsiyaviy kafolatlari. //Huquq va burch. № 06. (126) 2016. 60-61-betlar.
7. Malikova G.. O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlar huquqlarining kafolatlari. //Xalq so'zi. 2016-yil 8-noyabr soni.
8. Saidov A.. Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari va xalqaro tamoyillar. //Xalq so'zi, 2016-yil 15-noyabr soni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovlari: xalqaro tajriba. M.A. Raximova – Toshkent: O'zbekiston, 2015. – 40 bet. 13-bet. <http://www.juristlib.ru>

UDK: 372.882(075.8)

**AKADEMIK LITSEYNING 3-KURSIDA PRIMQUL QODIROVNING
“YULDUZLI TUNLAR” ASARINI O'RGANISH****F.Omonova***Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti*

Maqolada Pirmqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” asarini akademik litseylarning 3-kursida o'rganish metodikasi zamonaviy pedagogik va informatsion texnologiya yutuqlaridan foydalanilgan holda bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Pirmqul Qodirov, “Yulduzli tunlar”, metodika, badiiy asar, texnologiya, “tarmoqlar” metodi, lug'at.

Методика изучения произведения Примкула Кадырова “Звездные ночи” на 3 курсе академических лицеев

В статье раскрыта методика изучения произведения Примкула Кадырова “Звездные ночи” на 3 курсе академических лицеев с привлечением современных педагогических информационных технологий.

Ключевые слова: Примкул Кадыров, Звездные ночи, методика, художественный, произведение, технология, метод “Сети”, словарь.

Learning primkul kodyrov's “star night” at the 3-rd course of academic lyceum

The article discloses a method of studying the works of Kadyrov Primkulov “Star Night” 3 course academic high schools using modern teaching information technology.

Keywords: Primkul Kadyrov, Star night, the technique, the art, the product, the technology, the method of “Network”, dictionary.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ta'lim va tarbiya har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozimligi alohida uqtirilgan [1]. Dasturdagi bunday muhim vazifani amalga oshirishda adabiyot fanining o'rni beqiyosdir. Sababi, o'quvchining shuuriga vatanparvarlik, fidoiylik, mehnatsevarlik tushunchalari badiiy asarlar orqali tez va oson singdiriladi hamda o'quvchilar tarbiyalanadilar. XX asr o'zbek adabiyotining yorqin vakillarining asarlari ham biz yuqorida ta'kidlagan umuminsoniy fazilatlar targ'ibiga xizmat qiladi.

Akademik litseylarning 3-kurs adabiyot darsligida Pirmqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romani o'rganish uchun tavsiya etilgan bo'lib, buning uchun dasturda 6 soat ajratilgan [2]. Lekin mazkur dastur asosida yozilgan darslikda asar matni to'liq keltirilmay asarning ma'lum bir qismigina berilgan. Agar darslikda berilgandek o'quvchilarga o'rgatiladigan bo'lsa, o'quvchilar Bobur haqida umumiy tushunchaga ega bo'ladi, xolos. Shuning uchun, o'quvchilarga romanni to'liq shaklda o'qish tavsiya etiladi, chunki badiiy asarlarda, eng avvalo, ularda inson ruhiyatining turfa manzaralari, murakkab hayot aks etishidir. Hayotda har bir insonning o'z dunyoqarashi, o'z tabiati, faqat o'zigagina xos bo'lgan fazilatalari bo'lganidek, asardagi har bir qahramonlarning ham xuddi shunday kechinmalari, tuyg'ulari mujassamlashgan bo'ladi. Har bir o'quvchi mutolaa jarayonida asardan haqiqat izlab o'qiydi. Uni o'z hayoti bilan solishtirib, taqqoslab boradi. Chunki o'quvchi asar o'qish jarayonida qahramonlar bilan birga yashaydi, ular chekkan dard, quvonchlarni birga boshdan kechiradi.

Badiiy adabiyotning asosiy vazifalaridan biri – o'tmishda sodir bo'lgan voqealar, tarixiy shaxslar hayotiga bag'ishlangan tarixiy asar yozishdir.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, biz, adabiyot o'quvchilariga “Yulduzli tunlar” romani tahliliga bag'ishlangan darsni tashkil etish uchun o'z tavsiyalarimizni taqdim etmoqchimiz.

Darsdan ko'zlangan asosiy maqsad Pirmqul Qodirov ijodi, xususan, “Yulduzli tunlar” romanini o'rganish orqali asardagi voqea hamda qahramonlarni hayotiy haqiqat va badiiy to'qimaga ajratib, o'quvchilarni yurtparvarlik, millatparvarlik, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash, o'tmishni o'rganib, o'rnak olib kelajakka ishonch bilan qarashni kamol toptirish, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini o'stirishdir.

Darsni o'qituvchi o'quvchilarni ikki guruhga bo'lish va ularga taxminan “Hayotiy haqiqat” va “Badiiy to'qima” deb nom berishdan boshlaydi. So'ngra, o'quvchilar o'z guruhlarining nomini

sharhlab berishlarini talab qiladi. O'quvchilar o'z guruh nomlari mazmunidan kelib chiqqan holda, erkin fikrlab sharhlaydilar. So'ngra o'quvchilar tomonidan roman og'zaki bayon usulida qisqartirib hikoya qilinadi.

So'ngra dars quyidagi reja asosida tashkillashtiriladi:

1. "Yulduzli tunlar" romanini o'rganishdan ko'zda tutiladigan maqsad.
2. Nima uchun darslikda Boburning muarrix Xondamir bilan suhbat berilishi sababini izohlatish.
3. Tarixiy asarlarda badiiy to'qimaning o'rni.
4. Uzlaksiz adabiy ta'lim tizimida Bobur hayoti va ijodini uzluksizlik va uzviylik tamoyillari asosida o'rganishning ahamiyati.

Reja bo'yicha **"Kim nima qiladi?"** o'yini tashkil etiladi. Har ikki guruhdan bitta vakil chiqadi. Hamda ikkala guruh ishtirokchilariga navbat bilan o'qituvchi quyidagi ismlarni aytadi, ular litsey darsligida berilgan qismi bo'yicha javob beradi.

O'qituvchi: Bobur.

O'quvchi: Shoh va shoir.

O'qituvchi: Xondamir.

O'quvchi: Muarrix, "Habib us-siyar" asarini yozgan, Bobur bilan suhbat qurgan tarixchi.

O'qituvchi: Ra'no Sango.

O'quvchi: Bobur bilan Panipat jangida yengiladi.

O'qituvchi: Ko'chkunchixon elchisi.

O'quvchi: Boburning mayxo'rlikni qat'iy man qilganini Xondamirga aytgan shaxs.

O'qituvchi: Humoyun.

O'quvchi: Humoyun otasi Boburga xat yozdi.

O'qituvchi o'quvchilarni birinchi shart bo'yicha baholab bo'lgach, Pirimqul Qodirov nima uchun "Yulduzli tunlar" romanini yozganini, roman yozish oldidan qayerlarda bo'lgani, ulardan ta'sirlangan holda qaysi voqealarni tasvirlaganini aytib o'tadi. Shundan so'ng, o'quvchilarga ikkinchi shart beriladi. Bu topshiriq o'quvchilarda roman yaratilishiga doir bilimlarini aniqlashga qaratiladi. Bunda FSMU texnologiyasi bo'yicha ikki guruhga quyidagi savollar beriladi.

"Hayotiy haqiqat" guruhiga:

FSMU metodi asosida jadvalni to'ldiring.

Savol: "Yulduzli tunlar" romanini o'rganishdan maqsad nima va biz undan nima olamiz?

F	Fikringizni bayon eting	
S	Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
M	Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
U	Fikringizni umumlashtiring	

"Badiiy to'qima" guruhiga:

Savol: Badiiy to'qimalar asarga nima uchun kerak?

O'quvchilar bu savollarga darslik va qo'shimcha adabiyotdan olgan bilimlari asosida javob beradilar. O'qituvchi o'quvchilar fikrlaridan so'ng o'z mulohazalarini bildiradi va **"Lug'at ustida" o'yinini** o'ynash uchun har ikki guruhga kartochkalar beriladi. Ikki daqiqada bu lug'atni hozirgi kundagi ma'nolarini izohlashlari lozimligi uqtiriladi. Masalan:

Tamg'a –

Bani bashar –

Tolor -

Miz -

Mug'laq -

Borlar -

Botil -

Keyingi shartda **"Tarmoqlar" metodi** qo'llaniladi va ikki guruhga quyidagi savollar beriladi.

"Hayotiy haqiqat" guruhiga: Boburning Xondamir bilan suhbatini tahlil qiling.

"Badiiy to'qima" guruhiga: Xondamir Boburning esdaliklarini o'qigan paytdagi holatini tahlilga torting.

O'quvchilarning javoblaridan so'ng fikrlar umumlashtiradi.

Navbatdagi bosqichda tezkor savollar orqali **“Aqliy hujum”** uyushtiriladi.

“Hayotiy haqiqat” guruhiga:

- a) P.Qodirov nechanchi yil ushbu asarni yozgan?
- b) P.Qodirov ushbu asarni yozish uchun qaysi davlatda bo'lgan?
- c) Boburga qanday ta'rif berish mumkin?
- d) Gulbadanbegim qanday memuar asar yozgan?
- e) Boburning otasi tepalikdan qulab halok bo'lishi tarixiy haqiqatmi?

“Badiiy to'qima” guruhiga:

- a) P. Qodirov asarni necha yil davomida yozgan?
- b) Qaysi tarixiy asarlarda Bobur haqida ma'lumot berilgan?
- c) Asardagi to'qima obrazlarni ayting.
- d) Asarning eng muhim ijobiy obrazlari.
- e) Bobur характери evolyutsiyasini ko'rsatib beradigan obraz.

Savol-javoblardan so'ng har bir shart bo'yicha to'plangan umumiy ballar aniqlanadi va g'olib guruh nomi e'lon qilinadi. Uyga vazifa qilib, “Boburdan o'rgangan fazilatlarim” mavzuyida insho yozish topshiriladi.

Dars jarayonini bunday tashkillashtirish talabalarning mavzuni puxta va chuqur o'zlashtirishiga, o'tmishdan o'rnak olib, milliy qadriyatlarga hurmat-ehtirom ruhida tarbiyalashga zamin yaratiladi.

Biz yuqorida dars vaqtida “Yulduzli tunlar” o'rganish metodlari haqida so'z yuritdik, endi esa ushbu mavzuni sinfdan tashqari vaqtda olib borish haqidagi fikrlarimiz bilan o'rtoqlashamiz. To'garakda dastlab talabalarga quyidagi savollar beriladi.

1. Muallif nima uchun ushbu romanni “Yulduzli tunlar” nomi bilan atagan?
2. Bobur davri bilan o'zingiz yashayotgan davrni solishtiring.
3. Asarning bosh qahramoni o'rniga o'zingizni qo'yib ko'ring. Boburning tushgan qiyin vaziyatlarida siz bo'lganinigizda qanday yo'l tutgan bo'lardingiz?

O'quvchi romanni o'qish jarayonida ushbu savollarga javob izlab o'qiydi. Albatta bu topshiriqlar asarni o'qib chiqishdan oldin beriladi. Bu usul esa talabani asarga bo'lgan qiziqishini uyg'otadi. O'qituvchining zimmasiga qo'yiladigan asosiy vazifa talabani ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantira olish kerak. Chunki talaba mavzuga qiziqsagina biz kutgan natijaga erishadi. Asarni o'qish jarayonida o'zini qahramon hayoti bilan solishtirib ko'radi.

To'garak vaqtida o'qituvchi talabalardan asarni o'qish mobaynida bergan savol va topshiriqlariga javob oladi. Bunda talabalar mustaqil, erkin fikrlaydilar, o'z mulohazalari bilan o'rtoqlashadilar. So'ngra Bobur hayotiga, u yashagan davrga oid rasmlar taqdim etadi va bu rasmlar asarga qay darajada mos kelishini izohlaydilar.

Har bir mashg'ulot o'quvchilarning aqliy faoliyatini ishga solishga undashi lozim. Shunda o'quvchi ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi bo'la oladi[3].

Xulosalar

Akademik litseylar 3-kurs darsligida berilgan Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” asarini o'rganish har bir talabada umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Quyida berilgan dars o'tish texnologiyasi ham talabalarda mavzuni hayotiy haqiqat va badiiy to'qimaga ajratib o'rganish tarixdan ibrat olish, tushinish, idrok qilish va hayotda qo'llash imkonini beradi.

Adabiyotlar

1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish. – T.: Sharq, 2000. - 33-b.
2. Zaynitdinova A. Badiiy asarda fakt va to'qima. – T.: O'zbekiston, 1980.
3. Niyazmetova R., Oxunjonova O. “Ona tili va adabiyot” fanidan o'quv qo'llanma. –T., 2014.
4. To'xliyev B., Isayeva Sh., Shermuhammedov T. “Adabiyot” III kurs akademik litsey darsligi. –T.: Cho'lpon, 2012.
5. To'xliyev B., Ahmedov H. Akademik litseylarda adabiyot faning namunaviy dasturi (ta'lim yo'nalishi ijtimoiy – gumanitar-1) –T., 2016.
6. Ernazarova M. Kuzatish, taqqoslash, guruhlash va umumlashtirish // Til va adabiyot ta'limi jurnali. – 2016. - 6-son. - 27-bet.

**SO‘LIM SURXON SOHILIDAN SAYQALI ZAMIN SAMARQAND SARI YO‘L OLGAN
TOLIBI ILM PORTRETIGA CHIZGILAR**

Azizim asrasin Sizni,
Munofiq ko‘z qarashlardan.
Hasadda tosh otishlardan,
Va turfa, ur-taloshlardan.
Ulug‘, oliyjanob ishlar
Bilan shuhrat qozondingiz,
Olib oq yo‘lga fatvolar
Ulusga elga boshlardan.

Mazkur nazmiy misralar g‘azalnavis shoir Nuriy qalamiga mansub, shoirning «Munojot besamar bo‘lmas» nomli to‘plamidan keltirildi.

«Azizim, asrasin Sizni» g‘azali zamondoshimiz professor, bir qator tillar tadqiqotchisi, qiyosiy tilshunoslik bo‘yicha yirik olim, adabiyotshunos, tarjimon hamda shoirlik iqtidorini namoyon eta olgan hamkasbimiz, Hoji bobo Ibodulla Kamolovich Mirzayevga bag‘ishlangan qutlovdir.

G‘azalning dastlabki misralari olim-tarjimon, domla Ibodulla Mirzayevning ilmiy-nazariy va pedagogik faoliyati bilan ko‘zga ko‘ringan olimlar qatoridan joy olganligi, ijodining ko‘p qirrali va sermahsulligi ila hamkasbu zamondoshlari havas qilsa arzigulik maqomga erishganligiga ishora.

O‘rta maktabni a‘lo baholar bilan tugatgan yosh yigit orzular qanotida parvoz etib, hujjatlarini respublikamizning otaxon oliy o‘quv yurtlaridan bo‘lmish Samarqand Davlat universitetining chet tillar fakulteti fransuz tili bo‘limiga topshiradi. Kirish imtihonlaridan muvaffaqiyatli o‘tgach, talabalikka qabul qilinadi.

Shu yildan boshlab, uning umr yo‘llari azim Samarqand bilan bog‘lanadi. Dorilfunun ta‘limini yakunlab, qo‘liga mutaxassislik diplomini olgan yosh xodim katta hayot yo‘liga yuksak orzu-umidlar bilan qadam qo‘ydi. Bir muddat Termiz shahridagi 1-son o‘rta maktabda ishlagan, harbiy xizmatni o‘tab, Ibodulla muallim jonajon universitetga – ustozlari qatoriga ishga qaytdi. 1969-yilda SamDU fransuz filologiyasi kafedrasiga ishga qabul qilingan domla shu kafedra o‘qituvchisi, katta o‘qituvchisi, dotsenti, mudiri, professori lavozimlarida faoliyat ko‘rsatdi. 1994-yilda Samarqandda Chet tillar instituti ochilgach, fransuz filologiyasi dekani lavozimida ham ishlagan, 1996-yilda SamDU o‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish kafedrasini mudirligiga tanlovdan o‘tgan va bu lavozimda I.K.Mirzayev 2013-yilning mart oyigacha (jami 35 yil) ishladi. Hozir shu kafedraning hamda (o‘rindoshlik asosida) SamDCHTI fransuz filologiyasi kafedrasining professori lavozimida ishlamoqda. Dorilfununda ishlar ekan, yosh, g‘ayratli muallimda talabalarga fransuz tilidan saboq berish bilan bir qatorda biror soniya ham ishga bo‘lgan ishtiyoq, intilish so‘nmadi. Intilganga tole yor deganlaridek, Ibodulla domlani fakultet rahbariyati Sankt-Peterburg (sobiq Leningrad) shahriga aspiranturada o‘qishga yo‘llanma berdi. Peterburgda u Leningrad Davlat universiteti, turkologiya kafedrasini professori, mashhur olim, tarjimon, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi Sergey Nikolaevich Ivanovga shogird tushdi.

I.K.Mirzayevning ilmiy qarashlari Sankt-Peterburg universitetida akademiklar V.M.Jirmunskiy, A.N.Kononov, professorlar S.N.Ivanov, A.A.Kasatkin, A.V.Fyodorov, K.M.Sabaneeva, N.M.Shteynberg (Sankt-Peterburg universiteti), N.S.Pospelov (Moskva Davlat universiteti), I.I.Kovtunova (Moskvadagi Rus tili ilmiy tadqiqot instituti) kabi davrning eng nufuzli olimlari ta‘sirida shakllangan. Uning ustozlari filologiyani yaxlit fan sifatida o‘rganganlar, tilshunoslik, adabiyotshunoslik va she‘rshunoslikni hozirgidek alohida-alohida o‘rganilayotganiga nisbatan juda salbiy munosabatda bo‘lganlar. Shuning uchun Mirzayev I.K. ham qariyb qirq yildan buyon filologiya ilmining yaxlitligini ta‘minlashga, adabiyotshunoslik, tilshunoslik, she‘rshunoslik fanlari ta‘limini birlashtirib, yuqori malakali filolog talaba va olimlar tayyorlash ustida izlanishlar olib boradi. Uning bu izlanishlari o‘zbek filologiyasi ilmi va ta‘limida alohida bir yo‘nalish sifatida o‘z ifodasini topdi.

I.K.Mirzayev qariyb o‘n bir yil O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasi eksperti sifatida faoliyat ko‘rsatdi, bir necha ixtisoslashgan ilmiy kengash (SamDU qoshidagi Til va adabiyot, O‘zbekiston Jahon tillari universiteti qoshidagi chet tillar o‘qitish metodikasi, SamDCHTI qoshidagi roman-german tillari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatgan kengashi),

olimlar (SamDCHTI, Sam DU) va jurnallar («SamDU axborotnomasi», SamDCHTI ning «Xorijiy filologiya», Toshkentda chop etiladigan «Til va adabiyot ta'limi» tahrir hay'at a'zosi, ixtisoslashgan ilmiy Kengash qoshidagi Ilmiy seminarining raisi sifatida ilm-fan taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib keldi va kelmoqda. U O'zbekiston Milliy universiteti, Buxoro DU, Qarshi DU, Termiz DU da ma'ruzalar o'qidi; Davlat Attestatsiya Komissiyalari raisi sifatida (TerDU, BuxDU, BuxTI) da faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Professor I.K.Mirzayev ayni paytda ilm-fan tashkilotchisi va targ'ibotchisi hamdir. U rahbarlik qilgan kafedrada «Filologiya» nomi bilan ilmiy maqolalar to'plam-seriali nashr etib kelinmoqda. Yaqinda bu serialning 17-soni e'lon qilindi. Shuningdek, u o'zining ilmiy rahbari, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, professor S.N.Ivanovning tavallud sanalariga bag'ishlab ikki marta Xalqaro va respublika anjumanlarida ma'ruzalar bilan ishtirok etdi. Uning ilmiy maqolalari Rossiya, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Tojikiston, Eron Islom Respublikasi va boshqa mamlakatlarda ingliz, fors, tojik va rus tillarida chop etilgan.

I.K.Mirzayev filologiya ilmi, amaliyoti va ta'limiga doir 500 dan ortiq ilmiy maqola, darslik, o'nlab monografiya va o'quv qo'llanmalari e'lon qilgan. Uning rus guruhlar talabalari uchun hamkorlikda yaratgan «O'zbek tili» darsligi (2004 y.) Respublika ko'rik tanlovida yilning eng yaxshi darsligi sifatida e'tirof etilgan.

Professor Ibodulla Mirzayevning akademik E.E.Bertels asarlaridan qilgan tarjimalari alohida e'tiborga molik. Bular akademik olimning 70 bosma toboqqa (1120 sahifaga) yaqin «So'fizm va tasavvuf adabiyoti», «Navoiy va Jomiy» nomli fundamental va hamon o'z qiymatini yo'qotmagan shoh asarlaridir. Shuningdek, I.K.Mirzayev rus va jahon tilshunosligining buyuk namoyandalari – Ferdinand de Sosyur, Boduen de Kurtune, Sh.Balli, J.Layonez, L.Blumfild, R.O.Yakobson, S.O.Karsevskiy, R.I.Buslaeva, L.V.Shcherba, YU.M.Lotman, V.G.Gak kabi o'nlab olimlarning (ularning aksariyati akademiklar) asarlarini mahorat bilan o'zbek tiliga tarjima qildi va qilmoqda. Bu bilan u O'zbekistonda, xususan, Samarqandda birinchi bo'lib, ilmiy tarjima maktabiga asos soldi. Ijod oti jilovini mahkam tutgan olim ilm ahli, adabiyot, she'riyat muxlislariga tilshunoslik, adabiyotshunoslik, she'riyatning, tarjimashunoslikning o'z yechimini kutayotgan muammolarning sirli sandig'i kalitini topib, tuhfa etish yo'lida bardavom. Biz hamkasblar domlanning orzu-umidlari va yaxshi rejalarning ushaliishiga tilakdoshmiz.

A Nurmuxamedov, M.Yo'ldoshev, SamDU dotsentlari,
A. Xasanov, katta o'qituvchi

DOIMO MEHNATDA, IJODDA **(Akademik Hoji-Akbar Rahmonqulovning 90 yilligiga bag'ishlanadi)**

Men O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining akademigi, Respublikada xizmat ko'rsatgan fan arbobi, ustoz, professor Hoji-Akbar Rahmonqulovni 1971-yildan boshlab, hali Toshkent davlat universiteti yuridik fakulteti davlat va huquq tarixi kafedrasida assistent bo'lib ishlab yurgan yillarimdan boshlab tanir edim. Garchi u kishi Grajdanklik va xo'jalik huquqlari bo'yicha yirik olim, taniqli mutaxassis pedagog bo'lsalar, men esa davlat va huquq tarixini tanlagan bo'lsam ham, ustozim O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi Xolida Samatovna Samatova kabi u kishini ham o'z ustozim deb bilaman, qadrlayman va hurmat bilan xotirlab kelaman. U kishini doimo vazmin, shu bilan birga xushchaqchaq, ilm-fan bo'yicha suhbat ustida hamda doimo mehnat va ijodda ko'rganman.

Agar domlanning Samarqand davlat universitetining yuridik fakultetidagi faoliyatlari borasida gapiradigan bo'lsam, ana shu xususiyatlari yaqqol ko'zga tashlanadi. 1980-yilda SamDU yuridik fakultetida ilmiy, o'quv-uslubiy ishlarni jonlantirish maqsadida professor Hoji-Akbar Rahmonqulovich bu yerga ishga taklif qilindi. 1981-yilda esa harakatdagi yagona kafedra bo'lgan sovet huquqi kafedrasidan alohida mustaqil grajdanklik va jinoyat huquqiy fanlari kafedrasini tashkil qilinib uning mudirligiga professor Hoji-Akbar Rahmonqulov saylandilar. Shundan keyin fakultetimizda ushbu kafedraning tashkil topishi va faoliyati, ilmiy, uslubiy ishlarning jonlanishi, to'lasincha, huquqshunos kadrlarni tayyorlashning rivojlanishi domlanning ham nomlari bilan bog'liq bo'lib qoldi.

Jumladan, u kishi kelgunlariga qadar, bu joyda tajribali o'qituvchi, ilmiy xodimlar kamchilik bo'lib, fakultet olimlarining hali birorta ilmiy asarlari, to'plamlari nashr etilmagan edi. Domla kelishlari bilan bu ish jonlanib ketdi. U kishi barcha yoshlarni "boshini qovushtirib" ilmiy ishlarga jalb qilishlari natijasida SamDU yuridik fakulteti o'qituvchilarining birinchi ilmiy maqolalari to'plami ("Вопросы государства и права", Самарканд. Изд-во СамГУ, 1981)¹ nashr etildi. Bundan keyin esa, uni yozish, tahrir qilish, nashr etish muntazam tus oldi. Domla SamDUda ishlab turgan yillarida to'plamlarning o'nga yaqin soni nashr etildi. Bu albatta, kelgusida fakultetdagi ilmiy ishlarning jonlanishi, yosh tadqiqotchi olimlar sonini ko'payishiga, fakultet ilmiy salohiyatini esa oshishiga turtki bo'ldi. Ustoz ilmiy ishlarni tashkil qilish, uni rejalashtirish borasida ham katta tajribaga ega bo'lganliklari, SamDU yuridik fakultetida ilmiy ishlarni uyushtirish va rejalashtirishda ham qo'l keldi. U kishining ishtiroki va bevosita rahbarliklari tufayli uzoq yillarga mo'ljallangan bosh ilmiy mavzular ishlab chiqilib, amalga oshirildi. Jumladan, 1980-85-yillarga mo'ljallangan "Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashning huquqiy muammolari" kompleks mavzusini; 1986-90-yillarga mo'ljallangan "Paxtachilikni boshqarishning tashkiliy-huquqiy shakllarini muammolari" mavzusidagi ikkinchi kompleks tadqiqot ishlarining Bosh mavzularini ishlab chiqib o'zlari rahbarlik qildilar. Ikkala mavzu ham muvaffaqiyatli bajarilib kutilgan natijalar olindi. Ayniqsa, domlanning o'zlari mavzuni bajarilishiga munosib hissa qo'shdilar. Ushbu mavzularning alohida bob va bandlari yosh olimlarimizga nomzodlik ishi qilib berilganligi tufayli dissertasiyalar yoqlandi. Monografiya, maqolalar to'plamlari e'lon qilindi. Shuni alohida ta'kidlashni istardimki, o'sha vaqtlarda ushbu mavzulardagi tadqiqotlar o'ta dolzarb, bajarilishi lozim bo'lgan, kundalik ishlar edi.

Domla bundan tashqari, jamoat ishlarida ham faol qatnashib, SamDU ilmiy kengashining a'zosi, SamDU olimlari ilmiy tadqiqotlar Axborotnomasi tahrir hay'atining a'zosi, ko'pgina yosh olimlarimizning nomzodlik ishlariga ilmiy rahbar sifatida ham mahsuldor faoliyat olib bordilar. Fakultetimizda dars bergan, hozirda o'zlari ham fuqarolik huquqi fanining taniqli namoyondalaridan bo'lib qolgan: T.R.Bekmuratov, E.T.Musayev, I.Yu.Kanlar ustozning Samarqandlik shogirlaridan edi. Endi yana biz o'zimizga qaytsak, oliy o'quv yurti o'qituvchisi bo'lib shakllanishimda hamda kelgusida fan doktori bo'lib yetishishimda bevosita o'z maslahatlari bilan yordam bergan ustozlarning o'rni katta. O'sha vaqtlarda men rahbarlik qilayotgan davlat-huquqiy fanlar kafedrasida domlanning kafedrasida bilan yonma-yon joylashgan bo'lib, tez-tez uchrashib turar edik. Men yaqinda ToshDU yuridik fakultetidan SamDUga ishga o'tkazilgan, yoshroq vaqtlarim bo'lib juda qiziqqon, to'g'ri so'zli, cho'rtkesar, odillikni yaxshi ko'radigan o'qituvchilardan edim. Ko'pincha, qabul komissiyasi atrofida katta bo'lib, unib-o'sgan o'qituvchi – rahbarlar bilan kelisha olmay qolib, ishdan bo'shab ketishga ariza yozib berar edim. Shunda domla meni chaqirardilar: "Arizangizni oling! Arzimagan gapga ishdan bo'shab ketaverasizmi? Sizning xizmatangiz bu fakultetga boshqalarnikidan kam emas!", – deb tanbeh berar edilar. Mana hozirda faqat oliy yuridik ta'lim borasida ishlaganimga 46 yil to'ldi. Ilmiy ishlarimni ham davom ettirishimda sababchi bo'lganlar, desam xato bo'lmas. Bir kuni Hoji-Akbar Rahmonqulovich, G'ulom Ahmedovich Ahmedov² va men bir ilmiy masala borasida fikrlashib turganimizda ustoz shunday dedilar: "Nomzodlik ishini o'zi yozib himoya qila olgan kishidan, albatta fan doktori chiqadi. Siz harakat qilsangiz, Sizdan fan doktori chiqadi", - dedilar. Bu so'zlarni G'ulom Ahmedovich ham tasdiqladilar. Shu bo'ldi, men ilmiy tadqiqot ishlarimga yanada qiziqib, yuqoridagi so'zlardan ilhomlanib sho'ng'ib ketdim. U kishi Samarqanddan Toshkentga ishga o'tib ketganlarida ham vaqti-vaqti bilan uchrashib ko'rishib turar edim.

Ustoz inson sifatida to'g'ri so'z, mehnatsevar, halol, oqil, chuqur bilimga ega bo'lgan, fikrlash qobiliyati keng, mulohazali bo'lib hech qachon hamkasblari to'g'risida nohaq, yolg'on-yashiq gaplarni gapirmas edilar. Ushbu so'zlarimdan ham o'tib shuni ta'kidlashni istardimki, Ustoz Ikkinchi jahon urushi frontlarida jang qilib yarador bo'lgan bo'lishlariga qaramasdan, o'zini o'zbek xalqi qahramonlaridek bahodirlarcha tuta biladigan, kelbatli, barvasta kishi edilar.

Men mehnat faoliyatimning ma'lum bir bo'lagida, shunday inson bilan yonma-yon ishlaganimdan faxrlanaman hamda hurmat bilan xotirlayman.

Z.Muqimov, yuridik fanlari doktori, professor.

¹ "Davlat va huquq masalalari". U vaqtlarda aksariyat ilmiy to'plamlar rus tilida yozilib, nashr etilar edi.

² Ahmedov G'ulom Ahmedovich. Respublikamizning taniqli huquqshunos olimlaridan biri. Ustozning do'sti, Respublikada xizmat ko'rsatgan Fan arbobi, Jinoyat huquqi professori.

MUALLIFLAR DIQQATIGA!

Hurmatli mualliflar, maqola muallif tomonidan qog'ozda chop etilgan va elektron shaklida taqdim qilinishi shart. **Maqolada quyidagi bandlar:** UDK, ishning nomi (o'zbek, rus va ingliz tillarida), maqola hammualliflarining ro'yxati (to'liq familiya, ismi, otasining ismi – o'zbek, rus va ingliz tillarida), muallif haqida ma'lumotlar: ish joyi, lavozimi, pochta va elektron pochta manzili; maqola annotatsiyasi (300 belgigacha, o'zbek, rus va ingliz tillarida), kalit so'zlar (5-7, o'zbek, rus va ingliz tillarida) bo'lishi lozim.

MAQOLALARGA QO'YILADIGAN TALABLAR!

Maqolalarning nashr etilishi uchun shartlar nashr etilishi mo'ljallangan maqolalar dolzarb mavzuga bag'ishlangan, ilmiy yangilikka ega, muammoning qo'yilishi, muallif tomonidan olingan asosiy ilmiy natijalar, xulosalar kabi bandlardan iborat bo'lishi lozim; ilmiy maqolaning mavzusi informativ bo'lib, mumkin qadar qisqa so'zlar bilan ifodalangan bo'lishi kerak va unda umumiy qabul qilingan qisqartirishlardan foydalanish mumkin; "Ilmiy axborotnoma" jurnali mustaqil (ichki) taqrizlashni amalga oshiradi.

**MAQOLALARNI YOZISH VA RASMIYLASHTIRISHDA
QUYIDAGI QOIDALARGA RIOYA QILISH LOZIM:**

Maqolalarning tarkibiy qismlariga: kirish (qisqacha), tadqiqot maqsadi, tadqiqotning usuli va obyekti, tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi, xulosalar yoki xotima, bibliografik ro'yxat. Maqola kompyuterda Microsoft Office Word dasturida yagona fayl ko'rinishida terilgan bo'lishi zarur. Maqolaning hajmi jadvallar, sxemalar, rasmlar va adabiyotlar ro'yxati bilan birgalikda doktorantlar uchun 0,25 b.t. dan kam bo'lmasligi kerak. Sahifaning yuqori va pastki tomonidan, chap va o'ng tomonlaridan - 2,5 sm; oriyentatsiyasi - kitob shaklida. Shrift - Times New Roman, o'lchami - 12 kegl, qatorlar orasi intervali - 1,0; bo'g'in ko'chirish - avtomatik. Grafiklar va diagrammalar qurishda Microsoft Office Excel dasturidan foydalanish lozim. Matndagi bibliografik havolalar (ssilka) kvadrat qavsda ro'yxatda keltirilgan tartibda qayd qilish lozim. Maqolada foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati keltirilishi lozim. Bibliografik ro'yxat alfavit tartibida - GOST R 7.0.5 2008 talablariga mos tuziladi.

- Ikki oyda bir marta chiqadi.
- "Samarqand davlat universiteti ilmiy axborotnomasi"dan ko'chirib bosish faqat tahririyatning yozma roziligi bilan amalga oshiriladi.
- Mualliflar maqolalardagi fakt va raqamlarning haqqoniyligiga shaxsan mas'ul.

MAQOLAGA QUYIDAGILAR ILOVA QILINADI:

- Yo'llanma xati;
- Ekspert xulosasi.

E- mail: axborotnoma@samdu.uz

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

SCIENTIFIC REPORTS

Mas'ul kotib
Musahhih
Texnik muharrir
Dizayner sahifalovchilar:

R. Sh. Toshquvatova, fals.f.n., dotsent
M.M. Ro'ziboyev
S. D. Aronbayev
X. Sh. Tashpulatov
A. I. Inatov

Muassis: Samarqand davlat universiteti
Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.
Telefon: (0 366) 239-14-07, Faks: (0 366) 239-13-87
e-mail: axborotnoma@samdu.uz

SamDU «Ilmiy axborotnoma» jurnali tahririyati kompyuterida terildi.
Bosishga 30.12.2016-yilda ruxsat etildi. Qog'oz o'lchami A-4. Nashriyot hisob tabog'i 10,00.
Buyurtma raqami 77. Adadi 500 nusxa.

Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.
SamDU bosmaxonasida chop etildi.